

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**XORAZM VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

**“ MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM ”
KAFEDRASI**

MT-137 MTM tarbiyachilari kursi mutaxassislik fanlari uchun

O‘quv-uslubiy majmua

Urganch - 2015

Tuzuvchi: M.Axmedova - “ Maktabgacha,
boshlang‘ich va maxsus ta’lim ” katta
o‘qituvchisi

Taqrizchi: N.Maxmudova - Pedagogika fanlari
nomzodi, dotsent

**Ushbu o‘quv-uslubiy majmua kafedraning (yanvar 2015 yil №1-bayonnoma) yig‘ilishida
muhokama qilindi.**

KIRISH
1. FANNI O'QITISHNING MAQSAD
VA VAZIFALARI.

Maqsad:

MTM tarbiyachilarini maktabgacha ta'lim sohasidagi yangiliklar va o'zgarishlar bilan qurollantirish. "Maktabgacha ta'lim" uzluksiz ta'limning boshlang'ich pog'onasi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlashdan iborat bo'lgan asosiy vazifani tarbiyachi amalga oshiradi. Shunday ekan tarbiyachilarni sohaning eng so'nggi yutuqlaridan xabardor qilish.

Vazifalar:

- yangi tahrirdagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar: "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi", "Maktabgacha ta'limiga qo'yiladigan davlat talablari", "Bolajon" dasturlarining mazmun-mohiyati, ularni amaliyotga tatbiq qilish yo'l-yo'riqlari bilan tanishtirish;
- ta'lim- tarbiyaviy jarayonni rejalashtirishdagi o'zgarishlar bo'yicha tushuncha hosil qilish;
- bolalarning o'zlashtirish darajalarini diagnostik tahlil qilishni o'rgatish;
- mashg'ulotlarda bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limga amaliy yondashishga mashq qildirish;
- mashg'ulotlarda bolalarning erkin harakat qilish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tiborini kuchaytirish;

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini malaka oshirish kursi bo'yicha takomillashtirilgan davlat talablari.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TARBIYACHILARINI MALAKA
OSHIRISH KURSI BO'YICHA
TAKOMILLASHTIRILGAN DAVLAT TALABLARI.

Tinglovchilar quyidagi bilimga ega bo'lishi lozim:

- «Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari» va uni amaliyotga joriy etish texnologiyalari; (O'MR 3.1. 1, O'D 3.1. 1.)
- "Bolajon" tayanch dasturi va uni amaliyotga tatbiq etish; (O'MR 3.1.2., O'D 3.1. 2.)
- Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish; (O'MR 3.1. 2, O'D 3.1. 2.)
- Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachining ish hujjatlari va ularning yuritilishi (O'MR 3.1. 3, O'D 3.1. 3.)
- "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablarining jismoniy rivojlanish va o'z- o'ziga xizmat, gigiyena yo'nalishi; (O'MR 3.1.4, O'D 3.1.4.)
- Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining ijtimoiy hissiy rivojlanishi yo'nalishi; (O'MR 3.1.5, O'D 3.1. 5.)
- Maktabgacha ta'lim muassasasida mashg'ulotlarda interfaol usullarni qo'llay olish; (O'MR 3.1. 7, O'D 3.1. 7.), (O'MR 3.1. 8, O'D 3.1. 8.), (O'MR 3.1.10, O'D 3.1.10.)
- Maktabgacha yoshdagi bolalarda "Men" konsepsiyasini rivojlanishida turli o'yinlardan foydalanish; (O'MR 3.1. 11, O'D 3.1. 11.)

Quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarda "Men" konsepsiyasini rivojlanishida turli o'yinlardan foydalana oladi; (O'MR 3.1. 11, O'D 3.1. 11.)
- Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha tayyorlashda oilaning ishtirokini ta'minlay oladi; (O'MR 3.1.12, O'D 3.1.12.)

Quyidagi malakaga ega bo'ladi:

- Maktabgacha ta'lim muassasalarida kompyuterli ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalana oladi; (O`MR 3.2.2., O`D 3.2. 2.)
 - Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg`ulotlarni tashkil etishda kopyuter dasturlaridan foydalana oladi; (O`MR 3.2. 3, O`D 3.2. 3.)
 - Maktabgacha yoshdagi bolalarning mayda qo`l motorikasini rivojlantirishda M.Montessori metodikasini qo`llay oladi;(O`MR 3.2.3, O`D 3.2.3)
 - Maktabgacha ta'lim muassasalarida salomatlik va "Hayot xavfsizligi asoslari" dasturini hayotga tatbiq eta oladilar;(O`MR 3.5.2, O`D 3.5.2).
 - Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachining ish hujjatlari yurita oladi. (O`MR 3.1. 3, O`D 3.1. 3.)
- Introduction (Tanishuv) mavzusida so`zlay oladi (O`MR 3.5.1, O`D 3.5.1)
- My Educational Institution (Mening ta'lim muassasam) mavzusida so`zlay oladi (O`MR 3.5.3, O`D 3.5.3)
- About Professions. (Kasb va mutaxassislik haqida) mavzusida so`zlay oladi (O`MR 3.5.1, O`D 3.5.1)
- My daily routine. (Mening kundalik hayotim) mavzusida so`zlay oladi (O`MR 3.5.4, O`D 3.5.4)

3. FANNI O`QITISHDA FANLARARO

ALOQADORLIK

MTM tarbiyachilari kursida mutaxassislik bo'yicha dars o'tishda psixologiya, pedagogika, anatomiya, fiziologiya, informatika, matematika fanlari bilan aloqadorlik jihatlari mavjud. Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni to'g'ri tashkil qilishda insonning psixikasini bilgan holda yondashishni talab qiladi. Xalq pedagogikasi, hamkorlik pedagogikasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim pedagogikasi mutaxassislik bo'yicha berilgan mavzular bilan uzviy bog'lanadi. Mashg'ulotlarda kompyuterdan, video tasmlardan, multimediyalardan foydalanish zarurligini ko'rsatish va tushuntirish axborot texnologiyasi bilan bog'liqligini bildiradi. Bolalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash, diagnostik tahlil qilishga o'rgatishda matematika fani bilan bog'lanadi. Ma'ruzalar maktabgacha ta'lim sohasidagi ilmiy izlanishlar, tajriba-sinov ishlari olib borilayotgan muassasalar, ilg'or tarbiyachilar faoliyati bilan bog'lanadi.

4. FANNING O`QITISH TEXNOLOGIYALARI

Mavzularni o'tish jarayonida axborot va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi. Proyektor yordamida slaydlar namoyish qilinadi. Guruh xonasida faollik markazlarini tashkil qilish, savodga o'rgatish mashg'ulotlarida foydalanadigan multimediyalar ko'rsatiladi. Dars jarayonida tinglovchilar bilan yakka, juftlikda, kichik guruhlarda ishlash tashkil qilinadi. Mavzularga tegishli ko'rkazma va tarqatma materiallarning yetarligi ta'minlanadi. Interfaol metodlarning "Aqliy hujum", "Kichik ma'ruza", "Kichik guruhlarda ishlash", "Rolli o'yin", "Arjurli arra", "Klaster", "Galereyaga sayohat" ko'rinishlaridan dars jarayonida foydalaniladi. Dars jarayonida berilgan bilim, tushunchalar tayanch MTM larda mashg'ulot kuzatish orqali mustahkamlanadi.

Mutaxassislik fanlaridan
ma'ruzalar mazmuni

№	Mavzu	Ma'ruza	Adabiyotlar	Dars jihozi
3.1.	Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachi xizmatini tashkil etish	14		
3.1.1	Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari va uni amaliyotga joriy etish texnologiyalari. Maktabgacha yoshdagi bolalalarga beriladigan ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari ta'lim-tarbiya mazmunining asosiy to'rt yo'nalishlari. Jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmatva gigiyena, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik, aqliy rivojlanish. Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarini amaliyotga joriy etish yo'l-yo'riqlari, usullari.	2	[4]	Proyektor, flipchart qog'oz, marker, tarqatma
3.1.2	“Bolajon” tayanch va qisqa muddatli guruhlar uchun “Bilimdon” dasturlari, ularni amaliyotda qo'llash. “Bolajon” tayanch dasturining maqsadi, vazifasi, tamoyillari. Dasturning tuzilmasi: kirish, kirishdan so'ng har bir yosh bo'yicha: • Bolalarning rivojlanish xususiyatlari • Jismoniy rivojlanish • Mashg'ulotlar jadvali (haftalik, oylik, 1-yarim, 2-yarim yillik va jami) • Ijtimoiy-hissiy rivojlanish • Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik • Bilish jarayoni: atrof olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va uni anglash yo'nalishlari yoritilgan. • Foydalanilgan adabiyotlar (139-140 betlarda) • Mashg'ulotlar mavzuli-taqvim rejasi yoshlar bo'yicha berilgan. (Ilk yosh guruh (2-3 yosh), Kichik guruh (3-4 yosh), O'rta guruh (4-5 yosh), Katta guruh (5-6 yosh), Maktabga tayyorlov guruh (6-7 yosh)). “Bolajon” tayanch dasturining yo'nalishlarini yoritib berish.	2	[5] [31]	Flipchart qog'oz, marker, tarqatma.
3.1.3	Tarbiyachining ish hujjatlari. Maktabgacha ta'lim muassasalarda ta'lim- tarbiya jarayonini rejalashtirish bo'yicha metodik ko'rsatmalar: tarbiyachilarning ish hujjatlari va ularning yuritilishi, har bir yosh	2	[4] [5] [19]	Proyektor, marker, tarqatma, flipchart qog'oz

	guruhida hafta davomida o`tkaziladigan mashg`ulotlar soni va har bir mashg`ulot qancha davom etishi, bir kunlik kundalik faoliyatning yoritilishi, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish ko`rsatkichlarini tahlil qilish uchun mezonlar, bolalarning rivojlanish ko`rsatkichlarini tahlil qilish usullarini yoritib berish. Qisqa muddatli guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirishda – istiqbol reja bolalar bilan ishlashda asosiy hujjat hisoblanib, u bolalar faoliyatining barcha turlarini va ularga xos kundalik ish shakllarini rejalashtirishni talab etishi, mazkur hujjatsiz tarbiyachining ish boshlashi tavsiya etilmasligi, istiqbolli mavzu rejasi bir oyga tuzilib, quyidagi bo`limlarni o`z ichiga olishi; 1. Mashg`ulot paytida ta'lim berish.</li> <li>2. Bolalar bilan individual ish(mashg`ulotlardan keyin) 3. Ota-onalar bilan ishlash. Rejada guruh bolalarining ro`yxati; adabiyotlar ro`yxati, ish kuni davomida bolalar faoliyatini tashkil etish bo`yicha mashg`ulotlar jadvali bo`lishi.			
3.1.4	Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi, o`z-o`ziga xizmat va gigiyena yo`nalishi.</b></p> <p>Jismoniy tarbiyaning vazifalari: salomatlikni mustahkamlash va chiniqtirish, jismoniy jihatdan baquvvatlashtirish, shaxsning axloqiy tomondan ijobiy sifatlarini tarbiyalash, bolalardagi maqsadga to`g`ri yo`naltirilgan harakatlarni faollashtirish uchun sharoit yaratish, harakatning muhim hayotiy turlarini shakllantirish: yurish, yugurish, sakrash, emaklash va o`rmlash, otish, ilib olish; suzish, velosipedda uchish. Oyoq, qo`l, tana, bosh harakatlarini rivojlantirish; saflanish va qayta saflanish. Eng asosiy va hayotiy zarur harakatlar: piyoda yurish, yugurish, sakrash, osilish, tortilish, uloqtirish, muvozanat saqlash va shu kabilar bolaning har tamonlama rivojlanishida asosiy manba hisoblanadi. Yurish va yugurishlar, harakat turlari, harakatli mashqlar, muvozanat saqlash uchun mashqlar,	2	[19] [8] [4] [5] [15] [29]	Proyektor, flipchart qog`oz, marker, tarqatma

	yassioyoqlikning oldini olish va tavonning to'g'ri shakllanishiga mo'ljallangan mashqlar, umurtqa va bel qismiga belgilangan mashqlar.			
3.1.5	Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi yo'nalishi Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi. Kattalar bilan muloqot. Tengdoshlari bilan muloqot. Hissiy rivojlanish: "Men" konsepsiyasi yoki o'z-o'zini anglash tushunchasi. Hissiy ifodalash. Kattalarga va tengdoshlariga nisbatan o'zaro hurmat bilan qarash. Saxiylik, yaxshilik va rahmdillik ko'rsatish, o'z kayfiyati va boshqalarning kayfiyatini tushunish. Kattalar va tengdoshlariga samimiy munosabat bildirish tushunchalari to'g'risida.	2	[4] [5]	Proyektor, flipchart qog'oz, marker, tarqatma
3.1.6	Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq, o'qish va savodga tayyorgarligi yo'nalishi. <u>1-§. Nutq</u> <u>2-§. O'qish va savod malakalarini egallash</u> Quyidagilar 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining talablari nutqni tinglash va tushunish; so'zlashish va muloqot yuritishga qodir bo'lish; nutq-tovush madaniyatini shakllantirish; oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirish; so'z boyligini faollashtirish; nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish; bog'lanishli nutqni shakllantirish; ijodiy hikoya qilishni shakllantirish. 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda o'qish va savod malakalari rivojlanishining talablari haqida tushuncha berish.	2	[4] [5] [13] [19]	Flipchart qog'oz, marker, tarqatma

3.1.7	Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayoni, atrof-olam haqida tasavvurga ega bo'lish yo'nalishi. <u>1-§. Elementar matematik ko'nikmalar va bilimlarni rivojlantirish</u> <u>2-§. Atrof muhitni o'rganish va anglash</u> <u>3-§. Ijod</u> Bilish quyidagilarni o'z ichiga oladi: bolalar faoliyatining turli ko'rinishlarini rivojlantirish uchun amaliy bilimlarni to'plash va umumlashtirish; tajribalar o'tkazish, modellashtirish, oddiy qidiruv faoliyati bilan shug'ullanish; tabiatni sevish va uni asrab-avaylash faoliyatining ba'zi metodlariga ega bo'lish; o'zaro taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilish xususiyatlari;	2	[4] [12] [5] [17] [19]	Flipchart qog'oz, marker, tarqatma
3.2.	Maktabgacha ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish.	2		
3.2.1	Maktabgacha ta'lim tizimida axborot kommunikatsion texnikalarining maqsad va vazifalari Yurtboshimiz ta'kidlaganidek "Ta'lim sohasida axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirish bugungi kunning taraqqiyot darajasini belgilab beradi. Bunday ilg'or tajribalarni nafaqat maktab, litsey va kollej, oliy o'quv yurtlari, balki har bir oila hayotiga kirib borishi uchun zamin yaratishning ahamiyatini chuqur anglab lozim". Ushbu jarayonni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda axborot kommunikatsion texnikalaridan foydalanish, bolalarning o'zlashtirish darajalari hamda ko'nikmalarining rivojlanishida yuqori samara berishi yangi pedagogik texnologiyalar tomonidan isbotlangan. Bugungi kunda aksariyat maktabgacha ta'lim muassalaridan televizor, radio, musiqa markazlari, DVD pleyrlar, VCD pleyrlar kabi ko'plab AKT vositalari kompyuter texnikalaridan foydalanib kelinmoqda. Ularning	2	[34] [35]	Proyektor, notbok www. uzedu.uz www. ta'lim.uz

	samarali tomoni shundaki bolalar har bir mashg'ulotni ham ko'rib, ham eshitib, o'zlari mustaqil va gurux-gurux bo'lib o'zlashtirishmoqdalar.			
3.3	Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalar	4		
3.3.1	Pedagogik texnologiya tushunchasi, uning ta'riflari va metodikadan farqi. Pedagogik texnologiya tushunchasining kelib chiqishi, uning sabablari, unga bo'lgan ehtiyojlar, uning keng ko'lamli, serqirra tushuncha ekanligi. Pedagogik texnologiyaning turli ta'riflari, xar bir ta'rif ma'lum nuqtai-nazardan yondashishni ifodalashi. Ayrim asosiy ta'riflar va ularning sharxlari.	2	[22] [23] [24] [25]	Proyektor, notbok uzedu.uz www. ta'lim.uz
3.3.2	Interfaol ta'lim uning shakllari, ulardan mashg'ulotlarda foydalanish. Interfaol ta'lim, uning shakllari. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. Interfaol uslublarning afzalliklari. Treningning tanishuv bosqichida qo'llaniladigan metodlar. "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Rolli o'yin" metodlari haqida tushuncha. Mashg'ulotlarda "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Rolli o'yin", "Klaster", "Galereyaga sayohat" metodlarini mashg'ulot mazmuniga muvofiq tanlash. Mazkur metodlardan foydalangan holda mashg'ulot matnlarini yaratishni mashq qilish.	2	[22] [23] [24] [25]	Tarqatma, rangli qog'oz, marker, flipchart qog'oz.
	Jami:	20		

Mutaxassislik fanlaridan amaliy mashg'ulotlar mazmuni

3.1.	Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachi xizmatini tashkil etish	30		
№	Mavzu	Amaliy	Adabiyotlar	Dars jihozi
3.1.1	Davlat talablarida rivojlanish ko'rsatkichlarining yoshiga qarab murakkablashuvi. Bolalarning egallashi lozim bo'lgan o'lchovlarning yoshiga qarab murakkablashuvi. DT da 4 ta: jismoniy, ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik, bilish jarayonlari yo'nalishlari bo'yicha 2-3, 3-5, 5-7 yoshli davrlarda me'yorlarning oddiydan murakkabga tomon o'sishi .	2	[4]	tarqatma, flipchart qog'oz, skotch, marker

3.1.2	“Bilimdon” dasturining mazmun-mohiyati Bolalarni maktabga tayyorlash uchun mo‘ljallangan qisqa muddatli guruhlarda o‘qitish “Bilimdon” dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” hamda “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgani, ushbu dasturbolani to‘laqonli tarbiyalash, o‘qitish va rivojlantirishni, uni maktab ta’limiga samarali tayyorlashni nazarda tutishi. Dasturning negizini bola shaxsini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlariga oid Davlat talablari(2013y) tashkil etishi (Jismoniy rivojlanish, o‘z-o‘ziga xizmat va gigiyena; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, o‘qish va savodga tayyorlash; bilish jarayoni va atrof muhit to‘g‘risidagi	2	[5] [31]	rangli qog‘oz, tarqatma
3.1.3	Maktabgacha ta’lim muassasalarida va qisqa muddatli guruhlarda ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish Kundalik reja 1-2 haftaga mo‘ljallab tuzilishi, u reja – konspekt shaklida yozilib, unda butun ish kuni faoliyat batafsil yoritilishi: ertalab (bolalar bilan individual ishlash, madaniy-gigiyenik va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ish, didaktik o‘yinlar o‘tkazish va boshqalar), mashg‘ulotlar davomida(uning turi, mavzusi, maqsadi, kerakli jihozi, mashg‘ulotning borishi), sayr paytida (kuzatish, mehnat, harakatli o‘yinlar, o‘yin faoliyati, yakka ishlash, bolalarning uyga ketishi) ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish tartibi haqida tushuncha berish	2	[4] [5] [19] [31]	Tarqatma, plakat, marker.
3.1.4	Bolalarning ta’lim samaradorligi va rivojlanishini kuzatish hamda baholash Boshlang‘ich diagnostikani amalga oshirish pedagogga qisqa muddatli guruhga qabul qilinayotgan bolaning individual xususiyatlari va qobiliyatlarini aniqlash, ta’limga yakka yondashish strategiyasini ishlab chiqishga yordam berishi, bunday diagnostika ota-onalar bilan individual suhbat va birinchi hafta davomida bolani	2	[4] [5] [19] [31]	Proyektor, marker, tarqatma, flipchart qog‘oz

	kuzatish asosida amalga oshirilishi, otalarni xabardor qilish va hamkorlikka jalb qilish haqida tushuncha berish. Bola tomonidan erishilgan bilim va ko'nikmalarning Davlat talablariga mosligi diagnostikasi haqida tushuncha berish: bola rivojlanishini xaqiqiy baholash, ta'limni rejalashtirish va pedagogning ta'limni amalga oshirishga tayyorlanishi uchun ma'lumot olish imkoniyatini berishi, ta'lim jarayonida diagnostika ikki marta amalga oshirilishi: dekabr va may oyining oxirgi haftasida. Bolalar rivojlanishining to'rt asosiy sohasi bo'yicha kuzatish va baholash jarayoni amalga oshirilishi haqida tushuncha berish.			
3.1.5	Jismoniy tarbiya mashg'uloti matnini yozish. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilish va mashg'ulot matnini yozishni mashq qilish.	2	[19] [8] [4] [5] [15] [29]	Tarqatma , flipchart qog'oz, marker
3.1.6	Bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish “Bolajon” dasturida ijtimoiy –hissiy rivojlanish asosiy yo'nalishlardan biri ekanligi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqotchanlikka o'rgatish, kirishimli qilib tarbiyalash muhim vazifa ekanligi. Yosh guruhlarida ko'rsatilgan dastur vazifalarini tahlil qilish. Kun tartibining barcha qismlarida, mashg'ulotlar jarayonida bolalarni o'zaro bir-birlari va kattalar bilan muloqot qilishga o'rgatish.	2	[4] [5]	Tarqatma
3.1.7	Nutq o'stirish, o'qish va savodga tayyorlashda foydalanadigan o'yinlar. Bolalarning tovush talaffuzi, lug'at boyligi, grammatik jihatdan to'g'ri gapirishga, so'z hosil qilishga qaratilgan o'yinlarni mashg'ulot jarayonida qo'llashni mashq qilish	2	[4] [5] [13] [19]	Tarqatma
3.1.8	Matematika, atrof-olam, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari matnini yozish. Matematika, atrof-olam, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida interfaol metodlardan, ta'limiy o'yinlardan foydalanish. O'z guruhiga mos ravishda mashg'ulot matnini yaratish.	2	[4] [12] [5] [17] [19]	Tarqatma, A-4 format qog'oz

3.1.9	Bolaga yo`naltirilgan ta`limda bola portfoliosini yaratish Bolalar portfoliosi nima ekanligi:portfolio-bu yutuq, imkoniyat va muvaffaqiyatlarni namoyish etishga mo`ljallangan ishlar to`plami ekanligi haqida ma`lumot berish, portfolioning bola rivojida ahamiyati haqida, portfolioga baho berish, mezonlari haqida tushuncha berish.	2	[4] [5] [22] [23]	Tarqatma, A-4 format qog`oz
3.1.10	Maktabgacha ta`lim muassasalarida tasviriy faoliyat orqali bolalarni ijodkorlikka o`rgatish. Maktabgacha ta`lim muassasasidagi mehnat tarbiyasining zamon talablari asosida olib borish. Qog`oz, o`simlik barglari va urug`laridan applikatsiya. Somondan applikatsiya yaratish. Maktabgacha ta`lim muassasasida «bolalar ijodi» to`garagini tashkil etish va o`tkazish usullari.	2	[4] [5] [26] [29]	Somon,rangli qog`ozlar, klestr, karton
3.1.11	Bolaga yo`naltirilgan ta`limda oilaning ishtiroki Bolalarni maktabga tayyorlashda oilaning ahamiyati. Bola tarbiyasida ota-onalar ishtiroki. Ota-onalar va MTM bilan hamkorlik ishlarini o`ziga xosligi.	2	[4] [5] [22] [25]	Tarqatma
3.1.12	Maktabgacha yoshdagi bolalarda odob-axloq ko`nikmalarini rivojlantirish</b></p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma`naviy tarbiya berish. Bolalarga ma`naviy tarbiya berish usullari. Bolalarga ma`naviy tarbiya berish usul va vositalari. Bolalarga ma`naviy tarbiya berish usullari, vositalari, turli guruhlarda odobnoma bo`yicha olib boriladigan suhbatlar mavzularining mazmun-mohiyatini haqida tushuncha berish.	2	[32] [33]	Tarqatma
3.1.13	Bolaga yo`naltirilgan ta`limda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati Bola shaxsini rivojlantirishga yo`naltirilgan o`quv muhiti ta`lim-tarbiya jarayonida bolaning yoshi, psixologik,	2	[4] [5] [22] [23] [25]	tarqatma

	fiziologik xususiyatlarini to'liq hisobga olgan holda eng qulay shart-sharoitlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Guruhdagi barcha materiallar va jihozlar sohalar bo'yicha tartibga solinishi lozim. Bu bolalar o'yinlari va ishlarining yanada qulay uyushtirilishiga yordam beradi. Bu sohalar o'yin markazlari deb nomlanadi. Faollik markazlari qanday jihozlanishi haqida tushuncha berish. Bolaga yo'naltirilgan muhitning talablari.			
3.1.14	MTM da ta'lim-tarbiya jarayonini va guruh xonasidagi rivojlantiruvchi muhitni kuzatish va tahlil qilish.(Ko'chma mashg'ulot). MTM da mashg'ulotlarni ilmiy, amaliy , metodik jihatdan kuzatish va tahlil qilish. Tahlil daftarni yuritish.Mashg'ulotda ko'rkazma va tarqatma materiallardan , vaqtdan unumli foydalanishini qayd qilish.Guruh xonasidagi faollik markazlarining jihozlanishini kuzatish.	4	[4] [5]	
3.2	Maktabgacha ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish	8		
3.2.1	Maktabgacha ta'lim tizimida axborot kommunikatsion texnikalarining maqsad va vazifalari Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda axborot kommunikatsion texnikalarida foydalanish, bolalarning o'zlashtirish darajalari hamda ko'nikmalarining rivojlanishida yuqori samara berishi yangi pedagogik texnologiyalar tomonidan isbotlangan. Bugungi kunda aksariyat maktabgacha ta'lim muassalaridan televizor, radio, musiqa markazlari, DVD pleyrlar, VCD pleyrlar kabi ko'plab AKT vositalari kompyuter texnikalaridan foydalanib kelinmoqda. Ularning samarali tomoni shundaki bolalar har bir mashg'ulotni ham ko'rib, ham eshitib, o'zlari mustaqil va gurux-gurux bo'lib o'zlashtirishmoqdalar.	2	[34] [35]	Tarqatma
3.2.2	Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni modellashtirish, kompyuter dasturlari.	4	[34] [35]	Kompyuter Multimediya

	Mashg'ulotlar rejasini shakllantirish. Mashg'ulotga mos ko'rgazmali va kerakli materiallar to'plash. Materiallarni chuqur tahlil qilib saralash ishlarini puxta tayyorlash. Materiallar asosida mashg'ulotning ssenariysini ishlab chiqish.			
3.2.3	Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda kompyuter dasturlaridan foydalanish Microsoft Office, Pain, Corel DRAW, Adobe Photoshop, Macromedia Flash dasturlarining vazifalari. Matnlarga ishlov berish, ranglar bilan ishlash. Matnlarni turli holatlarda joylashtirish. Grafika haqida tushuncha. Sahifa parametrlarini sozlash. Grafiklarni yaratishda kompyuter dasturlarini tanlash. Dasturlarda oddiy grafiklar yasash. Animatsiya haqida tushuncha. Animatsiyalarni yaratishda kompyuter dasturlarini tanlash. Oddiy animatsiyalar yaratish.	2	[34] [35]	Kompyuter Multimediya
3.3	Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalar	8		
3.3.1	Interfaol metodlarning turlaridan mashg'ulotlarda foydalanish. "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Rolli o'yin" metodlari haqida tushuncha. Mashg'ulotlarda "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Rolli o'yin", "Klaster", "Galereyaga sayohat" metodlarini mashg'ulot mazmuniga muvofiq tanlash. Mazkur metodlardan foydalangan holda mashg'ulot matnlarini yaratishni mashq qilish.	2	[4] [5] [17] [22]	Flipchart qog'oz, marker, tarqatma
3.3.2	Maktabgacha yoshdagi bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirishda M. Montessoriy metodikasidan foydalanish Bolalarning qo'l va barmoq muskullarini rivojlantirish. M. Montessoriy pedagogikasi asosida o'yinlar yaratish, ko'rgazma, tarqatma materiallar tayyorlash. Bolalarni mustaqil fikrlashga, erkin harakat qilishga qaratilgan ta'limiy o'yinlardan, topshiriqlardan mashg'ulotlarda foydalanish. O'yin materiallarini tayyorlashni mashq qilish.	2	[4] [5] [25]	Karto'n, rangli qog'ozlar, qaychi

3.3.3	Bolaga yo`naltirilgan ta`lim. Interfaol strategiyalar. Interfaol» tushunchasi (inglizcha «interact» so`zidan olingan, «inter» – “o`zaro”, «birgalikda», «act» – «harakat qilish») Interfaol metodlar - bu bolalar orasida, hamda, bolalar va tarbiyachi o`rtasida o`zaro harakatni talab qiluvchi metodlar. Interfaol metodlarning 4 asosiy turi ajratiladi: kognitiv, eksperimental, rolli, fasilitatsiya. 1.Kognitiv metodlar (cognito - lotincha so`z, „bilim, bilish” ma`nosini anglatadi) – eng avvalo, kishilarning jamoa tafakkurini shakllantirishga yo`naltirilgan, u yoki bu shaklda jamoa muhokamasini tashkil etish bilan bog`liq metodlar. 2.Eksperimental metodlar kishilarning „jonli”, shaxsiy tajriba orttirishiga yo`naltirilgan («hozir va shu yerda»).</p> <p>3.Rolli o`yinlar, ishchanlik o`yinlari, modellashtirish hayotiy vaziyatlarni modellashtirish hamda ma`lum rollarni ijro etish orqali ularni sinab ko`rishga yo`naltirilgan. Bu metodlar jamoa tafakkuri, muhokama bilan bog`liq, ammo muhokama rolli o`yin tahlili asosida olib boriladi. 4.Fasilitatsiya (amaliyot orqali o`qitish, bevosita faoliyat) - guruh ishini tashkil etish, ko`pincha aniq, real, amaliy topshiriqlar bilan bog`liq: aniq qaror qabul qilish bo`yicha muhokama, faoliyatning real rejasini ishlab chiqish, real, mojaroli manfaatlarni muvofiqlashtirish.	4	[4] [5] [22] [23] [25]	Proyektor, flipchart qog`oz, marker, tarqatma
3.4	Ingliz tili asoslari	8		
3.4.1	Introduction (Tanishuv). Salomlashish va xayrlashish odoblari.O`zini tanishtirish va o`zi haqida ma`lumot bera olish. O`zgalarga savol bera olish, biror bir narsani suray olish, iltimos kilish, rad javobini berish. Oila haqida kiskacha ma`lumot. Oila a`zolari, ularning yoshi va kasbi haqida ma`lumot bera olish va tanishtira olish. O`zbekiston haqida kiskacha ma`lumot.O`zbekistonda ta`lim tizimi. Ta`limga oid so`zlar, so`z birikma va atamalar. Grammatika: “to be”, “to have” fe`llarining yasaliishi va ishlatilishi, Kishilik va egalik	2		Proyektor, flipchart qog`oz, marker, tarqatma

	olmoshlari. Son. Sanoq va tartib sonlarning yasalishi			
3.4.2	My Educational Institution (Mening ta'lim muassasam) Ta'lim muassasasi haqida ma'lumot, ta'lim muassasasi tarixi va kelajagi, ta'lim muassasasidagi mavjud predmet va jixozlarga oid so'z va iboralar. O'z ish joyi va lavozim majburiyatlari haqida ma'lumot bera olish. Grammatika: Sifat. Sifat darajalari.	2		Proyektor, flipchart qog'oz, marker, tarqatma
3.4.3	About Professions. (Kasb va mutaxassislik haqida) Kasb-hunar va mutaxassislikka oid so'z va iboralar bilan tanishtirish. Inson xarakterini ifodalovchi so'z va iboralar. Mening kizikishim (xobbi) mavzusida, shuningdek, turli mavzularda suhbatlashish. Grammatika: So'roq gapning turlari. Ravish.	2		Proyektor, flipchart qog'oz, marker, tarqatma
3.4.4	My daily routine. (Mening kundalik hayotim). Kundalik xayotda ishlatiladigan so'z va iboralar bilan tanishtirish. Kun tartibi, shuningdek, turli mavzularda suhbatlashish. Maxsus kurs yakuni bo'yicha sinov (og'zaki) o'tkazish. Grammatika: Fe'l zamonlari.(Present, Past Simple and Continuous Tenses)	2		Proyektor, flipchart qog'oz, marker, tarqatma
3.5	Tanlov mavzulari	8		
3.5.1	Maktabgacha ta'lim muassasalarida "Hayot xafvsizligi asoslari" dasturini hayotga tadbiq qilish. "Hayot xafvsizligi asoslari" dasturining maqsad va vazifalari, hayot xafvsizligi asoslarining yo'nalishlari, har bir yo'nalishning tahlili. "Hayot xafvsizligi asoslari" bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish usullari.	2	[4] [5]	Tarqatma, rangli qalamlar
3.5.2	Bolaga yo'naltirilgan ta'lim. Bola rivojlanishiga kompleks yondashuv. Bola rivojlanishiga kompleks yondashuv tushunchasi: 1.Jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena. 2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish.3.Nutq, o'qish, savodga tayyorgarlik. 4. Bilish jarayoni: atrof-olam	2	[4] [5]	Flipchart qog'oz, marker, tarqatma

	to'g'risida bilimga ega bo'lish va uni anglash yo'nalishlari mazmuni asosida ta'lim-tarbiyaga kompleks yondashish haqida.			
3.5.3	Xalq ta'limi tizimidagi islohotlar. Tinglovchilarga bugungi kundagi ta'lim sohasidagi yangiliklar, hukumat tomonidan chiqarilgan qaror va buyruqlar bilan tanishtirish.	2	[1] [2] [3] [4] [5]	Tarqatma, ko'rgazma qurollar
3.5.4	Yo'l harakati qoidalarini o'rgatish Yo'l harakati qoidalarini o'rgatish. Yo'l qoidasiga rioya qilish to'g'risida dastlabki tushunchalarni shakllantirish. Yo'l harakatida shartli belgilar bilan tanishtirish.	2	[4] [5]	Tarqatma, ko'rgazma qurollar
	Jami:	62		

Darsda qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

1. Kichik ma'ruza
2. Loyihaviy ta'lim texnologiyasi
3. Aqliy hujum
4. Kichik guruhlarda ishlash
5. Rolli o'yin
6. Galereyaga sayohat
7. Arjuri arra

Amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar.

1. 6x6x6 metodi
2. F S M U texnologiyasi
3. Klaster
4. Venn diagrammasi,

Kursni o'qitishning zamonaviy texnik va kompyuter vositalari.

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska -Hitachi, LCD-monitor,
video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter,
Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod,

FOYDALANISH UCHUN INTERNET SAYTLARI.

1. www.pedagog.uz
2. www.Ziyonet.uz
3. www.edu.Uz
- 4Web сайт www.ta'lim.uz

O'zbekistondagi oliygohlarning saytlari.

- | | |
|--|--|
| 1. Web сайт www pedagog. uz | 10. http: //buxoromoi/ |
| 2. Web сайт www Ziyonet. uz | 11. http://samarqandmoi/ |
| 3. Web сайт www School. eduru. uz | 12. http: //surxondaryomoi/ |
| 4. Web сайт www ta'lim. uzl | 13. http://fargonamoi/ |
| 5. Web сайт www Google. uz | 14. http: //toshkentmoi/ |
| 6. http: // uzedu. uz/ | 15. http: //mahorat uz/ |
| 7. http:// avlonymoi/ | 16. http: //pedagog uz/ |
| 8. http: //qoraqalpogistonmoi/ | 17. http://kutubxona uz/ |
| 9. http://andijonmoi/ | 18. http: //kitob. uz./ |

FOYDALANILADIGAN ASOSIY VA QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Asosiy adabiyotlar

1. I. A. Karimov. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" Toshkent "Sharq" 1997 y.
2. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" –T. 2011. www.gov.uz
3. "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim konsepsiyasi". Toshkent . 2008.
- 4."Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari". Toshkent – 2013
5. S. S. Mirdjalilova, M. Sh. Rasulyeva va boshqalar. "Bolajon" tayanch dasturi. Toshkent. 2010.
6. . K. Nizomova. "6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o'rganish." Metodik qo'llanma. Toshkent-2006.
7. D. Sharipova.. "Agar bolam sog'lom bo'lsin desangiz" Metodik qo'llanma. T. 2006
8. T. S. Usmonxo'jayev, S. T. Islomova. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya". "Ilm Ziya" nashryoti. T.2006
- 9 "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim-tarbiya" N. Ravshanova. "Ilm Ziya " nashryoti. T.2006.
10. N. Ravshanova. "Ota –onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida" "Ilm Ziya " nashryoti.T. 2007
11. "O'zbekiston Respublikasida Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida Nizom" "Maktabgacha ta'lim" jurnali. 2007 yil . 10-soni.
12. Z. Rahmonqulova. "Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish " Metodik qo'llanma. Toshkent. 2007.
13. F. R. Qodirova, R, M. Qodirova. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni ikkinchi tilga o'rgatish metodikasi". Dastur va o'quv qo'llanmaT. 2007.
14. N. Rahimova. "Kuyla oftobim" T. 2007.
15. D. Zaynitdinova. "Harakatli o'yinlar". T. 2006.
16. "Konstitutsiya saboqlari" dasturi. T. 2001.
17. "O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiyalash-yuksak ma'naviyatli kelajak avlodni tarbiyalash negizidir" . Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari . T. 2009.
18. Sh. Qurbonov, H. Saidov, R. Ahliddinov. "Barkomol avlod orzusi". "Sharq" Nashriyat – Matbaa konserni. T. 1999.
19. M. Fayzullayeva, M. Rustamova, Z. Raximova. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish" T. 2011
- 20.. Q. Shodiyeva . "Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish" T. 1995.
21. A. Xansen, Roksana K. Kaufmann. "Bolaga mo'ljallangan dasturni tashkil etish". T. 2010
22. "Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi fasilitatorlarni tayyorlash uchun seminar modullari". 1-Modul. T. 2008.
23. Sayidaxmedov N "O'qituvchi faoliyatining texnologiyalanuvchanligi "Xalq ta'limi" jurnali 1999 yil №5
- 24.Yo'ldashev J. G'. "Yangi ped texnologiya" (yechimlari, yo'nalishlari, muammolari) 1999
25. X.Axmedova, L.Raximova "Bolaga yo'naltirilgan ta'lim dasturini tashkil etish" Toshkent 2012 y

26. X.Axmedova, L.Raximova “O‘zing yasa” Toshkent 2012 y
27. Z.A.Rahmanqulova “Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini shakllantirish” Toshkent: Bekinmachoq-plyus-2012
28. Valida Umarova , Z.A.Rahmanqulova “Bolajon tayanch dasturi bo‘yicha Adabiyot to‘plami” “Bekinmachoq-plyus” 2012
29. T.I.Chabrova “Risovaniye dlya malishey” “Bekinmachoq-plus” 2012
- 30.F.Qodirova, M.Fayzullayeva, Z.Raximova, “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish” Toshkent 2012
31. L. G Evstafeva, I. V. Grosheva, S. S. Mirdjalilova, M. N. A‘zamova “Bilimdon” (Qisqa muddatli guruhlar uchun dastur) Toshkent-2014
- 32.Zamira Ibrohimova “Maktabgacha ta‘lim muassasalarida badiiy adabiyot” Toshkent “Muharrir” nashriyoti. 2012.
33. Zamira Ibrohimova “Bolajon” Tayanch dasturi bo‘yicha badiiy adabiyot majmuasi. 2-kitob. Toshkent “Muharrir” nashriyoti 2013.
34. Bahromov A.A. Malaka oshirish tizimida yangi axborot texnologiyalari. –«Xalq ta‘limi» jurnali, 4- son, 2000 y.
35. Qodirov T., Ernazarov A. Kompyuterda ishlashni o‘rganamiz. Metodik tavsiyanoma. -A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2006 y.

2. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. M. G‘aybullayeva.”Farzandlarimizni allalab, erkalab o‘stiramiz”. T. 2006
2. M. Rustamova, D. Djumanova. “Pedagog kadrlar salohiyatini oshirishda metodik birlashmalarning o‘rni”. Tavsiyanoma. 2008
- 3.”Bola shaxsini rivojlanishining dolzarb muammolari”. II Xalqaro ilmiy – amaliy anjumanining te‘zis va maqolalar to‘plami. 2008 yil.
4. “Maktabgacha ta‘lim”jurnali
- 5.Ommaviy axborot vositalari.
6. D. Djumanova, Y. K. Prusakova. “Quvnoq logoritmika”. Metodik qo‘llanma. 2009.

3.1.1(A)-Mavzu: Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari va uni amaliyotga joriy etish texnologiyalari. (2 soat ma'ruza).

Maqsad:

Maktabgacha yoshdagi bolalalarga beriladigan ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari ta'lim-tarbiya mazmunining asosiy to'rt yo'nalishlari. Jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmatva gigiyena, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik, aqliy rivojlanish. Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarini amaliyotga joriy etish yo'l-yo'riqlari, usullari.

Tayanch so'zlar: Davlat talablari, me'yor, minimal talablar, jismoniy rivojlanish, yirik motorika, sensomotorika, mayda motorika, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, indikatorlar.

Kutiladigan natija: Tarbiyachilarda har bir yosh davrida va 1-sinfga borayotgan bolada 4 yo'nalish bo'yicha qanday bilim, ko'nikma, malaka bo'lishi lozimligi, bu talablarni amalga oshirishda kattalarning ta'limga qanday yondashuvini o'rganib oladi.

Jihoz: Kompyuter, slaydlar, plakatlari, marker, flamaster, rangli qalamlar, rangli qog'ozlar, yelim, to'plar, mevalar, gullar rasmlari.

Dars metodi: "Kichik guruhlarda ishlash", "Kichik ma'ruza", "VENN diagrammasi"

Reja

1. Davlat talablarining maqsad va vazifalari.
2. DT ning tamoyillari.
3. DTda ko'rsatilgan yosh guruhlar.
4. Davlat talablarining yo'nalishlari.

Darsning borishi:

XTV ning 18sentabr 2013 yil 302- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan takomillashtirilgan Mazkur davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

talab — biror-bir aniq yoshdagi bolalar bilishi va bajara olishi shart bo'lgan talablar majmui;

indikator — bolaning ko'z bilan ko'rishi va o'lchashi mumkin bo'ladigan ko'nikma va malakalari ko'rsatkichi.

Davlat talablari maktabgacha ta'lim tizimida, shuningdek har bir oilada 7 yoshgacha bo'lgan bolani tarbiyalash, rivojlantirish, maktabga samarali tayyorlash hamda unga ta'lim berishda qo'llanilishi majburiydir.

Davlat talablari asosida:

bolaning bilim, ko'nikma va malaka mezonlari hamda ularning o'sish dinamikasi va rivojlanish holatlari aniqlanadi;

bolalarning rivojlanganligi va yutuqlari baholab boriladi;

bolaning individual rivojlanishi ta'minlanadi;

kadrlar tayyorlash sifati, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablar, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi hamda ota-onalarning bola rivojlanishiga oid ko'nikma va malakalari belgilanadi.

Davlat talablari O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta'lim muassasalari tomonidan qo'llanilishi shart:

davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari;

maktabgacha ta'lim olayotgan bolalar guruhlar mavjud bo'lgan «Mehribonlik» uylari;

xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limlarining maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi sho'xbalari;

kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarining maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlovchi fakultetlari;

maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimi kadrlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar.

Davlat talablarining maqsadi:

maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fan-texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlariga asosan yo'lga qo'yish; sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlash; ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish; sifatli kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish; bola shaxsi asoslarini shakllantirish hamda uning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish; bolaning intellektual va jismoniy rivojlanishini ta'minlash; bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish; bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash.

Davlat talablarining vazifalari:

bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun har tomonlama yondashuvni ta'minlash; maktabgacha ta'lim metodikasini tubdan yaxshilash; ta'lim-tarbiya berishning o'quv dasturlarini yaratish; maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglari malakasini oshirish; maktabgacha ta'lim monitoringi va tahlilini olib borish; ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash; bolalarning rivojlanishi va ularni maktab ta'limiga tayyorlashga oid bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlarida ota-onalarga ko'maklashish; maktabgacha ta'lim tizimi sifatini oshirish.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berish va rivojlantirish talablari quyidagi prinsiplarga asoslangan holda ishlab chiqiladi:

- jinsi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, dini, ijtimoiy ehtiyojlari va madaniy mansubligi, salomatligi va alohida ehtiyojlaridan qat'i nazar, barcha bolalarning ta'lim tizimida teng imkoniyatligi;
- ta'lim olish jarayonida turli xil o'yinlardan foydalanish;
- ota-onalar va tarbiyachilarning hamkorligi.

Davlat talablari quyidagi yosh guruhlari bo'yicha bo'linadi:

- tug'ilgandan boshlab 6 oygacha;
- 6 oydan 1 yoshgacha;
- 1 yoshdan 2 yoshgacha;
- 2 yoshdan 3 yoshgacha;
- 3 yoshdan 5 yoshgacha;
- 5 yoshdan 7 yoshgacha.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish dasturi talablarini bajarish vositalari hisoblanadi:

- mustaqillik;
- ijodkorlik;
- tashabbuskorlik;
- o'zi va atrofdagilarga nisbatan mas'uliyatni his qilish;
- o'zaro hurmat;
- tolerant xatti-harakat;
- vatanparvarlik;
- do'stlik va hamjihatlik;
- jamiyat va davlatga nisbatan hurmat hissi.

Rivojlanish sohalari

Bolaning rivojlanishi va ta'lim olishi quyidagi asosiy yo'nalishlarga bo'linadi:

- jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik;
- bilish jarayoni va atrof muhit to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish.

Jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena yo'nalishi

Mazkur yo'nalish o'z ichiga quyidagilarni oladi:
bolalarning jismoniy rivojlanishidagi muammolarini aniqlash va uning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash;

doimiy ravishda bolalarning jismoniy rivojlanishini tahlil qilib borish;

bolalarning jismoniy rivojlanishi bo'yicha oila bilan hamkorlik qilish;

sog'lom turmush tarzining muhimligini tushuntirish va uni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish.

12. Mazkur yo'nalishda bolaning rivojlanish jarayonlari quyidagi bosqichlar orqali kechadi:

yirik motorikani rivojlantirish — bunda bola yurish (tez va sekin), yugurish (tez, sekin va ilon izi bo'lib), sakrash (uzunlikka va balandlikka), zina bo'ylab yuqoriga yurish (yurish, yugurish, sakrash) vaqtida o'zining tana a'zolarini boshqarishni o'rganadi;

mayda motorikani rivojlantirish — bunda bola biron-bir faoliyatni yanada aniqroq bajarish (ushlash, ochish, yopish, qirqish, bo'lish) uchun o'z qo'llari va barmoqlarini ishlatish va ulardan foydalanish malakasiga ega bo'ladi;

sensomotorikani rivojlantirish — bunda bola o'z harakatlarini boshqarish uchun sezgi organlaridan (ko'rish, eshitish, qo'l bilan his qilish, hid bilish) foydalanadi;

madaniy-gigiyenik malakalar — bunda bola o'z sog'ligining muhofazasiga ta'sir etuvchi shaxsiy gigiyenik malakalarni egallaydi.

Bola yirik motorikani rivojlantirish bosqichida:

o'z tanasini boshqara olishi;

o'z tana a'zolarini boshqara olishi;

bir yo'nalishda maqsadli harakatlana olishi lozim.

Bola mayda motorikani rivojlantirish bosqichida:

qo'l va barmoq harakatlarini nazorat qila olishi;

o'yinchoq va kundalik ehtiyoj predmetlaridan foydalana olishi lozim.

Bola sensomotorikani rivojlantirish bosqichida o'z xatti-harakatlarini sezish organlari yordamida boshqara olishi lozim.

Bola madaniy-gigiyenik malakalar bosqichida madaniy-gigiyenik malakalarga ega bo'lishi lozim.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish yo'nalishi

Mazkur yo'nalishda bolaning rivojlanish jarayoni quyidagi bosqichlar orqali kechadi:

ijtimoiy rivojlanish — bunda bola ijtimoiy muhit va atrofida qiladigan hamkorlik qiladi;

hissiy rivojlanish — bunda bolada o'zini va o'z hissiyotlarini anglash rivojlanadi.

Ijtimoiy rivojlanish bosqichida bola:

tanish va notanish kishilarni farqlashi;

boshqa bolalar va katta yoshdagilar bilan muloqot qilish malakalarini qo'llay olishi lozim.

Hissiy rivojlanish bosqichida bola:

«men» konsepsiyasini anglashi;

o'zgaralar va o'z hislarini anglashi lozim.

Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik yo'nalishi

Mazkur yo'nalishda rivojlanish jarayoni quyidagi bosqichlar orqali kechadi:

nutq — bunda bola so'zlashuv tiliga zarur darajada ta'sirlanadi, so'zlarni tushuna boshlaydi va atrofida qiladigan muloqotga kirishadi;

o'qish va savodga tayyorgarlik — bunda bolada bosma materiallar, yozuv belgilari va harflarga bo'lgan qiziqish rivojlanadi.

Nutq bosqichida bola:

nutqni tinglashi va tushuna olishi;

gapirishi va so'zlasha olishi lozim.

O'qish va savodga tayyorgarlik bosqichida bola:

bosma materiallar, harflar va belgilarga qiziqish bildiradi;

yo'zishga oid ko'nikmalar hosil qiladi.

Bilish jarayoni va atrof muhit to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish yo'nalishi

Mazkur yo'nalishda rivojlanish jarayoni quyidagi bosqichlar orqali kechadi:

elementar matematik bilim va ko'nikmalar — bunda bolaning matematik, jumladan son-sanoq malakalarini rivojlantirish orqali matematik bilimlarini orttirish, mantiqiy fikrlash va muammolarini hal qilish qobiliyatlarini, son-sanoq, miqdor, shakl, kattaliklar va o'lchov birliklaridan foydalanish malakalarini rivojlantirishga erishiladi;

atrof muhit to'g'risidagi bilimlar — bunda bola kuzatish va amaliyot orqali atrof muhit to'g'risida axborot oladi;

ijod — bunda bola milliy ma'naviy meros va madaniyatni hurmat qilishga hamda o'z hissiyotlarini musiqa, teatr va tasviriy faoliyat orqali ifodalashga o'rganadi.

Elementar matematik bilim va ko'nikmalar bosqichida bola:

son-sanoq va hisoblashga oid bilimlarini namoyon qilishi;

predmetlarni toifalash, guruhlash va tartib bo'yicha joylashtirish qobiliyatini namoyon qilishi lozim.

Atrof-muhit to'g'risidagi bilimlar bosqichida bola:

jonli va jonsiz tabiatni kuzatishi va ta'riflay olishi;

inson tana a'zolarini bilishi lozim.

Ijod bosqichida bola:

turli tovush va ovozlarni farqlay olishi;


tovushlarni balandligi va tembriga ko'ra farqlay olishi;


jamoaga bo'lib musiqiy faoliyatlarda ishtirok etishga qiziqish bildirishi;


cholg'ularida chalish malakalarini namoyon etishi;


amaliy faoliyatda ishtirok etishga qiziqish bildirishi lozim.

Davlat talablari 4 yo'nalishdan iborat:









3.1.1 (B) - Mavzu: Davlat talablarida rivojlanish ko'rsatkichlarining yoshiga qarab murakkablashuvi.

(2 soat amaliy)

Maqsad: "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari"da har qaysi yosh guruhi uchun ko'rsatilgan rivojlanish mezonlari oddiydan murakkabga tomon tamoyiliga asoslangan. Talab, ta'limga yondashuv, indikatorlar, hayot havfsizligi bo'yicha yosh guruhlariga mos ko'rsatkichlarni topishni mashq qilish.

Kutiladigan natija: Tarbiyachilar DT ni mukammal o'rganib oladilar.

Jihoz: Plakat, marker, skotch, tarqatma.

Dars metodi: "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash".

Reja:

1. Jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiena.
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish.
3. Nutq, o'qish, savodga tayyorgarlik.
4. Bilish jarayoni, atrof-olam haqida tasavvurga ega bo'lishi.

Darsning borishi:

1. "Molekula" o'yini orqali tinglovchilarni 4 guruhga ajratish.
2. Kichik guruhlarda ishlashni tashkil qilish. Har bir guruh davlat talablarining 4 ta yo'nalishi bo'yicha bolalarning 3 ta imkoniyatini plakatga yozadi. 1-guruh o'zining plakatini 2-guruhga, 2-

guruh 3 guruhga, 3-guruh 4-guruhga beradi. Har bir guruh o'z fikrlarini yozib keyingi guruhga uzataveradi. Fikrlar takrorlanmasligi lozim. Guruhlar birlamchi plakatini olganlaridan keyin 3 daqiqa ichida taqdimot o'tkazadi.

3 Tinglovchilar guruhchalarga ajratiladi va har qaysi guruhga har xil muammo tashlanadi. Tinglovchilarning to'p, gul, meva rasmlarini tanlashlariga qarab 3 guruhga ajratiladi. Stol ustiga bolalarning jismoniy rivojlanishiga tegishli indikatorlari yozilgan kartochkalar tarqatib tashlanadi. "To'plar" guruhi 2-3 yoshgacha, "Gullar" guruhi 3-5, "Mevalar" guruhi 5-7 yoshgacha bo'lgan bolalarning jismoniy rivojlanishiga tegishli indikatorlarini stol ustidan topib olish topshirig'ini bajaradilar. Har qaysi guruh indikatorlarini o'qiydilar. "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" bilan solishtiradilar. Noto'g'ri olganlarini chekkaga qo'yadilar va tegishli guruhga beradilar.

"To'plar" guruhi 2 yoshdan 3yoshgacha bo'lgan bolalarni jismoniy rivojlantirish bo'yicha indikatorlari ustunini to'ldirish,

Talab	Indikatorlar	Ta'limga yondoshuvlar	Hayot xavfsizligi
Bolada yirik motorika rivojlanadi Yurish va yugurish Emaklash Sakrash	•	• harakatlar tajribasini turli jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlar bilan boyitish; • kattalarga taqlid qilgan holda harakatlarni to'g'ri bajarilishiga ko'maklashish (tananing to'g'ri turishi, to'g'ri yo'naltirilish); • bolalarning jamoa bo'lib harakatlar faolligiga jalb etish; • tanish harakatlarni yengil va oson, atrof - muhitni chamalab, muvozanatni saqlagan holda bajarish malakasini shakllantirish lozim	Kattalar bolaning jaroxatlanishini oldini olish maqsadida quyidagi sharoitlarni yaratishlari zarur: shtepsel' rozetkalarini poldan 0,8-1,2 metr balandlikda joylashtirish; bolalar bo'lganda derazalarni ochik holda qoldirmaslik;; bolalar qum, suv, mayda predmetlar bilan o'ynagan vaqtida ularning ko'ziga begona jismlar tushishidan saqlash; o'z sog'ligini saqlashda kerak bo'ladigan oddiy qoidalarini o'rgatishni davom ettirish (masalan, zinapoyalardan sakramaslik, o'tkir predmetlarni qo'lga olmaslik).

Miqdor, kattalik, shakl Bola 5-10 tagacha predmetni sanay oladi Tevarak-atrofdan mo'ljal olish Vaqtning chamalash qurish-yasash	•	• predmetlar bilan tadqiqotlar o'tkazish zarur	
--	---	--	--

“Mevalar” guruhi 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish bo'yicha ta'limga yondashuv ustunini,

Kattalar bilan muloqot Bola muloqot va o'z fikrini bayon etish malakalarini namoyon qiladi, o'z xatti-harakatini ifodalash uchun nutqdan foydalanadi Tengdoshlari bilan muloqot Bola tengdoshlari bilan sabrli, o'yinda ular bilan do'stona munosabatda bo'lishi kerak	• nutqdan foydalanib suhbatlashadi; • ko'rsatmalar asosida predmetlar bilan harakatlar bajaradi (koptok bilan o'ynaymiz); • kattalarga yordam so'rab murojaat qiladi; • kattalar bilan juftlikda o'ynashga faol kirishadi; • rollarni taqsimlab va o'yin mazmunini birgalikda kelishib, hamkorlikda o'ynaydi; • turli xil mavzularda suhbatlashadi	•	• bu yoshda bola o'zining omadsizligidan qattiq qayg'uradi, tez-tez hafa bo'ladi, urishadi. Bu holatda bolani yolg'iz qoldirmaslik kerak • katta odam "men - ma'lumot" so'zi orqali bolaning asabiy holatini ijobiy tomonga o'zgartirishi lozim
---	--	---	--

“Gullar” guruhi 5yoshdan 7 yoshgacha aqliy rivojlanish bo'yicha indikatorlari ustunini to'ldirish muammosini bajaradilar.

To'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash uchun kompyuterda slaydlar orqali to'g'ri javob ko'rsatiladi. Tinglovchilar o'zlarining xatosini o'zlari topadilar.

Test savollari.

1. “O‘zbekiston Respublikasida Davlat maktabgacha ta’lim muassasasi to‘g‘risida Nizom” ko‘ra MTM ning asosiy vazifalari nechta?

- A. 3 ta
- B. 5 ta
- C. 4 ta
- * D. 6 ta

2. Impressiv muloqatchanlik deganda nimani tushunasiz?

- * A. Eshitish va tushunish malakasining shakllanishi natijasida harakat orqali muloqotga kirishish.

- B. Nutq orqali muloqotga kirishish
- C. O'qish va savod malakalarini egallashi
- D. Atrof olam to'g'risidagi malakaga ega bo'lishi

3. Ekspressiv muloqotchanlik deganda nimani tushunasiz?

- A. Kitobning qadr- qimmatini tushunishi
- B. Tengdoshlari bilan muloqotga kirishi
- C. Kattalar bilan muloqotga kirishi
- * D. Nutqi orqali muloqotga kirishish

4. Quyidagilardan qaysi biri "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari " yo'nalishiga kirmaydi?

- A. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish
- B. Bilish jarayoni, atrof olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va uni anglash.
- * C. Ma'naviy madaniy yetukligini ta'minlash
- D. Jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena

5. Maktabgacha ta'lim mazmuni hamda sifatiga qo'yiladigan davlat talablari "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning nechanchi moddasida ko'rsatilgan

- A. 11- moddasida
- B. 30- moddasida
- * C. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda qayd qilinmagan
- D. 7-moddasida

6. "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari " necha yo'nalishdan iborat?

- A. 3 yo'nalishdan
- * B. 4 yo'nalishdan
- C. 6 yo'nalishdan
- D. 5 yo'nalishdan

7. Qaysi me'yoriy hujjatda maktabgacha yoshdagi bolalar 6 ta yosh davrga ajratiladi.

- A. "O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida nizom" da
- * B. "Maktabgacha ta'lim qo'yiladigan davlat talablari"da
- C. "O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim konsepsiyasi" da
- D. "Bolajon" dasturida

8. Takomillashtirilgan "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari" XTV tomonidan qachon tasdiqlangan?

- A. 2008 y 28 sentabr
- B. 2011 y 2 noyabr
- * C. 2013 y 18 sentabr
- D. 2007 y 25 oktabr

9. 5-7 yoshli bolalarning indikatorini aniqlang

- A. O'yinchoq, buyum va rasm mazmuni bo'yicha 2-3 ta gap tuza oladi.
- * B. Kamida 16 ta bo'laklardan shakl yig'adi
- C. 5 gacha sanaydi
- D. Nutqda otlarni ko'plikda to'g'ri ishlatadi

10. Qanday ta'lim turlari uchun DT joriy etiladi.

- A. Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim
- B. Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim
- C. Umumiy o'rta, maktabdan tashqari ta'lim, oliy ta'lim
- * D. Maktabgacha ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim

Foydalanadigan adabiyotlar:

1. "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari" Toshkent. 2013yil. 18 sentabr.
2. S. S. Mirdjalilova, M. Sh. Rasulyeva va boshqalar . "Bolajon" dasturi. 2010 yil.

3.1.2 (A) Mavzu: “Bolajon” tayanch va qisqa muddatli guruhlar uchun “Bilimdon” dasturlari, ularni amaliyotda qo‘llash. (2 soat nazariy)

Fan: MTM da tarbiyachi xizmatini tashkil qilish

Mavzu: “Bolajon” tayanch va qisqa muddatli guruhlar uchun “Bilimdon” dasturlari, ularni amaliyotda qo‘llash.

Kalit so‘zlar: Maqsad, vazifa. Tamoyillar, omillar, yosh bosqichlari, jismoniy, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, o‘qish, savodga tayyorgarlik, bilish jarayoni, tasviriy, musiqiy, o‘yin faoliyati

Soatlar soni: 2 soat ma’ruza

Ma’ruza matnini ishlab chiquvchi: XVXTXQTMOI “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim” kafedrasida katta o‘qituvchisi M.Axmedova

Ma’ruza matnini ishlangan sanasi: 16.01.2015 yil

Ish joyi: Xorazm VXTXQTMOI

Mavzuning qisqacha ta’rifi (Davlat talablariga muvofiq)

“Bolajon” va “Bilimdon” dasturining mazmun-mohiyati, maqsadi, vazifalari, tamoyillari, omillari, yosh davrlari, tarkibiy qismlari. Tarbiyachi dasturda ko‘rsatilgan ta’lim-tarbiya vazifalariga asosan mavzuni to‘g‘ri tanlay bilishi

O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi

Metod: aqliy hujum, juftlikda ishlash, kichik guruhda ishlash metodi.

Forma: kichik ma’ruza, muhokama, savol-javob,

Vositalar (texnik va didaktik)

- Doska, flipchart qog‘oz, skotch
- Marker va flomaster
- Slayd, proektor

Nazorat: nazorat savollari, test savollari, savol-javob orqali

Baholash: rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro baholash.

Dars /ma’ruza/ning maqsad va vazifalari:

Maqsadlar:

Ta’limiy: “Bolajon”, “Bilimdon” dasturining maqsadi, vazifalari, tamoyillari haqida tushuncha hosil qilish. Maktabgacha yoshi davrining bosqichlari bilan tanishtirish. Yosh davrlariga mos ravishda dastur vazifalarining murakkablashuvini anglash, mashg‘ulot mavzusini to‘g‘ri tanlash ko‘nikmasini hosil qilish.

Tarbiyaviy: Tinglovchilarda bir-biriga yordam berish, hayrihoh, o‘zaro hurmatda bo‘lish fazilatini shakllantirish

Rivojlantiruvchi: Tarbiyachidagi kasbiy va

Vazifalar:

Ta’limiy savol:

- “Bolajon” dasturining asosiy maqsadi?
- “Bolajon” bilan “Bilimdon” dasturining farqi?
- Dasturning asosiy tamoyillari nechta va ular qaysilar?
- Omillarini aytib bering
- Maktabgacha ta’limning insonparvarligi tamoyiliga asoslanganligingizni hayotiy misollar bilan tushuntiring
- Yosh davrlarini tushuntiring

Tarbiyaviy savol: Ta’lim-tarbiya jarayonida bir-birovni xafa qilish, ranjitish, kamsitish mumkinmi?

Rivojlantiruvchi savol:

shaxsiy sifatlarni takomillashtirish.		- Tarbiyachida qanday fazilatlar bo'lishi kerak?	
Kutilayotgan natijalar:			
Dars/ma'ruza/ yakunida tinglovchi biladi (Bilim): - Tinglovchilar pedagogik jarayonda "Bolajon" dasturi tamoyillariga tayanish lozimligini tushunib oladilar. - Tinglovchilar 4 ta yo'nalish bo'yicha qanday ta'lim-tarbiya vazifalari ko'rsatilganligi, shu asosda mavzuni to'g'ri tanlashni o'rganib oladilar.		Qaysi savollar beriladi: Maktabgacha ta'limning 9 ta tamoyili asosida pedagogik jarayonni tashkil qilishda nimalarga e'tibor berish kerak? Jismoniy rivojlanish bo'yicha mavzularni to'g'ri tanlang Ijtimoiy-hissiy rivojlanish bo'yicha mavzularni to'g'ri tanlang Nutq o'stirish bo'yicha mavzularni to'g'ri tanlang Matematika bo'yicha mavzularni to'g'ri tanlang	
Dars/ma'ruza/ yakunida tinglovchi tushunadi (Ko'nikma): Dasturda ko'rsatilgan 1 yilga mo'ljallab umumiy qilib berilgan o'lchovlarni to'g'ri anglagan holda mavzularni to'g'ri tanlashni o'rganib oladilar. Dasturdan to'g'ri foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. O'z faoliyatida "aqliy hujum", "kichik guruhlarda ishlash"metodlaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.		Qaysi savollar beriladi: -Dasturda 40-60 metrga yugurish deb ko'rsatilgan ta'lim-tarbiya vazifasini yil davomida qanday mavzular tuziladi? Kichik guruhlarda ishlash metodini qo'llash uchun mashg'ulotda qanday foydalansa bo'ladi.	
Dars/ma'ruza/ yakunida tinglovchi bajara oladi (Malaka): Barcha mashg'ulotlar bo'yicha yil davomida mavzularni to'g'ri tanlay oladilar.		Qanday topshiriqlar beriladi: Tarbiyachi sentabr oyida nutq o'stirish mashg'ulotida bahor fasli tasvirlangan rasmga qarab hikoya tuzdirdi. Bunga qanday munosabat bildirasiz?	
Dars jarayoni va uning bosqichlari:			
Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich: Tashkiliy qism. Motivatsiya	Guruhni mashg'ulotga psixologik tayyorlash. Mashg'ulot mavzusi, maqsadi, kutiladigan natijalarni bayon qilish	Tushuntirish	10 daqiqa
2-bosqich: Ehtiyojlarni aniqlash	Tinglovchilardan "Bolajon", "Bilimdon" dasturi haqida nimalarni bilishi: maqsadi, tamoyillari nechta ekanligi mavzu tanlashda dasturning qayeriga murojaat qilishi haqida so'raladi.	Savol-javob	15 daqiqa
3-bosqich: Yangi mavzuning bayoni	"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillariga tayangan holda"Bolajon", "Bilimdon" dasturining mazmun-mohiyati. Dasturning maqsadi,vazifasi, tamoyillari,omillari, yosh	Muhokama Kichik ma'ruza Kichik guruhda ishlash	25 daqiqa

	davrlari, tarkibiy qismlari, 4ta yo`nalish bo`yicha ko`rsatilganda'lim-tarbiya vazifalari slayd orqali namoyish etiladi va tushuntiriladi.</p> <p><b>Guruhlarga topshiriq:</b> 4 ta guruh 4 yo`nalish bo`yicha dasturdan foydalangan holda mavzu tanlaydi		
4-bosqich: Mustahkamlash	Tinglovchilar darsda o`rgangan 3 ta tushunchani qog`oz varag`iga yozadilar va navbati bilan plakatga yopishtirib o`qiydilar	Refleksiya	15 daqiqa
5-bosqich: Baholash.	Dars jarayonida faol ishtirok etgan tinglovchilar va kichik guruhlar "barakalla", "raxmat", "juda to`g`ri" iboralari bilan rag`batlantiriladi.</p> <p>Test savollari slayd orqali namoyish etiladi. Tinglovchilar "A", "B", "C", "D" javoblarni ko`rsatish orqali javob berishadi..	Munozara	10 daqiqa
6-bosqich: Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar (uyga vazifa)	Tavsiya etilgan adabiyotlardan mavzu yuzasidan mustaqil mutolaa qilinadi.	Adabiyotlar va internet ma'lumotlari bilan tanishish	5 daqiqa

4-bosqich: Mustahkamlash	Tinglovchilar darsda o`rgangan 3 ta tushunchani qog`oz varag`iga yozadilar va navbati bilan plakatga yopishtirib o`qiydilar	Refleksiya	15 daqiqa
5-bosqich: Baholash.	Dars jarayonida faol ishtirok etgan tinglovchilar va kichik guruhlar "barakalla", "raxmat", "juda to`g`ri" iboralari bilan rag`batlantiriladi.</p> <p>Test savollari slayd orqali namoyish etiladi. Tinglovchilar "A", "B", "C", "D" javoblarni ko`rsatish orqali javob berishadi..	Munozara	10 daqiqa
6-bosqich: Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar (uyga vazifa)	Tavsiya etilgan adabiyotlardan mavzu yuzasidan mustaqil mutolaa qilinadi.	Adabiyotlar va internet ma'lumotlari bilan tanishish	5 daqiqa

Darsning borishi:

- I. Savol-javob: Dastur haqida nimalarni bilasiz? "Bolajon" dasturining maqsadi nimalardan iborat? "Bilimdon" dasturi kimlar uchun? Dasturning vazifalari? Dasturning tamoyillari nechta?

- II. Kichik ma'ruza. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida ta'lim to'g'risida davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berilgan. Shunga asosan "Bolajon" dasturining mazmun- mohiyati ishlab chiqilgan. 2014 yil "Sog'lom bola yili" munosabati bilan maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama mukammal tayyorlash dolzarb masaladir. Slayd namoyish etiladi. O'qituvchi har bir bandning mohiyatini hayotiy misollar orqali tushuntiradi.

"Bolajon" dasturining maqsadi "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari" ning bajarilishiga erishish:

- maktabga jismonan sog'lom;
- aqlan va ma'nan yetuk;
- jamiyatning turli a'zolari bilan muloqotda bo'la oladigan ;
- borliqni aniq idrok etadigan;
- hayotda ijtimoiy jihatdan moslashuvchi;
- umummilliy qadriyatlarimizni qadrlaydigan;
- mustaqil va ongli yashaydigan bolani tayyorlashdan iborat;

"Bolajon" dasturining vazifasi:

Bolalarni jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va ularning sog'ligini muhofaza qilish; bolalarning erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol, shuningdek, kelajakda mustaqil va ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Dasturning mazmuni quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- maktabgacha ta'limning davlat va jamiyat talablariga mosligi;
- maktabgacha ta'limning demokratikligi;
- bola shaxsiga yo'naltirilganligi;
- bolalarni sog'lomlashtirishga qaratilganligi;
- Bolalarning qobiliyati, ehtiyoji, imkoniyatiga mosligi;
- maktabgacha ta'limda o'yin faoliyatining yetakchiligi;
- maktabgacha ta'limning insonparvarligi;
- maktabgacha ta'limning ijtimoiy turmush bilan mosligi;
- maktabgacha ta'limning oila va boshlang'ich ta'lim bilan uzviyligi;

Muassasa dasturni amalga oshirishda har bir bolaga quyidagi sifatlarni rivojlantirishni maqsad qilib qo'yishi lozim:

- ijodkorlik, tasavvur, zukkolik;
- mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish;
- muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarini topish;
- jamiyat, mamlakatlar, atrof-muhit muammolariga befarq qaramaslik;

"Bolajon" tayanch dasturida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash quyidagi omillarga asoslanadi:

- davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish va uning barkamol shaxsga bo'lgan munosabatning kuchayganligi;
- erkin fuqaro ma'naviyatining shakllanishi;
- milliy urf-odatlar va tarixiy xotira, o'zlikni anglash tuyg'usi rivojlanayotganligi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat –ehtiromlar tuyg'usini shakllanayotganligi.

Maktabgacha yoshi davri quyidagi bosqichlarga ajratiladi.

- go'daklik (1 yoshgacha)
- ilk yosh (1-2 yosh)
- ilk yosh (2-3 yosh)
- kichik yosh (3-4 yosh)
- o'rta yosh (4-5 yosh)
- katta yosh (5-6 yosh);
- maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh);

Dastur tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Bolalarni jismoniy rivojlantirish, oʻz-oʻziga xizmat va gigiyena;
- Bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish;
- Bolalarning nutqi, oʻqish va savodga tayyorgarligi;
- Bolalarning bilish jarayoni, atrof-olam toʻgʻrisidagi tasavvurga ega boʻlishi va uni anglashi;
- Bolalarda tasviriy faoliyatni rivojlantirish;
- Bolalarda musiqiy faoliyatni rivojlantirish;
- Bolalarda oʻyin faoliyatini rivojlantirish;

“Bilimdon” dasturi 5-7 yoshli Mtm ga tortilmagan bolalarni maktabga tayyorlash maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu dastur Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan taʼlim sektori rejasi, maktabgacha taʼlimni rivojlantirish Konsepsiyasi, maktabgacha taʼlimga qoʻyiladigan Davlat talablariga tayangan holda bolaga yoʻnaltirilgan sifatli pedagogik prinsiplarga asoslangan.

Bolaning erta rivojlanishiga investitsiya ajratilishi quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi:

- katta yoshdagi kishi intellektual qobiliyatining 40 foizi hayotining dastlabki 5 yilida shakllanadi;
- maktabgacha taʼlimga sarf-harajatlarning iqtisodiy samaradorligi 17:1 nisbatni tashkil etadi (bolalar qamrovi 50 foizdan kam boʻlmaganda);
- umumiy taʼlimda erishiladigan sezilarli yutuqlar;
- taʼlimni yuqoriroq bosqichda davom ettirish uchun katta imkoniyat mavjudligi;
- gʻyri axloqiy va jinoiy hatti-harakatlar ehtimolining kamayishi.

Dasturning maqsadi va vazifalari:

- zarur boʻlgan rivojlanish amaliyoti va maktabga tayyorlash uchun teng imkoniyatlarni vujudga keltirish;
- 5-7 yoshli bolalar uchun mukunlik maktabgacha taʼlim muassasasiga berish imkoniyatiga ega boʻlmagan yoki muayyan sabablarga koʻra, bunga intilmaydigan ota-onalarning talab-ehtiyojlarini qondirish;
- 5-7 yoshli bolalar moʻljallangan qisqa muddatli guruhlar “Maktabgacha taʼlimga qoʻyiladigan davlat talablari” ga muvofiq 4 muhim sohada bolalarning har tomonlama rivojlanishini taʼminlashi zarur.
- Maktab taʼlimiga umumiy psixologik tayyorgarlik.

Dastur zamonaviy pedagogika va psixologiya tamoyillariga tayangan holda:

- istisnosiz barcha bolalarning taʼlim olish va rivojlanishiga teng imkoniyatga ega boʻlishni taʼminlash;
- amaliyotga bola shaxsiga yoʻnaltirilgan yondashuvni, inklyuziv taʼlim tamoyillarini joriy etish;
- oila va jamoalar bilan hamkorlik;
- taʼlim-tarbiyani madaniy jihatdan maqbul uslublariga tayangan holda milliy qadriyat va ustuvorliklarni eʼtiborga olish;
- qulay, doʻstona va xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishga yoʻnaltirilgan.

Qisqa muddatli guruhlardagi taʼlim jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- bolaga yoʻnaltirilgan taʼlimga yondashuv;
- inklyuziv taʼlim haqida mushohada yuritish;
- bolani xolistik(yaxlit) rivojlanishini taʼminlaydigan taʼlim muhitining xususiyatlarini belgilash;
- maktabgacha taʼlim muassasasida faoliyatning yetakchi turi-oʻyin asosida taʼlim berish;
- bola - taʼlim jarayonining faol ishtirokchisi;
- rejalashtirish va baholash samaradorligi;
- bolani tarbiyalash va rivojlantirish jarayoniga ota-onalarni hamkorlik asosida jalb etish;
- interfaol taʼlim;

“Bolajon” va “Bilimdon” dasturida har qaysi guruhda 4 ta yoʻnalish boʻyicha bir yilga moʻljallangan taʼlim-tarbiya vazifalari berilgan. Masalan, jismoniy rivojlanish yoʻnalishi boʻyicha ilk yoshli guruhda 50-100sm. masofadan toʻpni otish va ilib olish vazifasi berilgan. Bir mashgʻulotda “50-100sm. masofadan toʻpni otish va ilib olish” deb mavzu qoʻyib boʻlmaydi. Didaktikaning oddiydan murakkabga tomon tamoyiliga asosan tarbiyachi ushbu vazifani bir yilga taqsimlagan holda bir necha kichik-kichik mavzularga ajratgan holda amalga oshiradi. (“50sm. masofaga toʻpni otish va ilib olish” “55sm. masofaga toʻpni otish va ilib olish” “60sm. masofaga toʻpni otish va ilib olish” “65sm. masofaga toʻpni otish va ilib olish” “70sm. masofaga toʻpni otish va ilib olish” “75sm. masofaga toʻpni otish va ilib olish” va hakoza). Boshqa sohalar, yoʻnalishlar ham xuddi shunday tarzda amalga oshiriladi.

III. “Baliqlar” oʻyini

IV. Kichik guruhlarda ishlash. Tinglovchilar sanash orqali 4 guruhga ajratiladi. Vazifa. “Bolajon” dasturi asosida 1oyga muayyan yoʻnalish boʻyicha mavzularni rejalashtirish.

“1” lar guruhi. Kichik guruhda jismoniy tarbiya mashgʻuloti uchun mavzularni rejalashtirish.

“2” lar guruhi Oʻrta guruhda nutq oʻstirish mashgʻuloti uchun mavzularni rejalashtirish.

“3” lar guruhi. Katta guruhda badiiy adabiyot mashgʻuloti uchun mavzularni rejalashtirish.

“4” lar guruhi. Maktabga tayyorlov guruhda tabiat bilan tanishtirish mashgʻulotiga mavzular rejalashtirish. Har qaysi guruh birgalashib topshiriqni bajaradi. Navbati bilan guruh sardorlari oʻz ishini taqdimot qiladi.

V. Tinglovchilar darsda oʻrgangan 3 ta tushunchani qogʻoz varagʻiga yozadilar va plakatga yopishtiradilar. Oʻqituvchi tahlil qiladi va xulosalaydi.

Test savollari

1. Oila sharoitida bolalarni maktabga tayyorlash qanday dastur asosida amalga oshiriladi.

A. Qisqartirilgan, ixchamlashtirilgan alohida dastur asosida.

*B. Oila sharoitida ham, MTM da ham “Bolajon” dasturi asosida.

C. Hech qanday dasturga amal qilmagan holda.

D. Oilada bolani maktabga tayyorlash shart emas.

2. “Bolajon” dasturining mazmuni nechta tamoyilga tayanadi?

A. 10 ta

B. 9 ta *

C. 8 ta

D. 7 ta

3. Qaysi biri “Bolajon” dasturi tamoyiliga kirmaydi?

A. Maktabgacha taʼlimning davlat va jamiyat talablariga mosligi.

B. Maktabgacha taʼlimning demokratikligi.

C. Maktabgacha taʼlimning ijtimoiy turmush bilan mosligi.

D. *Milliy urf-odatlar va tarixiy xotira, oʻzlikni anglash tuygʻusi rivojlanayotganligi.

4. “Bolajon” dasturida maktabga tayyorlash davri shartli ravishda nechta bosqichga ajratiladi?

A. 6 bosqich

B. 5 bosqich

*C. 7 bosqich

D. 4 bosqich

5. “Bolajon” dasturidan kimlar foydalanishi koʻrsatilgan qatorni toping.

*A. Maktabgacha taʼlim tizimi muassasalari mutaxassislari, oilalar, maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalari, KHK, oliy taʼlim muassasalari.

- B. MTM mudiralari va tarbiyachilari.
 C. MTM tarbiyachilari, ota-onalar.
 D. MTM uslubchilari va tarbiyachilari.
- 6. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash qayerlarda amalga oshiriladi?**
 A. Oilada, davlat MTMda
 B. Nodavlat MTMda
 C. Davlat va nodavlat MTMda
 *D. Oilada, davlat va nodavlat MTMda
- 7. Ta'lim-tarbiya ishlar rejasini tuzishda asosan qaysi hujjatdan foydalaniladi?**
 A. "Maktabgacha ta'lim kosepsiyasi"dan
 *B. "Bolajon" dasturidan
 C. Nizomdan
 D. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonundan
- 8. "Bolajon" dasturining nechta omili bor?**
 A. 3 * B. 4 C. 6 D. 5
- 9. Tarbiyachi mashg'ulot paytida bolalarning uyalmaligi, izza bo'lmasligi, qo'rqmasligi uchun sharoit yaratdi. Bu bilan qaysi tamoyilga tayandi.**
 *A. Maktabgacha ta'limning insonparvarligi
 B. Maktabgacha ta'limning ijtimoiy turmush bilan mosligi
 C. Bolalarning qobiliyati, ehtiyoji, imkoniyatiga mosligi
 D. Maktabgacha ta'limning oila va boshlang'ich ta'lim bilan uzviyligi
- 10. Navoiy, rasmlari orqali tanishga o'rgatish qaysi guruhda amalga oshiriladi?**
 A. Maktabga tayyorlov guruh
 B. O'rta guruh
 C. Katta guruh
 *D. Kichik guruh
- 11. Kichik guruhda qaysi bayram ertaliklari o'tkaziladi?**
 *A. "Mustaqillik", "Mehrjon", "Navroz"
 B. Harbiylar kuni"
 C. "Yangi yil"
 D. "8-mart"
- 12. Dasturda Q. Muhammadiyning "Kichkina qushcha" she'ri qaysi guruhda berilgan?**
 A. o'rta guruh
 *B. kichik guruh
 C. katta guruh
 D. maktabda tayyorlov guruh
- 13. Qaysi biri maktabga tayyorlov guruhi bolalariga o'rgatiladi.**
 *A. Yorug'lik, elektr va issiqlik hodisalari, magnit haqida ilk tushuncha berish.
 B. E. Vohidovning "Olma", she'ri yod oldiriladi.
 C. 5 gacha bo'lgan sonni o'zidan kichik bo'lgan ikkita songa ajratish.
 D. Quyosh va oy bilan tanishtirish
- 14. Qaysi ertaklar maktabga tayyorlov guruhda o'rgatiladi.**
 A. "Nima eksang shuni o'lasan", "Qarg'avoy", "Gilam", "Sahiylik va bahillik"
 B. "Qurbaqa qiz", "Zumrad va Qimmat", "Teremoq", "Xumacha polvon"
 *C. "Vafodor it", "Baraqxon", "Uch og'ayni botirlar", "Nima eksang shuni o'lasan", "Egri va to'g'ri"
 D. "Vafodor it", "Zumrad va Qimmat", "Gilam", "Qarg'avoy".
- 15. Imkoniyati cheklangan bolalar deganda qanday bolalarni tushunasiz?**
 A. Ko'zi ojiz, kar va zaif eshituvchi
 B. Ko'zi ojiz, kar-aqli zaif
 C. Ko'zi ojiz-aqli zaif, jismoniy rivojlanishida kamchiligi bor bolalar
 *D. Barchasi to'g'ri
- 16. "Qisqa muddatli guruhlar to'g'risida nizom qachon chiqqan**
 *A. 2007 yil

- B. 2001 yil
- C. 2005 yil
- D. 1997 yil

17. O'rta guruhda qaysi buyuk siymolar bilan tanishtiriladi?

- A. Ibn, Sino, A. Navoiy
- *B. A. Temur, A. Navoiy, Z, M. Bobur
- C. S. Rahimov, Ibn Sino
- D. Z. M. Bobur, S. Rahimov

18. Qaysi biri o'rta guruhga taaluqli?

- A.N.Narzullayev "O'lkam"
- B.Sh.Sa'dulla "Lola va mushuk"
- *C.E.Vohidov "Ukamning jangi"
- D.T.Adashboyev "Nasibaning olmasi"

19. Tubandagilardan qaysi biri noto'g'ri fikr?

- A.katta guruhda osmon, quyosh, oy, yulduz, havo, suv, bulut, yog'ingarchilik, tuman, shamol, chaqmoq haqida tushuncha beriladi.
- B.Katta guruhda kema, paroxod, samolyo't, vertalyo't bilan tanishtiriladi.
- C.Katta guruhda qarg'aning kuzda uchib kelishi va bahorda ketishi haqida ma'lumot beriladi.
- *D.Radio, televizor, videomagnitafon, kompyuter haqida ma'lumot berish katta guruhda amalga oshiriladi.

20. Tubandagi ertaklardan qaysi biri katta guruhda o'tilmaydi?

- A."Qarg'avoy", "Ur to'qmoq"
- *B."Gilam"
- C."Vafodor it"
- D."Qurbaqa qiz", "Xurmacha polvon"

21. Quyidagilardan qaysi biri noto'g'ri.

- *A. 3-4 yoshli bolalarga O'zbekiston bayrog'idagi ranglarning ramziy ma'nosi tushintiriladi.
- B. Kichik guruhda O.To'xtaboyevning "Hassa" hikoyasi so'zlab beriladi.
- C..Katta guruhda E.Vohidovning "O'lka" she'ri" yod oldiriladi.
- D.O'rta guruhda " Bayroq" qirqib- yopishtirishga o'rgatiladi.

22. Kichik guruh bolalari qanday mavzular bo'yicha qurish-yasashga o'rgatiladi.

- A. gugurt qutichalaridan mebellar yasash
- B. korzinkalar yasash
- *C. "Uycha", "Zinapoya", "Uzun yo'l", "Kuchukchaga uycha"
- D. "Qayiqcha", "shapkacha" yasash

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I. A. Karimov.Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori"Toshkent."Sharq" 1997
2. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi"
3. "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim konsepsiyasi". Toshkent . 2008.
4. S. S. Mirdjalilova, M. Sh. Rasulyeva va boshqalar. "Bolajon" tayanch dasturi. Toshkent. 2010.
- 5."Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari". Toshkent – 2013
6. M. Fayzullayeva, M. Rustamova, Z. Raximova. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni rejalashtirish" T. 2011
7. D. Sharipova.. "Agar bolam sog'lom bo'lsin desangiz" Metodik qo'llanma. T. 2006
8. T. S. Usmonxo'jayev, S. T. Islomova. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya". "Ilm Ziya" nashryoti. T.2006

3.1.2.(B) Mavzu: Reja tuzishda dasturdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari (2 soat amaliy)

Maqsad: Mashg'ulotlar uchun oylik reja tuzishda mavzu tanlashning o'ziga xos xususiyatlari. Ijtimoiy turmush bilan bogliq oddiydan murakkabga tamon tamoyiliga asosan mavzularni barcha yosh guruhlar uchun to'g'ri tanlashni mashq qilish

Kutiladigan natija: "Bolajon", "Bilimdon" dasturi asosida mavzularni to'g'ri tanlash. o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib amalda qo'llaydilar.

Dars jihozi: 5 ta "Bolajon", "Bilimdon" dasturi, marker, plakat, rangli qog'oz

Dars metodi: "Kichik guruhlarda ishlash", "Charxpalak", "Klaster"

Reja:

1. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari uchun mavzularni to'g'ri tanlash.
2. Matematika mashg'ulotlari uchun mavzularni to'g'ri tanlash.
3. Nutq o'stirish mashg'ulotlari uchun mavzularni to'g'ri tanlash.

Darsning borishi:

I . "Kichik guruhlarda ishlash". Tinglovchilar doira, dutor, nay, changlarni harakat orqali ifodalaydilar va 4 guruhga ajratiladi. Vazifa.

"Doiralar" guruhi tabiat bilan tanishtirish, "dutorlar" guruhi matematika, "naylar" guruhi nutq o'stirish, "Changlar" guruhi badiiy adabiyot mashg'ulotlari uchun 5 tadan mavzu tanlash topshirig'ini bajaradilar. Har qaysi guruh o'z ishining taqdimotini qiladilar

II. O'quv xonasining 5ta joyiga "Ilk yosh", "Kichik", "O'rta", "Katta", "Maktabga tayyorlov" deb yozilgan kartochkalar olib qo'yiladi. Qutichada 5ta guruhga tegishli mavzular yozilgan kartochkalar aralashgan holda qo'yiladi. Tinglovchilar bittadan oladilar va tegishli guruhga olib borib qo'yish topshirig'ni bajaradilar. Topshiriq tahlil qilinadi.

III . "Bo'ron" enerjayzer o'yini.

IV. Tinglovchilar darsda 5 ta o'rgangan narsasini kartochkaga yozadilar doskada plakatga yopishtiradilar va o'qiydilar.

1. Tarbiyachi mashg'ulot paytida bolalarning izza bo'lmasligi, qo'rqmasligi, uyalmasligi, mustaqil fikr yuritishi, erkin harakat qilishi uchun sharoit yaratdi. Bu bilan "Ta'lim to'g'risida"gi qonuning nechanchi moddasini amalga oshirdi.

A. 25 –modda

* B.3- modda

C. 4-modda

D. 8-modda

2. "O'zbekiston Respublikasida Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida Nizom" vazirlar mahkamasi tomonidan qachon tasdiqlangan?

A. 2008 yil 28 sentyabr

B. 2001 yil 4 yanvar

C. 2001 yil 18 yanvar

* D. 2007 yil 25 oktabr

3.Kar bolalar guruhida bolalar soni nechta?

*A.8ta

B.10-12 ta

C.6 ta

D.12-15 ta

4. Qaysi guruhda bolalar soni 15 ta bo'ladi?

A. Ko'zi ojiz bolalar guruhida

B.Nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalar guruhida

*C. 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhida

D. Aqli noraso bolalar guruhida.

5. Oila sharoitida bolalarni maktabga tayyorlash qanday dastur asosida amalga oshiriladi.

- A. Qisqartirilgan, ixchamlashtirilgan alohida dastur asosida.
- B. Oila sharoitida ham, MTM da ham “Bolajon” dasturi asosida.
- C. Hech qanday dasturga amal qilmagan holda.
- D. Oilada bolani maktabga tayyorlash shart emas.

6. “Bolajon” dasturining mazmuni nechta tamoyilga tayanadi?

- C. 10 ta
- D. 9 ta *
- C. 8 ta
- E. 7 ta

7. Qaysi biri “Bolajon” dasturi tamoyiliga kirmaydi?

- E. Maktabgacha ta’limning davlat va jamiyat talablariga mosligi.
- F. Maktabgacha ta’limning demokratikligi.
- G. Maktabgacha ta’limning ijtimoiy turmush bilan mosligi.
- H. *Milliy urf-odatlar va tarixiy xotira, o’zlikni anglash tuyg’usi rivojlanayotganligi.

8. “Bolajon” dasturida maktabga tayyorlash davri shartli ravishda nechta bosqichga ajratiladi?

- A. 6 bosqich
- B. 5 bosqich
- *C. 7 bosqich
- D. 4 bosqich

9. “Bolajon” dasturidan kimlar foydalanishi ko’rsatilgan qatorni toping.

- *A. Maktabgacha ta’lim tizimi muassasalari mutaxassislari, oilalar, maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalari, KHK, oliy ta’lim muassasalari.
- B. MTM mudiralari va tarbiyachilari.
- C. MTM tarbiyachilari, ota-onalar.
- D. MTM uslubchilari va tarbiyachilari.

10. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash qayerlarda amalga oshiriladi?

- A. Oilada, davlat MTMda
- B. Nodavlat MTMda
- C. Davlat va nodavlat MTMda
- *D. Oilada, davlat va nodavlat MTMda

11. Ta’lim-tarbiya ishlar rejasini tuzishda asosan qaysi hujjatdan foydalaniladi?

- A. “Maktabgacha ta’lim kosepsiyasi”dan
- *B. “Bolajon” dasturidan
- C. Nizomdan
- D. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonundan

12. “Bolajon” dasturining nechta omili bor?

- A. 3
- * B. 4
- C. 6
- D. 5

13. Tarbiyachi mashg’ulot paytida bolalarning uyalmasligi, izza bo’lmasligi, qo’rqmasligi uchun sharoit yaratdi. Bu bilan qaysi tamoyilga tayandi.

- *A. Maktabgacha ta’limning insonparvarligi
- B. Maktabgacha ta’limning ijtimoiy turmush bilan mosligi
- C. Bolalarning qobiliyati, ehtiyoji, imkoniyatiga mosligi
- D. Maktabgacha ta’limning oila va boshlang’ich ta’lim bilan uzviyligi

14. Navoiy, rasmlari orqali tanishga o’rgatish qaysi guruhda amalga oshiriladi?

- A. Maktabga tayyorlov guruh
- B. O’rta guruh

C. Katta guruh

*D. Kichik guruh

15. Kichik guruhda qaysi bayram ertaliklari o'tkaziladi?

*A. "Mustaqillik", "Mehrjon", "Navroz"

B. Harbiylar kuni

C. "Yangi yil"

D. "8-mart"

16. Dasturda Q.Muhammadiyning "Kichkina qushcha" she'ri qaysi guruhda berilgan?

A. o'rta guruh

*B. kichik guruh

C. katta guruh

D. maktabda tayyorlov guruh

17. Qaysi biri maktabga tayyorlov guruhi bolalariga o'rgatiladi.

*A. Yorug'lik, elektr va issiqlik hodisalari, magnit haqida ilk tushuncha berish.

B. E. Vohidovning "Olma", she'ri yod oldiriladi.

C. 5 gacha bo'lgan sonni o'zidan kichik bo'lgan ikkita songa ajratish.

D. Quyosh va oy bilan tanishtirish

18. Qaysi ertaklar maktabga tayyorlov guruhda o'rgatiladi.

A. "Nima eksang shuni o'rasan", "Qarg'avoy", "Gilam", "Sahiylik va bahillik"

B. "Qurbaqa qiz", "Zumrad va Qimmat", "Teremoq", "Xumacha polvon"

*C. "Vafodor it", "Baraqxon", "Uch og'ayni botirlar", "Nima eksang shuni o'rasan", "Egri va to'g'ri"

D. "Vafodor it", "Zumrad va Qimmat", "Gilam", "Qarg'avoy".

19. Imkoniyati cheklangan bolalar deganda qanday bolalarni tushunasiz?

A. Ko'zi ojiz, kar va zaif eshituvchi

B. Ko'zi ojiz, kar-aqli zaif

C. Ko'zi ojiz-aqli zaif, jismoniy rivojlanishida kamchiligi bor bolalar

*D. Barchasi to'g'ri

20. "Qisqa muddatli guruhlar to'g'risida nizom qachon chiqqan

*A. 2007 yil

B. 2001 yil

C. 2005 yil

D. 1997 yil

21. O'rta guruhda qaysi buyuk siymolar bilan tanishtiriladi?

A. Ibn, Sino, A. Navoiy

*B. A. Temur, A. Navoiy, Z. M. Bobur

C. S. Rahimov, Ibn Sino

D. Z. M. Bobur, S. Rahimov

22. Qaysi biri o'rta guruhga taaluqli?

A. N. Narzullayev "O'lkam"

B. Sh. Sa'dulla "Lola va mushuk"

*C. E. Vohidov "Ukamning jangi"

D. T. Adashboyev "Nasibaning olmasi"

23. Tubandagilardan qaysi biri noto'g'ri fikr?

A. Katta guruhda osmon, quyosh, oy, yulduz, havo, suv, bulut, yog'ingarchilik, tuman, shamol, chaqmoq haqida tushuncha beriladi.

B. Katta guruhda kema, paroxod, samolyot, vertalyot bilan tanishtiriladi.

C. Katta guruhda qarg'aning kuzda uchib kelishi va bahorda ketishi haqida ma'lumot beriladi.

*D. Radio, televizor, videomagnitafon, kompyuter haqida ma'lumot berish katta guruhda amalga oshiriladi.

24. Tubandagi ertaklardan qaysi biri katta guruhda o'tilmaydi?

A. "Qarg'avoy", "Ur to'qmoq"

*B. "Gilam"

C. "Vafodor it"

D. “Qurbaqa qiz”, “Xurmacha polvon”

25. Quydagilardan qaysi biri noto'g'ri.

*A. 3-4 yoshli bolalarga O'zbekiston bayrog'idagi ranglarning ramziy ma'nosi tushintiriladi.

B. Kichik guruhda O. To'xtaboyevning “Hassa” hikoyasi so'zlab beriladi.

C. Katta guruhda E. Vohidovning “O'lka” she'ri yod oldiriladi.

D. O'rta guruhda “Bayroq” qirgib- yopishtirishga o'rgatiladi.

26. Kichik guruh bolalari qanday mavzular bo'yicha qurish-yasashga o'rgatiladi.

A. gugurt qutichalaridan mebellar yasash

B. korzinkalar yasash

*C. “Uycha”, “Zinapoya”, “Uzun yo'l”, “Kuchukchaga uycha”

D. “Qayiqcha”, “shapkacha” yasash

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. S. S. Mirdjalilova, M. Sh. Rasulyeva va boshqalar. “Bolajon” tayanch dasturi. Toshkent. 2010.

2. “Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari”. Toshkent – 2013

3. M. Fayzullayeva, M. Rustamova, Z. Raximova. “Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish” T. 2011

3.1.3 (A)-Mavzu: TARBIYACHINING ISH HUJJATLARI

(2 soat nazariy)

Maqsad: Maktabgacha ta'lim muassasalarda ta'lim- tarbiya jarayonini rejalashtirish bo'yicha metodik ko'rsatmalar: tarbiyachilarning ish hujjatlari va ularning yuritilishi, har bir yosh guruhida hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni va har bir mashg'ulot qancha davom etishi, bir kunlik kundalik faoliyatning yoritilishi, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun mezonlar, bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish usullarini yoritib berish.

Qisqa muddatli guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirishda – istiqbol reja bolalar bilan ishlashda asosiy hujjat hisoblanib, u bolalar faoliyatining barcha turlarini va ularga xos kundalik ish shakllarini rejalashtirishni talab etishi, mazkur hujjatsiz tarbiyachining ish boshlashi tavsiya etilmasligi, istiqbolli mavzu rejasi bir oyga tuzilib, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olishi;

4. Mashg'ulot paytida ta'lim berish.

5. Bolalar bilan individual ish(mashg'ulotlardan keyin)

6. Ota-onalar bilan ishlash.

Rejada guruh bolalarining ro'yxati; adabiyotlar ro'yxati, ish kuni davomida bolalar faoliyatini tashkil etish bo'yicha mashg'ulotlar jadvali bo'lishi. Tarbiyachining yuritadigan ish hujjatlari. Pedagogik jarayonni rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, mashg'ulotlar jadvalini tuzish. Ertalabki soat, sayr, kechki soatlarni rejalashtirish to'g'risida tushuncha hosil qilish. O'z guruhi uchun reja tuzishni mashq qildirish.

Kutiladigan natija: Tinglovchilar ish yuritish hujjatlari, ularni qay tarzda yuritish lozimligini, mashg'ulotlar jadvali asosida oylik reja tuzish, kundalik reja tuzishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib oladilar.

Jihoz: Marker, plakat, skotch, proyektor, “Bolajon”dasturi.

Dars metodi: “Kichik ma'ruza”, “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”.

Reja:

1. Tarbiyachining yuritadigan ish hujjatlari.

2. Davomat, filtr, patronaj daftarlarini yuritish.

3. Ota-onalar haqida ma'lumot daftarini yuritish.

Darsning borishi:

I. Aqliy hujum. Tinglovchilarning har qaysi yuritadigan ish hujjatlaridan birini aytadi. Flipchart qog'ozga yozib boriladi.

II. Kichik ma'ruza . Slayd namoyish etiladi.

O'zbekiston Respublikasi XTV ning 2noyabr 2011 yildagi 252-sonli qaroriga ko'ra tarbiyachining ish hujjatlariga quyidagilar kiradi.

04-01 Oylik va kundalik ish reja

04-02 Davomat, filtr, patronaj daftari.

04-03 Ota-onalar haqida ma'lumot daftari.

04-04 Bolaning psixik va jismoniy rivojlanishi ko'rsatkichlari (Ilk yosh guruh daftari)

04-05 Bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili (1 yilda 2 marotaba)

04-06 Mashg'ulotlarni o'zaro kuzatish daftari

04-07 Guruh ota-onalar yig'ilishi bayonnomasi daftari

04-08 Malaka oshirish kursidan keyingi faoliyati yuzasidan tarbiyachining 3 yilga mo'ljallangan istiqbol rejasi va uning bajarilishi haqida ma'lumot.

Davomat daftari

Davomat daftari tikilgan, sahifalangan, muhirlangan, rahbar tomonida imzolangan bo'lishi kerak. Kundalik davomat tarbiyachi tomonidan bolalarning soni yozilganidan so'ng tasdiqlanadi, imzolanadi. Davomat har oyda yopiladi.

Filtr daftari

Filtr daftari tikilgan, sahifalanilgan, muhrlangan, imzolangan bo'lishi kerak.

No	Bolaning ismi va sharifi	Harorati	Terisi	Og'iz boshligi	Pedikulyo'z	Ota-onalar bilan suhbat	Ilova
1							
2							

Patronaj daftari

Patronaj daftari tikilgan, sahifalanilgan, muhrlangan, imzolangan bo'lishi kerak.

No	Bolaning ismi va sharifi	MTMga oxirgi kelgan kuni	Patronaj			Tashxisi	MTMga kelgan kuni	Imzo
			I	II	III			
			3 kunda	7 kunda	14 kunda			
1								
2								

Ota-onalar haqida ma'lumot daftari

No	Bolaning ismi va sharifi	Tug'ulgan yili	Otasining ismi va sharifi, ish joyi	Onasining ismi va sharifi, ish joyi	Manzili	Telefon

O'zaro mashg'ulotni tahlil qilish daftari

Sana, guruh, tarbiyac	Mashg'ulot, mavzu, mavzuning	Metodik jihatdan to'g'ri	Ilg'or usullardan foydalanilganl	Bolalarning yosh va taraqqiyot	Bolalarni ng o'zlashtiri	Mashg'ulot yuzasidan taklif va
-----------------------	------------------------------	--------------------------	----------------------------------	--------------------------------	--------------------------	--------------------------------

hi	dolzarbligi	o'tkazilganl igi	igi	xususiyatlarinin g hisobga olinganligi	sh darajasi	mulohazalar

Malaka oshirishdan keyingi istiqbol reja dasturi

t/r	Ishning mazmuni	2012-2013	2013-2014	2014-2015
1	“Ta’lim to’g’risida” gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ni bilishi va uni amaliyotga tadbqiq qilish.	+	+	+
2	“O’zbekiston Respublikasida” maktabgacha ta’lim konsepsiyasini bilishi va uni amaliyotga tadbqiq qilish.	+	+	+
3	“Maktabgacha ta’limga qo’yiladigan davlat talablari” ni bilish va uni amaliyotga tadbqiq qilish.	+	+	+
4	VM ning 2007 yil 25 oktyabrda 225-qarorini bilishi va uni amaliyotga tadbqiq qilish.	+	+	+
5	“Bolajon” dasturini bilishi va uni amaliyotga tadbqiq qilish.	+	+	+
6	“Bilimdon” dasturini amaliyotga tadbqiq qilish	+	+	+
7	XTV ning 252- sonli qarori asosida ish hujjatlarini yuritish.	+	+	+
8	Mashg’ulotlarda intefaul metodlardan foydalanish.	+	+	+
9	Mashg’ulotlarda “Aqliy hujum” metodidan foydalanish uchun kartochalar tayyorlash.	20	25	30
10	Mashg’ulotlarda “Kichik guruhlarda ishlash” metodidan foydalanish uchun ko’rgazma va tarqatma materiallarni tayyorlash.	15	20	25
11	Mashg’ulotlarda “Rolli o’yin” metodidan foydalanish uchun kerakli jihozlarni tayyorlash.	10	20	30
12	Mashg’ulotlarda “Klaster” metodidan foydalanish uchun kartochkalar tayyorlash.	10	15	20
13	Mashg’ulotlarda M. Montessoriy metodikasidan foydalanish uchun o’yin materiallari tayyrlash.	20	25	30
14	Guruh xonasida markazlarda tashkil qilish va uni takomillashtirish.	+	+	+
15	Ota-onalarn ta’lim-tarbiyaviy jarayonga jalb qilishni takomillashtirish.	+	+	+
16	Mashg’ulotlarda axborot texnologiyalardan foydalanish.	+	+	+
17	Internet tarmog’ida ishlash electron pochta xizmatidan foydalaishni bilish.	+	+	+
18	Mashg’ulotlarda charchoqni yozuvchi o’yinlardan foydalanish.	10	20	30

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang - barangdir.

Ta’lim-tarbiyaviy ishlarni muvafaqqiyatli amalga oshirilishi maktabgacha ta’lim muassasalardagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to’g’ri tashkil etishga bog’liqdir.

Tarbiyachining maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishida M. Montessori, IMYN kabi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy interfaol usullardan foydalanishi samarali natija beradi. Pedagogik texnologiyalar bilan sug'orilgan mashg'ulotlarda bolalar o'zlarini erkin his qiladilar, barcha topshiriqlarni bajonudil bajaradilar. Bolalar egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tez va zo'riqishsiz, oson egallaydilar, o'ynab zavq oladilar, tafakkurlari rivojlanadi.

Mashg'ulotlar jadvali

Mashg'ulotlar jadvali maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, to'plangan ilg'or ish tajriba va yangi tahrirdagi Davlat talablari asosida ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar ertalab 9.30 dan boshlanib, davomiyligi kichik guruhlarda 10-15 daqiqagacha, katta va tayyorlov guruhlarida 25-30 daqiqadan oshmasligi darkor.

Mashg'ulotlar oralig'ida bolalar bilan tetiklashtiruvchi, charchog'ini oluvchi o'yinlar o'tkaziladi. Har bir yo'nalish bo'yicha oy oxirida bolalar bilan mujassam - nazorat mashg'ulotlari o'tkaziladi va bolalarning dastur vazifalarini Qay darajada egallaganliklari tahlili qilinadi.

1-kichik guruh mashg'ulotlar jadvaliga kiritilgan "Ta'limiy o'yin-mashqlari"da (sensor tarbiya) zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan biri - Mariya Montessori metodikasini keng qo'llash tavsiya etiladi.

I-kichik guruhda 0,5 dan taqsimlangan atrof olam bilan tanishtirish mashg'uloti – tabiat bilan tanishtirish mashg'uloti bilan, badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'uloti - loy mashg'uloti bilan, qurish-yasash mashg'uloti esa - applikatsiya mashg'uloti bilan almashtirilib o'tiladi.

II-kichik guruhdan boshlab jadvalda 0,5 dan taqsimlangan tabiat bilan tanishtirish mashg'uloti - badiiy adabiyot bilan, qurish-yasash mashg'uloti esa - applikatsiya mashg'uloti bilan almashtirilib o'tiladi. Katta-tayyorlov guruhlarida qurish-yasash mashg'uloti qo'l mehnati bilan almashlashtirilib o'tiladi.

O'qish va savodga tayyorlash vazifalari o'z ichiga kichik guruhda asosan tovushlarni to'g'ri talaffuz etish mashqlarini oladi. O'rta, katta guruhlarida esa o'qish va savodga tayyorlash vazifalari nutq o'stirish mashg'uloti vazifalariga qo'shib olib boriladi.

Tayyorlov guruhda aloxida savodga tayyorlash mashg'uloti kiritiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni.

№	Mashg'ulot nomi	Guruhlar				
		Ilk yosh 2-3 yosh	kichik 3-4 yosh	o'rta 4-5 yosh	katta 5-6 yosh	tayyorlov 6-7 yosh
1	Atrof olam bilan tanishtirish	0,5	1	1	2	2
2	Tabiat bilan tanishtirish	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5
3	Ta'limiy o'yin-mashqlari(sensor tarbiya)	1	-	-	-	-
4	Nutq o'stirish	1	1	2	2	1
5	Savodga tayyorlash	-	-	-	-	1
6	Badiiy adabiyot bilan tanishtirish	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5
7	Ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish	-	1	1	1	2
8	Rasm	1	2	2	2	2
9	Applikatsiya	0	0,5	0,5	0,5	0,5
	Qurish-yasash (qo'l mehnati*)	1	0,5	0,5	0,5*	0,5*
10	Loy ishi	0,5	1	1	1	1
11	Jismoniy tarbiya	2	2	2	2	2
12	Musiq	2	2	2	2	2

	Jami	10	12	13	14	15
--	-------------	-----------	-----------	-----------	-----------	-----------

ILK YOSHLI GURUH.

Mashg'ulotlar jadvali

T/r	Kunlar	Mashg'ulot nomi.
1	Dushanba	1.Ta'limiy o`yinlar(sensor tarbiya). 2.Qurish-yasash
2	Seshanba	1.Atrof-olam(0,5) Tabiat(0,5) 2. Musiq.
3	Chorshanba	1. Rasm. 2.Jismoniy tarbiya.
4	Payshanba	1. Nutq o`stirish. 2. Musiq.
5	Juma	1. Loy(0,5). Badiy adabiyot(0,5) 2. Jismoniy tarbiya.
6	Shanba	1.Ko`ngil-ochish tadbiri.

KICHIK GURUH

Mashg'ulotlar jadvali

T/r	Kunlar	Mashg'ulot nomi.
1	Dushanba	1. Nutq o`stirish 2.Musiq.
2	Seshanba	1. Matematika. 2 Qurish- yasash(0,5). Qirqib- yopishtirish.(0,5) 3.Jismoniy tarbiya.
3	Chorshanba	1. Atrof-olam. 2.Rasm. 3.Musiq.
4	Payshanba	1. Badiy adabiyot (0,5). Tabiat (0,5). 2. Loy.
5	Juma	1. Rasm. 2.Jismoniy tarbiya.
6	Shanba	1.Ko`ngil-ochish tadbiri.

O'RTA GURUH

Mashg'ulotlar jadvali

T/r	Kunlar	Mashg'ulot nomi.
1	Dushanba	1. Nutq o'qitish. 2. Musiq.
2	Seshanba	1. Matematika. 2. Qurish-yasash (0,5). Qirqib-yopishtirish. (0,5) 3. Jismoniy tarbiya.
3	Chorshanba	1. Nutq o'qitish. 2. Rasm. 3. Musiq.
4	Payshanba	1. Atrof-olam. 2. Loy. 3. Jismoniy tarbiya.
5	Juma	1. Badiy adabiyot (0,5). Tabiat (0,5). 2. Rasm.
6	Shanba	1. Ko'ngil-ochish tadbiri.

KATTA GURUH

Mashg'ulotlar jadvali

T/r	Kunlar	Mashg'ulot nomi.
1	Dushanba	1. Nutq o'qitish. 2. Rasm. 3. Musiq.
2	Seshanba	1. Matematika 2. Qurish-yasash (0,5). Qirqib-yopishtirish. (0,5) 3. Jismoniy tarbiya.
3	Chorshanba	1. Atrof-olam. 2. Badiy adabiyot (0,5). Tabiat bilan tanishtirish (0,5). 3. Musiq.
4	Payshanba	1. Nutq o'qitish. 2. Loy 3. Jismoniy tarbiya.
5	Juma	1. Atrof-olam. 2. Rasm.
6	Shanba	1. Ko'ngil-ochish tadbiri.

MAKTABGA TAYYORLOV GURUH

Mashg'ulotlar jadvali

T/r	Kunlar	Mashg'ulot nomi.
1	Dushanba	1. Atrof-olam. 2. Rasm 3. Musiqa.
2	Seshanba	1. Matematika. 2. Qurish-yasash(0,5). Qirqib-yopishtirish.(0,5) 3. Jismoniy tarbiya.
3	Chorshanba	1. Nutq o'qitish. 2. Loy 3. Musiqa.
4	Payshanba	1. Matematika. 2. Savodga tayyorlash. 3. Badiiy adabiyot (0,5). Tabiat (0,5).
5	Juma	1. Atrof-olam. 2. Rasm 3. Jismoniy tarbiya.
6	Shanba	1. Ko'ngil-ochish tadbiri.

3.1.3(B)-Mavzu: Ta'lim-tarbiya ishini va rejalashtirish. (2 soat amaliy)

Maqsad: Tinglovchilarda ertalabki soat, sayr va kechki soatlarni tashkil qilish, rejalashtirish ko'nikmasini hosil qilish. Oy davomida ota-onalar bilan ishlashni mashq qilish. Kundalik rejada mashg'ulot mavzularini markazlarga joylashtirishga o'rgatish.

Kutiladigan natija: MTM tarbiyachilari o'z guruhi uchun ertalabki soat, sayr payti, kechki soat qismlarini to'g'ri rejalashtirishni o'rganib oladilar va amaliyotda qo'llaydilar.

Jihoz: Flipchart qog'oz, marker, skotch, tarqatma, proyektor.

Reja:

1. Ertalabki soatni rejalashtirish
2. Mashg'ulotlarni rejalashtirish
3. Sayrni rejalashtirish
4. Kechki soatni rejalashtirish

Darsning borishi:

- I. "Aqliy hujum". Ertalabki soat, sayr, kechki soatning qismlari. Javoblar doskada yoziladi.
- II. Ertalabki soat, sayr, kechki soatning qismlari ko'rsatilgan slayd namoish etiladi.
- III. "Kichik guruhlarda ishlash". Qo'ziqorin, qaldirg'och, kapalak, lola rasmlarini tanlashlariga qarab 4 guruhga ajratiladi. Karusel usulida ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarni, ertalabki soat, sayr, kechki soat qismlari bilan bog'liq ishlarni plakatga yozadilar. 1- plakatga "Ertalabki soat" 2-plakatga "sayr", 3-plakatga "Kechki soat", 4-plakatga "Ota-onalar bilan ishlash" deb yoziladi.
- IV. "Boshqaruvchini top" enerjayzer o'yini.
- V. "Kichik guruhlarda ishlash".

Jo'ja, chumchuq, mushukcha, kuchuk ovozigina taqlid qilish orqali 4 guruhga ajratiladi. Barcha guruhlariga "Bolajon" dasturi tarqatiladi. Kichik, o'rta, katta, maktabga tayyorlov guruhlarini uchun etalabki soatning 6 qismini, sayrning 5 qismini, kechki soatni rejalashtirishni mashq qiladilar. Har qaysi guruh o'z ishini plakatda ifoda etadilar. Guruh ishlari taqdimoti o'tkaziladi. Tahlil qilinadi. O'qituvchi tomonidan qo'shimcha qo'shiladi, xulosa qilinadi.

2. Tarbiyachining ish rejasi shakllari

1. Tarbiyachi oylik ta'lim-tarbiya ish rejasini tuzadi va metodistga tasdiqlash uchun beradi.
2. Oylik ish reja daftari quyidagicha to'ldiriladi:
 - ish rejaning titul varag'i;
 - haftalik mashg'ulotlar jadvali;
 - bir oylik mashg'ulotlarning istiqbol rejasini;
 - xar 15 kunga mo'ljallangan ertalabki badantarbiya mashqlari;
 - ota-onalar bilan ishlash rejasini;
 - rejaning asosiy qismida - kundalik faoliyat bayoni beriladi.

Ta'lim-tarbiyaviy ishlar reja namunalari

1. Titul varag'i:

... TMFMTTEB (Ta'lim muassasasi faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi)
 ...-sonli MTM ... guruhining
 2014-2015 o'quv yili

ISH REJASI

Tarbiyachi

2. Tasdiqlangan mashg'ulotlar jadvali.
3. Oylik istiqbol ish rejasini.
4. Ertalabki badantarbiya (xar oyda 2 ta kompleks).
5. Ota- onalar bilan ishlash.
6. Kundalik ish reja.

Kundalik reja quyidagicha bayon etiladi

Sana	1.	Ertalabki Soat	1. Suhbat (mavzu); 2. O'yinlar (mavzu); 3. Mustaqil faoliyat; 4. Mehnat; 5. Bolalar bilan yakka tartibda ishlash. 6. Ertalabki badan tarbiya
	2.	Mashg'ulotlar	1. Mashg'ulot yo'nalishi, mavzu va maqsadi. 2. Mashg'ulotning borishi (tarkibiy qismlari). 3. Zaruriy jihoz va ko'rgazmali qurollar.
	3.	Sayr	1. Kuzatish. 2. Harakatli o'yin. 3. Ixtiyoriy o'yinlar. 4. Mehnat. 5. Tinch o'yin (Sayr qismlarining ketma- ketligi olingan mavzuga qarab o'zgarishi mumkin)

4.	Kunning 2-yarmi	1. Yakka tartibda ishlash. 2. Ifodali o`qish va suhbat. 3. O`yinlar (ta`limiy, stol ustida, voqeaband, ixtiyoriy, saxnalashtirilgan). 4. Ko`ngilochar soatlar (har oyda 1-2 marta).
5	Kechki soat	1. Ixtiyoriy o`yinlar. 2. Kechki sayr. 3. Ota-onalar bilan ishlash.

Kundalik reja bayonining yozilishiga qisqacha sharx:

Ertalabki soatda qilinadigan pedagogik ishning asosiy vazifasi bolalarda tetik, quvnoq kayfiyat uyg`otishdir. Bunda bola faoliyati erkin bo`ladi, bolaning istagi va qiziqishiga tayaniladi, faoliyatlarning shakli va mazmuni qiziqarli bo`lishi ta`minlanadi.

Tarbiyachi har kuni ertalabki soatda bolalarning birlamchi tibbiy ko`rik asosida qabul qiladi, ota-onalar bilan suhbat olib boradi, badantarbiya mashqlarini o`tkazadi. Lekin bu vazifalar kundalik faoliyatda aks ettirilmaydi.

Kundalik faoliyat bayonida ertalabki soatda tarbiyachi bolalar bilan belgilangan mavzu yuzasidan qisqa suhbat uyushtirishi ko`rsatiladi, asosiy o`rinni bolalarning o`yin faoliyati uchun ajratiladi. Ijodiy o`yinlarni, tinch o`yinlarni (qurish-yasash, rasmlar kitoblarni tomosha qilish) tashkil etish rejalashtiriladi.

Rejada bolalarning mehnat faoliyati keng yoritiladi. Mehnat tarbiyasining to`rtta vazifalari besh kunga bo`linib yoziladi. Navbatchilik har bir kun uchun alohida rejalashtirilmaydi. Rejada navbatchilikka yangilik kiritilsa, navbatchilik vazifasi murakkablashtirilsa yoki sharoitlar o`zgarsa, yangi mazmuni alohida yoritiladi.

Bolalarning mustaqil faoliyati rejalashtirilmaydi, u bolaning qiziqishiga va kayfiyatiga bog`lik. Har bir bola erkin holda o`zi istagan faollik markazini tanlashi va u yerda ishlashi mumkin. Tarbiyachi bolalarni kuzatishi va zarur holda unga yordam ko`rsatishi lozim.

Tarbiyachilar! Faollik markazida bolani majburlamang, bolaning erkin faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yaratib bering. Eng asosiysi faollik markazida hamma narsa bola uchun qiziqarli bo`lishi lozim.

Mashg`ulotning maqsadida tarbiyachi bolalarga beriladigan ta`lim va tarbiya vazifalarni ko`rsatadi, bolalar egallashi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarini hajmini aniq belgilaydi. Mashg`ulotning borishini to`liq yozilmay, manbaning muallifi, ishlanmaning betini ko`rsatib o`tish kifoya. So`ngra zaruriy jihoz va ko`rgazmalarni ko`rsatadi. Mashg`ulot ishlanmasi yozilgan metodik qo`llanma yo`q bo`lsa, tarbiyachi mashg`ulot ishlanmasini yozishga majbur.

Sayrni rejalashtirish. Tarbiyachining sayrdagi asosiy vazifasi bolalar uchun faol, mazmunli, xilma-xil va qiziqarli faoliyatni tashkil etishdir.

Sayr:

1. Kuzatish.
2. Xarakatli o`yin.
3. Ixtiyoriy o`yinlar.
4. Mehnat.
5. Tinch o`yin

(Sayr qismlarining ketma-ketligi olingan mavzuga qarab o`zgarishi mumkin.)

Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish.

Kunning ikkinchi yarmida bolalar bilan yakka ishlash, xilma-xil o`yin faoliyati egallaydi: (ta`limiy, stol ustida, voqeaband, ixtiyoriy, saxnalashtirilgan), ko`ngilochar soatlar (har oyda 1-2 marta) rejalashtiriladi.

Tarbiyachi kechki soatda ixtiyoriy o`yin, ixtiyoriy sayr va ota-onalar bilan ishlashni rejalashtiradi

Kundalik reja hisobotini yozilishiga qisqacha sharx:

Tarbiyachi kundalik hisobot yozmaydi. Har oyning oxirida nazorat mashg'ulotini tayyorlab o'tkazadi. Nazorat mashg'ulotining tahlili joriy oyning oxirgi kunlarida o'tkaziladi. Mashg'ulot tahlili bo'yicha bayonnoma yozilib, mashg'ulot natijasiga ko'ra har bir tarbiyachiga vazifalar beriladi.

O'quv yili davomida ikki marta (1-yarim yillik, 2- yarim yillik) Davlat talablarining o'zlashtirilishi bo'yicha diagnostik tahlil o'tkaziladi.

Tarbiyachining ta'lim-tarbiya ishini to'g'ri rejalashtirishi avvalo faoliyat turlari bo'yicha pedagogik jarayonni tashkil etish va takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Test savollari

1. MTM da o'quv yilining boshlanishi va tugatilishi?

A. MTM da o'quv yili 1 sentabrda boshlanadi 25 mayda tugatiladi.

*B. 2 sentabrda boshlanadi 1 iyunda tugatiladi.

C. 5 sentabrda boshlanadi 25 mayda tugatiladi.

D. 29 avgustda boshlanadi 25 mayda tugatiladi.

2. Ertalabki soat necha qismdan iborat.

A. 4 qismdan

B. 3 qismdan

*C. 6 qismdan

D. 5 qismdan

3. O'rta guruhda 1 haftada jami necha mashg'ulot o'tkaziladi?

A. 12

*B. 13

C. 14

D. 15

4. Sayr payti necha qismdan iborat.

A. 4 qismdan

B. 3 qismdan

C. 6 qismdan

*D. 5 qismdan

5. Tarbiyachi ish rejasining qismlari tartibi bo'yicha to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

*A. Mashg'ulotlar jadvali, oylik reja, ertalabki badan tarbiya (har oyda 2 ta kompleks), ota-onalar bilan ishlash, kundalik ish reja

B. mashg'ulotlar jadvali, ertalabki badan tarbiya, oylik reja, ota-onalar bilan ishlash, haftalik reja.

C. Mashg'ulotlar jadvali, ota-onalar bilan ishlash, oylik reja, ertalabki badan tarbiya, kundalik reja.

D. Mashg'ulotlar jadvali, oylik reja, kundalik reja.

6. Ertalabki soatning qaysi qismi kundalik rejada ochib yozilmaydi?

A. Suhbat

B. O'yin

*C. Mustaqil faoliyat

D. Mehnat

7. Ertakni sahnalashtirish kun tartibining qaysi qismida amalga oshiriladi?

A. Ertalabki soatda

*B. Kunning ikkinchi yarmida

C. Sayrda

D. Kechki soatda

8. Sayr paytini rejalashtirishdagi xatolikni aniqlang.

*A. Kuzatish

B. Shamolning qaysi tomonga qarab esishini kuzatish

C. "Tulki tovuqxonada" harakatli o'yinini o'ynatish

D. Gulzordagi gullarni sugʻorish

9. Atrof olam bilan tanishtirish mashgʻuloti qaysi guruhlarda haftasiga 1 marta qoʻyiladi?

A.*Kichik, oʻrta guruhlarda

B.Katta guruhda

C.Maktabga tayyorlov guruhda

D.Ilk yoshli guruhda

10. Nazorat mashgʻulotlari qachon oʻtkaziladi.

A. Chorak oxirida

B. Yarim yil oxirida

*C. Oy oxirida

D. Yil oxirida

11. Ilk yoshli guruhda qaysi mashgʻulotlar 2 haftada 1 marta oʻtkaziladi.

A. Qirqib –yopishtirish, badiiy adabiyot, atrof -olam bilan tantishtirish, tabiat bilan tanishtirish

*B. Atrof -olam bilan tantishtirish, tabiat bilan tanishtirish, badiiy adabiyot, loy ishi.

C. Rasm, loy ishi badiiy adabiyot, atrof -olam bilan tantishtirish

D. Tabiat bilan tanishtirish, loy ishi, matematika, atrof -olam bilan tantishtirish

12. Qaysi guruhda haftasiga 12 mashgʻulot oʻtkaziladi.

*A. Kichik

B. Oʻrta

C. Katta

D. Maktabga tayyorlov

13. Qaysi guruhda haftasiga 15 mashgʻulot oʻtkaziladi

*A. Maktabga tayyorlov,

B. Katta

C. Oʻrta

D. Kichik

14. Xato fikrni aniqlang

A. “Ota-onalar haqida maʼlumot” daftarida bolaning ismi va sharifi, tugʻilgan yili, otasining ismi va sharifi, ish joyi, onasining ismi va shafi, ish joyi, manzili, telefon raqami yoziladi.

* B. Patronaj daftarida bolaning ismi va sharifi, harorati, terisi, ogʻiz boʻshligʻi, pedikulyoz, ota-onalar bilan suhbat, iloova jadvallari toʻldiriladi.

C. Filtr daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, imzolangan boʻlishi kerik.

D. “Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qoʻyiladigan davlat talablari” asosida bolalarning rivojlanish koʻrsatkichlarini tahlil qilish bir yilda 2 marta amalga oshiriladi

15. Aqliy mehnatni koʻp talab qiladigan mashgʻulotlar xaftaning qaysi kunlariga rejalashtiriladi.

*A. seshanba, chorshanba, payshanba

B. dushanba

C. juma, payshanba

D. seshanba

16. Mashgʻulotlar jadvalini tuzishga qoʻyiladigan talablardan biri toʻgʻri koʻrsatilgan qatorni aniqlang.

*A. Jismoniy mehnatni talab qiladigan mashgʻulotlar bilan aqliy mehnatni talab qiladigan mashgʻulotlarni aralashtirib qoʻyish

B. Jismoniy tarbiya mashgʻuloti bilan musiqa mashgʻulotini bir kunda qoʻyish

C. Aqliy mehnatni talab qiladigan mashgʻulotlarni bir kunda qoʻyish

D. Jismoniy mehnatni talab qiladigan mashgʻulotlarni bir kunga qoʻyish

17. Quyidagilardan qaysi biri ertalabki soatda oʻtkazilmaydi

A. “Koʻzgu” oʻyinini oʻtkazish

B. Nasiba va Rustam bilan “S” tovushi ustida ishlash

C. Lego oʻyinlarini oʻynash

*D. “Ovchi va quyonlar” oʻyinini oʻynatish

18. Qaysi vazifa kechki soatga rejalashtirilmaydi

- A. Qo'g'irchoq teatri qo'yib berish
 B. Rasm mashg'ulotida ishni oxiriga yetkazmagan bolalar bilan ishlash
 *C. Matematika mashg'ulotini o'tkazish
 D. Bolalarning tug'ilgan kuniga bag'ishlangan tadbir o'tkazish
- 19. Tarbiyachining yuritadigan ish hujjatlari nechta?**
 A. 10 ta
 *B. 8 ta
 C. 11ta
 D. 9 ta
- 20. Katta guruhda 1 haftada jami necha mashg'ulot o'tkaziladi?**
 A. 12
 B. 13
 *C. 14
 D. 15
- 21. Kunning ikkinchi yarmini o'tkazish necha qismdan iborat.**
 A. 4 qismdan
 *B. 3 qismdan
 C. 6 qismdan
 D. 5 qismdan
- 22. Qo'l mehnati qaysi guruhdan boshlab amalga oshiriladi?**
 A. Kichik. B. Orta. *C. Katta D. Ilk yosh
- 23. Voqeaband - ijroli o'yinlar qaysi guruhlarda o'ynatiladi?**
 A. Kichik. B. O'rta. C. Ilk yosh *D. Hamma guruhda
- 24. Ilk yoshli guruhda haftada necha mashg'ulot o'tkaziladi?**
 A. 12
 B. 13
 C. 11
 *D. 10
- 25. N. Orifjonovning "Qishda" she'rini yod oldirish qaysi oylarga rejalashtiriladi.**
 A. yanvar, fevral, mart
 B. sentabr, oktabr, noyabr
 C. mart, aprel, may
 * D. dekabr, yanvar, fevral
- 26. Tarbiyachining oylik rejasida musiqa mashg'uloti uchun mavzu ko'rsatiladimi?**
 A. Mavzu ko'rsatilmaydi
 *B. Mavzu ko'rsatiladi
 C. Bilmayman
 D. To'g'ri javob yo'q
- 27. Qaysi vazifa sayr paytida amalga oshirilmaydi?**
 A. Chumchuqning chug'urlashini kuzatish
 B. Qor yog'ishini kuzatish
 *C. Dildora, Tohirilar bilan "L" tovushi ustida ishlash
 D. "Tulki tovuqxonada" o'yinini o'ynatish
- 27. Al. Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, M. Ulug'bek, bilan tanishtirish qaysi guruhda amalga oshiriladi.**
 A. maktabga tayyorlov guruhda
 B. kichik guruhda
 *C. katta guruhda
 D. o'rta guruhda
- 28. Tubandagi fikrlardan qaysi biri noto'g'ri?**
 A. o'rta guruhda ilk matematika mashg'uloti xaftasiga bir marta o'tkaziladi.
 B. Ilk yoshli guruhda jismoniy tarbiya mashg'uloti ikki marta o'tkaziladi.
 *C. Kichik guruhda tabiat bilan tanishtirish xaftasiga 1 marta o'tkaziladi

D.Maktabga tayyorlov guruhda nutq o`stirish xaftasiga 1 marta o`tkaziladi.

29. Qaysi vazifa kechki soatga rejalashtirilmaydi

A. Qo`g`irchoq teatri qo`yib berish

B. Rasm mashg`ulotida ishni oxiriga yetkazmagan bolalar bilan ishlash

*C. Nutq o`stirish mashg`ulotini o`tkazish

D. Bolalarning tug`ilgan kuniga bag`ishlangan tadbir o`tkazish

Foydalangan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi XTVning 2 noyabr 2011 yildagi 252-sonli qarori materiallari.

2. S. S. Mirdjalilova, M. Sh. Rasulyeva va boshqalar. "Bolajon" tayanch dasturi. Toshkent. 2010

3. M. Fayzullayeva, M. Rustamova, Z. Raximova. "Maktabgacha ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish" T. 2011

3.1.4- Mavzu: Bolalarning ta`lim samaradorligi va rivojlanishini kuzatish hamda baholash (2soat amaliy)

Maqsad:Boshlang`ich diagnostikani amalga oshirish pedagogga qisqa muddatli guruhga qabul qilinayotgan bolaning individual xususiyatlari va qobiliyatlarini aniqlash, ta`limga yakka yondashish strategiyasini ishlab chiqishga yordam berishi, bunday diagnostika ota-onalar bilan individual suhbat va birinchi hafta davomida bolani kuzatish asosida amalga oshirilishi, ota-onalarni xabardor qilish va hamkorlikka jalb qilish haqida tushuncha berish.

Bola tomonidan erishilgan bilim va ko`nikmalarning Davlat talablariga mosligi diagnostikasi haqida tushuncha berish: bola rivojlanishini xaqiqiy baholash, ta`limni rejalashtirish va pedagogning ta`limni amalga oshirishga tayyorlanishi uchun ma`lumot olish imkoniyatini berishi, ta`lim jarayonida diagnostika ikki marta amalga oshirilishi: dekabr va may oyining oxirgi haftasida. Bolalar rivojlanishining to`rt asosiy sohasi bo`yicha kuzatish va baholash jarayoni amalga oshirilishi haqida tushuncha berish.

Kutiladigan natija: Tarbiyachilar yil davomida 2 marta (oraliq, yakuniy) bolalarning rivojlanish ko`rsatkichlarini tahlil qilishni o`rganib oladi va amaliyotda qo`llaydi.

Jihoz: 4 ta yo`nalish bo`yicha barcha guruhlar uchun mezonlar ko`rsatilgan tarqatma, qalam.

Dars metodi: "Kichik guruhlarda ishlash"

Reja:

1. Jismoniy rivojlanish yo`nalishi bo`yicha bolalarning rivojlanish ko`rsatkichlarini baholash.

2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish bo`yicha bolalarning rivojlanish ko`rsatkichlari tahlil qilish.

3. Nutq o`stirish savodga tayyorgarlik bo`yicha bolalarning o`zlashtirishini aniqlash.

4. Bilish jarayoni bo`yicha bolalarning bilim va ko`nikmalarini baholash.

Darsning borishi:

I. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish ko`rsatkichlarini tahlil qilish XTVning 2 noyabr 252-sonli qaroriga asosan tarbiyachi yuritadigan ish hujjatlaridan biridir.

Tarbiyachi yil davomida 2 marta:

I-yarim yil (sentyabr, oktyabr, noyabr, dekabr) oylari uchun oraliq.

II. II-yarim yil (yanvar, fevral, mart, aprel, may, iyun oylari) uchun yakuniy nazorat ishlarini olib boradi.

"Maktabgacha ta`lim yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo`yiladigan davlat talablari asosida 4 ta yo`nalish".

1. Jismoniy rivojlanish
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish
3. Nutq o‘stirish savodga tayyorgarlik
4. Bilish jarayoni

bo‘yicha bolalarning rivojlanish ko‘rsatgichi (jami ball, foiz, darajasi) aniqlanadi.

Mezonlar bo‘yicha har bir bola 3 balli tizimda baholanadi. Maksimol ballni aniqlash uchun mezonlar soni 3 ballga ko‘paytiriladi. Masalan, kichik guruhda “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” yo‘nalaishi 15 mezondan iborat.

$15 \times 3 = 45$ maksimal ball.

Rustamova Nafisa jami 28 ball to‘pladi deyilik. Uning o‘zlashtirish % ni aniqlash uchun:

$45 \frac{\quad}{\quad} 100\%$

$28 \frac{\quad}{\quad} \times$

$(28 \times 100) : 45 = 62,2 \%$

Nafisaning o‘zlashtirishi 62,2 % ni tashkil qiladi.

O‘zlashtirish darajasi quydagicha belgilanadi.

$75 \frac{\quad}{\quad} 100\%$ gacha I daraja

$50 \frac{\quad}{\quad} 74\%$ gacha II daraja

49% gacha III daraja

Nafisaning o‘zlashtirish darajasi II daraja qilib belgilanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zlashtirishini kuzatish, qayd qilish, monitoringini olib borishdan maqsad bolalardagi o‘zgarishni aniqlash qaysi bolaga qanday yondashish jihatlarini belgilashdan iborat. I – yarim yillikka nisbatan II – yarim yillikda qanday o‘zgarish bor, ta’lim-tarbiya samaradorligiga erishilganligi tahlil qilinadi. Maktabgacha ta’lim muassasasi mudirasi yoki uslubchisi guruhlar o‘rtasida solishtirib tahlil qiladi. Bu bilan MTM mudirasi natijaga ko‘ra tarbiyachilar ishini ham baholaydi. Oxirgi maqsad bolalarning maktabga borganda qiynalmasdan hamma bilan kirishimlilikini ta’minlashdan iborat.

II. “Kichik guruhlarda ishlash”. Tinglovchilar qaysi guruhlarda ishlashlariga qarab ilk, kichik, o‘rta, katta, maktabga tayyorlov guruhlariga ajratiladi.

I-topshiriq “Jismoniy rivojlanish” bo‘yicha har qaysi guruh 3 bola misolida jami ball, foiz, darajani aniqlaydi.

II- topshiriq “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” bo‘yicha bolalarning rivojlanish ko‘rsatkichlarini tahlil qiladi.

III- topshiriq “Nutq, o‘qish, savodga tayyorgarlik” bo‘yicha bolalarning rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqlaydi.

IV- topshiriq “Bilish jarayoni” bo‘yicha bolalarning rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqlaydi.

Test savollari

1. Agar jismoniy rivojlanish bo‘yicha mezonlar soni 17, Nargizaning jami balli 33 bo‘lsa, foizi qancha bo‘ladi.

- A. 81
- B. 75
- C. 64,7
- D. 59

2. Bolaning rivojlanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish daftarini yuritish lozimligi qayerda qayd qilingan.

- A. “Bolajon” dasturida
- B. XTV ning 2 noyabr 2011 yildagi 252-sonli qarorida
- C. “Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”da
- D. “O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim konsepsiyasi”da.

3. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish bo‘yicha mezonlar soni 13, Ruslonning jami balli 30 bo‘lsa, foizi qancha bo‘ladi.

- A. 72

- B. 67
- C. 84
- D. 76,9

4. Durdonaning o'zlashtirish foiz 78 bo'lsa, nechanchi daraja bo'ladi.

- A. II
- B. I
- C. III
- D. IV

5. O'zlashtirish foizi qancha bo'lsa I daraja deb belgilanadi.

- A. 84-100
- B. 50-75%
- C. 76-100%
- D. 60-100%

6. O'zlashtirish foizi qancha bo'lsa II daraja deb belgilanadi.

- A. 60-74%
- B. 50-75%
- C. 76-84%
- D. 55- 64%

Foydalangan adabiyotlar

1. S. S. Mirdjalilova, M. Sh. Rasuliyeva 'Bolajon' tayanch dasturi. Toshkent -2010.
2. "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlar talablari" Toshkent-2013 yil.
3. M. Fayzullayeva, M. Rustamova "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish" Toshkent -2011 yil
- 4.XTVning 2 noyabr 252-sonli qarori

3.1.5 (A) Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena yo'nalishi. (2soat ma'ruza)

Maqsad: Jismoniy tarbiyaning vazifalari: salomatlikni mustahkamlash va chiniqtirish, jismoniy jihatdan baquvvatlashtirish, shaxsning axloqiy tomondan ijobiy sifatlarini tarbiyalash, bolalardagi maqsadga to'g'ri yo'naltirilgan harakatlarni faollashtirish uchun sharoit yaratish, harakatning muhim hayotiy turlarini shakllantirish: yurish, yugurish, sakrash, emaklash va o'rmlash, otish, ilib olish; suzish, velosipedda uchish. Oyoq, qo'l, tana, bosh harakatlarini rivojlantirish; saflanish va qayta saflanish.

Eng asosiy va hayotiy zarur harakatlar: piyoda yurish, yugurish, sakrash, osilish, tortilish, uloqtirish, muvozanat saqlash va shu kabilar bolaning har tamonlama rivojlanishida asosiy manba hisoblanadi. Yurish va yugurishlar, harakat turlari, harakatli mashqlar, muvozanat saqlash uchun mashqlar, yassioyoqlikning oldini olish va tavonning to'g'ri shakllanishiga mo'ljallangan mashqlar, umurtqa va bel qismiga belgilangan mashqlar.

Kutiladigan natija: Tinglovchilar MTM da jismoniy tarbiyaning vazifalari, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining, ertalabki badan tarbiyaning o'rni, ularni to'g'ri tashkil qilish masalalarini o'rganib oladilar va amaliyotga tatbiq qiladilar.

Jihoz: Plakatlar, marker, skotch , proyektor,yosh guruhlar yozilgan kartochkalar, 5 ta "Bolajon" dasturi.

Dars metodi: "Aqliy hujum", "Kichik ma'ruza" , "Kichik guruhlarda ishlash"

Tayanch so'zlar: Yirik motorika, mayda motorika, senso motorika asosiy harakatlar, umumrivojlantiruvchi mashqlar.

Reja:

1. MTM da bolalarni jismoniy tarbiyalashning maqsad va vazifalari.

2. Jismoniy rivojlanish yoʻnalishining boʻlimlari.
3. “Bolajon” dasturida jismoniy ribojlantirish yoʻnalishida koʻrsatilgan vazifalarning yosh guruhlariga mosligi.

Darsning borishi:

- I. Aqliy hujum. Vazifa. MTM da jismoniy tarbiya qachon, qanday qilib amalga oshiriladi? Har qaysi tinglovchi navbati bilan bittadan fikr bildiradi. Doskada plakatga fikrlar yozib boriladi. Oxirida notoʻgʻri fikrlar olib tashlanadi.
- II. Kichik maʼruza.

Maktabgacha taʼlim davrida bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashning asosiy maqsadi bolalardagi turli koʻnikma va malakalarni shakllantirish, ulardagi kuchlilik, tetiklik, chaqqonlikni amalga oshirish, ziyraklik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan iboratdir.

Dasturda maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning vazifalari quyidagicha belgilanadi:

- jismoniy jihatdan baquvvat qilish;
- shaxsning axloqiy tomondan ijobiy sifatlarini tarbiyalash;
- bolalarda maqsadga toʻgʻri yoʻnaltirilgan harakatlarni fallashtirish uchun sharoit yaratish;
- harakatlarning muhim hayotiy turlarini shakllantirish, yurish, yugurish, sakrash, emaklash, oʻrmlash, otish, ilib olish, suzish, velosipedda uchish, oyoq, qoʻl, tana, bosh harakatlarini rivojlantirish, saflanish va qayta saflanish;
- oʻyin harakatlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish: chaqqonlik, ephillik, ziyraklik, irodalilik, sabr-qanoat, kuchlilik malakasini oshirish;
- bola qomatini toʻgʻri shakllantirishga taʼsir koʻrsatish va yassi oyoqlilik kasalligining oldini olishga yordam berish;
- faol harakatga qiziqishni tarbiyalash.

Jismoniy tarbiyaning asosiy mazmunini muntazam ravishda bajarishlari uchun turli usuldagi mashqlar mavjud.

- asosiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, iringʻitish, ilib olish, emaklash, sirpanish);
- umumrivojlantiruvchi mashqlar;
- raqs mashqlari;
- saflanish va qayta saflanish;
- harakatli oʻyinlar;
- sport oʻyinlari;

Mashgʻulot paytida taʼlim.

Jismoniy rivojlanish, oʻz-oʻziga xizmat va gigiyena

Yirik motorikani rivojlantirish

Bolalarni:

1. **Yurish va yugurishga oʻrgatish**
 - 1 va 2 tadan kolonnaga tizilish va qayta tizilish;

- O'zgaruvchan qadam tashlab yugurish;
- Tezlikni o'zgartirib yugurish (sekin, o'rtacha, tez)
- Tizzalarni baland ko'tarib yugurish;
- Mokisimon yugurish;
- To'xtamasdan 3-4 min. yugurish
- Turli yo'nalishlarda oddiy, o'zgaruvchan tizzalarni baland ko'tarib yurish
- Oyoq uchida egik taxta ustidan yurish;
- Mayda qadam tashlab yugurish(10m)
- Tovonda tez yurish;
- 300 m. ga yengil yugurish;
- 3x10 m. ga mokisimon yugurish;
- To'siqdan oshib o'tib yugurish;

Bolalarni:

1.Emaklashga o'rgatish:

- * Qorinda yotib gimnastika skameykasida emaklash;
- * Predmetlar orqali emaklab o'tish (10m.);
- * Predmetlar orqali ilon izi bo'lib emaklash;
- * Ketma-ket qo'yilgan bir necha predmet tagidan emaklab o'tish;
- * Orqa bilan yotgan holda oyoq va qo'llarga tayanib emaklash;
- * Ketma-ket tortilganarqon ostidan emaklab o'tish(balandligi 20-30sm.);
- * To'rt oyoqlab gimnastika skameykasida emaklash.

Sakrashga o'rgatish:

- Arqondan sakrash;
- Uzunlikka sakrash (kamida 80 sm.);
- Bir oyoqda, oyoqlarni chalkashtirib sakrash;
- Oldinga xarakatlanib sakrash (5-6 m.);

Sensomotorikani rivojlantirish:

- Musiqa ohangiga mos ravishda erkin harakatlarni bajarish;
- Musiqa ohangiga mos ravishda harakat sur'atlarini o'zgartirish;
- Musiqa ohangi ostida erkin jismoniy harakatlarni bajarish.

Mayda motorikani rivojlantirish:

- Xalqa to'riga va yuqoriga uloqtirish;
- Pazl va kubiklarni yig'ish;
- Kubiklardan piramidalar yasash;
- Koptokni tepaga otib, ikki qo'llab ushlab olish;
- Koptokni bir-biriga uloqtirish (3-4 metr masofaga).

Yil yakunida bolalar quyidagilarni bajara oladi:

1.Yurishni:

- * Oddiy gimnastik qadam, oyoqlarni oldinga, yon tomonga, orqaga, aylana bo'yicha tashlab yurishni;
- * Har xil sur'at bilan tovondan oyoq uchiga o'tib yurish, kamaytirilgan, harakatchan tayanchda va to'xtagandan keyin bir oyoqda yurishni;

2. Yugurish:

- 1.5—2 daqiqa mobaynida to'xtovsiz; o'rtacha 60—100 m tezlik bilan yugurish;

3 . Sakrash:

- Uncha baland bo'lmagan to'siqlardan (kubiklardan) sakrab o'tish, uncha baland bo'lmagan (10-15 sm) predmetlardan sakrab tushish, turgan joyidan uzunlikka (kamida 80-90 sm.) sakrash.

4 . Emaklash:

5 Qorinda yotib gimnastika skameykasida emaklash. Gimnastik narvon bo'ylab tepaga emaklab chiqish, pastga emaklab tushish;

5. Yugurib aylanib o'tish:

* Yugurish paytida harakatlanayotgan va harakatsiz obektlarga qo'l tekkizmay! yugurib aylanib o'tish.

III. Kichik guruhlarda ishlash. Tinglovchilar "Molekula" o'yini orqali 5 guruhga ajratiladi. 1-guruh ilk yosh, 2-guruh kichik, 3-guruh o'rta, 4-guruh katta, 5-guruh maktabga tayyorlov guruhlar uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotini loyihalashtiradi. Guruhlar o'z ishini himoya qiladilar. Guruh ishlari o'qituvchi tomonidan tahlil qilinadi.

IV. Namunaviy jismoniy tarbiya mashg'uloti yozilgan slayd namoyish etiladi.

V. "Baliqlar" enerjayzer o'yini o'tkaziladi.

VI. "Zanjir" usulida tinglovchilar "suzish", "velosiped haydash", "to'pni yuqoriga otish", "mokisimon yugurish" so'zlarini navbati bilan aytadi. Keyin kim qaysi so'zni aytgan bo'lsa shu so'zga mos harakat bajaradi va 4 guruhga ajraladi. Har qaysi guruhga har xil rangdagi marker beriladi. Kichik, o'rta, katta, tayyorlov guruh deb yozilgan plakatlar tarqatiladi. Plakat chiziqli orqali 4 qismga ajratiladi. Plakatga qoidali o'yinlarning nomini yozadilar. 2minut oralig'ida plakatlar stoldan-stolga o'tkaziladi. O'z stoliga qaytib kelgunga qadar plakatlar aylanadi. Daskaga ilinib tahlil qilinadi.

VII. Tinglovchilarga metaplan kartochkalari tarqatiladi va darsda o'rgangan 3 ta fikr yozish taklif qilinadi. Plakatda "G'oyalar tog'i hosil qilinadi."

3.1.5 (B) Mavzu: MTM da jismoniy tarbiya mashg'uloti matnini yozish (2soat amaliy)

Maqsad: Tinglovchilarda "Bolajon" dasturidan to'g'ri foydalangan holda jismoniy tarbiya mashg'uloti uchun mavzu tanlash, mashg'ulot matnini to'g'ri yozish ko'nikmasi hoil qilish. Mashg'ulotda interfaol metodlardan foydalanishga o'rgatish.

Kutiladigan natija: Tarbiyachilar har qaysi guruhda haftada 2 marta, bir yilda 72 marta mashg'ulot o'tilishi, "Bolajon" dastiridagi 1 yilga mo'ljallangan ta'lim-tarbiya vazifalarini oddiydan murakkabga tamon tamoyiliga asoslanib oylarga mavzuni to'g'ri tanlashni, mashg'ulotda interfaol metodlardan foydalanishni o'rganib oladilar.

Jihoz: 5 ta "Bolajon" dasturi, mashg'ulot matnining tarkibiy qismlari ko'rsatilgan slayd.

Dars metodi: "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash"

Reja:

1. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari mavzularini to'g'ri tanlash
2. Jismoniy tarbiya mashg'uloti matnini yozish
3. Guruhlar taqdimoti

Darsning borishi:

1. "Aqliy hujum". MTMda bolalarni jismonan rivojlantirish uchun qanday tadbirlar o'tkaziladi. Tinglovchilardan javob olinadi va tahlil qilinadi.
2. Kichik ma'ruza barcha guruhlarda haftada 2 marta bir yilda 72 marta jismoniy tarbiya mashg'uloti o'tkazilishi asosiy harakatlar mavzu qilib olinishi bayon qilinadi. Mashg'ulot matnini yozishning tarkibiy qismlari yozilgan slayd namoyish qilinadi.
3. "Kichik guruhlarda ishlash". Tinglovchilar qaysi guruhda faoliyat ko'rsatishiga qarab 5 guruhga ajratiladi. Ilk yosh, kichik, o'rta, katta, maktabga tayyorlov guruhlar uchun mashg'ulot ishlanmasini yozish topshirig'ini bajaradilar. Taqdimoti o'tkaziladi.

Test savollari

1. 2-3 yoshli bolalar necha sm. masofadan uloqtirilgan to'pni ushlab olishi kerak?

A. 40-50 sm.

* B. 50-100 sm.

C. 60-80 sm.

D. 20-40 sm.

2. Asta-sekin 80 m gacha yugurish qaysi guruhda amalga oshiriladi?

A. Maktabga tayyorlov

*B. Kichik va ilk yoshli guruhda

C. O'rta

D. Katta

3. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish necha qismdan iborat?

*A. 3 qismdan

B. 5 qismdan

C. 4 qismdan

D. 2 qismdan

4. "Chumchuqlar va avtomobil" o'yini qaysi guruhda o'ynatiladi?

A. Ilk yosh guruhda

B. O'rta guruhda

*C. Kichik guruhda

D. Katta guruhda

5. Qaysi harakatlar yirik motorikani rivojlantirishga kiradi?

A. Musiqa asbobining ovozigacha taqlid qilish

*B. Yurish, yugurish, sakrash, dumalatish, irg'itish, ilibolish, emaklash, tirmashish muvozanat saqlash

C. Yurish, yugurish

D. Buklash, rasm chizish, qirqish, loyni uzish cho'zish

6. Qaysi mavzu ilk yoshli guruhga tegishli?

A. To'pni 10 marta yerga urib o'ynash

B. 30 sm masofaga xatlash

C. 10 m. masofaga emaklash

*D. Kengligi 20 sm. masofadan xatlab o'tish

7. Tubandagilardan qaysi biri maktabga tayyorlov guruhiga taalluqli.

*A. 300metrgacha chopib o'tish

B. Bir oyoqda 3-4 metr masofaga sakrash.

C. 25 sm balandlikdan sakrash

D. Og'irligi 1 kg gacha bo'lgan sport toshlarini dumalatishga o'rgatish.

8. Tubandagi vazifalardan qaysi biri katta guruhga taalluqli?

A. 1,2 metr masofaga to'pni otish

*B. Bir oyoqda 3-4 metr masofaga sakrash

C. 40-60 metr masofaga yugurib o'tish

D. 20-25 metr masofani tez yugurib o'tish

9. O'rta guruh bolalari necha metr masofaga yugura olishi kerak?

A. 20-30 metr

B. 30-35 metr

* C. 40-60 metr

D. 20-25 metr

10. Tubandagilardan qaysi topshiriq o'rta guruh bolalariga bajartiriladi?

A. 5-10 sm balandlikdagi buyumlardan sakrab o'tish.

* B. 30 metr masofani tez yugurib o'tish

C. To'pni 6 metr masofaga irg'itish

D. 5-6 metr masofaga yugurish

11. Kichik guruhda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining asosiy qismida necha asosiy harakat olinadi?

*A. 1 ta B. 2 ta C. 3 ta D. 4 ta

12. Kichik guruh bolalari necha metr masofani tez yugurib o'tishi kerak?

A. 6 metr

*B. 20 metr

C. 25 metr

D. 30 metr

13. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish necha qismdan iborat?

*A. 3 qismdan

B. 5 qismdan

C. 4 qismdan

D. 2 qismdan

14. Qaysi vazifa o'rta guruhning vazifasi?

A. Ikki g'ildirakli velosipedda ilon izi qilib uchush?

B. Velosipedni bir qo'l bilan boshqarish

*C. Uch g'ildirakli velosipedda o'ngga, chapga burulish

D. Ikki g'ildirakli velosipedda uchush.

15. Yoz faslida bolalarni quyosh vannasida chiniqtirish qachon amalga oshiriladi?

A. Soat 9.00-11.00

B. Soat 8.00-10.00

C. Soat 5.00-7.00

*D. Soat 11.00-13.00

16. Katta guruhda jismoniy tarbiya mashg'ulotining asosiy qismida nechta harakat bajartiriladi/

A. 4 ta

*B. 3 ta

C. 2 ta

D. 1 ta

3.1.6-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish.

(2soat ma'ruza, 2 soat amaliy)

Maqsad: "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" asosida ishlab chiqilgan "Bolajon" dasturida "Ijtimoiy- hissiy rivojlanish" yo'nalishi bo'yicha bolalarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotchanlikni shakllantirish. Kun tartibining barcha qismlarida, mashg'ulotlar jarayonida bolalarni o'zaro bir-birlari va kattalar bilan muloqot qilishga o'rgatish.

Kutiladigan natija: Tinglovchilar "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" yo'nalishi bo'yicha ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishni o'rganib oladilar va faoliyatida qo'llaydilar.

Jihoz: Tarqatma, qalam.

Dars metodi: "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash"

Reja:

1. "Bolajon" dasturida "Ijtimoiy- hissiy rivojlanish" yo'nalishi bo'yicha ta'lim-tarbiya vazifalari.
2. Bolalarda tengdoshlari va kattalar bilan muloqotchanlikni shakllantirish.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda "Men" konsepsiyasi va hissiy ifodalashni rivojlantirish

Darsning borishi:

I. "Aqliy hujum". Vazifa . Ijtimoiy-hissiy rivojlanish yo'nalishi bo'yicha qilayotgan ishlaringiz. Tinglovchilar fikri yig'iladi. Tahlil qilinadi.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy hayotning tobora axborotlashuvi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining murakkablashuvi yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularni ijtimoiylashtirishni taqozo etmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy munosabatlarini tog'ri tashkil etishga tayyorlash kelajakda o'ta murakkab jarayonda samarali faoliyat yurita olishlari uchun imkon beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tizimli yondashuv asosida kattalar va tengdoshlari bilan muloqatchanlikka o'rgatish psixologik zo'riqishlarga nisbatan bardoshli bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi. Bola uchun ijtimoiy munosabatlar sub'yektlari

- ota-onalar;
- oila a'zolari;
- tengdoshlari;
- tarbiyachi va enaga

“Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari” asosida ishlab chiqilgan “Bolajon” dasturida ijtimoiy-hissiy rivojlanish yo'nalishida kattalar va tengdoshlari bilan muloqotchanlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Har qaysi yosh guruhiga tegishli bolalarni ijtimoiy munosabatlarga kirishishga qaratilgan ta'lim-tarbiyaviy vazifalar berilgan.

II. “Kichik guruhlarda ishlash”. Tinglovchilar qaysi guruhda ishlashlariga qarab guruhlarga ajratiladi. Tarqatma beriladi. Har qaysi guruh dasturda berilgan ta'lim –tarbiya vazifalarini qachon, qaysi paytda, qanday usullar bilan amalga oshirishni ochib berish. Taqdimot o'tkaziladi.

Darsturda ko'rsatilgan bunday vazifalarni tarbiyachi bolalarning yoshini nazarda tutgan holda mashg'ulotlar va kun tartibining barcha qismlarida kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilishga o'rgatadi.

Bolalar mashg'ulot paytida tarbiyachi va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatga kirishadi. Mashg'ulotdan tashqari paytlarda birgalikda o'yin va mehnat faoliyati bilan shug'ulanishi jarayonida ham tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirishish ta'minlanadi. Ertalab bolalar guruh xonasiga kirib kelishda salom berib kelishi, onasi bilan xayrlashishi muloqotning boshlanishidan darak beradi. Tarbiyachining muayyan mavzu asosida suhbat uyushtirishi, ertalabki badan tarbiya mashqlarini bajartirishi jarayonida bolalar bilan tarbiyachi o'rtasida muloqot o'rnatiladi. Bunda tarbiyachi bolaning ismini aytib murojaat qilsa, bola ko'ziga qarab yaxshi so'z aytib rag'batlantirilsa, imo- ishoradan foydalangan holda minnatdorchilik bildirsa muloqot jonli kechadi. Bolalarning mustaqil faoliyati ya'ni burchaklarda hohlagan o'rtog'i bilan faoliyat ko'rsatishi chog'ida bir-biri bilan munosabatga kirishishadi. Ayrim bolalar burchak tanlashda, qaysi o'yinni o'ynashda mustaqillik yetishmasligidan qiynalishi mumkin. Bunday paytlarda tarbiyachining yordamiga muhtojlik sezadi. Tarbiyachi masalan “keling uchalamiz qurulish burchagida ko'chamizni quramiz. Uylar, ko'cha, daraxtlar, mashinalar tuzatamiz. Qani kim nima tuzatadi” deb ishni boshlashga ko'maklashadi. Bolalar ishga sho'ng'ib ketganidan keyin tarbiyachi sekin o'yindan chiqib ketadi. Ikki bola o'zaro muloqotga kirishadi, ishini oxiriga yetkazadi. Sekin-sekin bolalarda birgalikda faoliyat ko'rsatish, muloqotga kirishish ko'nikmasi shakllanadi. Ertalabki soatdagi bolalarning mehnatini tashkil qilish jarayonida ham o'zaro bir-birlari bilan muloqotga kirishishadi. “Xona gullarining barglarini changdan tozalash”, “O'yinchoqlarni tartib bilan joy-joyiga qo'yish”, “Yirtilgan kitoblarni yamash”, “O'yinchoqlarni yuvish” kabi mavzularda bolalarning mehnat faoliyati tashkil qilinadi. Muayyan mavzuda bolalar mehnatini tashkil qilishda kerakli jihozlarni topish, ishni taqsimlash, ishni bajarish, yig'ishtirish jarayonida tarbiyachi-bola, bola-bola o'rtasida muloqot kechishi ta'minlanadi. Masalan:

- xona gullarining barglarini changdan tozalash uchun nimalar kerak bo'ladi (tog'ora, suv, lattachalar)?
- Xonada jami nechta gul bor?
- Har kimga nechta guldan to'g'ri keladi?

Tarbiyachi bu kabi muammolarni o'zi hal qilmasdan bolalar bilan birgalikda hal qilgani maqul. Agar 3 bolaga bitta gulni tozalash to'g'ri kelsa, ish jarayonida 3 ta bola o'zaro muloqotga kirishadi.

Bolalar bir-birining ishlariga baho beradi, elementlar mehnat ko'nikmasini egallaydi, muloqotchanlikka o'rganadi, nutqi rivojlanadi.

Voqyaband ijroli o'yinlarni o'ynash paytida ham bolalar o'zaro bir-birlari bilan munosabatga kirishishlari uchun imkon yaratiladi. Ro'llarni taqsimlashda, ijro etishda o'zaro kelishish jarayoni kechadi. Masalan 'Mehmon-mehmon', 'Xola-xola', 'Do'xtir-do'xtir' o'yinlarni o'ynash jarayonida bolalarda shunday holatni kuzatish mumkin. Faol bola ro'llarni o'zi taqsimlaydi. Men-otasi, sen-tog'asi, sen-onasi, sen qiz bolasi, sen-o'g'il bolasi, sen-xolasi va hakoza. Sen mehmonlarni o'tirishga taklif qilasan, sen choy keltirasan, xolasi bunday deydi, tog'asi unday deydi deb o'yin jarayonini boshidan oxirigacha boshqaradi. Kichik guruhlarda o'yinni asosan tarbiyachi boshqaradi. Katta, maktabga tayyorlov guruh bolalarida o'zlari mustaqil o'yin tanlash, ro'llarni taqsimlash, o'yinni boshqarish ko'nikmasi shakllangan bo'ladi. Bunday ko'nikmaning shakllanishi tarbiyachining ilk yoshli davridan boshlab o'zi boshchiligida voqyaband ijroli o'yinlarni muntazam tashkil qilishi bilan bog'liqdir. Ertalabki soatning mustaqil faoliyat qismida, kechki saotlarda tarbiyachi bunday o'yinlarni o'ynashlariga ko'proq e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq. Kunning ikkinchi yarmida badiiy adabiyot mashg'ulotlarda o'rganilgan ertaklarni bolalar ijrosida "Qo'g'irchoq teatri" tashkil qilish yoki ertakni inssinirovka qilish ham muloqotchanlikka o'rgatadi va bolalarning nutqini rivojlantiradi.

Mashg'ulotlar paytida tarbiyachi bilan bolalar, bolalar o'zaro bir-birlari bilan munosabatda bo'lishlari uchun sharoit yaratiladi. Juftlikda, kichik guruhlarda ishlashlari tashkil qilinadi. Suhbat, kichik guruhlarda ishlash, ro'lli o'yin metodlaridan foydalanish jarayonida muayyan bilim, ko'nikma malakalarni egallashlari bilan birgalikda tarbiyachi va tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi. Topshiriqni, vazifani bajarishda tengdoshlari bilan kelishishlariga, o'z fikrini o'tkazishga, isbotlashga, o'rtog'ining fikrini inobatga olishlariga to'g'ri keladi. Bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilishlariga ko'maklashadigan mashg'ulotlar matnlaridan namunalar. "Bolajon" dasturidagi ijtimoiy-hissiy rivojlanish yo'nalishi bo'yicha ko'rsatilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini to'laonli ravishda amalga oshirish uchun faqat MTM dagi ishlar yetarli emas. Ota-onalar bolalarining MTM da olgan bilimlarini to'ldirishda va mustahkamlashda ko'maklashadi. Shu bois, tarbiyachi bolalarning oilada kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishishlari bo'yicha ota-onalarga tegishli maslahatlar, tavsiya berish ishlarini rejalashtirishlari lozim. Ota-onalar yig'ilishida anketa savollarini tarqatib javob olish orqali ham ota-onalarda farzandini muloqotchanlikka o'rgatish bo'yicha tasavvur hosil qilishga yordamlashadi. Anketada quyidagi savollar ko'rsatiladi.

- Farzandingiz oilada kimlar bilan munosabatga kirishadi.
- Kiyimlar o'yinchoqlar haqida boshqalarga gapirib bera oladimi?
- Bog'chadagi o'rtoqlari haqida so'zlab beradimi?
- Ko'changizdagi boshqa bolalar bilan muloqotga kirishadimi?
- Birgalikda o'ynaydimi?
- Xonadoningizda o'rtoqlari bilan o'ynashlari uchun sharoit yaratilganmi?
- Mehmonga borganda tortinmasdan qarindoshlar bilan muloqotga kirishadimi?
- Uyga kelgan mehmonlar bilan-chi?
- Farzandingizga ertak aytib berasizmi?
- Farzandingiz sizga ertak aytib beradimi.

„Bolajon“ dasturida ijtimoiy rivojlanish bo'yicha turli yosh guruhlarida quyidagi ta'lim-tarbiya vazifalari berilgan.

Ilk yoshli guruh bolalari oila a'zolari bilan muloqotga kirishish jarayonida o'z istak hohishini bemalol ifoda eta oladi. Lekin MTM da tarbiyachi, enaga bilan bunday munosabatda bo'lishga tortinadi. Tarbiyachi asta-sekin boladagi bunday tortinchoqlikni yo'qotishga harakat qiladi. "Sut ichking kelmayotgan bo'lsa ichma", "Qaysi o'yinchoqni hohlaysan" deb murojaat qilaversa, bola sekin munosabatga kirishishga o'rganadi. Bolaga kichik-kichik topshiriqlar berish, bajarganidan so'ng minnatdorchilik bildirish, bolalarda enaga va tarbiyachilar bilan muloqotga kirishish istagini uyg'otadi. Mashg'ulot paytida bolaga ismini aytib alohida murojaat qilish ("Nargiza juftini to'g'ri topibdi", "Javlon sen qanday qilib bajarding") ham bolaning

ijtimoiylashuviga ko'maklashadi. Tengdoshlari bilan munosabatga kirisha olishini tarbiyachi kuzatadi. Ertalab o'rtoqlari bilan birgalikda o'ynashi, urushmasdan o'yinchoqlarni almashlab ("Sen endi minorani o'yna, menga mashinani berib turgin") o'ynash ko'nikmasini hosil qilish. Muloqot jarayonida "raxmat" so'zidan o'rinli foydalanishga o'rgatiladi.

Kichik guruhda bolalarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishish ko'nikmasini hosil qilish yanada murakkablashadi. Kattalar bilan muloqotga kirishishda, ularning savollariga javob berish, taqlid qilish, kattalarning tovushiga qarab maqto'vni va tanqidni farqlash, ularning ismi bilan chaqirishga o'rgatish. Tengdoshlar bilan yonma-yon o'ynash, tashabbuskorlikni, mustaqillikni namoyon qilish, o'z imkoniyatlariga ishonish. O'zi haqida, kiyimlar haqida so'rash, gapirishga o'rgatish ("Mening ko'ylagim chiroylimi", "Menga bu sharf yoqmaydi", "Munisaning tuflisi chiroyli").

O'rta guruhda kattalar bilan muloqotda o'z fikrini bayon qilish, dialogik nutqdan foydalanish, o'z oilasi va tanishlari to'g'risida hikoya qilib berish, nimani yaxshi ko'rishi, yomon ko'rishini ayta olishga o'rgatish. Tengdoshlari bilan birgalikda o'ynashga intilish, salomlashish va xayrlashish, ularning ismi bilan chaqirishga, qandaydir ma'lumotlarni o'rtoqlariga yetkazishga o'rgatish.

Katta guruhda kattalar bilan mavzudan tashqari holatlarda ham muloqot qilish, o'z ona Vatani uning tabiati, sevimli o'yinchoqlari haqida so'zlab berishga o'rgatish. Muloqot jarayonida imo-ishoradan foydalanish, tartib qoidalarga rioya qilish ko'nikmasini hosil qilish.

Tengdoshlari bilan samimiy munosabat o'rnatish, ular bilan nizoli vaziyatlarda kelishib olish, bir-biriga o'z yordamini ko'rsatish. Vaqyaband ijroli o'yinlarni o'ynash jarayonida ro'llarni taqsimlay olishga o'rgatish.

Maktabga tayyorlov guruhda bolalarning kattalar bilan muloqot qilish doirasi kengayadi. Kattalarga savol bilan murojaat qiladi, ularning savoliga javob beradi, so'z bilan minnatdorchilik bildiradi. Notanish bo'lgan odamlar bilan muloqotga kirisha oladi. Tengdoshlari bilan muloqotga kirishish doirasi ham kengayadi. Tengdoshlarining hatti-harakatlarini, xulq-atvorini so'z bilan baholay oladi. Muloqot jarayonida o'z takliflarini bildiradi, o'z hissiyotlari bilan o'rtoqlashadi

"Bolajon" dasturida "Men" konsepsiyasi, hissiy rivojlanish bo'yicha ko'rsatilgan ta'lim-tarbiya vazifalari

Ilk yosh

"Men" konsepsiyasi yoki o'z-o'zini anglash. Hamma narsani o'zi bajarishga intilish. Amallarni bajarar ekan, "Men" olmoshidan foydalanish. O'z muvaffaqiyatlaridan g'ururlanish (rasm chizganida, narsalarni yasaganda). O'zi yoqtirgan narsalarni olib berishni so'rash. "Men olmani olishni istayman, sut ichishni istamayman, men bu koptokni olmoqchiman, boshqasini emas" va hakoza.

Hissiy rivojlanish. Imo-ishoralarni anglash, atrofdagilarning hissiyotlarini tushunish. O'z hissiyotlarini bildirish (suyunadi, o'z muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadi, tanish kattalarni chaqiradi). O'ziga nisbatan kattalar munosabatlarini tushunish. Tengdoshlari bilan muloqotdan zavqlanish. "Rahmat" so'zini o'rinli qo'llash.

Kichik guruh

"Men" konsepsiyasi yoki o'z-o'zini anglash: "Men" tizimining namoyon bo'lishi, o'zini ko'zguda tanish, o'z ismini bilish, kundalik ishlarda yordam berish (xonani yig'ishtirish, televizorni o'chirish). Bu tizimning shakllanishi bolalarda o'z-o'zini baholash va u bilan bog'liq kattalarning talablari bilan bog'liq intilishning shakllanishiga olib keladi.

"Hissiy ifodalash". Bolaning o'z yaqinlariga muhabbat va mehr ko'rsata olish (o'padi, quchoqlaydi), kattalarning o'ziga nisbatan munosabatini his etish.

O'rta guruh

"Men" konsepsiyasi yoki o'z-o'zini anglash. O'zining his-tuyg'ulari va kechinmalarini ifoda etish, o'z-o'zini anglay boshlash, o'ziga nisbatan, o'zining kuchiga nisbatan ishonch uyg'otish, o'zi mustaqil faoliyat ko'rsatishga intilish, kattalar va tengdoshlarining diqqatini jalb qilish.

O`yin faoliyatida o`zi uchun rol tanlash, o`z holatiga javob berish, o`z imkoniyat va yutuqlarini turli faoliyatlarda namoyon qilish, o`z-o`zini baholash, tengdoshiga nisbatan muhabbati va moyilligini ifodalash.

O`z xulq-atvorini boshqa kishilarga nisbatan baholash, o`g`il bolalarga va qiz bolaga xos ma`lum faoliyat turlarini qo`llash, o`z hissiy holatini to`g`ri anglash.

Tengdoshlari orasidan o`zini ajratib olish, tengdoshlari orasida o`zini anglay bilish, o`z hissiyotlarini ifoda qila olish (“Men yoqtiraman”, “Men yoqtirmayman”).

Hissiy ifodalash. O`zining his-tuyg`ulari va chekinmalarini ifodalash, kayfiyatini so`z bilan ifodalash.

Kattalarga nisbatan samimiy munosabatini so`z bilan ifodalash, ota- onasi bilan samimiy munosabat o`rnatish.

Do`stini qo`llab-quvvatlash, ijobiy his-tuyg`ular orqali o`rtadagi nizolarni bartaraf qilish.

Tengdoshlarining tarbiyasi bilan bog`liq salbiy kechinmalarni ochiq-oydin ayta olish, yaqinlarining ichki kechinmalarini his eta olish.

Bolalar jamoasida:

- bolalarni o`z-o`zini anglashiga yo`naltirish;
- bolalarda bir- birlariga nisbatan qiziqish uyg`otish, ularni birlashishga yordam berish;
- bolalarning bir-biriga nisbatan samimiy munosabatda bo`lishlariga intilish;
- bolalarni o`z fikrlarini so`z bilan ifodalashiga ko`mak berish;
- o`z hissiyotlarini so`z va kayfiyatlarini imo-ishora bilan ifodalashga o`rgatish;
- bolalarda do`stona munosabatlarni tarbiyalash, do`stini qo`llab-quvvatlash hissini tarbiyalash;
- o`rtadagi nizolarni yengishga o`rgatish lozim.

Katta guruh

“Men” konsepsiyasi yoki o`z-o`zini anglash tushunchasi. O`zini har xil yoshda va holatlarda taniy olish, atrofdagilarga yaxshi ko`rinishni istash, topshiriqni bajarishda sabr-toqat, qat`iyatlilikni ifodalash, o`yinni tashkillashtira bilish.

Jahli chikkanida o`zini tuta olish, o`z xohishini kattalarning talabiga bo`ysundirish, berilgan topshiriqqa mas`uliyat bilan karash.

O`zini boshqa bolalar bilan solishtirish, faoliyatlarda mustaqillikning shakllanganligi, o`ziga nisbatan samimiy va nosamimiy munosabatlarni anglash

O`zi bergan bahosi bilan kattalarning bahosini solishtirish, o`z-o`zini tanqidiy baholash, o`z kamchiliklarini tan olishni anglash.

Hissiy ifodalash. Musiqiy asarlarni mamnunlik bilan tinglash va ularga jo`r bo`lish, adabiy qahramonlarning holatlarini tushunish.

Kattalar bilan munosabatda quvonish va zavqlana bilish, tengdoshlariga mehribonchilik kursata olish.

O`zlarini kattalarning bahosi bilan o`lchash, mustaqil ravishda o`z kayfiyatini ifodalash.

O`z xissiyotlarini so`z bilan ifodalash, kattalarning ijobiy hislatlarni anglash

Maktabga tayyorlov guruh

“Men” konsepsiyasi yoki o`z-o`zini anglash tushunchasi. Kattalar yordamida o`z kamchiliklarini bartaraf qilish, jamoada o`zini tuta bilish;

O`zini, o`z mavqeini va kamchiligini anglashga intilish, o`zlarini kattalarning baholashi bilan solishtirish, o`z familiyasini, ismini, yoshini, manzilini, oila a`zolarini bilish, boshqalarning hohishini hurmat qilish.

O'zlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish, o'zining shaxsiy ahloqiy sifatlarini baholay va anglay olish, qaysi shaharda yashaydi, o'zi to'g'risida, boshqa bolalar to'g'risidagi ma'lumot bilan almasha olish.

O'zini hurmat qilish, o'z qadr-qimmatini bilish, o'zini tanqidiy baholash, o'z milliy an'analarini va madaniy qadriyatlarini bilish, ular bilan mag'rurlana olish (milliy kiyim, o'yin, urf-odatini hamda tarixini bilishga intiladi).

Hissiy ifodalash. Kattalarga va tengdoshlariga nisbatan o'zaro hurmat bilan qarash.

Saxiylik, yaxshilik va rahmdillik ko'rsatish, o'z kayfiyati va boshqalarning kayfiyatini tushunish.

Kattalar va tengdoshlariga samimiy munosabat bildirish

O'z hissiyotlarini so'z bilan ifodalay olish, o'zini va boshqalarning holatlarini taqqoslash va baholash.

Test savollari.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy rivojlantirish o'z ichiga nimalarni oladi?

- A. "Men" konsepsiyasini rivojlantirish. Hissiy ifodalash
- B. Kitobni qadr-qimmatini tushunish, o'qish va savod malakalarini rivojlantirish
- C. Yirik, sensomotorika, mayda motorikani rivojlantirish
- *D. Kattalar va tendoshlari bilan muloqotchanlikni rivojlantirish.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni hissiy rivojlantirish o'z ichiga nimalarni oladi?

- *A. "Men" konsepsiyasini rivojlantirish. Hissiy ifodalash
- B. Mayda motorikani rivojlantirish
- C. Tafakkurni rivojlantirish
- D. Kattalar va tendoshlari bilan muloqotchanlikni rivojlantirish.

3. Tubandagilardan qaysi biri kattalar bilan muloqotchanlikni ta'minlashga qaratilgan?

- A. 5 ta bola birgalikda "O'z o'rnini top" topshirig'ini bajardi
- *B. Xona gullarining changini tozalashda bolalar yordamchi tarbiyachidan tog'ora, lattacha, suv, chelakcha so'rash uchun sharoit yaratildi.
- C. 2 ta bola birgalashib "Zumrad va Qimmat" ertagidagi chol va kampir ro'lini ijro etdi
- D. 4 ta bola birgalashib qirqimlarni joy-joyiga qo'ydi.

4. Bola yaqin insonlarga muxabbat va mehr ko'rsata boshlaydi (o'padi, quchoqlaydi, ko'rishga talpinadi). bunday hissiy ifodalash qaysi guruh bolalariga xos?

- A. Maktabga tayyorlov guruh
- B. Katta guruh
- *C. Kichik guruh
- D. O'rta guruh

5. Qaysi guruh bolalari tarbiyachi, enaga bilan muloqotga kirishish jarayonida o'z istak hohishini bemalol ifoda eta olmaydi?

- A. Maktabga tayyorlov
- B. Katta guruh
- C. Kichik guruh
- D. *Ilk yosh guruh

Foydalangan adabiyotlar

1. S. S. Mirdjalilova, M. Sh. Rasuliyeva "Bolajon" tayanch dasturi. Toshkent -2010.
2. F. Vahobova, R. Baysalova "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlar talablari" Toshkent-2013yil.

3. M. Fayzullayeva, M. Rustamova “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish” Toshkent -2011 yil

2.1.7 (A) Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq, o‘qish va savodga tayyorgarligi yo‘nalishi. (2soat ma’ruza)

Maqsad: Quyidagilar 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarda nutq rivojlanishining talablari

nutqni tinglash va tushunish;
so‘zlashish va muloqot yuritishga qodir bo‘lish;
nutq-tovush madaniyatini shakllantirish;
oddiy tahlil va sintez qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
so‘z boyligini faollashtirish;
nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish;
bog‘lanishli nutqni shakllantirish;
ijodiy hikoya qilishni shakllantirish.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarda o‘qish va savod malakalari rivojlanishining talablari haqida tushuncha berish.

Tinglovchilar:- maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining o‘ziga xos xususiyatlari, nutq o‘stirish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalar, bolalarning lug‘at boyligi, tovush talaffuzi, grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirishga o‘rgatish usullari. Bolalar nutqida uchraydigan kamchiliklar.

Kutiladigan natija: Tinglovchilar nutq o‘stirish bo‘yicha “Bolajon” dasturida ko‘rsatilgan ta’lim-tarbiya vazifalarini, bolalar tafakkurini rivojlantirishda ta’limiy o‘yinlarning o‘rni, ularni amaliyotda qo‘llashni bilib oladilar.

Tayanch so‘zlar: lug‘at boyligi, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi, grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirish, bola nutqidagi buzilishlar, dislaliya, rinalaliya, alaliya, duduqlanish, disfaniya, o‘yinlar.

Jihoz: Plakatlar, flamaster, rangli qalamlar, bo‘yoqlar, karton, yelim, o‘yinchoqlar.

Dars metodi: “Aqliy hujum”, “Kichik ma’ruza”, “Rolli o‘yin”

Reja:

1. Nutq o‘stirish vazifalari
- 2.”Bolajon”, “Bilimdon” dasturida nutq o‘stirish yo‘nalishini tahlil qilish.
- 3.Bolalar tafakkurini rivojlantirishda ta’limiy o‘yinlarning o‘rni.

Maktabgacha yoshdagi (bolalar) asosan 6-7 yoshli bolalar maktabga tayyorgarligining asosiy belgilaridan biri nutqini rivojlanganligidir. Bolalar bog‘chasida har bir guruhda nutq o‘stirish bo‘yicha egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining m‘eyori ko‘rsatilgan. O‘z vaqtida muntazam kundalik faoliyatda, mashg‘ulotlar jarayonida dasturda ko‘rsatilgan vazifalar amalga oshirilsagina kutilgan natijaga erishiladi.

Bola 1- sinfga nutqi jihatidan benuqson holatda kelsa barcha fanlardan o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. “Nutq qobiliyati ma’lumki kishilarning tug‘ma qobiliyati emas. Nutq bolalarda asta – sekin rivojlanadi.

Ba’zan bir xil yoshdagi bolalar nutqi kuzatilganda ular darajasining har xilligini ko‘rish mumkin. Demak bola nutqining rivojlanishi tevarak – atrofdagilarning (ota – onalarning , tarbiyachilarning) qanchalik e’tibor berishiga bog‘liqdir.

Bolaning ilk yoshlik davridan boshlab oila aʼzolari, bogʻchada tarbiyachilar har bir narsaning nomini toʻgʻri aytib, chuchik tilda gapirmasdan murojaat qilish kerak.

3-4 yoshli bolalar nutqida hamma tovushlar mavjud boʻlib, bu tovushlar ustida ishlash zarur. Chunki mazkur davr tovushlarni oʻzlashtirish davri hisoblanadi. To katta guruhgacha hamma tovushlar ustida ishlanadi. Maktabda tayyorlov guruhda esa aralashib ketadigan tovushlarni ajratishga oʻrgatiladi.

Tovush talaffuzini tarbiyalash boʻyicha ishni boshlashdan oldin tarbiyachi oʻz guruhidagi har bir bolaning nutqi bilan tanishib chiqishi kerak. Nutqni tekshirish yilda ikki marta kuzda va bahorda olib boriladi. Kuzda ishlarini toʻgʻri rejalashtirish, bahorda-qilingan ishlarga yakun yasash maqsadida tekshirishda tarbiyachi

- a) tovush talaffuzi holatiga
- b) lugʻatiga
- c) maʼnoli nutqiga eʼtibor qaratadi.

Bola nutqidagi buzilishlar qayd qilinadi. Agar juda qoʻpol buzilishlar boʻlsa, bolaning sogʻligi bilan tanishib chiqishga toʻgʻri keladi. Koʻpincha bolaning 3 yoshlik davrida turli yuqumli kasalliklar bilan ogʻrishi, uning oʻsishni toʻxtatib qoʻyadi. Bu oʻz navbatida nutqining rivojlanishiga ham salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bunday bolalar bilan alohida koʻproq ishlashni rejalashtirishga toʻgʻri keladi.

Bolalar nutqini tekshirishda alʼbomlar maqsadga muvofiq emas. Chunki alʼbomning bir betiga bir qancha rasm yopishtiriladi. Bolalarga koʻrsatilganda ularning diqqati bir rasmdan ikkinchi rasimga koʻchadi. Shuning uchun bir tovush uchun moʻljallangan buyumni rasmlardan foydalanish kerak. Bunda shunday rasmlarni tanlash kerakki bu rasmlarning nomlarida quyidagi tovushlar ishtirok qilsin. s, z, sh, ch, l, r, v, b, g, x, h, va boshqalar. Har bir tovush soʻz boshida, oʻrtasida, oxirida keladigan boʻlsin. Rasmlar rangli, bolalar diqqatini oʻziga tortuvchi, mazmuni jihatidan bolalar yoshiga mos boʻlishi kerak. Buyumli rasmlar 10x10 hajmdan kichik boʻlmasligi kerak.

Bolaning tovush talaffuzini tekshirish vaqtida buyumli rasmlar nomini aytirishda lugʻat tarkibi, grammatik qurilishi ham kuzatiladi. Gapda soʻzlar oʻrnini almashtirmayotganligi, boʻgʻinlar tashlab ketirmayotganligi aniqlandi. Tarbiyachi soʻzlardan gaplar tuzishga, gaplarda bogʻlovchilarni ishlatishga, kelishik qoʻshimchalaridan toʻgʻri foydalanishga oʻrgatishda mazmunli rasmlardan foydalanadi. Oldin ikki, keyin uch, toʻrt, soʻngra undan ortiq soʻzlardan foydalanib gap tuzishga oʻrgatadi. Tarbiyachi bu ishlarni amalga oshirishda bolalarning yosh va oʻziga xos xususiyatlarini taʼlimning didaktik tamoyillarini hisobga oladi.

Agar rasmning nomini aytishda bola talaffuz etilishi lozim boʻlgan tovushni biron marta ham aytaolmasa, aynan shu tovushni soʻzda emas, balki alohida oʻzini talaffuz ettirib koʻriladi. Tarbiyachi oldin aytadi. agar bola alohida talaffuz etsa keyin soʻzlarda toʻgʻri talaffuz qilishga oʻrgatiladi. Bola nutqini tekshirish vaqtida uning notoʻgʻri tovush talaffuzini, soʻzlarini gaplarini takrorlamaslik kerak. Bu bola nutqiga salbiy taʼsir koʻrsatadi, hatto notoʻgʻri tovush talaffuzining mustahkamlanib qolishiga sabab boʻladi. Kundalik hayot jarayonida nutqini tekshirish vaqtida bolalar nutqining tezligi, soʻz jumalarning aniqligi, ovozning jarangdorligiga, duduqlanishga tarbiyachi eʼtibor beradi va ota-onalari bilan hamkorlikda kamchiliklarni bartaraf qiladi. Tekshirish natijasini jadvalda qayd qiladi.

“Lugʻat boyligi”, “Soʻzlarning qurilishi”, “tovush talaffuzi”, “Izoh” boʻlimlarini toʻldiradi. Shunga asosan ertalab va kechki soatlarda qaysi bolalar bilan nima ustida ishlashni rejalashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida eng koʻp uchraydigan kamchiliklardan biri, bu tovush talaffuzining buzilishidir.

1 u yoki bu tovushlarni yaxshi talaffuz eta olmaslik

2 bir tovushni ikkinchi bir tovush bilan almashtirib talaffuz etish

3 bor boʻlgan tovushni buzib talaffuz etish bogʻchada tovushlarni talaffuz etishni shakllantirish ishi boʻyicha olib boriladigan ishlar toʻgʻri yoʻlga qoʻyilsa bola nutqidagi kamchiliklar 5-6 yoshga toʻlguncha batamom toʻgʻrilash mumkin. Agar shugʻullanish natijasi yaxshi boʻlmasa logopedga murojaat qilish kerak.

Tovushlarning notoʻgʻri talaffuz etilishi – dislaliya.

Manqalanib, toʻgʻillab gapirish – rinolaliya. Alaliya – bosh miya katta yarim sharlar poʻstlogʻidagi nutq zonalarining chala rivojlanishi yoki zararlanishi sababli bolalarning tilga

kirmasligi yoki yaxshi soʻzlay olmasligidir. Bunga ona qornidaligida yoki tugʻilish vaqtida bola boshining jarohatlanishi, 1 yoshgacha boʻlgan davrida ogʻir kasalliklar bilan kasallanish sabab boʻlishi mumkin. Aloliya sababli bola nutqi uzoq vaqt rivojlanmaydi, natijada 5-7 yoshgacha, baʼzan 10-12 yoshgacha bolaning tili chiqmaydi. Alaliyaga yoʻliqqan bolalar logoped va psixologlarning maslahatlaridan keyin, maxsus guruhlariga, bogʻchalarga maktablarga yuboriladi.

Duduqlanish – baʼzi bir soʻzlarni aytishda toʻxtalish yoki alohida tovush va boʻgʻinlarni takrorlash. Duduqlanish hollari asabi boʻshashgan 2 yoshdan 5 yoshgacha boʻlgan bolalarda uchraydi. Duduqlanish koʻpincha qoʻrquv natijasida va ruhiy jarohatning davom etishdan, atrofdagilarning bolaga nisbatan qoʻpol munosabatidan duduqlanish paydo boʻlishi mumkin. Nutqi yaxshi rivojlanmagan bolaga koʻp sheʼr yodlatish, ertaklarni aytib berishga majburlash ham duduqlanishga olib keladi. Bolaning yoshiga toʻgʻri kelmaydigan kitoblarni, ayniqsa qoʻrqinchli ertaklarni kechqurunlari oʻqib bermaslikni, tele koʻrsatuvlarni ota-onalarga tushuntirish lozim. Ovozning buzilishi – disfoniya deyiladi. Disfoniya ovoz past va hirildoq boʻladi. Har doim baland ovoz bilan baqirish, ashula aytish, kattalarning ovozigacha taqlid qilish avtomobilning signaliga taqlid qilishlar, burunda oʻsimtaning oʻsishi disfoniyani keltirib chiqaradi.

Tarbiyachi bogʻchada nutq oʻstirish mashgʻulotlarda, kundalik faoliyatda bolalar nutqini rivojlantirishni, kamchiliklarni bartaraf qilishni nazarda tutishi lozim. Boshqa mashgʻulotlarda ham bola toʻliq jumla tuzib beradigan qilib savol berish maqsadga muvofiq. “Ha”, “Yoʻq” tarzida javob beradigan qilib savol berish tarbiyachining katta xatosidir. Bola uchun yangi boʻlgan soʻzlarning maʼnosini soddagina qilib tushuntirish soʻz boyligini oshiradi. Nutq oʻstirish mashgʻulotlarida tarbiyachi aynan nutq oʻstirishga taalluqli maqsadni koʻzlagan holda mavzu tanlashi lozim. Muayyan tovush ustida ishlangan, lugʻatni boyitishga gapning qurilishiga rioya qilinishiga qaratilgan oʻyinlar mashgʻulot mazmunini tashkil qilishi kerak. Baʼzan tarbiyachilar nutq oʻstirish mashgʻulotlarini tabiat bilan tanishtirish, badiiy adabiyot tevarak-atrof bilan tanishtirish mashgʻulotlari bilan tanishtirish mashgʻulotlari bilan aralashtirib yuboradilar. Nutq oʻstirish mashgʻulotlarida nutq oʻstirish boʻyicha dasturda koʻrsatilgan vazifalar, davlat talablaridagi koʻrsatilgan minimal talablar koʻzda tutiladi.

Maktab yoshiga yetgan bolalarning nutqi va tafakkurining rivojlanganlik darajasiga qoʻyiladigan minimal talablar: quyidagilardan iborat.

- tovush va soʻzlarni aniq, toʻgʻri talaffuz eta olish
- 3000 tadan ortiq soʻzni tushuntirishi va bilishi
- rasmga qarab gap tuza olish
- ertak va hikoyani tinglash, mazmunini tushunish
- eshitgan kichik ertak va hikoyani qayta soʻzlab bera olish
- taʼsirli nutqqa ega boʻlish
- kattalar va oʻrtoqlari bilan gaplashish madaniyatiga ega boʻlish

1-2 yosh lugʻat boyligi 40-50 ta soʻz

2-3 yosh lugʻat boyligi 250-300 ta soʻz

3-4 yosh 800-1000

4-5 yosh 1900-2000

5-6 yosh 2500-3000

6-7 yosh 3000-3500

Bolaning 2 yoshdan 3 yoshgacha boʻlgan davrida lugʻati va maʼnoli nutqi tez rivojlanadi.

“Quyosh va yomgʻir” oʻyini

Tarbiyachi hozir sizlar bilan sayrga chiqamiz. Ob – havo yahshi, quyosh charaqlab turibdi. Men doira chalaman. Sizlar doira sadosida gullab terib sayr qilasiz. Agar yomgʻir yogʻa boshlasa men doirani cherta boshlayman. Sizlar esa doiraning taqillashini eshitib uylaringizga yugirishingiz kerak.

“Top nima qichqiryapti” oʻyini

Sigir, kuchik, mushik, qoʻy va hakozaalarning oʻyinchoqlarini bittadan koʻrsatadi va ovozigacha taqlid qiladi. Boshqa xonaning eshigini qiya ochib qoʻyib yoki kichkina uycha

ichidan bolaga birona hayvon ovozig a taqlid qilish taklif etiladi. Boshqa bolalar qaysi hayvon ovozi ekanligini topadilar.

“Shoshildingiz –kuldirdingiz” ertagi

Qurbaqa ayiqning uyi oldiga sakrab kelibdi. Derazaning tagida turib: “vaq-vaq-vaq siznikiga mehmon bo`lib keldik” debdi so`ngra sichqon “Pi-pi-pi” sizning so`msalaringiz juda mazali deyishyapti debdi. Shu vaqt tovuq “Qo-qo-qo ushoqlar sochilgan sen borib cho`qib yechin deyishyapti”. Tovuqdan so`ng g`oz kelibdi “G`oq-g`oq-g`oq no`hatingizdan cho`qib yesam degan edim “. Shunda ayiq boshini derazadan chaqirib “R-r-r-r-r” deydi. Buni eshitib hayvonlar qo`rqanlaridan qochib qolishibdi. Ayiq nima demoqchi ekanligini oxirigacha eshitishlari kerak edi. Ayiq esa bunday demoqchi ekan. “R-r-r” mehmonlardan juda hursandman marhamat kiringlar. Ertakdagi qatnashuvchilarni aytib berish davomida Flonelografda ko`rsatib borish kerak.

“Qayerda chalistdi?” o`yini

Bolalar aylana shaklida o`tirishadi. Tarbiyachi o`yin boshlovchi tanlaydi. Boshlovchi o`rtada. Boshlovchi tarbiyachining signali bilan ko`zini yumadi. Bolalardan bittasi qo`ng`iroqni chaladi. Boshlovchi ko`zini ochmasdan qo`ng`iroq ovozi kelayotgan tomonni qo`li bilan ko`rsatadi.

To`g`ri topsa tarbiyachi “bo`ldi” deb aytadi bola ko`zini ochadi. Qo`ng`iroqni chalgan bola esa qo`ng`iroqni yuqoriga ko`tarib, uni ko`rsatadi. Agar bola adashsa yana bir marta qaytaradi. Keyin boshqa bola boshlovchi bo`ladi.

“Kimning qushchasi uzoqqa uchadi” o`yini

Yupqa qog`ozdan lentachalar, qushchalar, kapalaklar tuzatib osiladi va puflatiladi.

“Men nimani chalayapman, top” o`yini

Tarbiyachi bolani musiqali o`yinchoqlar bilan tanishtiradi. So`ngra bu o`yinchoqlarni parda orqasiga yashiradi. Parda orqasida birona musiqaviy o`yinchoqni chaladi va bolalardan qaysi musiqaviy o`yinchoqni chalganini so`raydi. Kim uni to`g`ri topsa shu bola parda orqasidan musiqaviy o`yinchoqni chaladi. Bir mashg`ulotda 4 xil musiqaviy o`yinchoq olinishi lozim.

“Baland-past” o`yini

Kichik va katta kuchuklarning akillashi mashq qildiriladi.

“Kim u?” o`yini

Tarbiyachi boshqa xonada kuchuk, mushuk, g`oz, tovuq, echki qo`ylarning niqoblarini tayyorlab qo`yadi. Niqob kiygan bola echikni taqillatadi. Bolalar “Kim u?” deydi. Kuchuk niqobni kiygan bola “vov-vov-vov” deb javob beradi.

- III. O`yin. “Baliqlar o`yini”. Ishtirokchilar yarim doira shaklida o`tirishadi. Navbati bilan laqqa baliq, ilon baliq, sazan baliq deb ishtirokchilar aytadi. Boshlovchi baliqlar suvda mazza qilib suzib o`ynaydilar. Hozir biz ularning o`yinini tomosha qilamiz. Boshlovchi “laqqa baliqlar” desa laqqa baliqlar o`rnilaridan turib harakatlanib boshqa o`rindiqqa o`tirishlari kerak. Boshlovchi sekin bitta kursini olib qo`yadi. Oxirda qolgan bitta baliqqa kursi yetishmay qoladi. U boshlovchi bo`ladi va “sazan baliqlar” deydi. O`yin shu tariqa davom etadi.

TEST SAVOLLARI

1. “Bolajon” dasturidagi “Nutq, o`qish va savodga tayyorgarlik” yo`nalishi bo`yicha ko`rsatilgan vazifalar qaysi mashg`ulotlar orqali amalga oshiriladi?

A. Nutq o`stirish, badiy adabiyot.

*B. Nutq o`stirish, badiy adabiyot, savodga tayyorgarlik.

C. Nutq o`stirish, atrof-olam bilan tanishtirish, savodga tayyorgarlik.

D. Nutq o`stirish, tabiat bilan tanishtirish, badiy adabiyot.

2. Bola nutqini tekshirishda quyidagi jihozlarining qaysi biridan foydalanib bo`lmaydi.

a) buyumli rasmlardan

b) *albomdan

c) o`yinchoqlardan

d) mazmunli rasmlardan

3. Kichik guruhda bolalarni soʻzlashuv nutqiga oʻrgatishda foydalaniladigan asosiy usul.

- a) tushuntirish
- b) rasmlar koʻrsatish
- c) namuna berish
- d) *aytib turish

4. Bolalar nutqi qachon tekshiriladi.

- a) *sentabr, may oylarida
- b) oktabr, yanvar oylarida
- c) dekabr, fevral oylarida
- d) yanvar, may oylarida

5. Ijodiy hikoya tuzishga oʻrgatishda foydalanadigan asosiy usul.

- a) reja berish usuli
- b) aytib turish uslubi
- c) *namuna berish usuli
- d) rasm koʻrsatish

6. Ikki yoshli bolaning soʻz boyligi qancha boʻlishi kerak.

- a) 10 ta
- b) *40-50 ta
- c) 250-300 ta
- d) 800-1000 ta

7. Fikrlash orqali harflarni yozishga oʻrgatishda tubandagi oʻyinlarning qaysi biridan foydalaniladi?

- A. "Nuqtalar"
- B. "Juftini top"
- C. "Paypaslab top"
- *D. "Rangiga qarab oʻrmini top"

8. Rasmga qarab mazmunini soʻzlab berish malakasi bola necha yoshda egallashi lozim?

- A. 6 yoshda.
- B. 4,5 yoshda.
- C. 4 yoshda.
- *D. 3 yoshda.

9. Tubandagi fikrlardan qaysi biri notoʻgʻri?

- A. soʻzda tovushlar ketma-ketligini farqlashga oʻrgatish maktabga tayyorlov guruhda amalga
- *B. Tayyorlov guruhda qoʻlni uzmasdan harfni chiroyli yozishga oʻrgatiladi.
- C. Tayyorlov guruh bolalari bosma koʻrinishdagi harflar bilan tanishtiriladi
- D. Tayyorlov guruhda harf bilan tovushni farqlashga oʻrgatiladi.

10. Tubandagi ertaklardan qaysi biri katta guruhda oʻtiladi?

- *A. "Zumrad va Qimmat", "Saxiy va Baxil", "Egri va toʻgʻri"
- B. "Tulkivoy"
- C. "Aldoqchi hakka"
- D. "Uch ogʻayni botirlar"

11. Qaysi biri oʻrta guruhga taaluqli?

- A. N.Narzullayev "Oʻlkam"
- B. Sh.Saʼdulla "Lola va mushuk"
- *C. E.Vohidov "Ukamning jangi"
- D. "Nasibaning olmasi"

12. E.Vohidovning "Oʻlka" sheʼri orqali tarbiyachi tomonidan qanday tarbiyaviy maqsad amalga oshiriladi?

- *A. ona vatanga nisbatan muxabbat tuygʻusini tarkib toptirish
- B. hayvonlarga nisbatan mehr-shafqatni tarbiyalash
- C. mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash
- D. rostgoʻylik ruhida tarbiyalash

13. Katta guruhda hikoya qilishga qaratilgan nechta surat boʻlishi kerak?

- A. 10 ta

- B.20 ta
- C.30 ta
- *D.40 ta

14. A.Navoiy, rasmlari orqali tanishga o'rgatish qaysi guruhda amalga oshiriladi?

- A.Maktabga tayyorlov guruh
- B. O'rta guruh
- C. Katta guruh
- *D.Kichik guruh

Foydalanadigan adabiyotlar.

1. "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablar" Toshkent. 2013 yil 18 sentabr XTV 302-sonli buyrug'i
2. S. S. Mirdjalilova, M. Sh. Rasulyeva va boshqalar . "Bolajon" dasturi. 2010 yil.
3. Q. Shodiyeva . "Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish" Q. Shadiyeva. Toshkent. O'qituvchi 1995.

3.1.7 (B) Mavzu: Nutq o'stirish, savodga tayyorlash, badiiy adabiyot mashg'ulotlari matnlarini yozish.(2 soat amaliy)

Maqsad: Tinglovchilarni nutq o'stirish, savodga tayyorlash, badiiy adabiyot

3.1.8 (A) Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayoni, atrof- olam haqida tasavvurga ega bo'lish yo'nalishi. (2soat ma'ruza)

Maqsad: 1-§. Elementar matematik ko'nikmalar va bilimlarni rivojlantirish
2-§. Atrof muhitni o'rganish va anglash
3-§. Ijod

Bilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

bolalar faoliyatining turli ko'rinishlarini rivojlantirish uchun amaliy bilimlarni to'plash va umumlashtirish;

tajribalar o'tkazish, modellashtirish, oddiy qidiruv faoliyati bilan shug'ullanish;

tabiatni sevishtirish va uni asrab-avaylash faoliyatining ba'zi metodlariga ega bo'lish;

o'zaro taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilish xususiyatlari;

ma'lumotlarning turli manbaalari bilan ishlashni o'rganish.

Kutiladigan natija: Tinglovchilar "Bolajon" dasturida yosh guruhlariga qarab matematik tasavvurlarni shakllantirishning murakkablashuvini, matematika mashg'ulotlarida o'yinlardan foydalanishni o'rganadilar.

Dars jihozi: Proyektor , marker, flipchart qog'oz, tarqatma.

Dars metodi: “Kichik ma’ruza”, “Aqliy hujum”, “Klaster”

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-olam to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi.

Darsning borishi:

- I. Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini shakllantirish yo‘nalishi necha bo‘lim orqali amalga oshiriladi? Ular qaysilar?

- 6 son va sanoq;
- 7 kattalik;
- 8 geometrik shakl;
- 9 tevarak- atrofda mo‘ljall olish;
- 10 vaqtni chamalash;

“Bolajon” dasturida ilk matematika bo‘yicha ko‘rsatilgan ta’lim-tarbiya vazifalari

Ilk yosh guruh

Ilk yosh guruhida ilk matematik tasavvurlar alohida mashfulotlarda emas, balki sensor tarbiya, nutq o‘stirish, loy ishi, jismoniy tarbiya kabi mashfulotlar orqali berib boriladi.

Bu yoshdagi bolalar narsalar, ularning miqdori, shakli, rangi va shunga o‘xshashlar haqidagi dastlabki tasavvurlarni o‘yin davomida, kundalik hayot tarzida va mazkur dasturda ko‘zda tutilgan mashfulotlardan oladilar.

Bolalarga narsalarni sensor belgilaridan biri (kattaligi, shakli, rangi, miqdori) bo‘yicha bir joyga to‘plash (yiq‘ish), ustma-ust qo‘yish, ostiga qo‘yish, qator qilib terish, namuna va oq‘zaki ko‘rsatmalarga asoslanib katta, kichik, shuncha, ko‘p, kam so‘zlaridan foydalanib topshiriqni bajarishga o‘rgatish.

Ikki guruhdagi narsalarni soniga ko‘ra taqqoslashga (“ko‘p”, “kam”) bolalar etiborini qaratish. Avvaliga, xususiyatlari keskin farq qiladigan, so‘ngra, ancha o‘xshashroq narsalar (masalan: doira-oval, to‘rtburchak-kvadrat)- larni taqqoslash.

Har xil narsalar to‘plamini kuzatish va ko‘rib chiqish, tuzilishiga ko‘ra bir turdagi narsalar to‘plamini rangi, miqdoriga ko‘ra guruhlarga ajratish. Ayni bir vaqtda ikki turdagi predmetlarni guruhlash lozim.

Geometrik shakllardan doira va kub bilan tanishtirish.

Bolalar bilan ikki-uch qismli ta’limiy o‘yinchoqlarni yiq‘ishni mashq qilish, masalan, 2-3 ta xalqalardan piramidani yiq‘ish, 2-3 ta qutichalarga mos qopqoqlarni tanlash.

O‘ng va chap qo‘lini farqlashni o‘rgatish.

Tez, sekin so‘zlarini farqlashga o‘rgatish.

Bolalardagi ilk matematik tushunchalarni kundalik hayotiy vaziyatlarda qo‘llab mashq qilish. Turli hajm, shakl, rangdagi mozaikalarni yiq‘ish. Turli hajm, shakl, rangdagi qoq‘ozlarga rasm chizish. O‘yinchoqlarni yiq‘ishni, olib kelib berishni yoki joyiga qo‘yishni o‘rgatish.

Kichik guruh

Miqdor. Bolalarga alohida predmetlardan guruh hosil qilishni (barcha qizil, barcha sariq, barcha yumaloq va boshqa predmetlarni guruhlash), guruhdan bir predmetni ajratishni, “ko‘p”, “bitta” ni farqlashni, xonada qaysi predmetlar ko‘p, qaysi bittaligini, “bittadan”, “bitta ham” iboralarini tushunishni o‘rgatish.

To‘plam tarkibiga kiruvchi predmetlarning miqdoriga ko‘ra guruxlarning tengligi va teng emasligini farqlash, bir predmetni ikkinchisining ustiga yoki ostiga qo‘yib taqqoslashni o‘rgatish.

“Ko‘p”, “kam” “teng”, “shuncha” kabi so‘zlarni tushunish va nutqda o‘z o‘rnida qo‘llashni, “qancha?” so‘roq‘ining ma‘nosini tushunishni o‘rgatish.

Tevarak - atrofdan bitta va ko‘p predmetlarni topishga o‘rgatish.

2 gacha sanashga 2 ta narsalarning sonini aytishga o‘rgatish. Masalan, “Bir, ikki-ikkita yonq‘oq”, “Bir, ikki-ikkita olma. Ikki do‘stga ikkita olma kerak”.

Kattalik. Bolalarga predmetlarni katta-kichikligi bo'yicha guruhlarga ajratishni, bir turdagi predmetlardan guruh tuzishni, "katta-kichik"ligini taqqoslab aniqlashni o'rgatish. "Katta", "kichik" so'zlarining ma'nosini tushuntirish.

Keskin farq qiluvchi va bir xil o'lchamdagi ikki predmetning balandligi va eniga ko'ra qiyoslash hamda qiyoslash natijalarini "baland", "past", "bir xil" so'zlari bilan belgilab aytishni o'rgatish.

Predmetlarning o'lchamini aniqlashda ajratilgan belgilari ("uzun-kalta", "tor-keng") bo'yicha qiyoslab, ustiga va yoniga qo'yish usullaridan foydalanishni o'rgatish.

Katta-kichik, uzun-kalta, baland-past, tor-keng so'zlarining ma'nosini tushunish va nutqda to'q'ri qo'llashga o'rgatish.

Geometrik shakl. Doirani taniy olish va nomini aytishni o'rgatish. Uni sezish, harakat va ko'rish yo'llari bilan tekshirish usullarini o'rgatish.

Kvadrat bilan tanishtirish. Doira, kvadratni farqlash va aytishni sezish, harakat va ko'rish usullari orqali o'rgatish.

Bolalarga shar va kub haqida tushuncha berish.

Turli topshiriqlar yordamida shar va kub haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

Uchburchakni taniy olish va nomini aytishni o'rgatish. Uni sezish, harakat va ko'rish yo'llari bilan tekshirish usullarini o'rgatish.

Tevarak-atrofdan mo'ljal olish. O'ng va chap qo'lga farqlay olish va aytishni, predmet (o'yinchoq) larni o'ng qo'l bilan chapdan o'ngga qo'yishni o'rgatish.

Bolalarni predmetlarning o'ziga nisbatan joylashishini aniqlashga, "yaqin-uzoq", "tepada-pastda", "orqada-oldinda" so'zlarni aytishga va nutqda to'q'ri qo'llashga o'rgatish.

Vaqtni chamalash. Bolalarga sutka qismlari (ertalab, kunduzi, kechqurun, tun) ni aytishni o'rgatish hamda farqlash ko'nikmasini tarkib toptirish.

Ta'limiy o'yin va mashqlar. Matematika mashq'ulotlarida olingan bilimlar kun davomidagi faoliyatlar (harakatli o'yinlar, qurilish o'yinlari, rolli o'yin, sayr va suhbatlar) da quyidagi o'yin-mashqlar orqali mustahkamlanadi:

"Kim to'q'ri ko'rsatadi va aytadi?", "Rangli doiralar", "Sehrli xaltacha", "Pazl", "O'z uyingni top", "O'ng tomonga bir qadam, chap tomonga bir qadam", "Kimga qancha?", "Ko'p, oz, bitta", "Qaysi qo'limda ko'p?", "Qancha bo'lsa, shunchani ko'rsating", "Tez yurar poezd", "Xonada sayohat", "Do'kon", "Qo'q'irchoqni sayrga tayyorlaymiz", "Shuncha xalqani toping", "Qopchada qancha doira bor?", "Yuqorida-pastda", "O'ng-chap", "Qaysi qo'l bilan tezroq?", "Oldinga-orqaga", "O'ngga-chapga", "Pastda-tepada", "E'tiborli bo'l", "Uzun-kalta lentalar".

O'quv yili oxirida bola:

- «Ko'p» va «bitta» predmetlarni va ularning katta va kichikligini ajratadi;
- predmetlarning o'lchamini aytadi, "katta", "kichik" so'zlarining ma'nosini tushunadi;
- barcha qizil, barcha katta, barcha kichik va boshqa predmetlarni ajratishni biladi (koptok, sharchalarni rangi bo'yicha guruhlaydi qizil, yashil, sariq) va ularni rangiga mos qutilarga joylashtiradi;
- tevarak-atrofdan bitta va ko'p o'xshash buyumlarni topa oladi;
- 2 gacha sanay oladi (ikkita olma berishni so'raydi, bittasini o'rtoq'iga berishni hohlagani uchun);
- "ko'p", "kam", "teng", "shuncha" so'zlarini o'z o'rnida qo'llay oladi;
- doira, uchburchak va kvadratni biladi va ularning nomlarini ayta oladi;
- "yaqin-uzoq", "orqada-oldinda", "tepada-pastda" so'zlarini tushunadi va nutqda to'q'ri qo'llaydi;
- katta-kichik, uzun-kalta, baland-past, so'zlari ma'nosini tushunadi va nutqda to'q'ri qo'llaydi;

- mustaqil holda o'z o'yinchoqlarini tartibga sola oladi (mashinani garajga, koptokni stol ostiga, kiyimini shkafga, ...);
- sutka qismlari (ertalab, kunduzi, kechqurun, tun)ni farqlaydi;
- «lego» turidagi o'yin bo'laklaridan sodda modellari yasaydi;
- qoq'ozdan buklaydi yoki qog'ozni o'ralib shakllarni yasaydi;
- 3-4 qismlardan pazllarni yasaydi.

O'rta guruh

Son va sanoq. Bolalarga to'q'ri usullardan foydalanib 3, 4, 5 sonlarining hosil bo'lishi bilan tanishtirish va bu sonlar doirasida sanashni o'rgatish: bir qator qo'yilgan predmetlarni sanab, sonni tartib bilan aytish, sonni ot bilan moslashtirib, oxirgi sonni sanalgan predmetlarga taalluqli qilib aytish, masalan, "Bir, ikki, uch, - hammasi bo'lib uchta qalam", "Bir, ikki, uch, to'rt - hammasi bo'lib to'rtta qalam" tarzida.

3, 4, 5 sonlari doirasidagi sonli kartochkalar bilan tanishtirish.

Bolalarga 3, 4, 5 gacha bo'lgan sanoq va tartib sonlarni o'rgatish, "Qancha?", "Qaysi?", "Nechanchisi?", "Sanoq bo'yicha nechanchi?", "Nechanchi o'rinda?", "Hammasi bo'lib nechta?" savollariga javob berib, sanoq va tartib sonlardan to'q'ri foydalanishni o'rgatish.

Bolalarga predmetlarning ikki guruhini qiyoslashni mashq qildirish va taqqoslashni o'rgatish, masalan ("Bir, ikki, uch, to'rt, besh - hammasi bo'lib beshta koptok", "Bir, ikki, uch, to'rt - hammasi bo'lib to'rtta kubik. Beshta ko'p, to'rtta kam. Koptoklar kubiklardan bitta ko'p ekan").

5 gacha bo'lgan sonni o'zidan kichik bo'lgan ikkita songa (buyumlar misolida) ajratish. Masalan, "Senda 5 ta olma bor, ikkitasini ukangga berding. O'zingda nechta qoldi?" degan savol bilan murojaat qilish.

Predmetlarning kam guruhiga etishmagan predmetni qo'shishni yoki ko'p guruhdan bitta ortiqcha predmetni olishni va guruhlar o'rtasida bir xil miqdordagi har xil predmetlardan iborat tenglik hosil qilishni o'rgatish. ("Kartochkaning yuqori qatorida uchta anor, pastki qatorida to'rtta olma, anorlar olmalardan bitta kam. Agar yana bitta anor qo'ysak anorlar va olmalar soni teng bo'ladi").

Kattalik. Bolalarga predmetlarni (3, 4, 5 tagacha) uzunligi, eniga ko'ra bir-birining ustiga qo'yib qiyoslashni o'rgatish.

Narsalarning qalin-yupqaligini qiyoslash, "qalin", "yupqaroq", "bir xil" so'zlarini nutqda to'q'ri qo'llashni o'rgatish.

Uzunligi, kengligi har xil bo'lgan bir necha predmetni (5 tagacha) bir-birining ustiga uzunligi, kengligiga ko'ra ortib va kamayib boradigan tartibda qo'yib qiyoslashni o'rgatish (eng keng, torroq, yana torroq, eng tor tasma).

Geometrik shakllar. Doira, kvadrat, uchburchak shakllarini bir-biridan farqlashni mustahkamlash.

To'q'ri to'rtburchak shakli bilan tanishtirish, to'q'ri to'rtburchak-kvadratni farqlash va aytishni, ularni sezish - harakat va ko'rish usullari orqali o'rganish.

Oval shakli bilan tanishtirish, doira, ovalni farqlash va aytishni, ularni sezish - harakat va ko'rish usullari orqali o'rgatish.

Kub, shar, tsilindr kabi shakllarning nomini aytish va bir-biridan farqlashni o'rganish.

Shakllar har xil o'lchamda bo'lishi mumkinligi haqida tasavvur hosil qilish (katta doira - kichik doira, katta kvadrat - kichik kvadrat).

Tayoqchalardan to'q'ri to'rtburchak, kvadrat, uchburchak yasashga, bu shakllardan foydalanib turli narsalar yasashni o'rgatish.

Tevarak- atrofda mo'ljal olish. Narsalarni o'ng qo'l bilan chapdan o'ngga qarab terish ko'nikmasini mustahkamlash.

U yoki bu predmetning o'ziga nisbatan joylashuvini so'z bilan ifodalashni o'rgatish (oldimda - stol, orqamda - shkaf, pastda - pol, yuqorida - ship, o'ng tomonimda - deraza, chap tomonimda - eshik, shkaf - uzoqda, stul - yaqinda).

Bolalarga berilgan yo'nalishda (oldinga-orqaga, o'ngga-chapga) harakat qilishni o'rgatish.

Vaqtini chamalash. Bolalarning kun - tun haqidagi tasavvurlarini aniqlash, vaqtini ifodalovchi kun - tun so'zlarini nutqda to'q'ri qo'llashga o'rgatish asosida vaqt haqida tasavvurlarini mustahkamlash.

Bolalarning sutka qismlari haqidagi tasavvurlarni aniqlash (kechasi, kunduzi, ertalab, kechqurun) va mustahkamlash.

“Kecha”, “Bugun”, “Ertaga” tushunchalarini farqlash va bu so'zlardan to'q'ri foydalanishni o'rgatish.

Harakat tarzini ifodalovchi so'zlarni (tez, sekin) o'rgatishni davom ettirish.

Qurish-yasash

Bolalarga sodda voqeaband o'yin masalalarini loyihalab oddiy qurilmalarni: “lego” turidagi o'yin bo'laklaridan modellar yiq'ishni, 6-8 ta qismlardan pazllar yasashni, qo'ozdan buklay yo'li (origami) orqali sodda shakllarni yasashni o'rgatish.

Ta'limiy o'yin va mashqlar. Matematika mashq'ulotlarda egallangan bilim va ko'nikmalar quyidagi o'yin - mashqlar orqali mustahkamlanadi:

“Kim chaqqon?”, “Sanoq'ini top”, “O'rnini top”, “Topgan-topaloq”, “Kim topqir?”, “Klaster”, “Keyingi sonni top”, “Kim bekini?”, “Shartli belgilar asosida harakat qilamiz”, “Yaqin-uzoq”, “Keyingi sonni ayt”, “Shakl yasa”, “Keng-tor”, “O'xshashini top va qiyosla”, “Kun-tun”, “Kimga qancha?”, “Qaysi o'yinchoq yashirilgan?”, “Kimda shuncha?”, “Darvozadan o'ting”, “Keling, sanaymiz”, “Qaysi o'yinchoq qaysi songa tegishli?”, “Sharlar”, “Tovushiga ko'ra sonini toping”, “Kim tezroq terib oladi?”, “Teskariyini ayting”, “Gulli q'ildirak”, “Miqdoriga ko'ra tanlang”, “Qo'lingizda nima bor?”, “Katta va kichik narsalar”, “Qaysi doirani qo'yish zarur?”, “Maxsus topshiriq”, “Nima o'zgardi?”, “Kimga nima?”, “Xuddi shunday xalqani toping?”, “Ko'rsatkichni to'q'rilang”, “Bu qanday shakl?”, “Narsalarning nomini ayting?”, “Geometrik loto”, “Sehrlil qopcha”, “Sotuvchisiz do'kon”, “U erda nima bor?”, “Kim topqir va uddaburon?”, “Oldinga-orqaga”, “Kimning bo'yi baland?”.

O'quv yili oxirida bola:

- 5 gacha sanaydi;
- bir joyda turgan buyumlarni (5 tagacha) tartib soni bilan ayta oladi;
- soni 5 tagacha bo'lgan ikki guruhdagi buyumlar sonini taqqoslaydi;
- buyumlarning shakli, katta-kichikligi, uzun-qisqaligi, qalin-yupqaligiga ko'ra farqlaydi;
- doira, kvadrat, uchburchak, to'q'ri to'rtburchak, oval shakllarini bir-biridan farqlaydi;
- shar, kub, tsilindrlarning nomini ayta oladi va ularni farqlaydi;
- tayoqchalardan to'q'ri to'rtburchak, kvadrat, uchburchak yasay oladi;
- predmetlarni (7 tagacha) uzunligi, eniga, qalin-yupqaligiga ko'ra bir-birining ustiga qo'yib qiyoslaydi, “eng keng”, “torroq”, “yana torroq”, “eng tor”, “qalin”, “yupqaroq”, “bir xil” so'zlarini nutqda to'q'ri qo'llaydi;
- aniq bir yo'nalishni ifodalovchi oldinga, orqaga, o'ngga, chapga, yuqorida, pastda kabi so'zlarni nutqda qo'llay oladi;
- u yoki bu predmetning o'ziga nisbatan joylashuvini so'z bilan ifodalay oladi;
- kun, tun, ertalab, kunduzi, kechqurun, kecha, bugun, ertaga, tez, sekin kabi vaqtini ifodalovchi so'zlarni tushunadi, nutqda qo'llaydi;
- “lego” turidagi o'yin bo'laklaridan sodda modellar yiq'adi;
- 6-8 ta qismlardan pazllar yasaydi;

- qoq'ozdan buklash yo'li (origami) orqali sodda shakllarni yasaydi;

Katta guruh

Son va sanoq. Bolalarga to'q'ri usullardan foydalanib 6, 7, 8, 9, 10 sonlarining hosil bo'lishi bilan tanishtirish. Bu sonlar doirasida sanashni o'rgatish: bir qator qo'yilgan predmetlarni sanab, sonni tartib bilan aytish, sonni ot bilan moslashtirib, oxirgi sonni sanalgan predmetlarga taalluqli qilib aytish. Masalan, "Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti - hammasi bo'lib oltita kitob".

Bolalarga predmetlarning ikki guruhini qiyoslashni mashq qildirish ("Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, etti – hammasi bo'lib ettita sabzi ", "Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti – hammasi bo'lib oltita quyon. Ettita ko'p, oltita kam. Agar quyonlarga sabzilarni berib chiqsak, bitta sabzi ortib qoladi").

10 gacha bo'lgan sanoq va tartib sonlarni o'rgatish, "Nechta?", "Nechanchi?", "Sanoq bo'yicha nechanchi", "Qancha?", "Qaysi?", "Nechanchisi?" "Jami qancha?" savollariga javob berib, sanoq va tartib sonlardan to'q'ri foydalanishni o'rgatish.

Soni 10 gacha bo'lgan ikki guruhdagi buyumlar sonini taqqoslash tenglashtirish, bittaga kamaytirish va bittaga orttirish.

Predmetlarning kam guruhiga etishmagan predmetni qo'shishni yoki ko'p guruhdan bitta ortiqcha predmetni olishni va guruhlar o'rtasida bir xil miqdordagi har xil predmetlardan iborat tenglik hosil qilishni o'rgatish. ("Kartochkaning yuqori qatorida oltita olma, pastki qatorida ettita nok, noklar olmalardan bitta kam. Agar yana bitta nok qo'ysak olmalar va noklar soni teng bo'ladi").

Son predmetning joylanishiga boq'liq emasligi haqida tasavvurni shakllantirish.

0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 raqamlari bilan tanishtirish.

10 gacha bo'lgan sonlarni birliklardan iborat tarkibi bilan tanishtirish, masalan: (4-bu 1, 1, 1 va yana 1, 9-bu 1, 1, 1, 1, 1, 1, 1, 1 va yana 1).

10 gacha bo'lgan sonlarni o'zidan kichik bo'lgan 2 ta sondan hosil qilishni o'rgatish (masalan: 4-bu 3 va 1; 1 va 3; 2 va 2 kabi)

10 dan 1 gacha teskari sanashni o'rgatish.

10 soni ichida sonlarning qo'shnilarini - oldingi va keyingisini topishni mashq qilish. Masalan, "5 dan oldin 4, 5 dan keyin 6 soni keladi. 4 va 6 sonlari 5 sonining qo'shnilari".

YOnma - yon turgan 10 gacha bo'lgan sonlarni qiyoslashga o'rgatish.

Tengsizlikdan tenglikni (yoki tenglikdan tengsizlikni), kam songa bitta predmetni qo'shib yoki ko'p sondan bitta predmetni olib, teng yiq'indilardan biriga bir predmetni qo'shib yoki yiq'indilardan biridan bir predmetni olib tenglikka va tengsizlikka qanday erishishga o'rgatish (masalan: "Sakkiz – sakkizga teng, sakkizta predmetga bitta predmet qo'shilsa, to'qqizta bo'ladi, bir predmetga ko'p bo'ladi.", "O'n o'nga teng: agar o'nta predmetdan bitta predmet olinsa, to'qqiz bo'ladi, bir predmetga kam bo'ladi").

Berilgan son bo'yicha guruhlar tuzishga o'rgatish, masalan: (8 tadan, 9 tadan, 10 tadan va hakoza).

Arifmetik masala echishning (sanashga asoslangan) tuzilishi bilan tanishtirish. Qo'shish va ayirishga doir masalalarni echishda bittalab qo'shib va bittalab ayirib hisoblash usuli bilan tanishtirish.

10 ichida barmoq, sanoq cho'pi va buyumlar yordamida qo'shish va ayirishni o'rgatish.

Bolalarga uyining nomerini aytishni o'rgatish.

Kattalik. Uzunligi, kengligi har xil bo'lgan bir necha predmetni (10 tagacha) bir-birining ustiga uzunligi, kengligiga, qalin-yupqaligiga ko'ra ortib va kamayib boradigan tartibda qo'yib qiyoslashni o'rgatish (eng keng, torroq, yana torroq, eng tor lenta). Predmetlar qanday tartibda terib chiqilganini tushuntirib berishga o'rgatish.

Turli uzunlikka, kenglikka, balandlikka ega predmetlarni ko'payib borish yoki kamayib borish tartibida (10 tagacha bo'lgan predmetlardan foydalanib) terib chiqishga o'rgatish, masalan: baland, past, yanada past, yanada pastroq, eng past.

Butunni 2 ta, 4 ta teng qismga bo'lishni, butun bilan qismni taqqoslashni o'rgatish.

Shartli o'lchov bilan tanishtirish. Taqqoslanayotgan predmetlardan biriga teng bo'lgan o'lcham yordamida ikkita predmetni uzunligi (kengligi, balandligi) ga qarab taqqoslashga o'rgatish.

Narsalarni ko'z bilan chamalab, miqdori, kattaligi (uzun (qisqa), keng (tor), enli (ensiz), baland (past), qalin (yupqa)) kabi namuna va unga teng bo'lgan bolalar uchun tanish narsalar yoki harakatlar natijasida qiyoslanuvchi narsalarning o'lchamini aniqlashga o'rgatish.

Geometrik shakllar. Shakllar har xil o'lchamda bo'lishi mumkinligi haqida tasavvur hosil qilish (katta doira - kichik doira, katta kvadrat – kichik kvadrat).

Shakllar va uning ayrim belgilari haqida tasavvur hosil qilish: Masalan, to'rtburchakning 4 ta burchagi va 4 ta tomoni (to'rtburchakning turli ko'rinishlari misolida) bor.

Bolalarning shar, kub, tsilindrlar haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash va ular yordamida turli mavzularda loyihalar yaratish.

Doira va oval shaklini farqlashga doir turli mashqlarni bajartirish.

Qurshab turgan narsalar orasidan tanish bo'lgan geometrik shakllarni topa olishga o'rgatish: Masalan, lagan, non doiraga o'xshaydi; stolning usti, devor, eshik va derazalar to'rtburchakka, ro'molcha kvadratga, qizchalar boshidagi ro'mol uchburchakka, stakan tsilindrga o'xshaydi va hakoza.

Uchburchak va to'rtburchaklardan turlicha katta o'lchamdagi narsalar va shakllar tuzish.

Turli geometrik shakllar to'plamidan har xil o'yinlar o'ynash, maxsus shakllar to'plamidan foydalanib, namunadagi narsalarni yasashni o'rgatish.

Tayoqchalardan to'q'ri to'rtburchak, kvadrat, uchburchak yasashga, bu shakllardan foydalanib turli narsalar yasashga o'rgatish.

Tayoqchalardan hosil bo'lgan geometrik shakllardan bir nechta tayoqchani olish usuli bilan ko'rinishini o'zgartirishga doir muammoli vazifalarni hal etishni o'rgatish.

Maxsus figuralar to'plamidan foydalanib, namunadagi qismlardan tashkil topgan shakl-siluetlar hosil qilishga o'rgatish.

Labirintlar va ularning echimi bilan tanishtirish.

Tevarak - atrofdagi mo'ljal olish. Bolalarning atrofdagi narsalarning o'ziga nisbatan vaziyatini so'z bilan ifodalash ko'nikmasini mustahkamlash: o'ngda, chapda, oldinda, orqada, uzoqda, yaqinda.

Bolalarni ko'rsatilgan yo'nalishda mo'ljal olishga, berilgan shart bo'yicha o'z holati o'rnini belgilashga o'rgatish (shunday turginki, mashina o'ng tomoningda, koptok oldingda bo'lsin).

U yoki bu predmetni boshqa bir predmetga nisbatan joylashganligini so'z bilan ifodalashga o'rgatish (kuchukchaning chap tomonida - quyon, kuchukchaning o'ng tomonida - ayiqcha).

Bolalarni qoq'oz varaq'i sathini mo'ljalga olishga, qoq'ozning o'ng, chap, yuqori, past qismlarini, o'rtasini aniqlashga o'rgatish.

Vaqtini chamalash. Bolalarning vaqt haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish: "Ertalab", "Kechqurun", "Kunduz", "Tun", "Kecha", "Bugun", "Ertaga" tushunchalarini farqlash va bu so'zlardan to'q'ri foydalanish ko'nikmasini mustahkamlash.

Bolalarni hafta kunlari bilan tanishtirish va hafta kunlari nomlarini izchillik bilan aytishga o'rgatish. Kecha haftaning qaysi kuni bo'lganligini, bugun qanaqa kun, ertaga qaysi kun bo'lishini aniqlashni o'rgatish.

Bolalarning vaqt haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish. Yil fasllari bilan tanishtirish va fasllarning nomini to'q'ri ketma-ketlikda aytishga o'rgatish.

Qurish-yasash. Lego jihozlaridan loyihalar yaratishni, 8-10 qismdan kam bo'lmagan pazllarni yiq'ishni va qoq'ozlarni bukib (origami yo'li bilan) shakllar yasashni o'rgatish.

Qurilish materiallari to'plamlaridan turli mavzularda loyihalar yaratishga o'rgatish.

Ta'limiy o'yin va mashqlar. Bolalar yil davomida egallagan bilim va ko'nikmalar quyidagi o'yin mashqlar orqali mustahkamlanadi:

"Kun qismlari", "To'q'ri joylashtir", "Teskari sanoq", "Qaerga borasan, nimani topasan?", "Kecha, bugun, ertaga", "Topgan-topaloq", "Butun va qismlar", "Rangli doiralar va ovallar", "Hafta", "Klaster", "Mozaika", "Bayroqchaga qarab yur", "Fasllar", "Kim bilsa davomini sanasin", "Bir xilini top", "Ha-yo'q", "Yil fasllari", "Toping nechta o'yinchoq?", "O'ngda-chapda, oldinda-orqada", "Qo'nq'iroqcha qaerda jiringlayapti?", "Men qanday son o'yladim?", "Garaj", "Etadimi?", "Ko'p, oz, shuncha", "Munchoqlarni ipga tizing", "Shartli

belgilar asosida harakat qilamiz”, "Poezd tuzing", "Zinapoya", "O`z soningizni eslab qoling", "Darvozadan o`ting", "Boshqa qo`limda nechta?", "Bir-biriga qarab", "Darchani berkiting", "Bu kimning qutisi?", "Kim birinchi?", "Kim eng topqir?", "Kim ziyrakroq?".

O`quv yili oxirida bola:

- 10 gacha to`q`ri va teskari tartibda sanay oladi;
- 10 gacha bo`lgan sonni o`zidan kichik bo`lgan ikkita songa ajrata oladi;
- yonma-yon turgan sonlar orasidagi munosabatlarni tushunadi;
- 10 ichida barmoq, sanoq cho`pi va buyumlar yordamida qo`shish va ayirishni biladi;
- “Nechta?”, “Nechanchi?”, “Sanoq bo`yicha nechanchi”, “Qancha?”, “Qaysi?”, “Nechanchisi?” “Jami qancha?” savollariga javob berib, 10 ichida sanoq va tartib sonlardan to`q`ri foydalana oladi;
- soni 10 gacha bo`lgan ikki guruhdagi buyumlar sonini taqqoslash tenglashtirish, bittaga kamaytirish, bittaga orttirishni biladi;
- qaysi predmet ko`pligini yoki kamligini 10 tagacha aniqlay oladi;
- uyining nomerini biladi;
- doira, kvadrat, uchburchak, to`q`ri to`rtburchak, ovalarni farqlaydi;
- maxsus shakllar to`plamidan foydalanib, namunadagi narsalarni yasay oladi;
- tayogchalardan hosil bo`lgan geometrik shakllardan bir nechta tayogchani olish usuli bilan ko`rinishini o`zgartirishga doir muammoli vazifalarni hal eta oladi;
- shar, kub va tsilindrlarni taniydi;
- labirintlarni biladi va ularning echimini topa oladi;
- predmetlarni qanday qismlardan tashkil topganligini, ularning xususiyatlarini (kattaligi, shakli, nomi) farqlaydi,
- butunni 2 ta, 4 ta teng bo`lakka bo`lishni biladi, butun bilan qismni taqqoslaydi va farqlaydi;
- predmetlarni (10 tagacha) uzunligi, eni, qalin-yupqaligiga ko`ra bir-birining ustiga qo`yib qiyoslaydi, “eng keng”, “torroq”, “yana torroq”, “eng tor”, “qalin”, “yupqaroq”, “bir xil”, “baland”, “past”, “yanada past”, “yanada pastroq”, “eng past” so`zlarini nutqda to`q`ri qo`llaydi;
- buyumlarni o`ziga nisbatan o`rnini aniqlay oladi (tepada - pastda, o`ngda – chapda, oldinda - orqada), signal bo`yicha turli yo`nalishda harakatlanadi (oldinga - orqaga, chapga - o`ngga);
- qoq`oz varaq`ining o`ng, chap, yuqori, past, o`rtasini aniqlay oladi;
- sutka qismlari - ertalab, kunduzi, kechqurun, tunni farqlaydi;
- kecha, bugun, ertani biladi;
- hafta kunlarining nomini, ketma-ketligini, bugun haftaning qaysi kuni ekanligini ayta oladi;
- yil fasllarining nomini biladi;
- pul va uning ko`rinishi, undagi raqamlar va qiymatni taniydi;
- “lego” jihozlaridan loyihalar yaratish;
- 8-10 ta qismlardan pazllar yasaydi;

- qoq'ozdan buklash yo'li (origami) orqali sodda shakllarni yasaydi;
-qurilish materiallari to'plamlaridan turli mavzularda loyihalar yaratadi

Maktabga tayyorlov guruh.

Son va sanoq. Bolalarda 10 gacha bo'lgan predmetlarni to'q'ri va teskari sanash ko'nikmasini mustahkamlash, ko'rsatilgan songa binoan predmetlarni sanab chiqishni mashq qildirish.

0 dan 9 gacha bo'lgan raqamlar bilan tanishtirish.

1-10 gacha bo'lgan sonlarning har biri uchun oldingi va keyingi sonni topishni bolalarga mashq qildirish; 1-10 sonlari o'rtasidagi nisbatni tushunishni mustahkamlash; istagan sondan boshlab to'q'ri va teskari tartibda son nomini aytish, «gacha va keyin», «oldingi va keyingi» iboralarni tushunish.

10 gacha tartib bilan sanash, miqdor va tartib sanoqni farqlash, «qancha?», «qaysi?», «hisob bo'yicha nechanchisi?» degan savollarga to'q'ri javob bera olish.

Turli holatda joylashgan (doira bo'ylab, kvadrat ichida, bir qator) 10 gacha bo'lgan bir xil va turli xil predmetlarning sonini aniqlashni mashq qildirish.

Ikki kichik sondan 10 gacha bo'lgan sonlarni hosil qilishga (aniq material asosida) o'rgatish.

10 gacha bo'lgan sonni o'zidan kichik bo'lgan ikkita songa (buyumlar misolida) ajratish. Masalan, "Senda 10 ta yonq'oq bor, uchtasini akangga berding. O'zingda nechta qoldi?" degan savol bilan murojaat qilish.

15 gacha sanash ko'nikmalarini (ko'rgazmalilikka tayanib) takomillashtirish.

10 dan 15 gacha bo'lgan raqamlar bilan tanishtirish.

YONma-yon turgan sonlarni qiyoslashni mashq qildirish (12-11 dan 1 ta ko'p, 11 esa 12 dan 1 ta kam). Sonlardan har birini 1 taga oshirish va kamaytirishga o'rgatish (15 gacha bo'lgan sonlar ichida).

Bolalarni (ko'rgazmalilik asosida) arifmetik masalalar va uning strukturalari bilan tanishtirish.

1 dan 20 gacha sanashni o'rgatish. 1 dan 20 gacha bo'lgan sonlar o'rtasidagi munosabatlarni (ko'rgazmalilikka tayanib) tushunishni mustahkamlash. (16 soni 15 dan 1 ta ko'p, agar 16 ni 1 ga kamaytirilsa 15 bo'ladi; 15 soni 16 dan 1 ta kam, agar 15 ga 1 ta qo'shsak 16 bo'ladi).

15 dan 20 gacha bo'lgan sonlarning raqamlar bilan belgilanishi bilan tanishtirish. Aytilgan yoki raqam bilan belgilangan sondan keyin keluvchi va oldingi sonning nomini aytishga o'rgatish.

Sonni ikkita kichik songa ajratib terib qo'yishga (20 gacha), ko'rgazmalilik asosida va ikkala kichik sondan yaxlit sonni tuzishga o'rgatish.

Oddiy arifmetik masalalarni tuzish va echishni mashq qildirish. Vazifalarning echimini «yozishda» sonlarning raqam belgilari va amal belgilari: plus (+), minus (-), barobar (=) dan foydalanish.

Misollarni raqamlar yozilgan kartochkalar yordamida ifodalab echishga o'rgatish. $\square + 3$ ko'rinishidagi qo'shish $\square - 3$ ko'rinishidagi ayirish usuli bilan tanishtirish; bunday ko'rinishda 3 sonining tarkibiy qismidan foydalanish (Masalan: qo'shishda $5+3$; $5+1+2$; $5+2+1$; ayirishda $8-3$; $8-2-1$ yoki $8-1-2$).

Pul qiymatlari va narx-navo haqida dastlabki tushunchalar berish. Masalalar echish. Plastik kartochka, terminal haqida ilk tushuncha berish.

Kattalik. Shartli o'lchov bilan tanishtirish. Shartli o'lchov yordamida predmetlarning kengligini, uzunligini o'lchash va taqqoslashga o'rgatish.

Suyuq va to'kiluvchi jismlarni shartli o'lchov birligi bilan o'lchashni va o'lchash natijasini son bilan aytishni o'rgatish.

Turli narsalar (mevalarni, sabzovotlarni va boshqalar) ni ikki teng qismlarga bo'lishni o'rgatish, olingan qismlarni «yarim», «ikkidan bir qism» deb atashga o'rgatish.

Bolalarni shartli o'lchov yordamida predmetlar kengligi, uzunligini o'lchashga o'rgatishni davom ettirish va o'lchash natijasini son bilan aytishga va tegishli raqamlar bilan belgilashga o'rgatish.

Turli narsalar (geometrik shakllar, mevalarni va boshqalar)ni o'nta teng qismlarga bo'lishni o'rgatish.

Ko'z bilan chamalab o'lchashni rivojlantirishni davom ettirish, o'z chamasini o'lchov birligi bilan o'lchab ko'rib tekshirishga o'rgatish.

Geometrik figuralar. Bolalarni doira, kvadratni ikki teng qismga bo'lishga, olingan qismlarni «yarim», «ikkidan bir qism» deb atashga o'rgatish. Aniq material yordamida butun qismdan katta, qism esa butundan kichkina ekanligini belgilash.

Ko'pburchaklar haqida tasavvur berish: uchburchak, to'rtburchak-bu ko'pburchak. Bolalarni ko'pburchak elementlari (tomonlari, burchaklari, burchak uchlari) bilan tanishtirish.

Tayoqchalar yordamida turli shakllarni yasash.

Bolalarga doirani, kvadratni 4 ga bo'lishni o'rgatish. Aniq material asosida butun qismdan katta, qism esa butundan kichkina ekanligini belgilash.

Bolalarni 2 ta, 4 ta uchburchaklardan bitta ko'pburchaklar tuzishga, kichik to'rtburchakdan bitta katta to'rtburchak tuzishga o'rgatish.

Beshburchak va oltiburchak bilan tanishtirish.

Etishmagan shakl, jismni (shar, kub, tsilindr) topishga doir mantiqiy masalalarni echishni o'rgatish.

Geometrik figuralar ko'rinishini o'zgartirishga o'rgatish: kichik uchburchaklardan to'rtburchak shaklini yasash va boshqalar.

Tayoqchalardan hosil bo'lgan geometrik shakllardan bir necha tayoqchani olish usuli bilan ko'rinishini o'zgartirish.

Maxsus shakllar to'plamidan foydalanib, namunadagi narsalarni hosil qilish.

Tevarak-atrofdagi mo'ljal olish. Bolalarni qoq'oz varaq'i sathida predmetlarning qanday joylashganligini (chaproq, o'ngroq, o'rtasida, yuqoriroq, pastroq aniqlashga) o'rgatish.

Daftar sathini aniqlash va shakllarni shtrixlar orqali chizishni mashq qilish.

Bolalarga predmetlarni pol, qattiq qoq'oz, daftar varaq'i ustiga joylashni mashq qildirish.

Tevarak atrofdagi narsalarning vaziyatini aniqlashga doir mashqlar.

Vaqtning chamalash. Bolalarni soatlarning turlari va ularning tuzilishi (strelkalari, tsifrlari) bilan tanishtirish. Vaqtning eng kichik birliklari soniya va daqiqa haqida tushuncha berish. Yarim soatgacha aniqlikdagi vaqtning belgilashga o'rgatish.

Kelgusi oy, sana nomi bilan tanishtirish. Kecha qanday sana bo'lganligini, ertaga qanday sana bo'lishini aytishga o'rgatish.

Hafta kunlari va yil fasllari izchilligi haqidagi bilimlarni mustahkamlash, kelgusi oyning nomini aytishni mashq qildirish.

Qurish-yasash. Bolalarga yil davomida lego jihozlaridan loyihalar yaratishni, 20 qismdan kam bo'lmagan pazllarni yiq'ish va qoq'ozlarni bukib (origami yo'li bilan) shakllar yasashni o'rgatish.

Qurilish materiallari to'plamlaridan turli mavzularda loyihalar yaratishga o'rgatish.

Ta'limiy o'yin va mashqlar. Egallagan bilim va ko'nikmalar quyidagi o'yin mashqlar orqali mustahkamlanadi:

"Nima o'zgardi?", "Nechta bir xil rangli doira?", "Matematik estafeta", "U erda qancha qoldi", "Maydalang", "Domino", "Uddaburon sanoqchiga - bayroqcha", "Doirani aylantiring", "Toping-chi, kimning bo'yi uzun?", "Geometrik domino", "Shakllarni to'rtta cho'ntakka joylang", "Ziyrak bo'ling", "Berilgan shaklni kim tezroq tuza oladi?", "Qanday shakl hosil bo'ladi?", "Shaklni toping", "Qaysi shakl etishmaydi?", "Men nimani aytsam shuni bajaring", "Qaerga borib, nima topasiz?", "Shakllarni to'q'ri joylashtiring", "Teskari sanoq", "Qaerga borasan, nimani topasan?", "Kecha, bugun, ertaga", "Topgan-topaloq", "Butun va qismlar", "Atomlar", "Rangli doiralar va ovallar", "Hafta", "Klaster", "Mozaika", "Bayroqchaga qarab yur", "Fasllar", "Kim bilsa davomini sanasin", "Bir xilini top", "Ha-yo'q", "Yil fasllari", "Toping nechta o'yinchoq?", "O'ngda-chapda, oldinda-orqada", "Qo'nq'iroqcha qaerda

jiringlayapti?”, “Men qanday son o`yladim?”, “Garaj”, “Etadimi?”, “Ko`p, oz, shuncha”, “Munchoqlarni ipga tizing”, “Shartli belgilar asosida harakat qilamiz”.

O`quv yili oxirida bola:

- ikki kichik sondan tashkil topgan birinchi o`nlik tarkibini biladi;
- ikki kichik sondan tashkil topgan ikkinchi o`nlik tarkibini (ko`rgazmalilikka tayanib);
- 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20 raqamlarini biladi;
- «+», «-», «=» ishoralarini;
- 10 gacha bo`lgan sonlarni to`q`ri va teskari sanash;
- 20 gacha bo`lgan sonlarni to`q`ri sanash;
- predmetlar miqdorini raqam (raqamlar) bilan belgilangan songa solishtirib chiqish;
- misollarni raqamlar yozilgan kartochkalar yordamida ifodalab echish;
- bir amalli masalalarni qo`shish va ayirish orqali tuzish va echish;
- shartli o`lchov yordamida predmetlar uzunligini o`lchashni va natijani son va raqam bilan aytish;
- suyuq va to`kiluvchi jismlarni shartli o`lchov birligi bilan o`lchashni va natijani son va raqam bilan aytish;
- bir nechta uchburchaklar, to`rt burchaklardan katta hajmdagi shakllar va predmetlar tuzish;
- maxsus shakllar to`plamidan foydalanib, namunadagi narsalarni hosil qilish;
- tayoqchalarning o`rnini almashtirish asosida berilgan shakllar (uchburchak, to`q`ri to`rtburchak, kvadrat)ni o`zgartirishga oid topshiriqlarni bajarish;
- ko`pburchaklarning elementlarini (tomonlari, burchaklari, uchlari) bilish;
- narsalar (geometrik shakllar, mevalar, sabzovotlar va boshqalar) ni 2, 4 va 10 tagacha teng qismlarga bo`lish;
- butunning qismdan kattaligi, qism butunning qismi ekanligini tushunadi;
- katak qoq`ozi varaq`i sathini mo`ljall olishni, qoq`oz varaq`ining o`ng, chap, yuqori, past, o`rtasini aniqlash;
- buyumlarning o`ziga nisbatan o`rnini aniqlash (tepada-pastda, oldinda-orqada, o`ngda-chapda);
- signal bo`yicha turli yo`nalishda harakatlanish (oldinga-orqaga, tepaga-pastga);
- harakat davomida, yurib ketayotganda yo`nalishni o`zgartirish;
- kun qismlari, ularning ketma-ketligi, kundalik faoliyatlarning taqsimlanishi;
- hafta kunlarining nomini ayta olish va ketma-ketligi;
- yil fasllari, ularning nomi, ketma-ketligini va o`ziga xos xususiyatlarini;
- yil taqvimi, o`tayotgan oy, sana, hafta kuni haqida;
- soat turlari va uning ishlatilishi;
- lego jihozlaridan loyihalar yaratadi;
- 20 qismdan kam bo`lmagan pazllarni yiq`adi;
- qoq`ozlarni bukib (origami yo`li bilan) shakllar yasaydi;
- qurilish materiallari to`plamlaridan turli mavzularda loyihalar yaratishni biladi;

- pul qiymatlari, narx, plastik kartochka, terminal haqida dastlabki tushunchaga ega bo'ladi. Yer kurrasidagi barcha insonlar kundalik faoliyatda doimo yer, suv, havodan foydalanadi. Yer, suv, qanchalik toza bo'lsa inson salomatligi ham shunchalik yaxshi bo'ladi.

Istaimizmi, yo'qmi har kuni chiqindi chiqadi. Yosh-u, keksa o'sha chiqindilar bilan yer, suv, havoni ifloslantirmaslik bo'yicha bosh qotirishi juda foydali. Nafas oladigan havo, iste'mol qiladigan suvning toza bo'lishi lozimligini tushunib yetmagan kimsalar tabiatga oqilona munosabatda bo'la olmaydilar.

Ajdodlarimiz asrlar maboynida qir va tog'larni, ko'l va daryolarning tozaligini, yer osti, yer usti boyliklarini saqlay olganlar. Hatto suvga tuflashni gunoh deb hisoblashgan.

Bunday tushunchajarni bolalikdan boshlab singdirish yaxshi samara beradi. Donishmandlar fikriga ko'ra, bolaning besh yoshgacha olgan tarbiyasi, butun umr bo'yi olgan tarbiyasining ko'pchilik qismini tashkil qiladi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarda "Bolajon" dasturi asosida tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, jonivorlarga ozor bermaslik kabi tushuncha va tasavvurlar hosil qilinadi.

Bu vazifalar kundalik faoliyatda mashg'ulotlar, o'yinlar jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiyachi qaysi mashg'ulot bo'lishidan qat'iy nazar bolalarga qanday qilib ekologik tarbiya berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi kerak. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotida jonivorlar, o'simliklar, mevalar bilan tanishtirishda ular haqida bilim ko'nikma hosil qilish bilan birga, ularga toza yer, sof havo, ifloslanmagan suvning zarurligi bilan bog'liq bo'lgan turli xil topshiriqlar bajartiriladi va o'yinlar o'ynatiladi. Masalan, "Baliqning ko'lga borishiga yordam ber" labirint o'yinida baliq, yo'lakchalar, yonida zavod chiqindilari tushayotgan ko'l, bola baliqning toza suvga borishi uchun to'g'ri yo'l ko'rsata bilishi kerak. Aks holda baliqni o'ldirib qo'yadi.

Rasm mashg'ulotida tarbiyachi bolalarning rasm qog'oziga bulut va yomg'ir, daraxtlar, avtomobil, uy, quyosh nuri, qush, gul, baliq, inson, zavod rasmlarini chizib qo'yadi. Bolalarga qaysi narsalar yerni, havoni, suvni ifloslantirsa ularni aylana ichiga oling yoki yoniga yulduzcha yasang topshig'ini beradi.

Har bir guruhda inson himoyachisi obrazini yumshoq o'yinchoq qilib tayyorlash va undan kundalik faoliyatda foydalanish lozim. Uni shunday tayyorlash kerakki, og'zi, ko'zi, qulog'I o'zgartirilib xursand yoki xafa holatiga tushsin. Yashaydigan joyning toza bo'lishi uchun o'yinchoqlarni sindirib chiqindiga aylantirmaslik, gullarni changini artish, bargini gulini uzmaslik, payhon qilmaslik, daraxt shohini sindirmaslik, ularni parvarish qilish jonivorlarga ozor bermaslik foydali ekanligi tushuntiriladi. Inson himoyachisining bunday ishlarni ya'ni yaxshi ishlarni ko'rganda xursand, yomon ishlarni ko'rganda hafa bo'lishi bilan bog'langan holda bolalarga topshiriq beriladi. Masalan, inson hi,oyachisi obrazini quloqlari shalpayib pastga qaragan, lunjlari osilib hafa holati tarbiyachi tomonidan ko'rsatilsa, bolalar, daraxt shohini sindirayotgan, qushlarga tosh otayotgan bolalar rasmi tushirilgan kartochkalarni topib ko'rsatishi kerak yoki aksincha.

Shuningdek, mumkin, bo'lmagan ishlar bilan bog'liq bo'lgan rasmlar qator qilib qo'yiladi. Bolalar qaysi birini qilish mumkin emas bo'lsa, shu rasmning tagiga ikkita tayoqchani ayqashgan ko'rinishda (X) qo'yib chiqadi va bajargan ishlarni gapirib beradi. Masalan, jo'mrakdan suv oqayotgan rasmning tagiga ikkita tayoqchani ayqashgan ko'rinishda (X) qo'yadi, qushlarga in qurayotgan bola tasviri tushirilgan rasmning tagiga esa hech narsa qo'yilmaydi va hakoza.

Tarbiyachi bunday usullar orqali O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidagi "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlirlar", "yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralarni umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" degan 50-55 moddalarning mazmunini bolalar ongiga singdiriladi.

Bolalarga ekologik tarbiya berishda ularning yosh xususiyatlari nazarda tutiladi. 4-5 yoshdagi bolalarda mashinalar havoni ifloslantirishi velosiped esa ifloslantirmasligi to'g'risida tasavvur hosil qilinadi. Mustahkamlash uchun mashina va velosipedlarning rasmi kartochkalar har qaysi bolaga tarqatiladi.

Qaysi biri havoni ifloslantirsa o'ng qo'lda, ifloslamaydiganini esa chap qo'lda yuqoriga ko'tarib ko'rsatish topshirig'I beriladi. 6-7 yoshli bolalarga bir muncha murakkablashtiriladi. Kartochkaga birinchi qatorda 6 ta yengil mashina, ikkinchi qatorda bitta avtobus, uchinchi qatorda 8

ta velosiped rasmlari tasvirlanadi. Bu transport vositalarining havoni ifloslantirishiga ko'ra 1,2,3 raqamlarini qator boshiga qo'yish topshirig'i beriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyaning shu tarzda boshlang'ich elementlari hosil qilinsa, kelajakda albatta o'z samarasini bermasdan qolmaydi.

Ilk yoshli guruhda

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish. Quyosh va oy haqida tasavvur hosil qilish.

Bolalarni uy hayvonlarining nomini atashga, ularning tovushiga taqlid qilishga o'rgatish. Bolalarni hayvonlar gavdasining asosiy qismlari, ba'zi bir o'ziga xos alomatlari, harakatlariga diqqatlarini jalb etish. Hayvonlarni parvarish qilish haqida tasavvur uyg'otish.

Bolalarni daraxt, gul va o't-o'lanni farqlashga o'rgatish. Ularning diqqatini xonada o'stiriladigan gullarning chiroyiga jalb qilish, ularni sug'orib turish zarurligini tushuntirish. Nomlari tanish bo'lgan sabzavot va mevalarni farqlashga o'rgatish. O'simliklarni ehtiyot qilishga odatlantirish.

Bolalar bilan fasllar almashishi va ob-havodagi ayrim o'zgarishlar (yomg'ir, qor yog'ishi, quyosh charaqlab turishi)ni kuzatish.

Guruh xonasida akvariumdagi baliqlarni, qushni kuzatish. Ularni parvarishlashga qiziqish uyg'otish. Butun jonli tabiatga nisbatan g'amxo'rlik hissinini tarbiyalash.

O'quv yili oxirida bola:

- guruh va xonalarning nomi va vazifasini biladi;
- oila a'zolarining atalishini farqlaydi;
- enaga mehnatini qadrlashga odatlanadi;
- kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarni bilib oladi;
- Bola o'z tanasi qismlarini va ularning vazifalarini to'g'ri ko'rsata oladi
- Bolalarni kattalardan ajratishga o'rgatish.
- uy hayvonlarining nomlarini biladi, ularning ovozlari taqlid qila oladi.

Kichik guruh

Jonli va jonsiz tabiat tog'risida tasavvurga ega bo'lish

Jonsiz tabiat. Kun va tunni, ob-havoning asosiy holatini (shamol esyapti, yomg'ir, qor yog'yapti, havo bulutli, quyosh charaqlab turibdi) farqlash va aytishni o'rgatish. .

Suv, qor, muz, qum, loyning belgilarini farqlash va nomini aytishni (qor-oppoq, sovuq, suv oqadi, iliq va sovuq bo'lishi mumkin, muz-qattiq va sirpanchiq, qum to'kiladi, ho'l qumdan narsalar yasash mumkin, loy-yumshoq, undan narsalar yasash mumkin, agar u qurisa, ezganda uqalanadi) o'rgatish.

Tabiat hodisalari va insonlarning unga nisbatan munosabati (yomg'ir-nam, kastyumsiz sayr qilish mumkin emas, yozda issiq quyosh taftidan bosh kiyim kiyib oladilar, qishda sovuq, odamlar issiq paltolar, sharf, issiq etiklar, issiq shapkalar va h.k.)ni tushuntirish.

O'simliklar dunyosi. Sabzavot (sabzi, piyoz, karam, pomidor, bodring) va mevalar (olma, uzum, o'rik, olcha va gilos)ning nomi, ta'mi, rangi va shaklini bilishga, o'zaro farqlashga o'rgatish.

Xona gullari (fikus, geran, tradeskantsiya) bilan tanishtirish, ularni parvarish qilish yo'llarini o'rgatish.

Gullaydigan madaniy va begona o'tsimon o'simliklar (qoqi o't, atirgul va lolaqizg'aldoq) bilan tanishtirish. Ularning nomlari va ranglarini to'g'ri aytishga o'rgatish. Shu bilan birga bolalarning e'tiborini barglarning shakliga, poyasi va gullaridagi farqlarga, ularning shifobaxsh xususiyatlariga qaratish xamda o'simliklarning o'sishi uchun havo, suv va quyosh zarur ekanligini tushuntirish.

Yoz faslida o'simliklar haqida suhbat o'tkazish.

Olma, nok va olcha daraxtlarining misolida daraxtlarga xos bo'lgan xususiyat: tana qismlari (er ustki qismi, shoxi, bargi, guli, mevasi), ularning shifobaxsh xususiyatlari bilan tanishtirish.

Hayvonot dunyosi. Bolalarni uy (mushuk, kuchuk, qo'y, sigir) va yovvoyi hayvonlar (bo'ri, quyon, tulki, ayiq) va ularning bolalari bilan tanishtirish. Ularni bir-biridan farqlashga va nomlarini to'g'ri aytishga o'rgatish.

Qushlar (musicha, chumchuq va qaldirg'och) va ularning bolalari bilan tanishtirish. Ularning nomi, rangi, katta-kichikligini aytib o'tish, tovushlariga ko'ra tanish va farqlashga o'rgatish.

Hashorotlar (tillaqo'ng'iz, oq kapalak, chumoli) bilan tanishtirish. Ularni ayrim o'ziga xos xususiyatiga ko'ra farqlashga o'rgatish.

Akvariumdagi baliqlar (tilla baliq, tovon baliq), qafasdagi to'tiqush, toshbaqa, qo'ng'iz va kapalaklar (ularni qisqa muddatda bankada saqlash mumkin) bilan tanishtirish, ularning nomini, hayot tarzi, nimalar bilan oziqlanishi haqida qisqacha ma'lumot berish va tana qismlari, ranglaridagi farqlariga e'tiborni qaratish.

O'quv yili oxirida bola:

- fasllar almashishi va ob-havodagi ayrim o'zgarishlar (yomg'ir, qor yog'ishi, quyosh charaqlab turishi)ni payqashlari;
- tabiatni muhofaza qilish haqida dastlabki tushunchani egallagan bo'lishlari;
- xona o'simliklaridan 2-3 xilining nomini bilishi;
- o'simlik va hayvonlarning tashqi ko'rinishidan farqlashi;
- mevalardan olma, uzumning nomini bilishi;
- poliz ekinlaridan qovun-tarvuzning nomini biladi;
- uy hayvonlaridan sigir, qo'y, mushuk, itni bilish;
- yovvoyi hayvonlardan bo'ri va quyonni bilishi;
- qushlardan qaldirg'och, qarg'ani bilishi;
- parrandalardan tovuq, xo'rozni bilishi;
- sabzavotlardan pomidor, bodringni bilishi kerak.

O'RTA GURUH

JONLI VA JONSIZ TABIAT, YER KURRASI TO'G'RSIDA TASAVVURGA EGA BO'LISH

Jonsiz tabiat. Bolalarga ob-havo holatini(sovuq, issiq, iliq, quyoshli, bulutli, shamol esayapti, yomg'ir yog'ayapti, do'l yog'ayapti), suv va qorning ayrim xususiyatlarini(suv tiniq, qor yumshoq bo'lishi, undan qorbobo yasash, qorbo'ron o'ynash mumkin va hokazo; qor quruq ham bo'ladi) farqlashni o'rgatish.

Ayrim predmetlar suvda cho'kishini, ayrimlari cho'kmasligini: issiq kunda ko'lmak suv tez, sovuq kunda sekin qurishini anglab olishlariga yordam berish.

Jonsiz tabiatning ayrim xususiyatlari(tosh-qattiq, qum-sochiluvchan)ni farqlashni o'rgatish.

Bolalarga ob-havodagi o'zgarishlarni (sovuq shamol esayapti, yomg'ir, qor yog'ayapti) farqlashga o'rgatish. Qorning xususiyatlari (sovuq, yumshoq, yopishqoq, ho'l, quruq) bilan tanishtirish.

Bolalarni tong, kunduz, kechqurun, kechasi tushunchalari bilan tanishtirish, kun qismlarida insonlar va bolalarning harakatlari haqida suhbatlar o'tkazish.

O'simliklar dunyosi. Sabzavotlar (baqlajon, karam, sholg'om, turp, piyoz) va mevalar (anor, anjir, behi uzum, o'rik) bilan tanishtirishni davom ettirish. Bolalarga sabzavot va mevalarning nomlarini, rangi, shakli, ta'mi, ovqatga ishlatilishining (xomligicha, pishirilgan, tuzlangan va quritilgan holda) xarakterli belgilarini bilishlari: Sabzavotlar polizda mevalar esa daraxtda o'sishi

bilan tanishtirish. Bolalarga sabzavotlar har yili ekilishini, mevalar esa ko'p yillik o'simlik hisoblanishi haqida qisqacha tushuncha berish.

Sabzavot va mevalar yetishtirishda kattalarning mehnati haqidagi tasavvurni

shakllantirish.

Kuzda daraxtlar bargining to'kilishi, o'tlarning sarg'ayishi, dala va bog'larda yig'im-terim ishlarining boshlanishi haqida suhbatlar uyushtirish.

Kuzning oxirida daraxtlarning bargi butkul to'kilib bo'lishi, o't-o'lanlarning esa xazonga aylanishi, faqat igna bargli archalargina har doimgidek ko'm-ko'k qolishi haqida tushuncha berish.

Urug'dan o'simliklar o'stirish (o'sishidagi izchillik, o'sish uchun zarur sharoitlar, parvarish qilish) haqida; o'simliklar hayoti va o'sishining ayrim shartlari (ular erda o'sadi, ularni suv bilan sug'orish kerak, tuproq serozuqa bo'lishi uchun uni o'g'itlash, yorug'lik kerak) haqidagi tasavvurlarini shakllantirish.

Bolalar diqqatini kunlar ilishi bilan daraxtlarning kurtak chiqarishi, gullashi, barg yozishi, o't-o'lanlarning ko'karishi kabilarga jalb etish.

Gilos va shaftoli daraxtining gulini qiyoslash va farqlashga o'rgatish.

O'simliklarning tuzilishi haqidagi tasavvurni aniqlash va mustahkamlash. Daraxtlarda bitta tana, yo'g'on va ingichka shoxlar, yaproqlar bor. Butalar va bir necha ingichka tana, shox, barglari borligi, o'tsimon o'simliklarda poya, barg, gullar borligi, o'simliklar ildizlari bilan o'zlarini erda tutib turishi va erdan suv hamda ozuqa moddalarini olishi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Atrofdagi o'simliklarning quyidagi belgilariga qarab tanish:

daraxtlar, butalarning barglari, po'stlog'iga; o'tsimon o'simliklarning rangi va gulining shakliga qarab tanish.

Yumshoq mevalar, sabzavotlar bilan, o'simliklar o'sadigan joylar (xiyobon, maktabgacha ta'lim muassasasi, bog') bilan tanishtirish. Tanish o'simliklar nomlarini eslab qolishga o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim muassasasida sabzavotlar o'stirilishi haqidagi tasavvurlarni aniqlash, kengaytirish.

Hayvonot dunyosi. Kuz-qish davrida olmaxon, quyon va tipratikan singari hayvonlar hayoti va tabiiy sharoitlari (qaerda yashashi, qanday yurishi, nimalar bilan oziqlanishi, dushmanlaridan qanday himoyalaniishi) haqidagi tasavvurlarini shakllantirish

Fasllar o'zgarishi bilan quyon, olmaxon, tipratikan kabi hayvonlar hayoti (tabiiy sharoitda ular qaerda yashaydilar, nimalar bilan oziqlanadilar, dushmanlardan qanday qutuladilar) bilan tanishtirish. Uy hayvonlari va ularning bolalari (it, kuchukchalar, mushuk, mushukchalar), qushlar (chumchuq, kabutar, musicha va boshqalar), atrof muhitda uchraydigan hasharotlar (chumoli, kapalak, xon qizi, ninachi kabi)ni farqlashga o'rgatish.

Uy hayvonlarining hayoti, insonlarning ularni parvarish qilishdagi mehnatlari haqidagi tasavvurlarini aniqlash va kengaytirish.

Uy hayvonlari va ularning bolalari haqidagi bilimlarini kengaytirish. Bolalar ularning tana qismlarini, yurish-turish xususiyatlarini ajrata bilishni va to'g'ri xarakterlashni, nima bilan oziqlanishini qanday yurishi, qanday foyda keltirishini, odamlar ular to'g'risida qanday g'amxo'rlik qilishlari haqida bilimlarini kengaytirish.

Bolalarni uy hayvonlari hayoti haqidagi tasavvurlarini boyitish. Ularni uy hayvonlari va parrandalarni parvarish qilishda kattalarga yaqindan yordam berishga o'rgatishni davom ettirish.

Yovvoyi hayvonlar (quyon, olmaxon, tipratikan) haqidagi tasavvurni kengaytirish, ularning bahorgi-yozgi mavsumdagi tabiiy sharoitdagi hayoti (ovqatlanish, tullash, uya qurish, bolalarni o'stirish, bolalari haqida ota-ona g'amxo'rligi xususiyatlari) bilan tanishtirish; tashqi qiyofasi, xatti-harakatiga ko'ra yosh hayvonlarning kattalaridan farq qilishini ko'rsatish.

Kunlar ilishi bilan bolalar diqqatini qushlar ko'payib, hasharotlar paydo bo'la boshlagani, kunlar sovishi bilan hasharotlar butkul ko'rinmay qolganiga, muassasa hovlisidagi qushlar ham kamayib ketganiga qaratish. Sovuq qish kunida qorni ochib ovqat izlayotgan qushchaga naqadar qiyin ekanligini his etishga undash. Bolalarda qushlarga g'amxo'rlik qilish hissini tarbiyalash.

Qushlarning nima bilan oziqlanishi, qishloq xo'jaligiga keltiradigan foydasi haqida ham qisqacha ma'lumot berish. Qushlarga hayrixoxlik bilan munosabatda bo'lish kerakligini tushuntirish.

Tabiat burchagida piyoz o'stirish, parvarish qilish, tashqari sovuq bo'lishiga qaramay, xonada ularning o'sish sababini tushuntirish.

O'rmon hayvonlari ularning yurish-turish xususiyatlarini bilishni va to'g'ri xarakterlashni; yashash sharoitlari, nima bilan oziqlanishini qanday yurishi, qanday foyda keltirishi haqida tasavvur hosil qilish.

Uy hayvonlari hayoti, yoz vaqtida odamlar ularni parvarish qilishdagi mehnatlari (sigir, echki, qo'ylar yaylovlarda o'tlashi, odamlar o't o'rishi, xashak jamg'arishlari va hokazo) haqidagi tasavvurlarini aniqlash. Yaqin atrofdagi hayvonlarni, hovliga keladigan qush, kapalak, qo'ng'iz va ninachilarni bir-biridan farqlashga o'rgatish.

Bolalarni uy hayvonlari hayoti haqidagi tasavvurlarini boyitish. Ularni uy hayvonlari va parrandalarni parvarish qilishda kattalarga yaqindan yordam berishga o'rgatishni davom ettirish.

O'quv yili oxirida bola:

- muassasa hovlisidagi 3-4 xil daraxt;
- madaniy va begona o'tsimon o'simliklardan 1-2 xili, ba'zi sabzavot va mevalar, uy hayvonlari, ularning bolalari, qush va hashoratlarni tanishi va ularni guruhlay olishi;
- 4-5 xil xona o'simliklarini nomini bilishi;
- fasllar almashishi va ob-havodagi ayrim o'zgarishlar (yomg'ir, qor yog'ishi, quyosh charaqlab turishi)ni payqashlari va tabiatni muhofaza qilish haqida dastlabki tushunchaga ega bo'lishlari;
- jonsiz tabiatning ayrim xususiyatlari (tosh-qattiq, qum-sochiluvchan)ni farqlay olishlari;
- predmetlarni kuzatadi, oddiy tajribalar (cho'kadi-cho'kmaydi, yirtiladi-yirtilmaydi) o'tkazishni bilishi lozim.

Katta guruh

Jonli va jonsiz tabiat, yer kurrasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish

Jonsiz tabiat. Bolalarni predmetlar(sharchalar, kubiklar, o'yinchoqlar mashinalar) harakatlari bilan tanishtirish, ularning yo'llari va tezliklarini qiyoslashga o'rgatish.

Moddalarning qattiq holatdan suyuqlikka aylanishi(muzning, smola(qora saqich)ning erishi) va suyuq holatdan qattiq holatga aylanishi haqida tasavvurni kengaytirish.

Suyuqlikni parga va aksincha, parni suyuqlikka aylanishi hodisalari bilan tanishtirish. Qattiq moddalarni suyuqlikka va suyuqlikni qattiq moddaga aylanishi haqida tasavvur hosil qilish.

Qor yog'ishi, qor bo'roni, muz yurishi, momaqaldiroq, do'l yog'ishi, tuman tushishi va shu kabi tabiat hodisalari bilan bolalarni tanishtirish.

Bolalarga suvning inson hayoti uchun zarurligi, er yuzidagi eng bebaho boylik ekanligi, uni asrash bizning burchimiz ekanligi haqida tushuncha berish.

Turli xil predmetlar: o'yinchoqlar, transport harakati haqida va bulutlar, qora bulut, quyosh harakati haqida boshlang'ich tasavvurlarni hosil qilish. Boshlang'ich harakat nuqtasini va jism harakat qilayotgan chiziqni belgilashga, harakat xarakterini aniqlashga(predmetlar sekin, tez xarakat qilayapti) o'rgatish

O'simliklar dunyosi. Mahalliy o'simliklar haqida bolalar tasavvurlarini mustahkamlash. Bolalar daraxtlarning 4-5 turi (tut, terak, qayrag'och, tol)ni (barglariga, po'stlog'iga, mevasiga qarab), butalarning xili(na'matak, maymunjon)ni(barglari, ranglari, mevalariga qarab) nomini aytishlar, farqlashlari, sabzavotlarning 6-8 xilini, mevali daraxtlardan 4-5 xili(olma, nok, anor, anjir,

olcha)ning nomlarini, ranglari, shakli, mazasi, ovqatda iste'mol qilishda xarakterli belgilarini bilishlari kerak.

Sabzavotlar va mevalar haqidagi umumlashtirilgan tasavvurlarni quyidagi belgilariga qarab shakllantirish: sabzavot va mevalar ovqatda qo'llaniladi, ularni maxsus etishtiradilar: sabzavotlar poliz(dala)da o'sadi, mevalar esa bog'da etishtiriladi.

O'simlik(suv quyish, tagini yumshatish) va hayvonlar (ovqatlantirish, kattalar yordamida akvarium yoki qafasni tozalash)ni parvarishlashni bilishi

Xona gullaridan aloe bilan tanishtirishni davom ettirish, ularni parvarish qilish yo'llarini o'rgatish.

Bolalarda tabiatdagi go'zallikdan zavq olishni tarbiyalashni davom ettirish. Tabiatga zarar etkazmaslik, ekologiyani buzmaslik(tevarak-atrofni iflos qilmaslik, o't-o'lanlarni bosmaslik, daraxt shoxlarini sindirmaslik, gullarni yulmaslik, buning oqibatida gullar, kapalaklar yo'q bo'lib ketishi, chumolilarning inini buzmaslik va h.k.)ni bolalar ongiga singdirish.

O'simliklarning tuzilishi, ularning ayrim qismlari vazifalari haqidagi tasavvurni aniqlash va kengaytirish: ildizlar suvni, ozuqa moddalarni shimib oladi, bular poyalar orqali, tana orqali, shoxlar orqali yaproqlar, gullar, mevalarga etkazilishi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. O'simliklarning o'sishi uchun havo, suv, quyosh, ozuqali tuproq zarurligini amaliy ishlar orqali tanishtirish.

Zaruriy sharoitlar etishmasligini bildiruvchi belgilarni bolalar bilishlari kerak: yorug'lik kam bo'lganida o'simlik yorug'lik tomonga cho'ziladi, yaproqlari va poyasi oqaradi, oziqa moddasi kam tuproqda o'simliklar sekin o'sadi, issiq bo'lmasa urug' unmaydi, barglar yozilmaydi, suvsiz o'simliklar qurib qoladi.

O'simliklarni ko'paytirishning usullaridan biri-qalamcha qilish bilan tanishtirish. Erta gullaydigan o'tsimon, butasimon o'simliklar va daraxtlar bilan tanishtirishni davom ettirish. Ba'zi daraxtlar(o'rik, bodom) avval gullab, so'ng barg chiqarishi, ba'zilar esa barg chiqarib(olma, behi) so'ng gullashini tushuntirish.

Bahor tabiatning uyg'onish fasli ekanligi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va chuqurlashtirish. Ayrim o'simliklarning piyozidan, daraxtlarning qalamchasidan, butasidan ko'payishi mumkinligini tushuntirish va o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim muassasasi hovlisida bolalar bilan birgalikda erta gullaydigan daraxt va gul ko'chatlarini ekish, tagini yumshatish va sug'orishga o'rgatish. Qurigan shox - shabballarni qirqish, ko'milgan gul, tok va anor ko'chatlarini ochish va ularni parvarish qilish ko'nikmasini hosil qilish. Urug'lardan o'simliklar o'stirilishi (2-3 xil sabzavot gullaydigan o'simliklar misolida), o'simlikning o'sishi va rivojlanishidagi asosiy bosqichlar haqidagi(urug' unib chiqishi, yaproqli poya, gul, urug'), o'simliklar o'stirish, ularni parvarishlashning asosiy usullari(chopilgan erga o'tkazish, suv quyish, erni yumshatish, o'toq qilish, ozuqa berish) haqidagi tasavvurni shakllantirish.

, qanday yuradi, kuzda, qishda nima bilan oziqlanadi, qishga qanday tayyorgarlik ko'radi. Bolalarni hayvonlarning ko'rinishi va xulqidagi umumiylik va o'xshashliklarni ajrata bilishga, bir-biriga o'xshashligiga qarab xulosa chiqarish(o'rmon hayvonlari, yirtqich hayvonlar)ga o'rgatish.

Ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish.

Bolalar diqqatini kuz faslida ob-havo o'zgarishiga, daraxt barglarining sarg'ayib to'kilishiga, kishilar kiyimidagi o'zgarishlarga, hashorat va qushlarning kamayib qolganiga qaratish, bularning sabablarini mustaqil aytib berishga o'rgatish

Kuz faslining eng go'zal xususiyatlari turli-tuman yorqin ranglarga boy ekanligi haqidagi bilimlarini aniqlashtirish. Bu davrda meva va sabzavotlar g'arq pishadi, yig'im-terim mavsumi boshlanadi. Kuz fasli haqidagi tasavvurlarini kengaytirish hamda mustaqil ravishda kattalarga yordam berishga odatlantirish

Bolalar ongiga tabiatga zarar etkazmaslik, ekologiyani zararlamaslik (tevarak-atrofni iflos qilmaslik, hayvon va qushlarga ozor bermaslik, uyalarini buzmaslik, gullarni yulish oqibatida gullar, kapalaklar yo'q bo'lib ketishi, chumolilarning inini buzmaslik va h.k.)ni bolalar ongiga singdirish.

Hayvonot dunyosi. Uy hayvonlari (tuya, ot, sigir, qo'y, echki) va parrandalar (tovuq, xo'roz, kurka, o'rdak, g'oz)ning asosiy turlari, hayoti va sharoitlari haqidagi bilimlarini mustahkamlash va

sistemalashtirish. quyidagi belgilar asosida umumlashtirilgan tasavvurni tashkil qilish, odamlar yonida yashaydigan va undan qoʻrqmaydigan hayvonlar, foyda keltiradigan hayvonlar, insonlar, ularning hayot kechirishlari uchun zarur boʻlgan sharoitlarni yaratishi, uy hayvonlarining kishilar hayotida tutgan oʻrni haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, ularda gʻamxoʻrlik tuygʻularini mustahkamlash.

Bolalarga respublikamizda qishlab qoluvchi qushlar(musicha, chumchuq, kaklik, bedana) haqida tushuncha berish. Qushlarning ovqatlanishi, tashqi koʻrinishi, ulardagi oʻzaro oʻxshashlik va farqli tomonlarini farqlashga oʻrgatish. Ularga qishda gʻamxoʻrlik koʻrsatish va xayrihohlik munosabatini tarbiyalashni davom ettirish.

Qish faslining oʻziga xos tabiati haqida tushuncha berish (kunlar qisqa, sovuq, ayozli boʻlishi, ariq va koʻlmaklarning muzlashi, qorning pagʻa-pagʻa yogʻishi va b.) er yuzi va daraxtlar usti oppoq qor bilan qoplanganda tabiat qanchalik jozibali koʻrinishiga bolalar eʼtiborini qaratish, ularning estetik tuygʻularini shakllantirish.

Kunlar ilishi bilan qushlar, hashoratlarning koʻpayishi, ularning harakatini kuzatish, in qurishi, tuxum qoʻyishi, bola ochishi va h.k. haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

Bolalarga qushlarning donxoʻraklariga don solishni, suvlarini almashtirishni oʻrgatish. Qafasga paxta, yumshoq matolardan tashlab, qushlarning harakatlarini kuzatish. Qushlarning sayrashini tinglash va farqlashga oʻrgatish.

Ninachi, chumoli, asalari, kapalaklarning paydo boʻlish sababi, hayot tarzi, nima bilan oziqlanishini tushuntirish.

Bahorda tabiatdagi oʻzgarishlar haqidagi tasavvurni bir tizimga ketma ketlikka tushirish. Issiqlikning ortib borishi bilan qor, muzlarning erib borishi oʻrtasidagi, tuproqning holati. Bularning barchasini tabiat uygʻonishiga taʼsiri toʻgʻrisidagi tasavvurlarini shakllantirish.

Yoz faslida poliz, bogʻ va dalalarda mevalar pishishi, ayrim sabzavotlarning er ostida meva tugishi va pishishi(kartoshka, sabzi, eryongʻoq) haqida maʼlumot berish, mevalarni hididan ajratishga oʻrgatish, sabzavot va mevalarni inson organizmiga taʼsiri, foydasi haqida bolalarga tushuntirish hamda ularni qanday isteʼmol qilish haqida suhbatlashish.

Yer maydonchasidagi va yaqin oradagi oʻsimliklar haqidagi bilimlarini aniqlash. Yaproq, gul, va mevalari, poʻstlogʻiga qarab daraxt, butalarni farqlashga oʻrgatish. Boshqali ekinlarni oʻstirish bilan, oʻrmon mevalari, qoʻziqorinlar bilan tanishtirish. Turli xil oʻsimliklarning oʻsish joylari(oʻtloq, dasht, oʻrmon, dala, bogʻ, poliz, xiyobon) haqidagi tasavvurlarini aniqlash

Bolalarga oʻzlariga tanish uy hayvonlari va parrandalarning inson uchun foydali tomonlari haqida maʼlumot berish. Ularni parvarish qilishga oʻrgatish.

Hasharotlar(kapalak, ninachi, chumoli, asalari, chigirtkalar)ning tabiiy sharoitdagi hayoti haqida tasavvurlarini shakllantirish. Maʼlum joylarda yashaydilar(kapalaklar-oʻtloqlarda, qurbaqalar-botqoqliklarda va h.k.) ovqat izlashadi(kapalaklar, asalarilar-gullar shirasini, qurbaqalar mayda chivinlarni), dushmanlaridan qochish uchun yaxshi moslanganliklari (ninachilar tez uchadi, kapalaklar pirillab uchadi, chigirtkalar, qurbaqalar sakraydilar va h.k.), uchib ketadigan qushlar(3-4 xili)bilan, tashqi koʻrinishi xatti-harakati(nima bilan oziqlanadi, nima uchun issiq oʻlkalarga uchib ketadi) bilan tanishtirish. Qushlardan birining in qurish va bola ochishi bilan tanishtirish.

Bolalarning tabiatdagi yozgi hodisalar, issiqlik, namning koʻpligi bilan oʻsimliklarning birdaniga gurillab oʻsishi, barcha hayvonlarning faol hayot boshlashi oʻrtasidagi aloqadorliklari haqidagi tasavvurlarni bir tizimga ketma ketlikka tushirish.

Oʻquv yili oxirida bola:

- tabiatdagi fasl oʻzgarishlari;
- suvning xususiyatlari va oʻsimliklarning oʻsishi holati va rivojlanishi uchun zarur sharoitlar;
- sabzavot va mevalarni parvarishlash;
- buta va daraxtlarning bargi hamda mevasiga qarab atash, farqlay olish;
- erta gullovchi 2-3 xildagi mahalliy oʻtsimon oʻsimliklarni;

- 2-3 turdagi doimiy qishlovchi hamda uchib keluvchi qushlarni tashqi ko'rinishga qarab farqlay olish;
- xona va er maydonidagi o'simliklarni parvarish qila olish, tabiat burchagida navbatchilik qilish;
- tabiatdagi predmet va hodisalarga mustaqil holatda qiziqishi;
- hayvonlarni yaxshi ko'rish, ularni parvarishlash, yurish-turishlarini kuzatish, ularni ko'rganda zavqlanish;
- jonli va jonsiz tabiatni o'rganishga qiziqish, kattalar va tengdoshlarining diqqatini jonli va jonsiz tabiatda sodir bo'layotgan tanish, notanish predmet va tabiat hodisalariga jalb qilish;
- kattalarga tabiatdagi notanish yoki o'zi uchun qiziqarli bo'lgan predmet va hodisalar haqida savollar berish, o'zi va boshqalarning diqqatini tabiat hodisalari natijasida oldindan ko'rilmagan choralar va tartibsizliklarga jalb qiladi va ularni bartaraf qilishga kirishadi (chiqindilarni, erga tushib yotgan quruq shoxlarni tozalashda ishtirok etadi, erga tushib yotgan shiliqurtini olib daraxtga qo'yib qo'yadi);
- tabiat qo'ynida, shaharda, uyda o'zini tutish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Maktabga tayyorlov guruh

Jonli va jonsiz tabiat to'g'risida tasavvurga ega bo'lish

Jonsiz tabiat. Bolalarda jonsiz tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlarini shakllantirish.

Havo, magnitning xususiyatlari bilan tanishtirish. Bolalar uchun tushunarli vositalar yordamida havo hamma joyda: suvda, g'ishta, erda va shu kabilarda mavjudligini tajribalar orqali ko'rsatish. Havoning qayishqoq bo'lishi, ma'lum hajmni egallashi (sovun ko'piklarini puflash, sharlarni puflash) mumkinligini ko'rsatish. Havo harakatlanadi(shamol) va u harakat qilib, predmetlarni joydan-joyga ko'chirishi va shuningdek, harakatga qarshilik ko'rsatishi mumkin(parashut).

Bolalarni magnitning xususiyatlari bilan tanishtirish. Magnit o'ziga metall buyumlarni tortishi, magnitning xususiyatlari to'siqlar orqali ham namoyon bo'lishi(magnitga predmetlar suv, qog'oz, plastmassa, yog'och, karton orqali ham tortilishi). Magnit o'ziga tortishi va o'zidan itarishi bilan tanishtirish.

O'simliklar dunyosi. Bolalarni yangi xona o'simliklari bilan tanishtirish. Ularning xususiyatlari: shakli, hajmi, poyasi, barglar, gulining rangini ajratish va xarakterlashga o'rgatish. O'simliklarning yorug'lik, issiqlik, nam, oziqlantiruvchi tuproqqa ehtiyojlari haqidagi tasavvurni shakllantirish. Bolalarni yorug'likni sevuvchi va salqinga chidamli, suvni sevuvchi va suvsizlikka bardosh beruvchi o'simliklarning tashqi tuzilishiga qarab farqlashga o'rgatish.

Sabzavotlarning (8-9 xili), meva (5 xili)larning va tsitrus o'simlik (3-4 xili)larning shakli, rangi, hajmi, ta'mi, oziq-ovqat sifatida qo'llanilishi, belgilarga qarab qiyoslash va xarakterlay olish ko'nikmasini shakllantirish, umumlashtirilgan (sabzavotlar, mevalar, gullar) so'zlarni qo'llashga o'rgatish

Bolalarda tabiatdagi go'zallikdan zavq olishni tarbiyalashni davom ettirish. Ular ongiga tabiatga zarar etkazmaslik, ekologiyani zararlamaslik (tevarak-atrofni iflos qilmaslik, o't-o'lanlarni bosmaslik, daraxt shoxlarini sindirmaslik, hayvon va qushlarga ozor bermaslik, uyalarini buzmaslik, gullarni yulmaslik, buning oqibatida gullar, kapalaklar yo'q bo'lib ketishi, chumolilarning inini buzmaslik va h.k.)ni bolalar ongiga singdirish.

Bolalarning hovlidagi barcha o'simliklar va xonaki(qishda vaqtincha o'tkazilgan) o'simliklarning yorug'likka, issiqlikka, suvga, (ozuqa) tuproqqa bo'lgan ehtiyojlari haqidagi tasavvurlarini aniqlash. O'simliklarning o'sish va o'smasligi shart-sharoitlarining mavjudligi va ularning turlicha talablarga bog'liqligini belgilashga o'rgatish.

O`simliklarning o`shishi uchun havo, suv, quyosh, ozuqali tuproq zarurligini amaliy ishlar orqali tanishtirish.

Bolalarning o`simliklarni turli yo`l bilan ko`paytirish haqidagi bilimlarini kengaytirish. O`simliklar qalamchasidan, piyozidan, butasini ajratib ekishdan unishi mumkinligini xonaki o`simliklar misolida ko`rsatish. O`simlikning o`shishi uchun yorug`lik, suv, issiqlik, ozuqali tuproq zarur ekanligi to`g`risidagi bilimlarini tajriba, amaliy mashg`ulotlar orqali takomillashtirish. Bahor gullari haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bolalarni ularning rangi, shakli, gullari, yaproqlarining hajmi, belgilariga qarab qiyoslash asosida xarakterlashga o`rgatish.

Erta gullaydigan o`tsimon, butasimon o`simliklar va daraxtlar bilan tanishtirishni davom ettirish. Ba`zi daraxtlar(o`rik, bodom) avval gullab, so`ng barg chiqarishi, ba`zilari esa barg chiqarib(olma, behi) so`ng gullashini tushuntirish.

Bolalar bilan birgalikda maktabgacha ta`lim muassasasi hovlisida daraxt va gul ko`chatlarini ekish, tagini yumshatish va sug`orishga o`rgatish. Qurigan shox-shabballarni qirqish, ko`milgan gul, tok va anor ko`chatlarini ochish va ularni parvarish qilish ko`nikmasini hosil qilish.

Bog`, poliz va gulxonada sabzavot va gul ekinlari etishtirish haqidagi bolalar tasavvurlarini boyitish. O`simliklarning ayrim turlari misolida bolalar ularning urug`dan ko`karib, to urug` bergunigacha bo`lgan o`shish va rivojlanish davrining izchilligini, unib chiqishi uchun zarur bo`lgan shart-sharoitlarni, ularni parvarishlash usullarini bolalar ongiga singdirish, amalda kuzatish ishlarini olib borish.

YOvvoyi o`simliklar urug`ini to`kib ko`payishi va madaniy o`simliklarni inson tomonidan etishtirilishi, madaniy va yovvoyi o`simliklarning inson hayotidagi ahamiyati, barcha o`simliklarni ehtiyot qilish va ularni qo`riqlash asosida madaniy va yovvoyi o`simliklar haqida umumiy tasavvurni shakllantirish. O`simliklar qanday belgilari asosida (xonaki, dala, poliz ekinlari)madaniy o`simliklar (o`rmon, o`tloq ekinlarini), yovvoyi o`simliklarga bo`linishi to`g`risidagi tushunchalarini shakllantirish, guruhdagi gullar nomini bilish.

Hayvonot dunyosi. Bolalarni o`zlariga tanish bo`lgan yovvoyi (quyonlar, tulkilar va hokazo) va tabiat burchagida yashovchi hayvonlarning moslashuvchanlik xususiyatlari bilan tanishtirish. Hayvonlarning o`zi yashaydigan muhitga tanasining tuzilishi va xatti-harakat bilan moslanishiga doir belgilarini ajrata bilishga o`rgatish. Uzun baquvvat oyoqlari tez yugurish imkonini beradi (bo`ri), agar hayvonning orqa oyoqlari uzunroq bo`lsa, unda hayvon katta-katta sakrab yuradi (quyon), o`tkir qayrilgan tirnoqlari daraxtlarga tirmashib chiqishga yordam beradi (olmaxon), to`mtiq baquvvat, oldingi oyoqlari yon tomonga chiqqan, tirnoqlari erni qazishga moslashgan (toshbaqa, ko`rsichqon).

Hayvonlarning tana qoplami (himoya uchun xizmat qiladigan rang (quyon, olmaxon)ga, ignalar (tipratikan), qattiq qoplamga (toshbaqa) ega bo`lib, bular dushmandan o`zini himoya qilishda yordam) himoya va moslashuv xususiyatiga ega ekanligi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

O`simlik (suv quyish, tagini yumshatish) va hayvonlar (ovqatlantirish, kattalar yordamida akvarium yoki qafasni tozalash)ni parvarishlashni bilish.

Kuz faslining o`ziga xos xususiyatlari: kunlar soviy boshlab, kunduzi qisqaradi. Yaproqlar to`kiladi, o`tlar so`liydi, o`simliklar o`sishtan to`xtaydi, chunki ular uchun zarur bo`lgan yorug`lik va issiqlikning miqdori kamayadi. Sovuq tushishi bilan hasharotlar yashirinadi, qushlarning ko`pchiligi issiq o`lkalarga uchib ketadi, hayvonlar qishga tayyorgarlik ko`radilar: tullaydi (barcha hayvonlar), ovqat to`playdi (olmaxon), ovqat eb semirib ketadilar va uyqu uchun joy izlaydilar (tipratikan, ayiq).

Bolalar uchun yangi O`zbekiston sharoiti uchun xos bo`lmagan uy hayvonlari-shimol bug`usi bilan tanishtirish. Ularning yashash joyi, tashqi qiyofasi, fe`l-atvori, inson tomonidan boqilishi va ular etkazadigan foydalar haqida tasavvurni shakllantirish. Hayvonlarning tana tuzilishi va fe`l-atvori, tabiiy sharoitlarga moslashuvi yungining qalinligi, uning qor ostidagi mox (shimolda o`sadigan o`simlik)ni kovlab olish ko`nikmasi, bug`uning keng qo`shaloq tuyoqlari bilan loy, tuproqli er va hatto qiya erlarda ham yura olishi, o`zining belgilari bilan uy hayvonlari toifasiga kirishi haqida so`zlab berish.

Tabiat burchagida yashovchi qushlar haqida, ularning yashash sharoiti, oziqlanishi, ko'payishi to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlash. Qushlarning uchishga moslashganligi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish(keng yig'ma qanotlari, dumi, engil patlari havoga tayanish va uchish imkonini beradi).

Qish faslining o'ziga xos tabiati haqida tushuncha berish(kunlar qisqa, sovuq, ayozli bo'lishi, ariq va ko'lmaklarning muzlashi, qorning pag'a-pag'a yog'ishi va b.) er yuzi va daraxtlar usti oppoq qor bilan qoplanganda tabiat qanchalik jozibali ko'rinishiga bolalar e'tiborini qaratish, ularning estetik tuyg'ularini shakllantirish.

Daraxt va butalar bargsiz, harakatsiz holatda. Hasharotlar ham, ular bilan oziqlanuvchi qushlar ham yo'q. Ular issiq o'lkalarga uchib ketishgan. Qishlab qoluvchi qushlar o't-o'lanlarning urug'larini va o'simliklarning mevalarini, odam yashab turgan joy oldidagi ovqat qoldiqlarini eydilar. Odamlar qushlarni boqib turadilar.

Yovvoyi hayvonlarning bahor davridagi hayoti va tabiatga moslanganligi bilan bolalarni tanishtirishni davom ettirish, ular uyqudan uyg'onadilar, dam olish holatidan chiqadilar, tullaydilar, joy quradilar...

Hayvonlarning rivojlanishi haqidagi bilimlarini kengaytirish. Qushlar in(uya) quradi, tuxum qo'yadi, bolalaydi, baliqlar urug' qo'yadi va bolalaydi.

Bolalarni akvariumda boqiladigan baliqlarning tana tuzilishi va harakatlari, bularning hammasi hayotga moslashish belgilari ekanligi bilan tanishtirish. Baliqlarning tanasi, shakli, hajmi, ko'zlari va og'zining tuzilishini ajrata bilishga, bu xususiyatlarni ularning xatti-harakati, xususiyatlari(yashash joyi, harakat usuli, ovqatlanishi) bilan qiyoslashga o'rgatish.

Bolalarda bahor haqidagi umumlashgan tasavvurni shakllantirish: Kunlar issiqroq bo'ladi, quyosh ravshanroq yoritadi, qor va muzlar eriydi, o'tlar, navro'zgullar paydo bo'ladi, kurtaklar to'lishadi va birinchi gullar, yaproqlar paydo bo'ladi. Jonivorlar uyqudan uyg'onadi(hasharotlar, hayvonlar), uchib ketgan qushlar qaytib kelishi haqidagi tushunchalarini kengaytirish.

Bolalarga o'zlariga tanish uy hayvonlari, ularning yoz faslidagi hayoti haqidagi bolalar bilimlarini aniqlash, ular haqida umumlashgan tasavvurni mustahkamlash. Qanday belgilar asosida u yoki bu hayvon uy hayvoni guruhiga kirishi haqida bolalar bilimlarini aniqlash. Hayvon va parrandalarning inson uchun foydali tomonlari haqidagi tasavvurlarini aniqlash. Ularni parvarish qilishga o'rgatish.

Bolalar bilan hayvonlarning o'sishi va rivojlanishi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Qushlar, hayvonlarning bolalari juda nozik tug'ilishi, ular ko'p jihatdan katta hayvonlardan farq qilishi haqida suhbatlashish. Kichik hayvon yoki parranda ko'pincha yung yoki pat bilan qoplanmagan, ko'zi yumuq, mustaqil yura olmaydigan va ovqatlana olmaydigan bo'ladi. Ota-onalari ular haqida g'amxo'rlik qilishlari, isitishlari, ovqatlantirishlari, dushmanlardan qo'riqlashi, ovqat izlab topish, yurish, uchish, tirmashib chiqish va sakrashga o'rgatishlari haqidagi tushunchalarini aniqlash va kengaytirish Baliqlar baliqchalari haqida g'amxo'rlik qilmaydilar. Baliqlarning baliqchalari mustaqil ravishda ovqat izlaydilar, dushmanlardan yashirinadilar.

Yovvoyi va qo'lga o'rgatilgan hayvonlarni taniy olishga bolalarni o'rgatish. Qanday belgilari bilan ular u yoki bu guruhga taalluqli bo'lishini tushuntirish.

Yoz fasli haqida umumlashgan tasavvurni shakllantirish: iliq, issiq, yomg'ir yog'adi, momaqalldiroq bo'ladi. Hasharotlar ko'p. Hayvonlar faollashadilar, bolalaydilar. O'simliklar gullaydi, etiladi, xosil beradi.

Yoz faslida poliz, bog' va dalalarda mevalar pishishi, ayrim sabzavotlarning er ostida meva tugishi va pishishi(kartoshka, sabzi, eryong'oq) haqida ma'lumot berish, mevalarni mevasi hididan ajratishga o'rgatish, sabzavot va mevalarni inson organizmiga ta'siri va foydasi haqida bolalarga tushuntirish hamda ularni qanday iste'mol qilish haqida suhbatlashish.

O'quv yili oxirida bola:

- yil fasllarining xarakterli belgilari haqida;
- o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilish haqida tasavvurga ega bo'ladilar;

- o'zlariga yaqin atrofdagi daraxtlar, o'simliklar nomlarini, bir necha hayvonlarni tabiatda, rasmda tanib olish va ularning nomlarini, mustaqil ravishda er maydonchadagi va jonli tabiat burchagidagi o'simliklarni parvarish qilish, suvning xususiyatlari va holatini, hayvonlarning asosiy xususiyatlarini farqlashni bilib oladilar;
- kattalarga tabiatdagi notanish yoki o'zi uchun qiziqarli bo'lgan predmet va hodisalar haqida savollar beradi, o'zi va boshqalarning diqqatini tabiat xodisalarining natijasida oldindan ko'rilmagan choralar va tartibsizliklarga jalb qiladi va ularni bartaraf qilishga kirishadi (chiqindilarni, erga tushib yotgan quruq shoxlarni yig'adi, erga tushib yotgan shilliqqurtni olib daraxtga qo'yib qo'yadi); ularni o'zi bajara oladi.
- tabiat qo'ynida, shaharda, uyda o'zini tutish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

3.1.8(B).- Mavzu: Matematika, atrof-olam, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari matnini yozish.

(2 soat amaliy)

Maqsad: Tinglovchilarda “Bolajon” dasturida matematik tasavvurlarni shakllantirish, atrof-olam, tabiat bilan tanishtirish yosh guruhlariga ko'ra murakkablashuvi. Bu vazifalarni amalga oshirishda ta'limiy o'yinlardan, interfaol mrtodlardan foydalanish. Mashg'ulot matnini yozishni mashq qilish.

Kutiladigan natija: Tarbiyachilar o'rgangan metodlarni, o'yinlarni amaliyotda qo'llaydilar.

Jihoz: 5 dona “Bolajon” dasturi, rangli qog'ozlar, yelim, qaychi, plakat ta'limiy o'yin materiallardan namunalar.

Dars metodi: “Aqliy hujum”, “Kichik gurihlarda ishlash”, “Galereyaga sayohat”.

Raja:

1. Matematika tassavvurlarni shakllantirishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish.
2. Atrof-olam mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish.
3. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida o'yin usullaridan foydalanish

Darsning borishi:

I. “Aqliy hujum”MTM da bolalarning matematik tasavvurlarini shakllantirish bo'yicha qanday tushunchalar hosil qilinadi. Tinglovchilar “Zanjir” usulida bittadan tushuncha aytadi. Takroriy aytilmaydi. Takrorlangan, to'xtab qolgan o'yindan chiqadi. O'qituvchi tahlil qiladi, qo'shimcha qo'shadi.

II. “Kichik gurihlarda ishlash”

Tinglovchilar 5 guruhga ajratiladi.

1. Ilk yosh guruh
2. Kichik guruh
3. O'rta guruh
4. Katta guruh
5. Maktabga tayyorlov guruh

Vazifa “Bolajon” dasturida berilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini o'z guruhi bo'yicha tahlil qilish. Plakatda tasviriy illustratsiyalar orqali ifodalash. Oxirida taqdimotini o'tkazishda xonaning

5 ta joyiga plakat ilib qo'yiladi. Har guruhdan bitta sardor tushuntirib turadi. Guruh ishtirokchilari barcha plakatlar oldiga borib tushunib oladilar. "Galeriyaga sayohat" usulida taqdimot o'tkaziladi.

III. Tinglovchilar 3 guruhga ajratiladi.

1. "Doiralar" guruhi matematika mashg'uloti matnini yozadilar.
 2. "Buyumlar" guruhi atrof-olam mashg'uloti matnini yozadilar.
 3. "Mevalar" guruhi tabiat bilan tanishtirish mashg'uloti matnini tayyorlaydi.
- Taqdimoti o'tkaziladi. O'qituvchi to'ldiradi. Xulosalaydi.

Test savollari

1. Matematika mashg'uloti qaysi guruhlarda haftasiga bir marta o'tkaziladi.

- A. Ilk yosh, kichik, o'rta
- B. Kichik, o'rta, maktabga tayyorlov
- C. O'rta, katta, maktabga tayyorlov
- *D. Kichik, o'rta, katta

2. Qaysi guruhda to'g'ri to'rtburchak, oval shakli bilan tanishtiriladi.

- A. Ilk yosh
- * C. O'rta
- B. Kichik
- D. Katta

3. Qaysi vazifa o'rta guruhga taalluqli.

- A. *5 ichida 2 to'plam narsalarni taqqoslash.
- B. Ko'p va 1 tani farqlash.
- C. Kvadrat bilan tanishtirish.
- D. O'ng va chap qo'lni farqlay olish.

4. Qaysi mavzu ilk yoshli guruhda o'tilmaydi.

- A. Shakllarni rangiga ko'ra ajratish.
- B. Narsalarni kattaligi bo'yicha bir joyga to'plash
- C. *2 gacha sanashga o'rgatish
- D. Qutichalarga mos qopqoqlarni tanlash.

5. Tubandagilardan qaysi biri kichik guruhga mos emas.

- A. Doira va kvadrat bilan tanishtirish.
- B. *To'g'ri to'rtburchak va oval bilan tanishtirish.
- C. Ko'p va bittani farqlash
- D. "Katta", "kichik" so'zlarning ma'nosini tushuntirish.

6. Tubandagilardan qaysi biri kichik guruhga mos.

- A. *Ertalab, kunduzi, kechqurin, tun tushunchalarini farqlashga o'rgatish.
- B. Kechasi, kunduzi, ertalab, kechqurunni farqlash.
- C. Oval shakli bilan tanishtirish.
- D. 5 gacha tartib bilan sanash.

7. 9 gacha bo'lgan raqamlar bilan tanishtirish qaysi guruhga taalluqli.

- A. Maktabga tayyorlov
- B. *Katta
- C. O'rta
- D. Kichik

8. 10 gacha bo'lgan sanoq va tartib sonlarni o'rgatish qaysi guruhda amalga oshiriladi.

- A. Kichik
- B. O'rta
- C. *Katta
- D. Maktabga tayyorlov

9. Qaysi biri katta guruhga taalluqli.

- A. 1 dan 20 gacha sanashga o'rgatish
- B. 10 dan 15 gacha bo'lgan raqamlar bilan tanishtirish
- C. Chaproq, o'ngroq, o'rtasida, yuqorroq, pastroq tushunchalarini o'rgatish
- * D. Narsalarni 2 va 4 qismga ajratish.

10. 15 gacha bo'lgan raqamlar bilan tanishtirish qaysi guruhda amalgam oshiriladi?

* A. Maktabga tayyorlov

B. Katta

C. O`rta

D. Kichik

11. Quyidagilardan qaysi biri o`yinchoqlarga qo`yladigan gigiyenik talablarga kiradi?

A. Tez-tez tozalashga mo`ljallanganligi

B. Rang xususiyatining to`g`ri ifodalanganligi

C. G`adir-budur , o`tkir uchli bo`lmasligi

*D. Tez-tez tozalashga mo`ljallanganligi, g`adir-budur , o`tkir uchli bo`lmasligi.

11. Qaysi vazifa maktabga tayyorlov guruhga tegishli?

A. 10 dan 1 gacha teskari sanash.

*B. 10 dan 15 bo`lgan raqamlar bilan tanishtirish

C. Bolalarga uyining nomerini aytishni o`rgatish

D. Shartli o`lchov bilan tanishtirish.

12. To`g`ri fikrni aniqlang?

A. Maktabga tayyorlov guruh bolalari 10 gacha to`g`ri va teskari sanashga o`rgatiladi.

B. Ilk yoshli guruh bolalari 2 ichida sanashga o`rgatiladi

*C. Kichik guruh bolalari "bitta" va "ko`p"ni farqlashga o`rgatiladi.

D. Katta guruh bolalari 20 ichida sanashga o`rgatiladi.

13. Balandligi jihatidan 10 xil bo`lgan uyni farqlashga o`rgatish qaysi guruhda amalga oshiriladi?

A. Kichik

B. O`rta

C. Maktabga tayyorlov

* D. Katta

14. Noto`g`ri fikrni aniqlang.

*A. Geometrik shakllarning turli o`lchamda, har xil ko`rinishda bo`lishligini o`rgatish o`rta guruhda amalga oshiriladi.

B. Katta guruhda berilgan shart bo`yicha o`z holati o`rnini aniqlashga o`rgatiladi.

C. Maktabga tayyorlov guruh bolalari sonlarning raqam va amal belgilaridan foydalanishga o`rgatiladi.

D. Kichik guruh bolalari doira va kvadrat bilan tanishtiriladi.

15. Bolalarning ilk matematik tasavvurlarini o`stirish necha bo`limdan iborat?

*A. 5 bo`lim

B. 7 bo`lim

C. 4 bo`lim

D. 3 bo`lim

16. Qaysi indikator kichik guruhga taalluqli?

A. Qog`oz varag`ining o`ng, chap, yuqori, pastini aniqlaydi

B. Shar, kub, silindrning nomini ayta oladi

*C. Katta va kichik buyumlarni ajratadi, ularning o`lchamlarini aytadi

D. 5 gacha sanaydi

17. 5 dan 1 gacha teskari sanashga o`rgatish qaysi guruhda amalga oshiriladi?

A. Ilk yoshda

B. Kichik yoshda

C. O`rta guruhda

*D. Katta guruhda

18. Tarbiyachi uzun-qisqani farqlashga o`rgatish uchun kichik guruhda uzunligi jihatidan necha xil lentacha olishi kerak?

A. Uzunligi jihatidan 3 xil bo`lgan lentachalar

B. Uzunligi jihatidan 4 xil bo`lgan lentachalar

*C. Uzunligi jihatidan 2 xil bo`lgan lentachalar

D. Uzunligi jihatidan 5 xil bo`lgan lentachalar

19. Tarbiyachi enli-ensizni farqlashga o`rgatish uchun o`rta guruhda enliligi jihatidan necha xil lentacha olishi kerak?

- A. eniligi jihatidan 3 xil bo'lgan lentachalar
- B. eniligi jihatidan 4 xil bo'lgan lentachalar
- C. eniligi jihatidan 2 xil bo'lgan lentachalar
- *D. eniligi jihatidan 5 xil bo'lgan lentachalar

20. Tubandagi qaysi vazifa kichik guruhga taalluqli?

- A. To'g'ri to'rtburchak bilan tanishtirish
- B. Kecha bugun, ertaga tushunchalarini o'rgatish
- *C. 2 ichida 2 to'plamni taqqoslash
- D. Toti, bulbul, boyo'g'li bilan tanishtirish

21. Ertalab, kunduzi, kechqurun, tun tushunchalari qaysi guruhda o'rgatiladi?

- A. maktabda tayyorlov guruhida
- B. o'rta guruhda
- C. katta guruhda
- *D. kichik guruhda

22. Tubandagilardan qaysi biri o'rta guruhga taalluqli?

- A. Uchburchak bilan tanitish tanishtirish
- B. 5 dan 1 gacha teskari sanash
- C. O'ng va chap tomonni farqlash
- *D. To'g'ri to'rtburchak va oval, kub, shar bilan tanishtirish

Foydalanadigan adabiyotlar:

1. "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablar" Toshkent. 2013 yil 18 sentabr XTV 302-sonli buyrug'i
2. S. S. Mirdjalilova, M. Sh. Rasulyeva va boshqalar. "Bolajon" dasturi. 2010 yil.

TEST SAVOLLARI

1. Atrof-olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va uni anglash yo'nalishi qaysi mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi.

- A. Matematika, atrof-olam bilan tanishtirish.
- B. Savodga tayyorgarlik, tabiat bilan tanishtirish.
- *C. Tabiat bilan tanishtirish, atrof-olam bilan tanishtirish.
- D. Badiy adabiyot, atrof-olam bilan tanishtirish.

2. Tabiat bilan tanishtirish mashg'uloti qaysi guruhda 2 haftada 1 marta qo'yiladi?

- A. Ilk yoshli guruhda
- B. Katta guruhda
- C. *Barcha guruhlarda
- D. Kichik guruhda

3. Tubandagi fikrlardan qaysi biri xato?

- A. ta'limiy maqsadda bolalarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalar yoritiladi.
- *B. Bolalarga beriladigan axloqiy, nafosat, mehnat tarbiyasi rivojlantiruvchi maqsadda yoritiladi.
- C. Tarbiyaviy maqsadda, nafosat, rostgo'ylik, g'amxo'rlik, tejamkorlik, mehnatsevarlik tarbiyasi yoritiladi.
- D. Fikrlashni, esda olib qolishni, barqaror diqqatni, kuzatuvchanlikni mashq qildirish rivojlantiruvchi maqsadda yoritiladi.

4. Katta guruhda qaysi hasharotlar bilan tanishtiriladi?

- *A. Ninachi, chumoli, asalari, kapalaklarning paydo bo'lishi, hayot tarzi, nima bilan oziqlanishi tushuntiriladi.
- B. Asalari, chumoli, kapalak,

C. Chigirtka, chivin, pashsha

D. Qo'ng'iz, ninachi, chivin

5. O'rta guruh bolalari qaysi yavvoyi hayvonlar bilan tanishtiriladi?

A. bo'ri, quyon, tulki

* B. olmaxon, quyon, tipratikon

C. fil, tulki

D. toshbaqa, ayiq

6. Meva va sabzavotlarning qayerda o'sishi (daraxtda, polizda)haqidagi tasavvurlarini shakllantirish qaysi guruhda amalga oshiriladi?

*A. O'rta guruh

B. Ilk yosh guruh

C. Kichik guruh

D. Katta guruh

7. Hayvonlar, o'simlik, tabiat hodisalari aks ettirilgan, kasb-hunarga oid suratlar soni nechta bo'lishi kerak?

A.150

*B.180

C.280

D.100

8.Tubandagilardan qaysi biri tarbiyachi ko'zlaydigan ta'limiy maqsadga mansub?

*A. Bolalarda quyoning qismlari, qayerda yashashligi nimalar bilan oziqlanishi haqida tushuncha berish?

B. Bolalarni jonivorlarga ozor bermaslik ruhida tarbiyalash

C. Bolalarni kichik guruhlarda ishlashini tashkil qilish orqali hamjihatlikni, do'stona munosabatni shakllantirish

D. To'g'ri javob yo'q

9. Qizg'ish, ko'kish, sarg'ich deb qaysi guruhda ranglarni qiyoslashga o'rgatiladi?

A. Ilk yoshli guruh

B. Kichik guruh

*C. O'rta guruh

D. Katta guruh

10. Qaysi vazifa kichik guruhga taalluqli?

A. mushuk, kuchuk, jo'ja bilan tanishtirish

B. quyuq va suyuq ovqatni mustaqil yeya olishga o'rgatish

* C. bo'ri, quyon, tulki, ayiq bilan tanishtirish

D. 3-4 xil rangni ajratishda o'rgatish

11. Bolalarni sayohatga olib chiqishda kamida necha xodim bo'lishi lozim?

A. 1 ta *B. 2 ta C. 3 ta D 4 ta

Foydalanadigan adabiyotlar.

1. "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablar" Toshkent. 2013yil. 18 sentabr XTV ning 302-sonli buyrug'i
2. S. S. Mirdjalilova, M. Sh. Rasulyeva va boshqalar . "Bolajon" dasturi. 2010 yil.
3. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish" F.Yusupova

3. 1. 9 – Mavzu: Bolaga yo'naltirilgan ta'limda bola portfoliosini yaratish (2 soat amaliy)

3.1.10-Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat orqali bolalarni ijodkorlikka o'rgatish

(2 soat amaliy)

3.1.11- Mavzu: Bolaga yo‘naltirilgan ta’limda oilaning ishtiroki (2soat amaliy)

Maqsad: MTM bilan oila o‘rtasidagi hamkorlik ishlari. Norasmiy muloqot strategiyalari. Rasmiy aloqa strategiyalari. Ota-onalarga maktublar, e’lonlar yozishni mashq qildirish. Ota-onalarni ta’lim tarbiyaviy jarayonga jalb qilish, mashg‘ulotlarda yordam berishini tashkillashtirish.

Kutiladigan natija:

Reja:

1. Norasmiy muloqot strategiyalari.
2. Rasmiy aloqa strategiyalari
3. Mashg‘ulotga oilaning ishtirokini ta’minlash

Jihoz: Proyektor. marker, skotch, flipchart qog‘oz, tarqatma.

Dars usuli: Aqliy hujum, klaster, kichik ma’ruza, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning borishi:

- I. “Aqliy hujum”. Tarbiyachining ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga nimalar kiradi?
- II. Kichik ma’ruza.

MTM xodimlari oilani bolaning ilk tarbiyachisi sifatidagi ustuvor mavqeini e’tirof etishlari juda muhim. MTM ota-onalarga dasturning barcha jihatlarida ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

Mashhur psixolog Uri Bronfenbrennning fikricha

“... bolalar rivojlanishiga ota-onalarni jalb qilishga asosiy urg‘u beradigan dasturlar, hoynahoy, har qanday yoshda ham ijobiy natijalarga ega bo‘ladi, ammo bunday ish qancha erta boshlansa, bolaga shuncha foydalidir...”

To‘siqlar

- Ishonchsizlik
- Vaqt yetishmasligi
- Xato qilishdan, bolaga zarar keltirishdan qo‘rqish
- Guruhdagi hayotni chegaralovchi qoidalarni bilmaslik
- Tarbiyachiga yordam sifatida takliflari borligiga ishonchsizlik

Oilaning dasturdagi ishtiroki

Oilalar bilan muloqot qilish strategiyalari 2 xil.

4. Norasmiy muloqot strategiyalari.
5. Rasmiy aloqa strategiyalari.

Norasmiy muloqot strategiyalari quyidagilar kiradi.

- Kelish va ketish vaqti
- Maktublar va kundaliklar
- E’lonlar taxtasi
- Axborot varaqalari

III. Kichik guruhlarda ishlash. Tinglovchilar 4 guruhga ajratiladi.

1-guruh kelish va ketish vaqtidagi suhbat namunasini,

2-guruh maktublar va kundaliklar yozish ,

3-guruh e'lonlar taxtasini,

4-guruh axborot varaqasini yozish topshirig`ini bajaradilar

IV. Harqaysi guruh himoyasidan keyin slayd namoyish etiladi.

Kelish va ketish vaqti. Ertalab ota- onalarning bolalarini olib kelishi kechqurun olib ketishi vaqtida tarbiyachilar ularning imkoniyatlaridan kelib chiqib norasmiy vaqt belgilanadi. Ularning ko'p vaqtini olmasdan qisqa suhbat o'tkaziladi. Agar vaqtlari bo'lsa oilaviy xonani tartibga solishga, o'yinchoqlarni joy-joyiga qo'yishga, farzandi bilan birgalikda o'yin o'ynashga taklif qilish mumkin.

Maktublar va kundaliklar. Tarbiyachi ota-onalarga maktub jo'natish orqali oilalar bilan peragoglar jamoasi o'rtasidagi yaqinlikni ta'minlashga yordam beradi. Maktub bolaning yangi muvaffaqiyatlari to'g'risidagi qisqagina xabar yoki mashg'ulotdagi ishtiroki uchun ota-onalarga raxmatnoma bo'lishi mumkin. Ota-onalar ham o'z navbatida tarbiyachilarga maktub yo'llaydi. Masalan, farzandining tarbiyasi, ovqatlanishi bo'yicha.

E'lonlar taxtasi. Unda majlislar, bolalarning rivojlanishi, ochiq mashg'ulot, mashg'ulotda yordam beruvchi ko'ngilli ota-onalarga yo'l-yo'riqlar mazmunida e'lonlar yoziladi. E'lonlar taxtasi yorqin va rangli bo'ladi. E'lonlar tez-tez yangilanib turiladi. Bolalarning sayahotlari to'g'risida hisobot, oila a'zolarining fotosuratlarini qo'yilsa, ota-onalar taxtani bezashda ishtirok qilsa yana ham ta'sirli bo'ladi. Masalan ona bolasi bilan birgalikda rasm chizsa, uni rasimga olib taxtaga ilib qo'yiladi.

Axborot varaqalari. Agar tarbiyachi har oyda ota-onaga 1 yoki 2 marta axborot varaqasi yuborib tursa, ota-ona dastur to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'ladi. Turli xil mazmundagi axborot varaqalari tayyorlanadi.

Axborot varaqalarining mundarijasi:

- majlislar, voqyalar, sayohatlar;
- qandaydir materiallarni keltirish yoki biror-bir yordam ko'rsatish bilan bog'lik iltimoslar;
- MTM haqidagi voqyalar;
- guruhdagi muhim voqyalar;
- uydagi o'tkaziladigan o'yin yoki mashqlar;
- ko'ngilli yordamchilarga minnatdorchilik bildirish.

Rasmiy aloqa strategiyalariga quyidagilar kiradi..

- Xnadonga tashrif buyurish
- Oila a'zolarining guruhda bo'lishi
- Oila xonasi
- Kutubxona va o'yin xonasi
- Ota-onalar yig'ilishi va uchrashuvlar

Djeys Xims

(Olti yoshgacha bolalarni o'qitish)

- Har qanday o'qituvchi kabi, ota-ona shaxsiy qadr-qimmatni tarbiyalashning zarurligi va muhimligiga ishonadilar. Bola esa shaxsdir.
- Ota-ona bolalar qanday bo'lishini biladi. Ular bolalarning faolligi haqida biladilar. Ularning egotsentrizmi haqida biladilar. Ularning uyatчанligi haqida biladilar. Ular bolalarning

qanchalik shovqin qilishga qodirliklari, ularning tasavvurlari, besaranjomligi va dilkashligi haqida biladilar.

- Ota-ona bolalarning tug'ilgan paytlaridan boshlab birga yashaydilar.

Axborot almashinish

(suhbat chog'ida o'qituvchi o'zini qanday tutishi mumkin)

- Do'stona- do'stona suhbatdosh tinglovchilarni o'ziga jalb qiladi, boshqa odamlarning xizmatlarini tan oladi, qoyil qolganini ochiq namoyish qiladi.
- Xotirjam- xotirjam tinglovchi sokin va fikrni bir joyga to'plab olgan bo'ladi. Asabiylashmaydi, stressda ekanini namoyish qilmaydi.
- E'tiborli-E'tiborli tinglovchi boshqalarni tinglashni xush ko'radi. O'zini tinglayotganligini bildirgan tarzda tutadi.
- Ruhlangan-Ruhlangan suhbatdosh boshqalar bilan doimiy ko'z muloqotida bo'ladi, turlicha mimika va harakatlarni ishlatadi.
- Ta'sirchan-Ta'sirchan suhbatdosh o'zini tinglovchida qoldirgan taassuroti tufayli esda qolishga intiladi.
- (Nortonning "Muloqot uslubining o'zgaruvchanligi")

Test savollari

1. MTM bilan oila o'rtasida muloqot qilish strategiyalari necha xil?

- A. 5 xil. (kelish va ketish vaqti, maktublar, kundaliklar, e'lonlar, ota-onalar yig'ilishi)
- B. 3 xil (axborot varaqalari, xonadonga borish, onaning mashg'ulotda ishtiroki)
- C. *2 xil (norasmiy, rasmiy)
- D. 4 xil (kutubxona, ota-onalar yig'ilishi, maktublar, e'lonlar)

2. Rasmiy aloqa strategiyalarining ko'rinishlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. *Xonadonga tashrif buyurish, oila xonasi, ota-onaning mashg'ulotda ishtiroki, kutubxona va o'yin xonasi, ota-onalar yig'ilishi va uchrashuvlar.
- B. Maktublar, ertalabki suhbat, e'lonlar.
- C. Axborot varaqasi, maktublar, kutubxona.
- D. Oilaning mashg'ulotda ishtiroki, kelish va ketish vaqtidagi suhbat.

3. Norasmiy aloqa strategiyalariga nimalar kiradi?

- A. Xonadonga tashrif buyurish, maktublar, e'lonlar.
- B. *Kelish va ketish vaqtidagi suhbat, maktublar va kundaliklar, e'lonlar, axborot varaqalari.
- C. Maktublar va kundaliklar, xonadonga tashrif buyurish, oila xonasi.
- D. E'lonlar, oilaning mashg'ulotda ishtiroki.

4. Guruh ota-onalar yig'ilishi 1yida necha marta o'tkaziladi?

- A. 6 marta
- B. 5 marta
- C. *4. marta
- D. 3 marta

5. Qaysi javobda ota-onalar yig'ilishini o'tkazishda metodik jihatdan to'g'ri yondashilgan?

- A. *Juftlikda, kichik guruhlarda ishlash tashkil qilinadi. Qisqa axborot beriladi. Anketa savollariga javob olinadi.
- B. Ma'ruza o'qiladi. Oylik badalini to'lash aytiladi.
- C. Bolalarini ozoda qilib olib kelish aytiladi. Ma'ruza o'qiladi.
- D. Ma'ruza o'qiladi. Guruh xonasini jihozlashda yordam berish aytiladi.

6. MTM tiplari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- * A. Umumiy, ixtisoslashtirilgan, sanatoriya tipdagi MTM

B. Umumiy, nutqida nuqsoni bo'lgan, tez- tez kasallikka chalingan bolalar MTMlari

C. Ixtisoslashtirilgan, umumiy tipdagi MTM lar

D. Sanatoriya va umumiy tipdagi MTM lar.

7. Quyidagilardan qaysi biri noto'g'ri?

A. Ko'p bolali oilalarning, harbiy hizmatchilarning bolalari MTM da imtiyozlardan foydalanadi.

* B. Shifokorlarning bolalari MTM da imtiyozlardan foydalanadi.

C. I va II guruh nogironlari MTM da imtiyozlardan foydalanadi.

D. Talabalar va pedagoglarning bolalari MTM da imtiyozlardan foydalanadi.

8. Bolalarni o'qitish va tarbiyalashning shakllarini, MTM lari tipini va ta'lim berish tilini tanlash kimning huquqi?

A. MTM mudirining

B. Tarbiyachining

C. Uslubchining

* D. Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning.

9. Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha noto'g'ri rejalashtirilgan qatorni ko'rsating

A. 5 mart soat 10.00 da e'lonlar taxtasiga 8 mart bayramiga bag'ishlangan ertalik o'tkazilishi haqida e'lon chiqarish

B. Ota-onalarga farzandlarining bayram ertaligida ishtiroki bilan bog'liq axborot varaqalari tayyorlash va tarqatish.

C. Nilufar, Sardorlarning xonadoniga oyning 2- va, 3 –haftasida tashrif buyurish.

* D. Ota-onalarga badal pullarini to'lash, bolalarini ozoda kiyintirib kelishlarini aytish.

10. MTMga bo'larni kim olib kelishi va olib ketishi kerak?

* A. Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bolalarni shaxsan o'zlari olib kelib tarbiyachiga topshirishi va tarbiyachidan olib ketishi kerak

B. Qarindoshlari olib kelib, olib ketsa bo'ladi.

C. Boshlang'ich sinf o'quvchisi olib kelib, olib ketsa bo'ladi.

D. Barchasi to'g'ri

11. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida nizomga ko'ra bolalarni MTMga olib kelish va olib ketishga kimlarga ruxsat berilmaydi?

A. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga

B. Ota-onalar o'rnini bosuvchi shaxsga

C. Mast holatdagi shaxslarga

* D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga, mast holatdagi shaxslarga

12. Quyidagi qaysi javobda "Ota-onalar sizlar uchun " burchagida bo'lishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'ri ko'rsatilgan.

A. Mashg'ulotlar jadvali.

B. Maslahat, mashg'ulotlar jadvali, taomnoma.

* C. Tavsiya, bolalarning o'zlashtirish darajasi, maslahat, mashg'ulotlar jadvali, egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, taomnoma.

D. Taomnoma, maslahat, tavsiya.

13. Guruh ota-onalar yig'ilishini qanday ko'rinishda o'tkazish maqsadga muvofiq.

A. Ma'ruza o'qish

* B. Trening o'tkazish, krasvord yechish, anketa savollarini to'ldirish.

C. Krasvord yechish

D. Anketa savollarini to'ldirish.

**3.1.13- Mavzu: MTM da mashg'ulotlarni, guruh xonalarida markazlarning jihozlanishini kuzatish va tahlil qilish.
(4 soat ko'chma mashg'ulot).**

Maqsad: MTM da mashg'ulotlarni kuzatish. Ilmiy, amaliy, metodik jihatdan tahlil qilish. Tahlil daftarini yuritish. Tarbiyachining mashg'ulotlarda ko'rgazma va tarqatma materillardan, vaqtdan unumli foydalanishini qayd qilish. Tarbiyachini o'zini tutishi, bolalarni faollashtirishi, ularga nisbatan munosabatini o'rganish va tahlil qilish.

Kutiladigan natija: Tinglovchilar tarbiyachining ijobiy tomonlarini o'rganib amaliyot qo'llaydilar.

Jihoz: kuzatish savollari, tarqatma, plakat, marker, rangli qog'ozlar, yelim.

Reja:

1. Guruh xonalarining jihozlanishini, ertalabki soatni kuzatish.
2. Mashg'ulotlarni kuzatish.
3. Kuzatilgan mashg'ulotlarni tahlil qilish.

Kuzatishning borishi:

- Ertalabki soatni 6 qismini kuzatish.
- Guruh xonalarining jihozlanishini kuzatish
- Tinglovchilar qaysi guruhda ishlashlariga qarab bo'lingan holda tarbiyachining mashg'ulotlarini kuzatadilar.

Kuzatish savollari:

1. Mavzuning bola yoshiga mosligi.
 2. Mashg'ulotda ko'rgazma va tarqatma materiallarning mavjudligi, pedagogik, psixologik, gigiyenik talablariga javob berishligi.
 3. Tarbiyachining nutqi, bolalarga tushunarli.
 4. Tarbiyachining bolalarga muomalasi, munosabati.
 5. bolalarga yosh va taraqqiyot xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashishi.
 6. Bolalarni faollashtirishi.
 7. Vaqtdan unumli foydalanishi.
 8. Mashg'ulotda "Aqliy hujum" metodidan foydalanishi.
 9. Mashg'ulotda "Kichik guruhlarda ishlash" metodidan foydalanishi.
 10. Mashg'ulotda "Klaster" usulidan foydalanishi.
 11. Mashg'ulotda "Ro'li o'yin" metodidan foydalanishi.
 12. Mashg'ulotlarda M. Montessoriy pedagogikasidan foydalanishi.
 13. Mashg'ulotda IMYN dan foydalanishi.
 14. Bolalarda hosil qilingan bilim, tushuncha ko'nikma va malakalar. (% lar hisobiga)
 15. Bolalarda mustaqil fikrlashga, erkin harakat qilishga, do'stona munosabatni shakllantirishga sharoit yaratilganligi.
 16. Tarbiyachining o'zini tutishi.
- II. Kuzatilgan mashg'ulotlarni tahlil qilish.
- Tinglovchilar 4 guruhga ajratiladi. Har qaysi guruh plakatda kuzatgan mashg'ulotlari asosida tarbiyachining yutuq va kamchiliklarini ifodalaydilar. Tasviriy illustratsiyalardan foydalanadilarlar. Taqdimoti o'tkaziladi. O'qituvchi to'ldiradi va xulosalaydi.

Test savollari

1. Quyidagilardan qaysi biri o'yinchoqlarga qo'yladigan gigiyenik talablarga kiradi?

- A. Tez-tez tozalashga mo'ljallanganligi
- B. Rang xususiyatining to'g'ri ifodalanganligi
- C. G'adir-budur, o'tkir uchli bo'lmasligi
- *D. Tez-tez tozalashga mo'ljallanganligi, g'adir-budur, o'tkir uchli bo'lmasligi

2. Tubandagi ko'rgazmalardan qaysi birini kichik guruhda qo'yilmaydi?

- A. Rasmlar
- *B. O'zbekistonning bayrog'i plakati
- C. Qo'g'irchoq mebel garnitur
- D. Katta-kichik qo'ziqorinlar

3. Ilk yoshli guruhning maydonchasida tubandagilardan qaysi biri qo'yilmaydi?

- *A.Arg'imchoq B.Sirpanchiq
C.Qum yashiklar D.Ayvoncha

4. Ta'lim- tarbiyaviy jarayonni to'laqonli ravishda amalga oshirish uchun tarbiyachiga asosan nimalar zarur.

- A. oylik, xaftalik reja, kasb maxorat
B. oylik reja, bolalarning o'zlashtirish darajasi ko'rsatkichlari
C. mashg'ulot ishlanmalari, ko'rgazma va tarqatma didaktik materiallar, bolalarning o'zlashtirish darajasi ko'rsatkichlari

* D. oylik, kunlik reja, kasb maxorat, mashg'ulot ishlanmalari, ko'rgazma va tarqatma didaktik materiallar, bolalarning o'zlashtirish darajasi ko'rsatkichlari

5. "Tarbiyachi mashg'ulotda yil oxirida o'tkazilishi lozim bo'lgan mavzuni tanlagan, bolalar uchun og'irlik qildi" deb tahlil qilish qanday tahlil hisoblanadi?

- A. Psixologil
*B. Pedagogik
C. Metodik
D. Ilmiy

6. Qaysi biri psixologik tahlil?

- A. Ko'rkazma va tarqatma materiallar talab darajasida
B. Barcha bolalar faolligini ta'minlaydigan sharoit yarata olmadi
*C. Nargiza,...lar uchun topshiriq og'irlik qildi, bunga tarbiyachi e'tibor bermadi
D. Tarbiyachi vaqtdan unumli foydalana oimadi

7. Metodik tahlilni aniqlang

- *A. Tarbiyachi savollarni aniq qilib bermadi, bolalar javob berishda qiynaldi
B. Mashg'ulotda bolalarga individual yondasha oldi
C. Mavzu ijtimoiy turmush bilan bog'langan
D. Bolalarda fasllar ketma-ketligi haqida tushuncha hosil bo'ldi

3. 2 FANNING O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

3.2.1-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarning maqsad va vazifalari, hamda ulardan foydalanish.

(2 soat ma'ruza, 2 soat amaliy)

Texnologik xarita

Mavzu: Maktabgacha ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarning maqsad va vazifalari, hamda ulardan foydalanish.

Kalit so'zlar: axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim texnologiyasi, elektron qo'llanma, elektron darslik

Soatlar soni: 4 soat

Mavzuning qisqacha ta'rifi

AKTni yanada rivojlantirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Farmoni va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari Xalq ta'limi Vazirligining me'yoriy hujjatlari.

Ta'lim tizimiga yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarni kirib kelishi. Kompyuter qurilmalari va asosiy qismlari.

Dasturiy ta'minot.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi

METOD: Og'zaki bayon qilish, suxbat, ma'ruza

Shakl: savol-javob, individual ishlash, jamoa bilan katta guruhda ishlash.

Vositalar (texnik va didaktik): Tarqatma materiallar, slaydlar, kompyuter, proektor.

Nazorat: Og'zaki nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish, savol-javob.

Baholash: Rag'batlantirish.

Kutiladigan natijalar	O'qituvchi	Tinglovchi
	• Yangi nazariy bilimlar beradi.	• Yangi nazariy bilimlar olishadi.

	• Dars jarayonini maqsadli va oqilona boshqaradi. • Tinglovchilarga axborot texnologiyalari tushunchasini beradi. • Tinglovchilarga axborot texnologiyalari tushunchasi va uning ta'riflarini slayd orqali tushuntiradi. • Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumot to'plashga yo'naltiradi.. • Tinglovchilarda axborot texnologiyalariga qiziqish uyg'otadi.	• Axborot izlash, to'plash va foydalanish ko'nikmalari shakllanadi. • Tinglovchilar axborot texnologiyalari haqida tushunchaga ega bo'ladi. • Mustahkamlaydi va o'z o'zini baholaydi hamda o'zgaralar faoliyatini tahlil qiladi. • Yakka tartibda va kichik guruhda ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi. • Olingan bilimlarni tizimli bayon etadi. • Kompyuterga matn kiritish ko'nikmasini egallaydi. Tinglovchilarda axborot texnologiyalariga qiziqish uyg'onadi ijobiy munosabatlari rivojlanadi.
Kelgusidagi rejalar	O'qituvchi Mavzuga oid yangi adabiyotlar bilan tanishish O'z ustida ishlash. Mavzuni hayot bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. Yangi pedagogik texnologiyani takomillashtirish.	Tinglovchi Berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish Mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

2002 yil 30 may – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida”gi PF-3080–sonli Farmoni

2002 yil 6 iyun – Vazirlar Mahkamasining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 200–sonli qarori

2003 yil 11 dekabr – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Axborotlashtirish to'g'risida”gi qonuni

2006 yil 3 avgust – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining “2006-2007 o'quv yilini “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda pedagog kadrlar salohiyatini oshirish o'quv yili” deb nomlash to'g'risida”gi 6/5-HB–sonli buyrug'i

Axborotlashgan jamiyatda na faqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi ham o'zgaradi. Bu jamiyatni sanoat jamiyatdan farqi shunday bo'ladi, axborotlashgan jamiyatda intellekt, bilimlar ishlab chiqiladi va iste'mol etiladi. Shuning uchun bu jamiyatda aqliy mexnat darajasi ko'payadi. Insondan ijodiyotga qobiliyat talab etiladi, bilimlarga ehtiyoj oshadi.

Axborotlashgan jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi.

Informatikaning inson faoliyatining mustaqil sohasi sifatida ajralib chiqishi birinchi navbatda kompyuter texnikasining rivojlanishi bilan bog'liq. Bunda asosiy xizmat mikroprotsessor texnikasiga uning paydo bo'lishi 70-yillar o'rtalarida ikkinchi elektron inqilobini boshlab berdi. Shu davrdan boshlab hisoblash mashinalarining element negizini integral chizma va mikroprotsessorlar tashkil etdi. Informatika atamasi na faqat kompyuter texnikasi yutuqlarini aks ettirish va foydalanish, balki axborotni uzatish va qayta ishlash jarayonlari bilan ham bo'linadi.

Informatika axborotni qayta ishlash, ularni qo‘llash va ijtimoiy amaliyotning turli sohalariga ta’sirini EHM tizimlariga asoslangan holda ishlab chiqish, loyi’alash, yaratish, baholash, ishlashning turli jihatlarini o‘rganuvchi kompleksi lmiyvamuxandislikfanisohasidir.

Informatika keng ma’noda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida, asosan, kompyuterlar va telekommunikatsiya aloqa vositalari yordamida axborotni qayta ishlashi bilan bog‘liq fan, texnika va ishlab chiqarishning xilma-xil tarmoqlari birligini o‘zida namoyon etadi.

Informatikani tor ma’noda o‘zaro aloqador uch qism – texnik vositalar (hardware), dasturiy vositalar (software) va algoritimli vositalar (brainware) sifatida tasavvur etish mumkin. O‘z navbatida informatikani, umuman, hamma qismlari bo‘yicha turli jihatlardan: xalq xo‘jaligi tarmog‘i, fundamental fan, amaliy fan sohasi sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Kompyuter qurilmalari va vazifalari, dasturiyta’minoti

Dastlabhisoblashuchunyaratilgankompyuterlarningimkoniyatlarihozirgikunda “behisob” desakadashmaymiz. SHundayimkoniyatlarga IBM PC kompyuterlaridantortib Pentium IV kompyuterihamegadir. IBM RC kompyuterlariningAT 386, 486SX, 486DX, 586 hamda Pentium turlarikengtarqalgan. Hozirgikunda Pentium II, Pentium III, Pentium IV turlarimavjud. Kompyuter qurilmalarini ikkiga bo‘lish mumkin:

Asosiy qurilmalar

1. Monitor
2. Klaviatura
3. Protessor

Qo‘shimcha qurilmalar

1. Sichqon”
2. Printer
3. Skaner
4. Modem va boshqalar

Monitor (displey) – matnli va grafikli ma’lumotlarni ekranda tasvirlab beruvchi qurilma. Hozirda kompyuterlar uchun asosan ikki xil ko‘rinishdagi monitorlardan foydalanilyapti: elektron nur trubkali va suyuq kristalli.



Elektron nur trubkali




Suyuq krisstalli



Plazmali

Klaviatura- ma'lumotlarni kiritish va kompyuterni boshqarish uchun ishlatiladi.



Sistemali blok (Protssessor) ichda kompyuterning asosiy ish jarayonlari amalga oshadi. Sistemali blok motherboard, CPU, video xotira, ovoz kartasi, qattiq disk, tezkor xotira, tarmoq kartasi unda joylashadi.



“Sichqon”- kompyuterni boshqarishda yordam beradi.



Printer – bosmaga chiqarish, yani Monitor ekranidagi ma'lumtlarni qog'ozga chop etish uchun xizmat qiladi. Printer uch turga bo'linadi, Lazerli (Laser Jet), Purkovchi (Desc Jet) va matritsali (ignali)





Skaner – Kompyuterga tasvirni tushirish, yani qog'ozdagi ma'lumotlarni kompyuter hotirasiga kiritish uchun xizmat qiladi.

Modem – telefon liniyasi orqali ikki kompyuter orasidagi aloqani o'rnatib beradi. Modemlar ikki turga bo'linadi: tashqi va ichki.



Dasturiy ta'minot
Apparatli ta'minot
Operatsion sistema



\Tayanch so'z va iboralar:

Farmon, qaror, dastur, axborot, kommunikatsiya, texnologiya, axborottexnologiyalari, masofadano'qitish, EHM, EHMavlodlari, EHMturlari, monitor, protsessor, klaviatura, printer, sichqoncha, modem, skaner.

Nazorat uchun test savollari

1. Modem nima?

- A. Kompyuterdan kompyuterga axborotni tarmoq orqali uzatish
- B. Kompyuterdan kompyuterga axborotni telefon orqali uzatish
- C. Axborotlarni kompakt diskklarga yozuvchi qurilma
- D. Axborotlarni xotiraga yozuvchi qurilma.

2. Protseccorning vazifasi nima?

- A. Ma'lumotlar ustida arifmetik va mantiqiy amallar bajarish
- B. Ma'lumotlarni o'zida saqlash va ma'lumotlarni chop qilish
- C. Ma'lumotlarni arxivlash.
- D. . Ma'lumotlardan nusxa olish

3. Masofadan o'qitish tizimi nima?

- A. oddiy kunduzgi o'qish
- B. sirtidan o'qish
- C. internet tarmog'i orqali o'qish
- D. Malaka oshirish tizimida o'qish.

4. CD-ROM qurilmasining vazifasi nima?

- A. Ma'lumotlarni qayta ishlash.
- B. Kompyuterni ishga tayyorlash
- C. Biror-bir jarayonni boshqarish
- D. Kompakt disklarni o'qish va ularga yozish.

5. Skaner qurilmasining vazifasi nima?

- A. Ma'lumotlarni xotiraga kiritish
- B. xotiradan o'qish
- C. ma'lumotlarni chop etish
- D. Ma'lumotlarni saqlash.

3.3.1: Pedagogik texnologiya tushunchasi, uning ta'riflari va metodikadan farqi.

(2 soat ma'ruza)

Reja

1. Pedagogik texnologiya ta'rifi haqida. Pedagogik texnologiya tushunchasining kelib chiqishi, uning sabablari, unga bo'lgan ehtiyojlar.
2. O'quv fani va uni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo'lgan pedagogik texnologiyani tanlash.
3. Pedagogik texnologiyaning rivojlanish omillari.
4. Pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi farqlar.

Asosiy tayanch tushunchalar: *Pedagogika, texnologiya, ta'lim, tarbiya, shaxs, jarayon, davlat ta'lim standartlari, ko'nikma, malaka, maqsad, pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmun, metodik, ijtimoiy-pedagogik sharoit, pedagogik texnologiya, ta'lim jarayoni, sub'ekti, ob'ekti, bilimni to'liq o'zlashtirish, tamoyil, dars qismlari, modulli ta'lim, muammoli ta'lim.*

Dars loyihasini ishlab chiqish (darsning texnologik xaritasi)

Mavzu	Pedagogik texnologiya tushunchasi, uning ta'riflari va metodikadan farqi.
Darsning maqsadi va vazifalari	Dars jarayonida tinglovchilarga pedagogik texnologiya va uning metodikadan farqli jihatlarini tinglovchiga yetkazib berish.

Dars mazmuni	Pedagogik texnologiya tushunchasi, uning ta'riflari va metodikadan farqi. Pedagogik texnologiya ta'rfi haqida. Pedagogik texnologiya tushunchasining kelib chiqishi, uning sabalari, unga bo'lgan ehtiyojlar. O'quv fani va uni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo'lgan pedagogik texnologiyani tanlash. Pedagogik texnologiyaning rivojlanish omillari.	
O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	Shakl: savol-javob, suhbat, Metod: Klaster Vosita: video proektor, (didaktik) tarqatma materiallar, test savollari, A-4 format qog'ozi, marker, darslik, uslubiy qo'llanma, ko'rgazma qurollar. Usul: og'zaki, yozma, ko'rgazmali, taqdimot. Nazorat: test savollari va javoblari. Baholash: individual baholash, o'z o'zini baholash, guruh ishini baholash.	
Kutiladigan natijalar:	O'qituvchi	Tinglovchi
	• Yangi nazariy bilimlar beradi. • Dars jarayonini maqsadli va oqilona boshqaradi. Tinglovchilarga pedagogik texnologiya tushunchasini beradi. Tinglovchilarga pedagogik texnologiya tushunchasi va uning ta'riflarni slayd orqali tushuntiradi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumot to'plashga yo'naltiradi. Tinglovchilarga pedagogik texnologiya tushunchasi uning ta'riflari metodikadan farqini tinglovchilar klaster metodi orqali bajarishadi. Tinglovchilarda pedagogik texnologiya faniga qiziqish uyg'otadi.	• Yangi nazariy bilimlar olishadi. • Axborot izlash, to'plash va foydalanish ko'nikmalari shakllanadi. • Tinglovchilarga pedagogik texnologiya tushunchasini beradi. • Mustahkamlaydi va o'z o'zini baholaydi hamda o'z-galar faoliyatini tahlil qiladi. • Yakka tartibda va kichik guruhda ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi. • Olingan bilimlarni tizimli bayon etadi. • Tinglovchilarda pedagogik texnologiya faniga qiziqish uyg'onadi ijobiy munosabatlari rivojlanadi.
Kelgusidagi rejalari:	O'z ustida ishlash. Mavzuni hayot bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. Yangi pedagogik texnologiyani takomillashtirish.	O'z fikrini ravon bayon qiladi. Mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

Ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsadi va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatda ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, yani texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya sohasida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarga amal qilina boshlanadi.

Pedagogik texnologiyalar ijtimoiy zaruriyat bo'lgani bois dastavval XX asrning 30-yillarida AQSHda "ta'lim texnologiyasi" atamasi faqat texnika vositalari yordamida o'qitishga nisbatan qo'llanilmasidan, balki jahon pedagogikasida yangi yo'nalish pedadagogik

texnologiyaga asos soldi. Pedagogik texnologiyalar asoschilari B.Blum, D.Kratvol, N. Gronlund, J. Blok, L. Anderson va boshqalardir.

XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash "ta'lim texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil, deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor ta'lim oluvchilar auditoriyasini kengaytirish, texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi.

60-yillarning boshlarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish "ta'lim texnologiyasi" tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rila boshlandi. 70-80 yillarda "ta'lim texnologiyasi" pedagogikaning nazariy bilimlar tarmog'i sifatida e'tirof etilib, u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini, shuningdek, ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini ifodalagan.

Yuqoridagi qoidalaridan kelib chiqib fikr yuritadigan bo'lsak, pedagogik texnologiyalarning predmeti- ta'lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, o'quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, ta'lim modelini tanlashdan to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholashgacha loyihalashtirishdan tarkib topgan.

Ta'limni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish xususida so'z yuritish ekanimiz, ajdodlarimiz o'zligini anglash uchun tinmay aqliy kurash olib borganligini ko'ramiz. Umuman sharqning buyuk allomalari Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Hasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yassaviy, Shayx Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Sadridin Ayniy, Komil Xorazmiy, Abdulla Avloniy hamda boshqa pedagogik fikr namoyandalari o'z asarlarida, maktab va madrasalarida mudarris, ustoz murabbiy sifatida, insonni aqliy kamolotga yetkazishda o'qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanishga katta ahamiyat berdilar, murabbiy va ustoz –muallimlarning pedagogik mahorati hamda eng qulay ta'lim usullarini amaliyotda qo'llash yo'llarini bayon etishga harakat qildilar.

Ma'lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir. Pedagogik tizim o'zaro bog'liq bo'lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisi bo'lib, shaxsdagi muayyansifatlarni shakllantirishga pedagogik ta'sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi. Pedagogik texnologiyalarning markaziy muammosi- o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat pedagogik texnologiyalarning vazifalari pedagog o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatidan xabardor qilish hamda ularni maxsus fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etishga, ta'lim jarayonini mukammal modul asosida loyihalashga erishish, ta'lim jarayonini loyihalash texnologiyasidan oqilona foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishga, ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning chuqur, puxta o'zlashtirilishining, ularda amaliy ko'nikma va malakalarining hosil bo'lishining kafolati bo'la olishga o'rgatishdan iboratdir.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kiritish va ularni qo'llashda quyidagi vazifalar belgilanadi:

- Pedagog o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiya asoslari bilan tanishtirish - ma'ruza adabiyotlar tavsiya etish;
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlashni xohlovchi fidoyi o'qituvchilarni aniqlash. Ular orqali
- Pedagog o'qituvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan ko'zda tutilgan maqsadni, uning mohiyatini yetkazish;
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlovchi pedagog -o'qituvchilarning ta'lim jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashuvi samaradorligini baholashning ishonarliligini ta'minlash uchun uning monitoringini olib boirish, kuzatuv va tahlillar o'tkazish, metodik yordamlar ko'rsatish va ularning hisobotlarini eshitib borish;

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni ro'yobga chiqarishning 2-bosqich ta'limi mazmuniga Yangi pedagogik texnologiyalarni keng qamrovda olib kirish vazifasini qo'yimoqda. Bu esa barcha pedagoglar zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Respublikamiz olimlari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

Pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda "Pedagogik texnologiya", "Yangi pedagogik texnologiya", "Ilg'or pedagogik texnologiya" kabi tushunchalar keng qo'llanmoqda va turlicha izohlanmoqda.

Bular orasida YUNESKO tomonidan berilgan quyidagi ta'rif etiborga loyiqdir: "Pedagogik texnologiya bu butun o'qitish va bilimlarni samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir"

Texnologiya so'zi yunoncha bo'lib, "texne"-mahorat, san'at; "logos"-ta'limot ma'nolarini bildiradi. Bu so'z sanoatda yoki qishloq xo'jaligida tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonida qo'llanadigan usul va metodlar yig'indisini bildiradi. Ta'lim jarayoniga nisbatan esa bu tushuncha o'qish va o'qitishning o'zaro uzviyligini, aloqadorlik bosqichlarini ajratish, ta'lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning ketma-ketligi va bosqichma-bosqichligini ta'minlash, rejalashtirilgan barcha ishlar va amallarni talab darajasida bajarishni anglatadi. Boshqacha aytganda, ta'lim texnologiyasi tushunchasi ta'lim berish san'ati, ta'lim berish mahorati ma'nolarini ifodalaydi. Yangi pedagogik texnologiya deyilganda ta'lim berish san'atini ishga solib, uni samarali tashkil etish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish tushuniladi.

Pedagogik texnologiya atamasi ta'lim jarayoniga yangicha, o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan tizimli yondashuvga asoslanadi bu ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuv demakdir. Yangi ta'limni tashkil etishda jahon pedagogikasi amaliyotida qo'llanadigan ilg'or metod va usullar, texnika vositalari o'qitishning shakllarini ta'lim jarayoniga har bir o'quvchi shaxsi, ruhiy o'ziga xosligi, intellektual imkoniyatlari, milliy va ijtimoiy xususiyatlarni inobatga olgan holda olib kirish demakdir.

Yangi pedagogik texnologiya o'quvchiga ta'lim jarayoning sub'ekti, yani faol ishtirokchisi, o'quvchiga esa shu jarayonning tashkilotchisi, boshkaruvchisi sifatida qarashni taqazo etadi. Darsda o'quvchi faol ishlovchi shaxs bo'lib, u butun mashg'ulot jarayonida egallagan bilimlarini xotirada tiklaydi, uni qisman yangi sharoitlarda qo'llaydi, aqliy faoliyat usullarini bajarib, ma'lumdan noma'lumga qarab boradi.

Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim olishga qiziqish va ehtiyoj uyg'otish, unga kashf etish lazzatini his ettirish demakdir.

Pedagogik texnologiya ta'limida o'quvchilarni qiziqitirib o'qitish va bilimlarini to'liq o'zlashtirishga erishish, o'quvchilarning o'z fikrini bayon etishga imkoniyat yaratishdir.

Pedagogik texnologiya jarayonida dars o'tishda eng asosiy talab o'quvchining hayotiy tajribasi, avval o'zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko'zda tutadi.

Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha o'qitishda quyidagilar ta'limning asosiy parametrlari hisoblanadi:

1. Butun o'quv vaziyati boshqarish ob'ekti sanaladi.
2. Ta'limni boshqarish maqsadli bo'lib, o'quvchining mohiyatli, ma'naviy va ruhiy kuchlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi.
3. Ta'lim jarayoni demokratik, ragbatlantiruvchi uslubda bajariladi.
4. Ta'lim jarayonining zaruriy sharti o'quvchining shaxsiy tashabbusini qo'llab-quvatlash, o'qituvchi shaxsining ochiqligi, ularning hamkorligi, o'zaro ishonchli munosabatlarni yuzaga keltirishdir.

Pedagogik texnologiya o'ziga xos tamoyillarga ega bo'lib, bular quyidagilar:

1. Muayyan dars, mavzu, qism, o'quv predmetidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish.
2. Umumiy maqsaddan kelib chiqib, darsni yoki o'quv predmetini modullarga ajratib, har bir moduldan kutilgan maqsadni va modullar ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish.

3. Modul ichida yechiladigan masalalarning har biri bo'yicha test savollarini tuzib chiqish.
4. Maqsadlarga yetish usullari tanlanib, ularni ishlatadigan aniq joylarni belgilab olish.
5. Dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklarga va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratish.

Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator o'qitish usullari haqida so'z yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. SHulardan o'zbek tili darslarida qo'llanishi mumkin bo'lgan ayrim metodlar xususida so'z yuritamiz.

1. Modulli ta'lim texnologiyasi. Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta'lim texnologiyasini o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.

2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. Uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga o'rgatish, ular o'rtasida o'zaro yordam va fikr almashinuvini vujudga keltirish.

3. Muammoli ta'lim texnologiyasi. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalarning to'g'riligini tasdiqlashdir.

4. Interfaol metod texnologiyasi. O'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirish. Buning uchun sinf kichik guruhlar bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.

5. Didaktik o'yinlar texnologiyasi. Dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

6. Sinov darslari. O'quvchilarning ma'lum bilim va ko'nikmalarini sinash maqsadida o'tkaziladigan darslar bo'lib, ular test topshiriqlari yoki nazorat varaqalari orqali o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda. Yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish davr talabidir. Bu ish esa o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchi ijodkor bo'lishi, yangi pedagogik texnologiyalarni xilma-xil shakllarini, usullarni yaratib borishi, ularni ta'lim jarayonida qo'llab borishi lozim.

Pedagogik faoliyatda "texnologiya" atamasining qo'llana boshlashi bilan pedagogik amaliyot, uning nazariy jihatlarini hamda ular haqidagi bildirilayotgan mulohazalar birmuncha yuqori ilmiy darajaga ko'tarilmoqda.

Pedagogik texnologiya-hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Uni pedagogikaning hozirgacha mavjud bo'lgan hamda takomillashib kelayotgan barcha asosiy yo'nalishlari bo'yicha vazifalarni yanada yuqoriroq darajada amalga oshirish yo'lidagi yangi bosqich deb hisoblash mumkin.

Shu nuqtai nazarlardan pedagogik texnologiyani, avvalo hozirgi pedagogika fani taraqqiyoti natijasida hosil bo'lganyangi yo'nalish deb hisoblangan holda, uni o'ziga xos tamoyillari, qoidalarini chuqur o'rganib borish va pirovardida qonuniyatlarini aniqlash yo'lidagi muammolarni yechish lozimligi ko'rinib turibdi.

Pedagogik texnologiya, avvalo, ta'lim-tarbiyani yanada rivojlantirish ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi insonlar (pedagoglar, ota-onalar, jamoatchilik) faoliyatidan iborat ijtimoiy hodisa hisoblanishi lozim.

Har qanday ijtimoiy hodisalar kabi pedagogik texnologiyani ham ilmiy jihatdan o'rganuvchi fan sohasi mavjud bo'lib, u pedagogik texnologiya fani deb nomlaadi. Bu fan, o'z navbatida, zamonaviy ta'lim-tarbiyaning eng maqsadga muvofiq yo'llari va usullarini tadqiq qiluvchi nazariy hamda o'quv fani turlariga ajraladi.

Shu bilan birga pedagogik texnologiya amaliy faoliyat yo'nalishi sifatida o'quv-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tamoyillar, algoritmlar va boshqaruv tizimi hamda bevosita ta'lim-tarbiya jarayonini o'z ichiga oldai.

Pedagogik texnologiya ijtimoiy hayotning turli sohalari bilan o'zaro bog'liq ravishda shakllanib va rivojlanib borishi natijasida turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bular pedagogik

texnologiyalarning quyidagi ko'rinishlaridan iborat: ijtimoiy hodisa, nazariy fan, o'quv fani, ta'lim-tarbiya tizimi, jarayoni, pedagogik faoliyati va uning metodikalari hamda aloqador fanlarning ilmiy tadqiqot sohasi.

Pedagogik texnologiya ijtimoiy hodisa sifatida ta'lim-tarbiya masalalari bilan bog'liq motivlar: ehtiyoj, talab, manfaat, qiziqish, maqsadlardan kelib chiqadi va ularni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. SHu bilan birga, huddi shunday motivlar har bir shaxsda, oilada ham mavjud. Jamiyat har bir a'zosining bilim darajasi ortib borishi shu jamiyat va davlat rivojining eng asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Bu shartning bajarilishi esa, o'z navbatida pedagogik, texnologiyaning qanchalik yuqori darajada ekanligiga bog'liq. Bundan esa pedagogik texnologiya shaxs, oila, jamiyat, davlat hayotida muhim ahamiyatga ega ijtimoiy hodisa ekanligi ko'rinadi.

Pedagogik texnologiya nazariy fan sifatida pedagogika fanining alohida yo'nalishini tashkil etib, o'z maqsadi, vazifalari, muammolari, metodologiyasi va boshqa nazariy asoslariga ega. O'z muammolarini hal qilishda boshqa fanlar bilan bog'liqliklarga ega.

Pedagogik texnologiya nazariy fan sifatida ta'lim-tarbiya sohasida kafolatli natijaga erishish darajasini oshirish muammolarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi.

O'quv fani ko'rinishda pedagogika texnologiyalarni ijtimoiy hodisa, nazariy fan, ta'lim-tarbiya tizimi, jarayoni, pedagogik faoliyati va uning uslublari, aloqador fanlarning ilmiy-tadqiqot sohasi sifatida turli ta'lim muassasalarida belgilangan o'quv dasturi asosida o'rgatishdan iborat.

Ta'lim-tarbiya tizimi ko'rinishda pedagogik texnologiya belgilangan ta'lim-tarbiya faoliyatini amalga oshirishga iborat. Bunga o'quv reja, dasturlar va didaktik vositalar ham kiradi. Bu tizim boshqa ijtimoiy tizimlar kabi, tegishli maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassislar orqali faoliyat olib boradi.

Hozirda bu tizim uzluksiz ta'lim bosqichlaridan tashkil topgan. Uzluksiz ta'limning hamma bosqichlariga pedagogik texnologiyalar joriy qilinishi bilan bu tizimning to'liq shakllanishi amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoni sifatida ishtirokchilarning faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayoning pirovard maqsadi barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish bo'lib, asosan quyidagilardan tarkib topadi:

- ta'lim-tarbiya berish;
- axborotlarni avloddan-avlodga uzatish;
- mustaqil fikrlashga o'rgatish;
- bilim, ko'nikma, malakalarni o'rgatish va o'zlashtirishga erishish;
- turli metodikalarni qo'llash va takomillashtirish;
- diagnostika, monitoring olib borish;
- ta'lim -tarbiya jarayonida insonparvarlik, xalqparvarlik, mafkuraviy tamoyillarga asoslanish;

-o'quvchining tayyorgarlik darajasini, psixologik, fiziologik, yosh xususiyatlarini, gigienik talablarni hisobga olish;

-ta'lim menejmenti, marketingi talablari va xulosalarini, ijtimoiy motivlarni hisobga olish.

Pedagogik faoliyat va uning metodikalari ko'rinishida pedagogik texnologiya o'zining to'liq namoyon qiladi. Pedagogika texnologiyaning harakatga kelishi va undan ko'zda tutilgan natijalarga erishish faqat pedagogik faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Chunki pedagogik texnologiya va pedagogik faoliyat bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalar hisoblanadi va ularning biri ikkinchisiz o'z ma'nosini va ahamiyatini yo'qotadi.

O'quv fanlarining soni ko'pligini hisobga olganda, pedagogik faoliyatning ko'p qismi xususiy (o'quv fanlari) pedagogik texnologiyalar uchun sarflanadi. Shuning uchun xususiy fanlar darajasidagi pedagogik texnologiyalar ko'proq tarqalgan. Shu aytilganlar asosida pedagogik texnologiya, eng avvalo, pedagogik faoliyat va uning metodikalari ko'rinishida namoyon bo'ladi va rivojlanib boradi, deb hisoblash mumkin.

Aloqador fanlarning ilmiy tadqiqot sohasi sifatida pedagogika texnologiyalarning turli fanlar bilan bog'liqliklari yaqqol ko'rinadi. Pedagogik texnologiya keng ko'lamli ijtimoiy hodisa bo'lib, u ko'p fanlarning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Bunda har bir fan o'z maqsad va vazifalariga muvofiq

yo'nalishlarda pedagogik texnologiyalarni chuqur o'rganishi natijasida uni takomillashtirish yo'l-yo'riqlarini belgilab boradi.

Pedagogik texnologiya barcha o'quv fanlari bilan bog'liq bo'lib, ularning hamda o'zining muntazam rivojlanib borishini kadrlar tayyorlash orqali ta'minlab turadi.

Pedagogik texnologiyaning yuqorida aytilgan ko'rinishlarining asosiy belgilarini aniqlash va umumlashtirgan holda qisqa shaklda ifodalash orqali uning asosiy ta'rifini va boshqa belgilarini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, hozirda pedagogik texnologiya ijtimoiy hodisa, nazariy fan, o'quv fani, ta'lim-tarbiya tizimi, ta'lim-tarbiya jarayoni, pedagogik faoliyat va uning metodikalari hamda aloqador fanlarning ilmiy-tadqiqot sohasi ko'rinishlarida mavjud deb hisoblanadi.

Yuqorida aytilgan fikrlar asosida pedagogik texnologiyalarni umumpedagogik, xususiy (o'quv fanlari) va kichik texnologiyalardan iborat uchta darajaga ajratiladi.

Umumpedagogik texnologiya turli darajadagi tizimlarni ifodalaydi. U ayrim hududdagi, tumandagi, ta'lim muassasasidagi yoki ta'limning ayrim pog'onasidagi barcha ta'lim-tarbiya jarayoniga tegishli bo'ladi. Umumpedagogik texnologiya o'z hududi yoki ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar, mazmun, vositalar, boshqaruv shakli va usullari, o'quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatining algoritmlarini belgilaydi.

Xususiy texnologiya ta'lim-tarbiya mazmunining ayrim yo'nalishlarini amalga oshirish usullari va vositalari majmuini o'z ichiga oluvchi pedagogik tizimlarni qamrab oladi. Bunga ayrim fanlarni o'qitish texnologiyalari, rahbarning, o'qituvchilarning, tarbiyachining va o'quvchining ishlash texnologiyalari kiradi.

Kichik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayonining alohida qismlarini o'z ichiga oladi. U ayrim didaktik va tarbiyaviy masalalarni hal qilish bilan shug'ullanadi. Bularga darslar texnologiyasi, tushunchalarni shakllantirish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va mustaqil ishlash texnologiyalari, ayrim faoliyati turlari va alohida shaxsiy sifatlarni tarbiyalash texnologiyalari, o'quv materiallarini takrorlash, o'zlashtirishni va tarbiyalanganlikni nazorat qilish texnologiyalari hamda ayrim tadbirlarni tashkil qilish va amalga oshirish texnologiyalari kiradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. YUNESKO tomonidan pedagogik texnologiyaga qanday ta'rif berilgan?
2. Texnologiya so'zi ta'lim-tarbiya jarayonida qanday ma'no anglatadi?
3. Dars jarayonidagi faol shaxs kim?
4. Ilg'or pedagogik texnologiya ning asosiy parametrlarini sanang.
5. Innovatsion metodlar xususida nima deya olasiz?

Test savollari

1. Tubandagilardan qaysi biri noto'g'ri?

- *A. Konsepsiyada MTM ning yosh guruhlarida bolalar soni nechta bo'lishligi ko'rsatilgan.
- B. Konsepsiyada shaxsga yo'naltirilgan ta'limga yondashish lozimligi ko'rsatilgan
- C. Konsepsiyada hamkorlik pedagogikasiga e'tibor berish g'oyasi ilgari surilgan
- D. Konsepsiyada yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'rsatilgan.

2. Texnologiya so'zining ma'nosi ?

- A. Inglizcha so'z bo'lib, "logos" mahorat, "texne" san'at ma'nosini anglatadi
- B. Grekcha so'z bo'lib, "texne" mahorat, "logos" ta'limot ma'nosini anglatadi
- *C. Yunoncha so'z bo'lib, "texne" mahorat, san'at, "logos" ta'limot ma'nosini anglatadi
- D. Lotincha so'z bo'lib, "texne", san'at, "logos" ta'limot ma'nosini anglatadi

3. Tarbiyachi balalarda suv haqida tushuncha hosil qilish uchun loyihalash metodi asosida qanday ishlarni amalga oshirishi lozim?

- A. Anhor yoki ko'l bo'yiga sayohat uyushtirish. Daryo, ko'l tasvirlangan rasmga qarab suhbat
- B. Suv bilan bog'liq tajribalar o'tkazish, suv bilan bog'liq rasmlar chizdirish
- C. Suv mavzusi bo'yicha chizilgan rasmlarni kitobcha holiga keltirish
- *D. Barchasi to'g'ri

4.YUNESKO ning ta'rifiga ko'ra "...bu butun o'qitish va bilimlarni samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir"

A. Metodika

*B.Pedagogik texnologiya

C.Ta'lim tizimi

D. Mahorat

3.3.2 – Mavzu: Interfaol metodlarning turlari va ulardan mashg'ulotlarda foydalanish

(2 soat nazariy, 2 soat amaliy)

Maqsad:Interfaol metodlar haqida tushuncha, uning turlari. "Aqliy hujum","Kichik guruhlarda ishlash", "Ro'lli o'yin", "Klaster"metodlari. Mazkur metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.

Kutiladigan natija: Tarbiyachilar mashg'ulotni bugungi kun talabi darajasida o'tkazishni : o'z o'rnida interfaol metodlarni qo'llashni o'rganib oladilar va amaliyotga joriy qiladilar.

Jihoz: Karton, rangli qog'oz, plakat, yelim, skotch, tarqatma, "Bolajon" dasturi.

Dars metodi: "Kichik ma'ruza", "Kichik guruhlarda ishlash", "Aqliy hujum", "Klaster".

Reja:

1. Interfaol metodlar haqida tushuncha
2. Interfaol metodlarning turlari.
3. Mashg'ulotlarda mavzuga muvofiq tegishli metodlarni qo'llash

Darsning borishi:

- I. "Aqliy hujum" . Vazifa. Mashg'ulotlarda qaysi metodlardan foydalanayapsiz? Tinglovchilar javobi doskada yozib boriladi.

II. Kichik ma'ruza

Slaydlar yordamida interfaol o'qitish haqida tushuncha beriladi.

Slayd 1

"Interfaol" tushunchasi inglizcha "interact" so'zidan olingan ("inter"- "birgalikda", "act"- "harakat qilish"). Interfaol o'qitish-bu kognitiv faoliyatni tashkil etishning maxsus turidir.Unda to'liq, aniq va rejalashtirilayotgan maqsadlar bo'ladi. Ushbu maqsadlardan biri-o'qitish jarayonida shunday yuqori darajadagi sharoit yaratish kerakki,unda tinglovchi o'qitish jarayonini produktiv jarayonga aylantiruvchi o'zining muvaffaqiyatini, intellektual darajasini anglab yetishi lozim.

Interfaol o'qitish metodlarini qo'llash – tinglovchilar faollashuvining muhim yo'nalishlaridan biridir. Hozirgi kunda asosiy uslubiy innovatsiyalar interfaol o'qitish metodlarini qo'llash bilan bog'liqdir. Shu bilan birga "interfaol o'qitish" termini turli ma'noda tushuniladi. Ushbu o'qitish g'oyasi 1990 yil o'rtalarida veb-brauzer paydo bo'lishi va Internet tarmog'ining rivojlanishi bilan bir vaqtda yaralgan bo'lgani uchun ko'pgina mutaxassislar shu metodni Internet zahirolari va kompyuter tarmog'ini ishlatgan holda o'qitish deb tushunadilar. Ammo ushbu o'qitishni yanada keng talqin qilib, nima bilandir (masalan kompyuter bilan) yoki kim bilandir (masalan inson bilan) muloqatda bo'lish va birgalikda faoliyat yuritish qobiliyati ma'nosida ham tushunish mumkin.

Interfaol metodlarni qo'llashga yondoshgan o'qitish jarayoni guruhdagi barcha tinglovchilarni anglash va fikrlash jarayonida ishtirok etishini hisobga olgan holda tashkil etiladi.Hamkorlikdagi faoliyatda ishtirokchilarning barchasi ish jarayoniga o'zining shaxsiy ulushini qo'shadi. Ish jarayonida bilimlar, g'oyalar, faoliyat metodlari bilan almashinish ro'y beradi. Individual, juftlikdagi va guruhdagi ish tashkil etiladi, loyiha ishi, ro'lli o'yin qo'llaniladi, turli ma'lumot manbai va hujjatlar bilan ishlanadi. Interfaol metodlar o'zaro harakat, tinglovchilarning faolligi, guruh tajribasiga tayanish, majburiy qayta aloqa tamoyillariga asoslanadi. Oshkoralik,

ishtirokchilarning o‘zaro harakati, ularning dalillarining tengligi, hamkorlikdagi bilimlar banki, o‘zaro baholash va nazorat imkoniyati bilan belgilanadigan ta’limiy muloqot manbai yaratiladi.

Mashg‘ulotlar o‘yin tarzida, erkin sharoitda, dam va ko‘ngilochar taddirlarda o‘tkaziladi.

O‘qituvchi yangi bilimlar berish bilan birga ta’lim ishtirokchilarini mustaqil izlanishga boshlaydi. O‘qituvchi faolligi o‘rnini tinglovchilar faolligi egallaydi. O‘qituvchining vazifasi tinglovchilarning tashabbulari uchun sharoit yaratishdir. O‘qituvchi o‘zidan o‘quv ma’lumotini o‘tkazuvchi o‘ziga xos filtr ro‘lini va ish jarayonida yordamchi funksiyasini bajaradi. Shuning uchun interfaol o‘qitish katta yoshdagi o‘quvchilarni intensiv o‘qitish jarayonida qo‘llash uchun mo‘ljallangan.

Slayd 2

Interfaol o‘qitish metodlari

- davra suhbatlari	- o‘quv munozarasi
- aqliy hujum	- ishchanlik o‘yinlari
- debatlar	- kichik ma’ruza
- kichik guruhlarda ishlash	- ro‘lli o‘yinlar
- keys-stadi	- juftlikda ishlash

Slayd 3

O‘qish jarayonida inson:
• 10 % o‘qiganlarini • 20 % eshitganlarini • 30 % ko‘rganlarini • 40 % ko‘rgan va eshitganlarini • 70 % gapirganlarini • 90 % shaxsan gapirgan va bajarganlarini o‘zlashtiradi

Interfaol o‘qitish metodlarini qo‘llab mashg‘ulot o‘tilganda materialni o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi, ishtirokchilar o‘rtasida do‘stona muhit yaratiladi. Shu o‘rinda Xitoy xalq maqolini keltirish mumkin: “Menga gapirsang, esdan chiqaraman, menga ko‘rsatsang eslab qolishim mumkin, menga o‘zimga ishlashga imkoniyat ber, shunda batamom meniki bo‘lib qoladi”.

“Aqliy hujum” metodi

“Aqliy hujum” metodi interfaol metodlarning bir ko‘rinishidir. Bu metoddan tarbiyachi tomonidan bolalarga umumiy ko‘rinishda muammo yoki savol tashlanadi. Masalan, matematika mashg‘ulotlarida uchburchak shakliga o‘xshash narsalarning nomini aytish. Tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotida kuz faslida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni aytish. Navbati bilan bolalar bitta o‘zgarishni aytadi. “Kuz faslida havo soviy boshlaydi”, “Kuz faslida mevalar yig‘ishtirib olinadi”, “Paxta ochiladi”, “Sholi pishadi”, “Yomg‘ir yog‘adi”, “Daraxt barglari sarg‘ayadi” va hakoza. Bolalar javobi bilan bog‘liq rasmi kartochkalar tayyorlanadi. Dskada bolalar javobiga mos rasmlar ilib boriladi. Garchi xato javoblar ham noto‘g‘ri javob berding deb ta’kidlanmaydi. Balki barcha bolalarning javoblari “barakalla” deb rag‘batlantiriladi. Ta’lim-tarbiyaviy jarayonda bolaning uyalishiga, izza bo‘lishga, ranjishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Tarbiyachi bolalarning javoblaridan keyin plakatga ilingan javoblarni tahlil qilish jarayonida noto‘g‘ri javoblarni olib qo‘yadi. Masalan “Kuzda gilos pishadi” javobni olib qo‘yib gilos yozda pishadi, kuzda pishmaydi deb izoh beradi.

Xato javob bergan bola aniqlanmaydi balki, xato javob bergan bola xatosini o'zi fahmlab yetadi. Agar shunday yo'l tutilsa bola xato javob berishdan hadiksiramaydi. Barcha bolalarning faolligi ta'minlanadi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi

Intefaol metodlarning bir ko'rinishi “Kichik guruhlarda ishlash”dir. Mashg'ulot jarayonida bolalar geometrik shakllar, gullar, hayvonlar, mevalarni tanlashga, sanash va boshqalar yordamida guruhlariga ajratiladi. Guruhlarda bolalar soni 3-12 nafargacha bo'ladi. Mashg'ulot mavzusidan kelib chiqqan holda guruhlariga og'irlik darajasi bir xil bo'lgan muammo tashlanadi. Masalan, badiiy adabiyot mashg'ulotida tarbiyachining ertakni hikoya qilib berganidan keyin bolalar 4 guruhchaga ajratiladi. Tarbiyachi tomonidan 4 ta qutichada ertak mazmuni asosida ishlangan “O'z o'rnini top” o'yini tayyorlanadi. Ertakning 4 ta qismi bilan bog'liq mazmunli rasm qirqimlarining soni bir xil bo'lishi kerak. Topishiriq qirqimlarni joy-joyiga qo'yish va ertakning shu joyini gapirib berish. Bu metod orqali bolalar o'zaro bir-biridan nimanidir o'rganadi hamda bir-biriga nimanidir o'rgatadi. Bolalar o'rtasida do'stona munosabat shakllanadi. Kichik guruhlarda a'zolar soni 3-12 bo'lishi mumkin. Optimal miqdor 4-5 kishi.

Kichik guruhlariga bo'lish rotatsiya deb ataladi. Rotatsiyaning maqsadli va tasodifiy turlari mavjud. Amalyotda ko'proq tasodifiy bo'llinishdan foydalanish tavsiya etiladi.

Tasodifiy bo'llinish metodlari;

-Sanash orqali

-Kartochkalar yordamida (rangli, geometrik figuralar, maqollar, qahramonlar va h.k)

-Enerjalyzerlar yordamida (“Qushchalar uyda”, “Atomlar va molekulalar” kabi)

“Molekula” o'yinida ishtirokchilar 4 guruhga quyidagi tartibda bo'llinishi mumkin. O'yin ishtirokchilar diqqatini jamlashga yordam beradi. Tinglovchilar musiqa ohangi ostida xonada sayr qiladilar. O'qituvchining “2 atomli molekula hosil qiling” taklifidan so'ng tinglovchilar o'zlariga juftlik topib birlashishlari lozim. O'yin tinglovchilar 4 kishidan iborat guruh tashkil etganlarida yakunlanadi shu tariqa 4 kishidan iborat guruhlar tashkil etiladi va har bir guruh aniq bir stol atrofiga o'tiradi

“Rolli o'yin” metodi

Interfaol metodlardan biri “Rolli o'yin” metodidir. Bu metoddan har qaysi bola bir ro'lni bajaradi. Masalan nutq o'stirish mashg'ulotida bolalar guruhchalarga ajratiladi. Har guruhga mazmunli rasm beriladi. Rasm mazmuniga qarab bolalar rollarni bo'lishib oladi. Kostyumlar, niqoblar va boshqa kiyimlar tayyorlanib qo'yiladi. I- guruh rolni bajaradi. Yoki bir guruh ovozsiz pantomima ko'rinishida rol bajaradi. Boshqa guruh mazmunini gapirib beradi.

Badiiy adabiyot mashg'ulotlarida tarbiyachi ertaklarni hikoya qilib berganidan keyin rasmi kartochkalarni qirqimlarga ajratgan holda gilam ustida tarqatib tashlaydi. Bolalar qirqimlarni olishadi va juftini topadi. Masalan “Zumrad va Qimmat” ertagidagi kampir bilan Zumrad tasvirlangan rasmi kartochkaning qirqimini birlashtirgan 2 bolaning biri Kampir ikkinchisi Zumrad rolini bajaradi. O'rmonda otasi va Qimmat tasvirlangan rasm va boshqalar.

Maqsadli bo'llinish;

-jurnaldagi ro'yxat bo'yicha (birinchi 5ta, ikkinchi 5ta va shu kabi)

-tinglovchilarning xohishi bo'yicha

-oqituvchi tomonidan uyda oldindan uyda guruhlarini shakllantirish

-tinglovchilar o'tirgan stol bo'yicha (zveno yoki stolarni birlashtirish)

Guruh ishini tashkil qilganda ko'pincha har bir guruhga alohida topshiriq beriladi. Bir xil topshiriq berilganda, masalan, matn tuzish berilsa, mavzuni har xil tanlash yoki qahramonlarni bo'lib berish mumkin

Topshiriqlarni og'irlik darajasi bir xil bo'lishi talab etiladi, ya'ni bir guruhga she'r yodlash, biriga matn tuzish, boshqasiga test yechish berilmaydi.

Slayd 4

- * Faol bo'lish.
- * Ishtirokchilarning fikrini hurmat qilish.
- * Hayrixohlik fazilatiga ega bo'lish.
- * Javobgarlikni his etish, o'z vaqtida topshiriqni bajarish.
- * Gapni bo'lmaslik.
- * O'zaro muloqot uchun ochiq bo'lish.
- * Qiziqishga ega bo'lish .
- * Haqiqatni topishga intilish.
- * Reglamentga amal qilish .
- * Kreativlik .
- * Guruhda ishlash qoidalarini hurmatlash.
- * Asosiy qism."Nima qilmoqchi ekanligingni ayt"

Ro'lli o'yin – qatnashchilarning tajribasini kengaytirish metodi bo'lib, ularni kutilmagan vaziyatga duch qilish orqali shu vaziyatda qatnashchilardan kimningdir ro'lini ijro etish taklif etiladi, shu orqali vaziyatning mos intihosini topadigan metod ishlab chiqishga erishiladi. Ro'llar o'yini nazariyasi mashhur amerikalik tadqiqotchi Dj.Moreno' aytganidek ,role so'zi lotincha rotula (kichik g'ildirak yoki g'ola) so'zidan olingan bo'lib, keyinchalik pe'saning aktyo'r uchun qog'ozga yozilgan va dumaloq naycha qilib o'ralgan varaqdagi so'zlari edi.Faqatgina XVI-XVII asrga kelib bu so'z aktyo'rlar o'yini ma'nosini anglata boshladi. Ro'lli o'yinlar tushunchasi xx asrda yuzaga keldi.Ro'lli o'yinlar vaqtinchalik qatnashchining boshqa kishining ro'lini o'ynashni.yoki o'zini boshqa vaqt oralig'ida ko'rsatishini ko'zda tutadi.Kishi ro'lni qabul qilganidan keyin shu ro'ldagi o'braz kabi his qilishga, harakat qilishga va o'zini ko'rsatishga harakat qiladi.Boshqa qatnashchilar biron-bir maqsad bilan ro'l o'ynayotganlarni kuzatadilar. Ishning bunday shakli turli maqsadlarda qo'llaniladi.

Emotsional siquvlarni bartaraf etuvchi o'yinlarning 2 turi mavjud:

- * "Muzyorar o'yinlar" – guruhda ishonch muhitini yaratuvchi qisqa o'yinlar;
- * "Razminka o'yinlar" - diqqatni jamlash (mashg'ulotning bir qismidan ikkinchi qismiga o'tish vaqtida), guruhda charchoq belgilari paydo bo'lganda, taranglikni bartaraf etish maqsadida o'tkaziladi.

II. Matn yozilgan kartochkalar stol ustida tarqatib tashlanadi. Xonaning 4 ta joyida interfaol metodlarning turlari ("Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Ro'lli o'yin", "Klaster") yozilgan kartochkalar qo'yiladi. Tinglovchilar matnni o'qib, qaysi metodga mosligini topadilar. Javoblar tahlil qilinadi.

III."Kichik guruhlarda ishlash". Chumchuq, jo'ja, kuchuk, mushuk deb aytilishi va ovozigga taqlid qilishi orqali tinglovchilar 4 guruhga ajratiladi.

- "Chumchuqlar" guruhi mashg'ulotda "Aqliy hujum";
- "Jo'jalar" guruhi mashg'ulotda "Kichik guruhlarda ishlash" ;
- "Kuchuklar" guruhi mashg'ulotda "Ro'lli o'yin";
- "Mushuklar" guruhi "Klaster" metodini qo'llashni amalda ko'rsatish topshirig'ini bajaradilar.

Test savollari

1. Tarbiyachi bolalarga " Bahor faslida qanday o'zgarishlar bo'ladi" savolini berdi. Bolalar javob bera boshladi. Bitta bola doskada bolalar javobi bilan bog'liq rasmi kartochkalarni ko'rinarli joyga ilib bordi.Garchi xato javoblarni ham. Tarbiyachi interfaol metodlarning qaysi turidan foydalandi.

- A. Klaster
- B Kichik guruhlarda ishlashni tashkil qilish
- C. Kichik ma'ruza

*D. Aqliy hujum

2. Tarbiyachi bolalarni quyon, ayiq, qush rasmlarini tanlashlariga qarab ular harakatlariga taqlid qildirdi va bolalarni stol ustida turgan rasmlarga qarab o'tirishga taklif qildi. Har qaysi stolga topshiriq berdi. Bolalar birgalashib topshiriqni bajardi va qilgan ishini gapirib berdi. Mashg'ulotda tarbiyachi qaysi metoddan foydalandi.

A. Aqliy hujum

B. Klaster

C. Rolli o'yin

*D. Kichik guruhlarda ishlashni tashkil qilish

3. Mashgulotda bolalarni kichik guruhlarda ishlashini tashkil qilishdan ko'zlangan tarbiyaviy maqsad nimadan iborat?

A. Bilimlarni oson o'zlashtirishini ta'minlash

*B. Hamjihatlik va do'stona munosabatlarni shakllantirish

C. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish

D. barcha javoblar to'g'ri

4. Kichik ma'ruza metodining mazmuni?

A. Bolalar ishtirokini ta'minlash

B. Do'stona munosabatni shakllantirish

*C. O'tiladigan mavzuning mazmuni haqida kichik ma'lumot

D. Muammoli vaziyat yaratish

5. Tarbiyachi mashg'ulotda oshpaz, duradgor, bog'bon mehnati bilan bog'liq jihozlar tasvirlangan rasmlar kartochoqlarini gilam ustida orqasini o'girib tashladi. Bolalarga rasmlar ichidan faqat oshpazga tegishli rasmlarni topib o'ng tomoniga o'girish topshirig'ini berish bilan qaysi usuldan foydalandi?

A. Muammoli ta'lim

*B. Klaster

C. Zig-zag

D. Galeereya

6. Kichik guruhlarda ishlashni tashkil qilishda bolalar soni nechta bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi?

*A. 4-5 B. 7-8 C. 8-9 D. 5-7

7. Tarbiyachi mashg'ulotda oshpaz, duradgor, bog'bon mehnati bilan bog'liq jihozlar tasvirlangan rasmlar kartochoqlarini gilam ustida orqasini o'girib tashladi. Bolalarga rasmlar ichidan faqat bog'bonga tegishli rasmlarni topib o'ng tomoniga o'girish topshirig'ini berish bilan qaysi usuldan foydalandi?

A. Muammoli ta'lim

*B. Klaster

C. Zig-zag

D. Galereya

8. Kichik guruhlarda ishlashni tashkil qilishda a'zolar soni qancha bo'lishi kerak?

*A. 3-12

B. 2-3

C. 8-9

D. 10-11

9. Quyidagi fikrlardan qaysi biri noto'g'ri?

A. "Interfaol" tushunchasi inglizcha "interact" so'zidan olingan ("inter"- "birgalikda", "act"- "harakat qilish").

*B. Interfaol o'qitish faqat internet zahiralari va kompyuter tarmog'ini ishlatgan holda o'qitish demakdir.

C. Interfaol o'qitishni nima bilandir (masalan kompyuter bilan) yoki kim bilandir (masalan inson bilan) muloqatda bo'lish va birgalikda faoliyat yuritish qobiliyati ma'nosida ham tushunish mumkin.

D. Interfaol o'qitish metodlarini qo'llab mashg'ulot o'tilganda

materialni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi.

10. Kichik guruhlarga ajratishning tasodifiy bo'linish usullari.

A. Jurnaldagi ro'yxat bo'yicha (birinchi beshta, ikkinchi beshta)

*B. Kartochkalar yordamida (rangli, geometrik shakllar, maqollar, qahramonlar), enerjayzerlar yordamida.

C. Tinglovchilar o'tirgan stollar bo'yicha

D. Tinglovchilarning hohishi bo'yicha

11. Inson ko'rgan va eshitganlarining necha foizini o'zlashtiradi?

A. 20 % B. 30 % * C. 40 % D. 70 % E. 90 %

12. Inson shaxsan gapirgan va bajarganlarining necha % ni o'zlashtiradi?

A. 20 % B. 30 % C. 40 % * D. 90 %

13. Tarbiyachi mashg'ulotda oshpaz, duradgor, bog'bon mehnati bilan bog'liq jihozlar tasvirlangan rasmlar kartochkalarni gilam ustida orqasini o'girib tashladi. Bolalarga rasmlar ichidan faqat duradgorga tegishli rasmlarni topib o'ng tomoniga o'girish topshirig'ini berish bilan qaysi usuldan foydalandi?

A. Muammoli ta'lim

*B. Klaster

C. Zig-zag

D. Galeereya

3.3.3- mavzu: Bolaga yo'naltirilgan ta'lim

(2soat amaliy)

Maqsad: Bolaga yo'naltirilgan ta'limning mazmun va mohiyati, ta'lim jarayonida oilaning ishtirokini ta'minlash, guruh xonasida rivojlantiruvchi muhit yaratish. San'at, qurilish, pazandalik, sahnalashtirish, adabiyot, matematika, musiqa, ochiq maydoncha, qum va suv, tabiatshunoslik markazlarini tashkil qilish. Bolalarga tanlash imkoniyatini berish. Ularga individual yondashish. Mashg'ulotlarni markazlarda tashkil qilishni mashq qildirish.

Kutiladigan natija: Tinglovchilar "Bolaga mo'ljallangan dastur" ning mazmun-mohiyatini tushunib oladilar.

Jihoz: A-4 formatdagi qog'oz, marker, yelim, skotch, o'yin materiallari.

Reja:

1. "Bolaga mo'ljallangan dastur" haqida tushuncha.
2. Bolalarda mustaqil fikrlashga, erkin harakat qilishga undovchi o'yinlar.
3. Mashg'ulotlarda ota-onalar ishtirokini ta'minlash.

Darsning borishi:

Dasturning maqsadi:

- O'zgarishlarni qabul qilish va uni amalga oshirishga o'rgatish;
- Tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Tanlash imkoniyatini yaratish va uni amalga oshirish;
- Muammolarni to'g'ri aniqlash va hal etish;
- Ijod va ixtirochilikni shakllantirish, namoyon etish;
- Bolalarni inson, jamiyat, mamlakat, atrof-muhit to'g'risida g'amxo'rlik qilishga odatlantirish.

E'tibor qaratiladi:

- Har bola uchun qulay sharoitlarni yaratish;
- Bolaning ehtiyojiga ko'ra, tegishli mashg'ulotlarni rejalashtirish va faollik markazlarini tashkil etib, bolalarga tanlash imkonini berish;
- Oilaning ishtirokini ta'minlash.

Bosqichlar:

- O'yin davomida o'zlarini o'rab turgan dunyo haqidagi axborotlarni o'zlashtirib, faol ta'lim oladilar;
- Rivojlanishning qonuniy bosqichlaridan o'tadilar;
- O'zlarini hissiy va kognitiv o'sib-ulg'ayishlari uchun ijtimoiy o'zaro ta'sirga muhtoj bo'ladilar;
- Takrorlanmas, individual va har birlari o'z me'yorida rivojlanadilar.

“Bolaga mo'ljallangan ta'lim» bu nima? -
Bu qiziqish bilan ta'lim olishdir!

L.Vigotskiy, J. Piaje,

E. Erikson, M.Montessori va boshqa buyuk olimlarning butun dunyoga mashhur uslubiy nazariyalari asosidagi eng ilgor pedagogik texnologiyadir.

«Bolaga mo'ljallangan ta'lim» dasturining falsafasi

BOLAGA MO'LJALLANGAN DASTUR

- Bu 3 yoshdan 10 yoshgacha bolalar va ularning ota-onalari va pedagoglar uchun original dasturdir
- Bu jo'shqin o'zgaruvchan rivojlantiruvchi muhit bo'lib har bir bola uchun ta'limni o'ziga xos sharoitlarini yaratadi
- Tarbiyachilar bolalarning yordamchilarga aylanadilar rivojlantiruvchi muxitni yaratadilar va individual yondashishni ta'minlaydilar
- Bolalar uchun faoliyat turlarini tanlash muammolarini, o'zaro munosabatlarni hal etish imkoniyati yaratiladi
- Ta'lim jarayonida ota-onalar ishtirokini ta'minlash
- Har bir bolani ta'lim ixtiyojini kondrisha
- Har xil millat vakillari va ularni madaniyati va urf-odat an'analari xurmat xissini shakllantiradi.

Bolaga mo'ljallangan dastur quyidagi zarur hayotiy qobiliyatlar asosini yaratishga harakat qiladi:

- O'zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
- Tanqidiy fikrlash;
- Tanlashni amalga oshirish;
- Muammolarni qo'yish va hal etish;
- Ijodni, fantaziyani va ixtirochilikni namoyon etish;
- Odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-muhit to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

Jan Piaje, Erik Erikson va L.S.Vigotskiy nazariyalariga asosan “Bolaga mo’ljallangan ta’lim”da

- O`yin orqali dunyo haqidagi axborotlarni o`zlashtirib faol ta`lim oladi;
- Rivojlanishning qonuniy bosqichlaridan o`tdilar;
- Hissiy va kognitiv o`sib-ulg`ayishlari uchun ijtimoiy o`zaro ta`sirga muhtoj bo`ladilar;
- Har biri o`z me`yorida o`sadi

Glassmanning qisqa xulosalari (1994)

- Kognitiv rivojlanishga tafakkur rivojidagi tabiiy va ijtimoiy yo`lning bir-biriga ta`sirining daxldorligi;
- Kognitiv rivojlanish – olamni bevosita tajriba vositasida bilish; ichki fikrlash asosida empirik tajribani shakllantirish;
- Rivojlanish sur`ati – ijtimoiy muhit ta`siri natijasidir;
- Kognitiv o`sish – fikrlashning chuqur sifat o`zgarishi bilan bog`liq.

Ta`lim jarayonini Individuallashtirish

“Individual yo`l tutish shuni bildiradiki, bunda guruhning hayotiy faoliyat jadvali har bolaning ham faol harakatlar davridagi, ham dam olish paytidagi ehtiyojini hisobga oladi. Bu degani, guruhda mavjud bo`lgan barcha material va jihozlar, uning ichki qiyofasi har bir bolaning o`sishiga imkon beradi ba taklif etilayotgan faoliyat turlari turli bolalar o`sishi darajasi sohib tashlanishini hisobga oladi Vazifa shu tarzda beriladiki, ular kimningdir chaqirig`ini tasavvur qilsinlar va shu bilan birgalikda har bir bola pirovardida muvaffaqiyat hissini tuysin.

...Individuallashtirish-muhim vazifa, individual yo`l tutish qanchalik ko`p bo`lsa, dasturni amalga oshirish shunchalik silliq kechadi. Intizom bilan bog`lik muammolar kamayadi, bilim va ko`nikmalar olish esa ko`payadi”(Sayfer, 1990,16 b.)

Ta`limning bolaning individual xususiyatlarga mos kelishi

Har bir bola o`zicha o`sadi va rivojlanadi, uning o`ziga xos mijozi, qabul qilish usuli va o`z oilasi bor.Bu individual farqlar bolalar bilan kattalar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarda hisobga olinishi kerak. Bolaga uning rivojlanish darajasidan murakkabroq, biroq bajarsa bo`ladigan vazifa berilsa, u ijobiy “quvvat”oladi va unda izlanishni davom ettirish, tajriba o`tkazish, tekshirish istagi paydo bo`ladi. Agar haddan ziyod murakkab yoki haddan ziyod sodda vazifa berilsa,bolada qiziqish yo`qoladi, zerikadi

O`yin orqali individuallashtirish

- Kichik yoshdagi bolalar uchun tuzilgan dasturlarning markazida o`yin yotadi;
- O`yinlar kichik bolalar hayotining muhim qismi hisoblanadi
- O`yin va rivojlanish bir-birining qo`lidan yetaklaydi;
- “Bolaga mo`ljallangan dastur” bolalar o`yinini rag`batlantiradi, qo`llab-quvvatlaydi

Har bir bola:

- O`sishining individual xususiyati;
- Faollikka individual moyilligi;
- O`z oilaviy ahvoliga ko`ra
- O`ziga xos deb hisoblanadi

Individuallashtirilgan ta`lim ishonch va amaliyot asosida quriladi

- Ikkita bir xil bola bo'lmaydi;
- Bolalar o'z tajribalari, munosabati, ko'nikmasi va o'quv turlariga olib kiradilar;
- O'qituvchilar va tarbiyachilar individual farqlarga sezgirlik bilan munosabatda bo'ladilar.

Test savollari

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati?

- A. Mehnat
- B. Sayr
- *C. O'yin
- D O'qish

2. Bolaga yo'naltirilgan ta'limning asosiy maqsadi?

- A. Har bola uchun qulay sharoitlarni yaratish;
- B.Bolaning ehtiyojiga ko'ra, tegishli mashg'ulotlarni rejalashtirish va faollik markazlarini tashkil etib, bolalarga tanlash imkonini berish;
- C.Oilaning ishtirokini ta'minlash.
- *D.Barchasi

3.3.4- mavzu: Gurux xonasida bolalar uchun rivojlantiruvchi muhit yaratish

(2soat amaliy)

Maqsad: “Bolaga mo'ljallangan dastur” asosida guruh xonasida bolalarning har tomonlama kamol topishi, erkin harakatlanishi, mustaqil fikrlashi uchun shart-sharoit yaratish. Guruh xonasida o'nta markazni joy-joyiga qo'yishning dolzarbligi. Markazlarning nomlanishi, belgilari. Markazlarga qo'yiladigan jihozlar haqida tinglovchilarda tushuncha hosil qilish.

Kutiladigan natija: Tinglovchilar 10 ta markazning qanday joylashtirilishi, markazlarning belgilari, nimalar qo'yilishi to'g'risida tushunchaga ega bo'ladilar.

Jihoz: Kompyuter, proyektor, flipchart qog'ozlar, markerlar, skotch, markazlar nomi yozilgan qog'oz varaqlari.

Dars metodi: “Aqliy hujum”, “Kichik ma'ruza”

Reja:

- 1.Rivojlantiruvchi muhit yaratishning o'ziga xos xususiyatlari.
- 2.Faollik markazlarini guruh xonasida joylashtirish va materiallar bilan to'ldirish.
3. Markazlarning belgilarini tuzatish.

Darsning borishi:

- I. Aqliy hujum. Rivojlantiruvchi muhit deganda nimani tushunasiz? Har qaysi tinglovchi qog'oz varag'iga 3ta fikr yozib doskada “g'oyalar tog'i” hosil qiladi . Fikrlar tahlil qilinadi,.Xulosalanadi.
- II. Kichik ma'ruza.

“Bolaga mo'ljallangan dastur” asosida maktabgacha ta'lim muassasasi muhitida bolalarning aqliy, nutq va muloqatchanlik, ijtimoiy hissiy hamda jismoniy motor rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta'minlash juda muhimdir. Bolaning rivojlanishiga sharoit nafaqat guruh xonalarida, balki muassasa hovlusida, yo'laklarda, o'yin maydonchalarida ham yaratilgan bo'lishi shart.

Xona, bino- bu bolaning rivojlanishi uchun muhim bo'lgan ichki omillardir, o'yun maydonchalari, muassasaning atrofi esa tashqi omillar bo'lib xizmat qiladi.

Guruhdagi barcha materiallar va jihozlar sohalar bo'yicha joy-joyiga qo'yiladi. Bu bolalar o'yinlari va ishlarining yanada qulay uyushtirilishiga yordam beradi. Bu sohalar o'yin markazlari deb nomlanadi. Har bir guruhda quyidagi markazlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

III . Slayd namoyish qilinadi

- San'at
- Qurilish
- Pazandalik
- Sahnalashtirish
- Adabiyot
- Matematika|manipulyativ o'yinlar
- Musiqa
- Ochiq maydoncha
- Qum va suv
- Tabiatshunoslik

San'at markazi

Bu markaz bolalarning o'z ijod qobiliyatlarini sinovdan o'tkazish va amalga oshirishga rag'batlantiradi, ularga yangi materiallar bilan tanishishdan qoniqish imkoniyatini beradi, bolalarning sezish qobiliyatini boyitadi. Bu yerda bo'yoq, qog'oz, qaychi, bo'rchalar, qalamlar, gazlama bo'laklari va kesish hamda yelimlash uchun barcha qiyqimlar mavjud bo'lishi kerak. Shuningdek, tabiat materiallari- daraxt, barg, qum, tuproqni ham qo'shib qo'yish foydadan holi emas. Ushbu markazdagi mashg'ulotlar ijodiy qobiliyat, so'z orqali va so'zsiz muloqat, umumiy va nozik harakatlanish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qurilish markazi

Bu markazda turli hajm va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo'lib, bolalar ulardan fantastik va hayotiy inshootlar bunyod etadilar: misol uchun uylar, butun boshli bir shaxarchalar, ferma va hayvonot bog'lari. Qurilish bilan mashg'ul bo'lgan bolalar bu yerda juda ko'p narsalarni o'zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni hosil qilishlariga yordamlashadi, muammolarni hal etish tajribasini beradi. Shuningdek, ijodiy yondashishni namoyish etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o'rgatadi.

Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar istak-xohishi bilan ko'plab turli narsalarni-o'yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, odamlar va hayvonlarning shaklchalari, samolyotlar, gazlama bo'laklarini qo'yish mumkin.

Pazandalik markazi

Pazandalik markazi bolalarni ayrim narsalarning xossalarini tekshirish, yangi ovqatlarni tatib ko'rish, shu jumladan, ularni o'zlari tayyorlashlari, yangi matematik tushunchalar, masalan, o'lchov tushunchasi bilan tanishish imkonini beradi. Birgalikdagi pazandalik mashg'ulotlari o'zaro munosabat, boshqalar bilan fikr almashishni o'rgatadi, sherik bo'lib ishlash imkoniyatini beradi. Ushbu markazda ko'plab tushunchalarni o'zlashtirish mumkin. Tarbiyachilar bolalar bilan ranglar, sonlar, shakllar to'g'risida, ovqatlanish, tabiatshunoslik haqida fikrlashib olishlari mumkin. Pazandalik bolalarga jonli hayotiy tajribalarni beradi.

Dramalashtirish markazi

Dramalashtirish markazida bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik sahna ko'rinishlarini o'ynashga xohish – istak uyg'otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo'lishi zarur; bu narsa ularda atrofda nimalar sodir bo'layotganini ajratib olishlari hamda o'z o'rinlarini tushunib etishishlariga yordam beradi. Markazdagi narsalarni tarbiyachilar tanlaydilar. Ular bu narsalarni bir haftaga "kir yuvish" o'yini uchun, uchinchi haftaga hayvonlarga qarshi o'yini uchun rekvizit sifatida taklif etishlari mumkin. Rekvizitlar bolalarning qiziqishlari asosida tanlanadi.

Adabiyot markazi.

Adabiyot markazida kitoblar va eshitish hamda yozish uchun o'quv qurollari mavjud bo'ladi. Bu tinch burchak bo'lib, unda bolalar kitoblarni qarab chiqishlari, bir-birlariga o'qib berishlari mumkin, shuningdek, bu yerda tarbiyachi yoki ko'ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o'qib berishi mumkin.

Bolalarga kitobchalarni o'z qo'llari bilan yasash, mavzu (sujet)larni o'ylash va o'ynash, hikoyalar eshitish taklif etiladi.

Matematika/manipulyativ o'yinlar

Matematika/manipulyativ o'yinlar markazida boshqotirma va konstruktor kabi bolalar yig'ishi va sochib tashlashi mumkin bo'lgan narsalar bo'lishi lozim. Bu yerda, shuningdek, bolalarning bir xilda taqqoslashlari, turlicha tasniflashlari, sanashlari uchun yordam beradigan o'yinlar ham bo'lishi kerak. Bu ham nutqni o'stirishga yordam beradi. Bunday mashg'ulotlar ham aqliy qobiliyatni o'stiradi, ham nozik harakatlanishni rivojlantiradi, ham o'zini boshqarishni o'rgatadi. Materiallar bilan o'rtoqlashish, kelishish va muammolarni hal etish zarurati ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanishiga olib keladi.

Musiqqa markazi.

Musiqadan butun kun davomida mashg'ulotlarni birlashtirish uchun foydalanish mumkin. Kuylash, harakatlar, qarsak chalish, o'yinlar, musiqqa asboblarini chalish va yozilgan kuy-qo'shiqlarni tinglash har qanday dasturni yaxshigina to'ldiradi. Musiqaviy mashg'ulotlar zehnni charxlaydi, ritmga sanashga o'rgatadi va nutqni rivojlantiradi; umumiy va nozik harakatlanishni (motorikani) mustahkamlaydi va ijodiy qobiliyatni namoyish etishga imkon beradi.

Ochiq maydoncha

Ochiq maydoncha - bu guruh xonasiga muhim qo'shimchadir; ochiq havoda o'tkaziladigan mashg'ulotlar bino ichida o'tkaziladigan mashg'ulotlarga nisbatan har tomonlama puxtarok rejalashtirilishi lozim.

Sayr qilish - kun tartibining tarkibiy qismidir. Bino ichida nimani o'rgatish va o'rganish mumkin bo'lsa, ko'chada ham bu ishni amalga oshirish mumkin. Bunda bolalar ijtimoiy ko'nikmalar, tabiatga hurmat va u haqdagi bilimlar, matematik ko'nikmalarni olishlari mumkin. Bundan tashqari sayr qilish paytida bolalar umumiy va nozik harakatlanishdan (motorikadan) yanada faolroq foydalanadilar. Ijodiy qobiliyat dramatik o'yinlar va guruh mashg'ulotlari hisobiga o'sadi, rivojlanadi. Ko'chada bolalar biror g'ayrioddiy ish: ovqatlanish, ovqat tayyorlash, gullar o'stirish, bo'yoqlar bilan chizish va yozish, teatrlashtirilgan sahna asarlarini qo'yishlari, qor, loy va ko'lماك joyda o'ynashlari mumkin. Tumandagi bozor yoki o't o'chirish stansiyasiga sayohat bolalarning hayotiy tajribasini boyitadi. Bolalarga ularni o'rab turgan olam va unda o'zining o'rini topishda chegarasiz imkoniyatlar beradi.

Qum va suv markazi.

Qum va suv markazi - bu guruhdagi maxsus stol yoki hovlida tashkil etilgan tuproq uyumidir, bu narsa bolalarga bilim orttirishga mo'ljallangan o'yinlar uchun, sezish organlaridan foydalanish uchun ajoyib imkoniyatlar beradi. Bolalar ushbu tabiat materiallarini o'rganish davomida ijod qiladilar, fikrlaydilar, o'zaro o'rtoqlashadilar. Ular umumiy va nozik harakatlarni mustahkamlaydilar. Bunda xokandozcha, to'rli suzgich, qadoqchalar va chelakchalar bo'lishi lozim. Shunday qilib matematik va tabiiy-ilmiy tushunchalar shakllanadi, ijodiy fikrlash rag'batlantiriladi.

Tabiatshunoslik markazi.

Tabiatshunoslik markazidan bolalarning tabiat hodisalari va ko'chada topilgan narsalar bilan mashg'ul bo'lishlari uchun foydalaniladi. Tarbiyachi guruhda bu kichik "xazina"ni namoyish etish va tekshirish uchun maxsus joy ajratishi mumkin. Ushbu markaz o'z qiyofasini bolalarning qiziqishlari, yil fasllari va dastur bo'limlari mavzularning o'zgarishiga qarab o'zgartiradi. Natijada bolalarni magnitlar, suv, yer tortishish kuchi kabi fizik tushunchalar bilan amaliy tanishtirish mumkin.

Bolalar sayr qilish paytida o'simliklar, daraxtlar va hayvonlarni kuzatgan holda tabiatshunoslik fani asoslarini tushunib yetadilar, atrof-muhitni o'rganadilar. Tarbiyachi bu jarayonni boshqarishi va qo'llab-quvvatlashi zarur. Bir markazdagi materiallar boshqa markazda foydalanishi mumkin. Masalan, bolalar o'yinlar stolidagi hayvonlarning shakllarini agar ular qurilish markazida hayvonot bog'i qurgan bo'lsalar u yerga olib o'tishlari mumkin. Tarbiyachilar bolalar qanday rivojlanayotganligi, bilimlarni qanday egallaganligi hamda ular qiziqishlari o'zgarayotganligiga qarab materiallarni almashtiradilar. Qo'shimcha faoliyat turlarini navbat bo'yicha yoki agar binoda imkoniyat bo'lsa, asosiy markazlarga qo'shimcha qilib kiritish mumkin. Bular yog'ochda ishlash, joriy mavzu bilan yoki maxsus voqea bilan bog'liq mashg'ulot bo'lishi mumkin.

IV. Qog'oz varag'iga 10 ta markaz nomi yoziladi va o'quv xonasining har joyiga qo'yiladi. Har bir markazda qo'yiladigan harsalar alohida-alohida kichik qog'oz varaqlariga yoziladi. Tinglovchilar 10 ta guruhga ajratiladi. Har guruhga bir markaz belgilanadi. Har markaz ishtirokchilari qaysi narsalar qaysi markazga tegishli ekanligini aniqlaydi va shu markaz yozilgan joyga qo'yadi.

Test savollari

1. Kichik guruhda kitob burchagini tashkil qilishda qanday adabiyotlardan foydalaniladi?

- A. Badiiy.
- * B. Rasmi.
- C. Ertaklar.
- D. She'rlar.

2. Tubandagi fikrlardan qaysi biri to'g'ri?

- A. Qurilish markazida har xil boshqotirmalar, geometrik shakllar qo'yiladi
- B. Dramalashtirish markazida kitoblar qo'yiladi
- C. Tabiatshunoslik markazida qum, suv, to'g'ri suzgich, chelakchalar qo'yiladi.
- * D. Adabiyot markazida kitoblar, predmetli va mazmunli rasmlar, bosma harflar qo'yiladi.

3. "Bolaga mo'ljallangan" dastur asosida guruh xonasida nechta markaz tashkil qilinadi?

- A. 11 ta
- * B. 10 ta
- C. 8 ta
- D. 9 ta

4. Tubandagi fikrlardan qaysi biri noto'g'ri?

- * A. San'at markaziga kostyumlar, niqoblar qo'yiladi.
- B. Adabiyot markaziga kitoblar, mazmunli rasmlar, buyuk siymolarning portretlari qo'yiladi?
- C. Matematika markaziga boshqotirmalar, didaktik o'yinlar, geometrik shakllar, sanash, kattaligini aniqlashga qaratilgan tarqatma materiallar qo'yiladi.
- D. Qurilish markaziga turli hajm va shakldagi yog'och bo'laklari qo'yiladi.

5. Tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg'ulotida davlat ramzlaridan bayroq bilan tanishtirmoqchisiz. Bu mashg'ulot qaysi markazda tashkil qilinadi?

- A. Tabiatshunoslik
- B. Dramalashtirish
- * C. Adabiyot
- D. Matematika

6. Tubandagi fikrlardan qaysi biri to'g'ri?

- A. Qurilish markazida har xil boshqotirmalar, geometrik shakllar qo'yiladi
- B. Dramalashtirish markazida kitoblar qo'yiladi
- C. Tabiatshunoslik markazida qum, suv, to'g'ri suzgich, chelakchalar qo'yiladi.
- * D. Dramalashtirish markazida niqoblar, kostyumlar, ertak personajlari.

7. Qaysi biri adabiyot markazining belgisi?

- A. Kartondan ishlangan qalam ko'rinishi
- * B. Kitob ko'rinishi

C. Qor, yomg'irning ko'rinishi

D. Kartondan ishlangan doira, uchburchak, kvadrat ko'rinishi.

3.3.5. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirishda M. Montessoriy pedagogikasidan foydalanish. (2 soat amaliy)

Maqsad: Bolalarning qo'l va barmoq muskullarini rivojlantirish usullari. M. Montessoriy pedagogikasi asosida o'yinlar yaratish, ko'rgazma, tarqatma materiallar tayyorlash. Bolalarning mayda qo'l motorikasini, barmoq muskullarini rivojlantirishga, mustaqil fikrlashga, erkin harakat qilishga qaratilgan ta'limiy o'yinlardan, topshiriqlardan mashg'ulotlarda foydalanish. O'yin materiallarini tayyorlashni mashq qilish

Kutiladigan natija:

Tinglovchilar bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish yo'l-yo'riqlarini, barmoq muskullarini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar tayyorlashni o'rganib oladilar.

Reja:

4. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida mayda qo'l motorikasini rivojlantirish.
5. Matematika mashg'ulotlari uchun o'yin materiallarini tayyorlash
6. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari uchun o'yin materiallari tayyorlash

Jihoz:

Karton, rangli qog'oz, yelim, qaychi, marker, skotch.

• Darsning borishi:

I. Tinglovchilarga "Qaysi mashg'ulotlarda bolalarning mayda qo'l motorikasi rivojlantiriladi" savoli tashlanadi. Javoblar tahlil qilinadi.

II. 1, 2, 3 deb sanashlariga qarab tinglovchilar 3 ta guruhga ajratiladi. Topshiriq.

- Jismoniy tarbiya bo'yicha "Bolajon" dasturida mayda qo'l motorikasini rivojlantirish
- Tabiat bilan tanishtirish bo'yicha mayda qo'l motorikasini rivojlantirish
- Matematika bo'yicha mayda qo'l motorikasini rivojlantirish masalasini amaliy topshiriqlar orqali tushuntirib beradi.

III. Mayda qo'l motorikasini rivojlantirishga qaratilgan didaktik o'yin materiallari namoyishi o'tkaziladi.

1.Tubandagi o'yinlardan qaysi biri ilk yoshli guruhda o'ynatilmaydi?

A. "Munchoqlarni tizish"

B. "Jo'jachani yashiramiz"

C. "Juftini top"

*D. "Bo'sh katakni to'ldir"

2.O'yinning qaysi turi bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi?

A. Qoidali –harakatli o'yin. * B.Didaktik o'yin.

C. Dramalashtirilgan o'yinlar. D. Voqeaband ijroli o'yinlar.

3"munchoq tizish" o'yinini qaysi guruhda qo'yish kerak?

A.kichik guruhda

B.o'rta guruhda

C.katta guruhda

*D.ilk yoshli guruhda

4. 8-10 ta qismlardan pazllar yasash vazifasini necha yoshli bolalar bajarishi kerak

*A.5-6 yosh

B.6-7 yosh

C.4-5yosh

D.3-4 yosh

5. Badiy adabiyot mashg'ulotida M. Montessoriy pedagogikasidan foydalanish uchun tarbiyachi ertak asosida ishlangan rasimli kartochkani 6-7 qirqimga ajratgan. Bolalarga o'z o'rnini topib qo'yish topshirig'ini bajartirdi. Bu topshiriqni qaysi guruhda bajartirsa bo'ladi?

- A. Kichik guruh
- *B. O'rta guruh
- C. Maktabga tayyorlov guruh
- D. Katta guruh

6. Qaysi uslublar yordamida bola hayotga tayyorlanadi, mustaqillik, tobelikdan chiqish tarbiyalanadi?

- A. bolalar organizmini sog'lomlashtirishning noan'aviy uslubi
- B. kashfiyot masalasining yechim nazaryasi uslubi
- C. Valdov uslubi
- *D. M. Montessori uslubi

7. Tarbiyachi ta'lim-tarbiyaviy ishlarni M. Montessori uslubida tashkil qilish uchun nima qilishi kerak ?

- A. jurnallar o'qishi kerak
- *B. rivojlantiruvchi muhit va oz-ozini nazorat qiluvchi materiallar yaratishi kerak.
- C. Sog'lomtiruvchi mashqlar to'plamini yaratish kerak
- D. Ertak personajlarining kiyimlari




8 "Meni o'zim bajarishim uchun yordam ber" shiori asosida bolalarni tarbiyalagan pedagog.

- A. R. Shtayner
- B. M. Rasulova
- *C. M. Montessori
- D. Valdov

9. M. Montessori pedagogikasining asosiy maqsadi bolalarni qaysi tomonlama rivojlantirishga qaratilgan?

- A. estetik ruhda tarbiyalashga
- B. axloqiy ruhda tarbiyalashga
- *C. aqliy imkoniyatlarni rivojlantirishga
- D. jismonan rivojlantirishga

10. "Kvadrat tuz" o'yinida quyidagi KO'RINISHLARDAN qaysi biri maktabga tayyorlov guruhi bolalariga mos keladi?

- A. 
- B. 
- C. 
- *D. 

11. M. Montessori pedagogikasidagi xatolik tomoni nimadan iborat?

- A. fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmaganligi
- B. erkin xarakat qilishga o'rgatish ta'minlanmaganligi
- *C. nutq faoliyati bilan bog'lanmaganligi
- D. sezgi organlarini rivojlantirishga qaratilmaganligi

3.4. Tanlov mavzulari

3.4.1 MTM da "Hayot xafvsizligi asoslari" dasturini amalga oshirish (2 soat amaliy)

Maqsad: Bolalarning sog'ligi va jismoniy rivojlanishiga putur yetkazmaslik yo'llari. Guruh honasining toza va yorug' bo'lishini ta'minlash. Ovqatlantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish. Mashg'ulotda foydalaniladigan ko'rgazma va tarqatma materiallarning bolaga shikast

yetkazmasligini ta'minlash. Bolalarni ertalab olib kelish va olib ketishni faqat ota-ona zimmasiga yuklash.

Kutiladigan natija: Tinglovchilar maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'ligini muhofaza qilish, ko'rkazma va tarqatma materiallarni bolalarga zarar yetkazmaydigan qilib tayyorlashni o'rganib oladilar

Reja:

1. Jismoniy rivojlanish bo'yicha bolalar hayoti xavfsizligini ta'minlash
2. Guruh xonasida bolalar hayoti xavfsizligini ta'minlash choralari
3. Ko'rkazma va tarqatma materiallarga qo'yiladigan talablar

Jihoz: Matnlar yozilgan tarqatmalar, rasmi kartochkalar, talab darajasidagi va talabga javob bermaydigan jihozlar.

Test savollari

1. Quyidagi hayot xavfsizligi ko'rinishlaridan qaysi biri DT da 2-3 yoshli bolalar uchun ko'rsatilgan?

- * A. Agar bola chapaqay bo'lsa, uni o'ng qo'lda faoliyat yurgizishga majburlamaslik
- B. Qaychilarning uchi to'mtoq bo'lishi kerak
- C. Bola xohlamaganda yozish va o'qishga majbur qilmaslik
- D. Bolalar jamasida bolani noqulay vaziyatga tushirmaslik

2. Tubandagilardan qaysi biri DTda 3-6 oylik bolalar uchun hayot xavfsizligi ustuniga tegishli emas?

- A. Bolani notanish insonlar bilan muloqatga kirishishiga yo'l qo'ymaslik
- B. Bola bilan jamoat joylariga, shovqin joylarga bormaslik.
- C. Bolani turli vahimalar ya'ni ola-bo'ji, bobov keldi deb qo'rqitmaslik

**3. 4. 2 Ota-onalar yig'ilishini o'tkazish va bayonnomasini yozish
(2 soat amaliy)**

Maqsad: Har chorakda guruh ota-onalar yig'ilishini o'tkazish. Yig'ilishga bolalarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan muhim masalalarni tanlash. Yig'ilishni trening usulida o'tkazish. Yig'ilish bayonnomasini bugungi kun talablari darajasida yozishni mashq qilish.

Kutiladigan natija: Tinglovchilar bugungi kun talabi darajasida guruh ota-onalar yig'ilishini o'tkazishni va shu asosda bayonnoma yozishni o'rganib oladilar.

Reja:

1. Guruh ota-onalar yig'ilishini o'tkazishga qo'yiladigan talablar
2. Yig'lishda olinadigan masalalar
3. Yig'lish bayonnomasini yozishni mashq qilish

Jihoz: Proyektor, marker, slayd, tarqatma.

Darsning borishi:

- J. Tinglovchilar qog'oz varag'iga guruh ota-onalar yig'ilishida olinadigan 3ta masalani yozish topshirig'ini bajaradilar. Javoblardan doskada g'oyalar tog'i hosil qilinadi. O'qituvchi javoblarni tahlil qiladi. Guruh ota-onalar yig'ilishida bolalar rivojlanishi bilan bog'liq dolzarb masalalar olinishi ta'kidlanadi.

II. Yig'ilish bayonnomasi yozilgan namuna namoyish qilinadi:

Guruh ota-onalar yig'ilishi byonnomasini yozish bo'yicha namuna

.....(tuman, shahar)- MTM katta
guruhida o'tkazilgan guruh ota-onalar
yig'ilishining

B A Y O N N O M A S I № 2

14 noyabr

Urganch tumani

Qatnashdilar:

1. Otajonova Muyassar – guruh tarbiyachisi
2. Hasanova Shahnoza – mudira
3. Ota-onalar 17 nafar

Kun tartibi

1. Ota-onalarning farzand tarbiyasiga e'tiborini aniqlash.
 2. Xonadonda farzand uchun burchak yoki alohida xona tashkil etish.
 3. Ota-onalarning guruh xonasiga yordamini aniqlash.
 4. Har xil masalalar
 - I. Birinchi masala bo'yicha tarbiyachi Otajonova Muyassar ota-onalarga anketa savollari yozilgan qog'ozlarini tarqatdi. Anketa qog'ozida quyidagi savollar yozilgan.
- Farzandingiz necha ertakni aytib bera oladi? Ular qaysilar?

-
- Qaysi tovushlarni talaffuz qilishda qiynaladi? _____
 - 8 ichida sanashni biladimi? _____
 - Ovozni va harakatni sanab biladimi? _____
 - Teskari sanab biladimi? _____
 - Narsalarning o'ziga nisbatan joylashuvini biladimi? _____
 - Nechta rangni biladi? _____
 - Qaysi shakllarni biladi? _____
 - Uy va yavvoyi hayvonlarni ajrata oladimi? _____
 - Qaysi shahar yoki qishloqda yashashini biladimi? _____
 - Ko'chasining nomini biladimi? _____
 - Topishmoq aytsa topib biladimi? _____
 - Qaysi o'yinlarni o'ynatasiz? _____
 - Oilada ko'proq kimni yaxshi ko'radi? _____

Ota-onalar to'ldirib bo'lganlaridan keyin anketa qog'ozlarini yig'ib oldi.

II. Ikkinchi masala bo'yicha ota-onalarning qizil, sariq, yashilrangdagi gullarni tanlashiga qarab uch guruhga ajratdi. Guruhlarga xonadonda farzand uchun qanday qilib burchak yoki alohida xona tashkil qilish topshirig'ini berdi. Guruhlar plakatda tasviriy illustratsiyalar orqali topshiriqni ifoda etdilar. Har qaysi guruhdan bitta sardor chiqib taqdimod qilar. "Qizil gullar" guruhidan Sa'dullayeva Nilufar burchakda mashinalar, to'plar, qo'g'irchoqlar, ertak kitoblar, sakragich, yumshoq o'yinchoqlar bo'lishligini tushuntirdi. "Sariq gullar" guruhidan Nurmetova Salomat o'z taqdimotida farzand uchun burchakda daftar, ruchka, kitoblar, o'yinchoqlar, sanash uchun mayda o'yinchoqlar, rasmiy kitoblar qo'yish lozimligini aytdi. "Yashil gullar" guruhidan Avezova Karomat o'z taqdimotida burchakda harflar, kitoblar, daftarlar, ruchkalar, bo'yoqlar, rangli qalamlar, mashinalar, o'yinchoqlar bo'lishligini ta'kidladi. Oxirida tarbiyachi burchakda qo'yilishi lozim bo'lgan narsalarni, bolalar yoshini nazarda tutgan holda o'yinchoqlar, ta'limiy o'yinlar nomlarini aytdi.

III. Uchunchi masala bo'yicha tarbiyachi guruh xonasini jihozlash, mashg'ulotga kerakli jihozlarni tayyorlashda ota-onalardan imkon darajasida yordam berishlarini so'radi. Duskaga olib kelishi mumkin bo'lgan narsalarning nomi yozilgan plakatni ilib qo'ydi. Plakatda tubandagi narsalar yozilgan.

- karton qutilar;
- bir tomoni yozilgan oq qog'ozlar;
- shaftoli danaklari;
- baklashka qopqoqlari;
- rangli kartondan qirtilgan geometrik shakllar;
- hayvonlar, mevalar, sabzavot, qushlar, hashorotlar tasvirlangan kartochkalar;
- 15x20 o'lchamdagi plasmassadan tayyorlangan kartochkalar (qirralari tekislangan, teshikchalar o'tkazilgan)

Tarbiyachi ota-onalarga qog'oz varaqlarini tarqatdi va yozilgan narsalardan imkon darajasida olib kelib bilishi mumkin bo'lgan narsalarning nomlarini yozishni taklif qildi. Ota-onalar yozdilar. Yozilgan qog'ozlar xalqa ko'rinishida uchlarini birlashtirib barchasini bir-biriga ulab zanjir holiga keltirdi. So'ngra ota-onalar burchagiga ilib qo'ydi va narsalarni olib kelganlaridan keyin qog'ozlari uzib tashlanishini ta'kidladi.

Yig'ilish qaror qiladi:

1. Barcha ota-onalarning farzand tarbiyasiga e'tibori kuchaytirilsin.
2. Bolalar uylarida burchakni to'g'ri tashkil qilinishiga erishilsin.
3. Guruh xonasida markazlar va mashg'ulotlar uchun jihozlar ko'paytirilsin.

Guruh tarbiyachisi:

Otajonova Muyassar

Test savollari

1. Guruh ota-onalar yig'ilishini qanday ko'rinishda o'tkazish maqsadga muvofiq.

- A. Ma'ruza o'qish
- *B. Trening o'tkazish, krasvord yechish, anketa savollarini to'ldirish.
- C. Krasvord yechish
- D. Anketa savollarini to'ldirish.

2. Guruh ota-onalari yig'ilishi qachon o'tkaziladi.

- A. oyda bir marta
- B. 1 yilda ikki marta
- C. 2 oyda bir marta
- *D. Har chorakda bir marta